


Mirzakalon ISMOILY



Oizlar

DAFTARGA

12+

84
I-81

Mirzakalon
ISMOILY

INSON HUSNI



UO'K: 821.512.133-3

KBK 84(5O')6

I 81

Qayta nashrga tayyorlovchi muallif

TOHIR MALIK

Kalqimiz ma'naviyati ustunlaridan biri, ardoqli adib Mirzakalon Ismoiliyning qo'lingizdag'i kitobda qalamga olingen qizlarning o'y-kechinmalari, entikishlari, hazil-mutoyiba qilishlari, chug'urlashlari, o'z o'mnida xafa bo'lishi-yu, nafratlanishlari tabiiy va samimiyyidir. Saodat buvi ham ularni yaqin oladi, ba'zan tengdoshday suhbatlashgan bo'ladi. Qizlarning munozaralarda faol qatnashishi-chi?

Asarda yor tanlash va oilaviy hayot borasida xususiy hodisalar orqali turmushda ko'p uchraydigan masalalarga e'tibor qaratilgan. Bu voqealar o'ylab topilgan emas. Balki hayotda sodir bo'lib, keyin yozuvchi qalamida badiiy sayqaliga yetgan. O'ylaymizki, bu kitob qalbingizda chuqur iz qoldiradi.

2559/2

30100072 Aky

ISBN 978-9943-5705-2-8

© Mirzakalon Ismoiliy, 2019.

© «Ziyo nashro MCH», 2019.

INSON HUSNI

QIZLAR DAFTARIGA

O'n bir oqshom hikoyati



BIRINCHI OQSHOM HIKOYATI

Qari bilganni pari bilmas.
Xalq maqoli

Mart dovonidan oshar-oshmas bodomlar, o'riklar, shaftolilar: keyinroq olmalar qiyg'os gullab, ko'z oldingizga oq, pushti pardalar tortadi. Qayoqqa qaramang, gul, gul yana gul! G'uv-g'uvla-shib uchgan asalarilar simfoniyasini aytmaysizmi! Bu ilk bahor taronasi qulqlaringizga uyg'ongan hayot alyori bo'lib kirsa, bog'-u rog'lardan gupullab urib turgan xushbo'ylar dimog'ingizni olqaydi. Dunyo bir butun gul-u, siz o'zingizni shu gulning bir yaproqchasi bilib, quvonasiz.

Bahor tabiati xandon urib kulib turgan ana shunday dilrabo kunlarning birida tomi tunuka bilan yopilib, derazalariga harir pardalar tortilgan bir qavatli xushbichim hovlining ko'cha eshigini kimdir qoqdi. Hovlida keksa ayollarga yarashgan mayda gulli chit ko'ylak ustidan silon nimcha kiyib olgan bo'ylari uzun, durra ostidaga sochlari oppoq bir ayol allanimalar qilib yurar edi. U darrov borib eshikni ochdi.

– E-e, xayriyat, uyda ekansiz, bonu, – dedi oq soqoli chiroyli qilib tarashlangan bir qariya.

Eshikni ochgan ayol birdan charaqlab ketdi.

– Voy, To'qsonboy ota, sizmisiz? Xush kelibdilar. Qani, ichkariga.

To'qsonboy ota joyidan jilmadi.

– Qulluq. Bir savob ishni deb sizni bezovta qilyapman-da, bonu. Aslida-ku, o'zim bir nima qilib yuborsam ham bo'lardi-ya, lekin sizning yo'rig'ingiz boshqa. Ha, Saodat bonu, birga borib bir yoqlik qilib kelmasak bo'lmaydi. Ha, shunday bo'lsin, yuring.

Saodat buvi o'zining egni-boshiga ishora qilib:

– Voy, shu ahvolda-ya? – dedi.

Chol miyig‘ida kulib qo‘ydi.

– Ro‘molingizni o‘rab chiqing bo‘lmasa.

Saodat buvi darrov kirib keta qolmadi. To‘qsonboy ota qanaqa ishga taklif qilayotganidan bexabar edi. Shuni so‘radi:

– Sizni shunchalar qistalangiga olgan ish qanaqa ish ekan, bilsak bo‘ladimi, To‘qsonboy ota?

To‘qsonboy ota xijolatda qolgan odamday g‘alati bo‘lib ketdi.

– Iya, hali aytganim yo‘qmi? Qarang, qarilik-da. Xayr, xo‘-o’, Matyunus usta bor-ku, narigi mahallada...

– Ha, yaqinda o‘g‘lini uylantirganmi?

– Ha-a, kam bo‘lmang! Ana shu kambag‘alning kelini keta-man dardiga uchrab qopti.

– Voy, darrov-a?

E-e, bonu-ya, qanoatni bilmagan nodonlarga darrov-parrovi bormi! Xullas, ana shu betavfiqni insofga chaqirib qo‘ymasak, Matyunusga juda jabr bo‘pti. Bir yoqda xotini, bir yoqda o‘zi – o‘tda hozir. O‘g‘illari komandirovkada ekan. Qarang, bu noinsof qizni! Eri xizmat bilan safarda bo‘lsa-yu, bu uyidan ketvorsa, uyat bo‘lmaydimi?!

– Uyat ham gapmi, – dedi Saodat buvi siqilib...

To‘qsonboy ota umid bilan qora tortib kelgan bu mo‘tabar ayol ikki o‘g‘il-u uch qiz – besh farzandning onasi. Nevaralarining esa, hisobi yo‘qdek. Uni o‘g‘il-qizlarigina emas, qarindosh-urug‘lari, mahalla-ko‘y qariyalari ham jon-dillaridan hurmat qilishadi. Bu tabarruk zot bilan gaplashsangiz, ajoyib roman yo doston o‘qigan kishi huzurini qilasiz. Fikrlari chuqur, mulohazalari o‘tkir, hayot tajribalari bir olam. Aql sandig‘imi, deysiz. Ham eski dunyo-ning jabr-u jasosini ko‘rganlar, ham yangi zamonning nash’-u namosini tottiganlar. Suhbatlari bo‘lib, qaysi zamon zaylidan yo yaxshi-yomon maylidan gap ochsangiz, tavba, xuddi ~~shu oshgan sohuning odamidek~~, dono gaplari bilan og‘zingizni oshirib qo‘yadilar. Biror «Voy, muncha aql, muncha tadbirni qayordan biladilar ab». deb yoqasini ushlasa, boshqa birov: «Yu‘q, olimberning gapini yodlab olib gapiradi. O‘zidan munaqa gap chiqishiga aqsim yetmaydi», deydi. Shunaqa! Lekin dono

bo‘lish uchun, albatta, fan doktori bo‘lish shartmikan? Axir, birov o‘qib olim bo‘lsa, birov uqib, hayot tajribasini boshidan o‘tkazib olim bo‘ladi. Ana shunaqlardan biri Saodat buvining o‘zi bo‘lsa ne ajab? Mundog‘ o‘ylab qaraganda, beshta bolaning oshini pishirish, kirini yuvish, kasalini boqish, mакtabga berib o‘qitish, uyli-joyli qilish, shirin-shakar nevaralarga qarash, ularni bog‘chalariga yetaklab yo ko‘tarib borish, kechqurunlari yana shu taxlitda olib kelish, ovutish o‘z yo‘lida dorilfunun bo‘lma-dimikan Saodat buviga? Eh-ha, urush vaqtining azob-u uqubatlarini aytmaysizmi? Bu jafokash ayolning umr yo‘ldoshi Sodiq aka faqat ovqat yeishdan, faqat ovqat so‘rashdan boshqasiga yaramaydigan beshta murg‘agining yuz-ko‘zidan cho‘lp-cho‘lp o‘pib hayot-mamot jangiga ketganda, Saodat buvi: «Bolalarim-ning otasi sog‘-salomat qaytadi, yana bolalarga o‘zi bosh bo‘-ladi», – deb umid qilgan, hatto ishongan ham edi. Lekin urush urushligini qildi. Moskva bo‘sag‘alarida lovullab ketgan qonli janglar olovida Sodiq aka ham ko‘kragini o‘qqa tutib, dushman yo‘lini to‘sishdi! Yovuz dushman oyog‘ini tegizdirmay quvgan-lar safida Sodiq aka ham bor edi. Ana shu ulug‘ jang maydonida Sodiq aka qurban bo‘ldi...

O, faxr-g‘ururidan, suyangan tog‘idan ayrilgan mushtipar ayol faryodini eshitgan bormikan? Lekin Saodat buvi ichidagi barcha dard-u alamlarni, dog‘-u hasratlarni yuvib ketadigan achchiq faryod bilan yig‘lamadi, yo‘q-yo‘q, yuzlarini timdalab, sochlarini yilib, o‘zini yerga ko‘tarib urib dod solmadi. Ichdan yonib, qu-yilib kelgan ko‘z yosolarini yutib yig‘lamadi. Judolikni yuragidan begona qilishni istamagan kishigina shunday yig‘larmish.

Baxtsizlik bir kelsa, yopirilib kelaveradi, deyishadi. Qarang, shuncha alam, shuncha qayg‘u yetmagandek, urush qahatchili-gining dog‘i oshib tushdi. Saodat buvi bolalarini to‘ydirolmay qiyinalardi. Ayniqsa, kichik o‘g‘li Sobirjon hech ovqatga to‘y-masdi. Kechalari non, non deb yig‘lab chiqardi. Yuragining bir parchasi ana shunday nola qilib tursa, ona sho‘rlikning ko‘-ziga uyqu kelarmidi? Yo‘q, uyqu emas, alam keladi, fig‘on keladi, yonadi, kuyadi, kechalari mijja qoqmay bolalari boshida o‘tirib chiqadi. Ana shunday og‘ir, bebag‘ir vaqtida ham o‘zini

boshi berk ko‘chada deb umidsizlanmadı. Yuragidagi umid o‘ti so‘nmadi. U ertangi kun shafqatiga, odamlar muruvvatiga ishonar edi. Yaxshi kunlarda o‘ynab-kulishni xohlagan odam yomon kunlarda qaddini bukmasligi kerak, derdi o‘ziga dalda berib. Shuning uchun ham, qaddi bukilmadi, hayotning eng og‘ir, eng shafqatsiz kunlarida ham zaminida mahkam turdi – yiqilmadi. Aksincha, qaddini tik tutib, o‘zini mehnatga urdi. Eri ishlagan zavodga bordi. U yerdagilar Saodat buvini qo‘llab-quvvatlashdi, ish o‘rgatishdi. Bir nimani bilishga jon-dili bilan berilgan odam sargardon bo‘lmas ekan. Tez kunda tokarlik dastgohini bir erkakcha uddalaydigan bo‘ldi. Epchilligi, uddaburonligi uni zavod jamoasida yaxshilar, balki a’lochilar qatoriga o‘tkazdi. Urush ham tugadi. Bolalari ham asta-sekin ulg‘ayib, qo‘ltig‘iga kira boshladi, og‘iri ancha yengil bo‘ldi.

Ming bor shukur, u qora kunlar orqada qoldi. Bolalari voyaga yetdi, uyli-joyli, uvali-juvali, xizmatli bo‘lishdi. O‘zi esa, keksayib, mehnat pensiyasiga chiqdi. Mana, besh yilki, Saodat buvi qarilik istirohatida. Yegani oldida, yemagani ketida. Katta o‘g‘li o‘qib olim bo‘ldi. Kechalari non-nonlab chiqadigan kichigi esa – injener. Qizlari kuyovda, ular ham oliv ma’lumotli, uch-to‘rttadan shirin-shakar o‘g‘il-qizlarning onalari. O‘zi-chi? E-e, o‘zini so‘ramang! Baxt degan narsa har qancha yaxshi bo‘lsa ham, ba’zan odamni charchatib qo‘yishi ortiqcha ekan. Bir kun qarabsiz, u qizi olib ketib qolibdi, bir kun qarabsiz, bu qizi. Qisqasi, yaxshi onaning peshanasida ne xil baxt bo‘lsa, hammasi Saodat buvida mo‘l-ko‘l. Lekin bunday baxtga yetish oson bo‘lmadi. Hayotning o‘nqir-cho‘nqir so‘qmoqlarida azobning ming xilini ko‘rdi. Shuning uchun ham, baxtini avaylaydi, ko‘zlarining qorachig‘ida asraydi. Odamda yosh bilan birga aql, idrok, hayot tajribasi orta borgan sari, rahm-shafqat, saxovat hissi ham baravariga kuchayaverar ekan. Ana shunday insonparvar keksalar bir narsani bilishsa, darrov boshqalarga o‘rgatgisi, ularni ham o‘zları singari oq-u qorani farq qiladigan yaxshi odamlar qilib tarbiyalagisi kelib qoladi. Saodat buvi xuddi ana shunday saxovatparvar onaxonlardan. Endi uning birdan bir tilagi o‘zidagi baxtni boshqalar bilan baham ko‘rish, ayniqsa, yoshlarga ulationish bo‘lib qolgan.

Saodat buvi kenja o‘g‘li bilan turadi. Shu o‘g‘lining Tursunoy ismli to‘ng‘ich qizi bu yil o‘n yettinchi bahorni ko‘ryapti. Keyin institut, mustaqil hayot... Qarang, kechagina Saodat bувининг иссиқ, yumshоq тиззасида о‘тириб олиб: «Faqat бувижонимнинг кизиман!» deb adasi bilan ayasini kuydirgan chuchuk til jiji bugun o‘ninchи sinfni bitiryapti! Shunaqa, hayot o‘z o‘zanida oqib boraverar ekan.

Saodat buvi ana shu sevikli nevarasi o‘rta maktabni bitirayotganidan, katta hayot bo‘sag‘asida turganidan behad xursand, albatta. Lekin mundog‘ razm solib qarasangiz, ko‘nglida allaqanday g‘ashlik bordek ko‘rinadi. O‘zi yorilib aytmaydi, birov so‘ramaydi – istihola qiladi. Lekin har qanday jumboq ham axiyri yechiladi. Bir kun kechki ovqatdan keyin Saodat buvi Tursunoyni o‘z xonasiga chaqirdi.

– Bir kirgin, qizim, aytadigan gapim bor edi, – dedi.

Tursunoy ham buvisining chehrasida nimaningdir tashvishi borligini sezib, o‘zi ham g‘alati bo‘lib yurar edi. Suyunib ketdi:

– Voy, sizdan aylanay бувижон-ey, albatta, kiraman-da. Faqat idishlarni yuvib qo‘yay oldin. Maylimi?

– Mayli, qizim, mayli. Yuvib bo‘lib kirarsan.

Tursunoy ayasiga qarashib, uy ishlarini saranjom qilishgandan keyin бувижонинг yoniga kirdi. Saodat buvi ustma-ust ikkita ko‘zoynak taqib olib, divanda kitob o‘qib o‘tirgan edi. Nevarasi kirishi bilan qo‘lidagi kitobini yonidagi kursiga qo‘ydi. Tursunoy katta qiz bo‘lib qolsa ham бувижонига erkalanishini, suyib-surkalishini haligacha qo‘ymaydi. Buvijoni uni bag‘riga bosib, yoqimli hid kelib turgan sariqqa moyil sochlardan, do‘ndiqqina yuziga yarashib tushgan chiroyli boshginasidan suyib-suyib o‘pdi. Keyin uni ko‘ksidan asta ayirib, baxt charaqlatgan munavvar ko‘zlariga tikildi.

– Sen bilan bir to‘g‘rida gaplashib olmoqchi edim, qizim, – dedi Saodat buvi yoqimli, muloyim ovozini yana ham muloyim qilib.

Tursunoy бувижонинг ko‘zlariga tikilib o‘tirgan edi. Unga ko‘zoynak ostidagi keksa ko‘zlarida tashvish o‘ti lovullab ketgандай tuyuldi. U qo‘rqqan kishining hayajonli ovozi bilan so‘radi:

– Voy, o‘lmasam, yomon gapmi, buvijon?!

Saodat buvi avzoyidagi jiddiyatdan xijolat tortayotgandek, kulimsiradi.

– Yo‘g‘-e, aylanay! Yaxshi gap. Ha, yaxshi.

– Ayting, buvijon, jon deb eshitaman.

Saodat buvi Tursunoyning yuzini yana ko‘ksiga bosdi-da, nima deyishni yo aytadigan gapini nimadan boshlashni bilmagan kishidek, o‘ylanib qoldi. Haqiqatan ham, Saodat buvi ko‘ngli-ga tugib qo‘ygan gaplar bir qulqoqdan kirib, ikkinchi qulqoqdan chiqib ketsa ham bo‘laveradigan, shunchaki gaplardan emas edi. Saodat buvining aqidasicha, u aytadigan gap asalarilar guldan gulga qo‘nib, zarrama-zarra yig‘gan bol singari, aql-u farosat bog‘ining chamanidan to‘plangan shunday bir hikmati davron ediki, buni na jahd-u jahon bilan va na xazinayi zamon bilan qo‘lga kiritib bo‘lardi.

– Menga qara, – dedi Saodat buvi birdan Tursunoyning bosshini ko‘tarib.

Tursunoy yarq etib buvisiga qaradi. Saodat buvi xayoli parishon odamday gap boshladidi:

– Haligi... Ha, o‘ylab qarasam, aytadigan gapim ko‘pga o‘xshaydi. Nafsila mргa, ko‘p. Nevlay-da, shuncha gapni eshitishga qunting yetadimi yo chala yo‘lda tashlab ketasanmi, shunisini bilsam devdim. Mabodo, malol keladigan bo‘lsa, o‘zim ham ovora bo‘laman, sen ham vaqtingni bekor ketkazasan. Shu kunlarda vaqting oltindan qimmat – hademay davlat imtihonlari boshlanadi.

Voy, buvijon-ey, siz bir nima deysiz-u, menga malol keladimi! Yo‘q, bunaqa desangiz, men xafa bo‘laman. Imtihonlarga tay-yorgarlik o‘z yo‘lida boryapti. O‘zingiz bilasiz-u, butun kunduzimiz shunga sarf bo‘lyapti, – dedi Tursunoy ko‘ngli ozor topgan odamday norozi bo‘lib.

Yo‘q-yo‘q, bolam, omadi gapni aytdim-da, aylanay. Xafa bo‘lma. Senga malol kelmaydi, yaxshi bilaman. Shunday bo‘lsa ham, so‘zingni olgim keldi-da. Xayr, men-ku ko‘nglimda bor gapni aytaman, sen ham, bolam, tortinib yo ikkilanib o‘tirma-sang – ochiq gaplashsak.

Tursunoyga bu gap g‘alati tuyuldi.

– Voy, yana qanaqa gaplashish mumkin, buvijon? – dedi u hayron bo‘lib.

Saodat buvining ko‘zlarida bir quv jilmayish ko‘rindi.

– Hech narsani yashirmasak deyman-da.

Tursunoyning yuziga birdan qizil yugurdi. Yashirin siri bor kishidek ko‘zlarini olib qochdi. Buni buvisi sezmay qolmadi. Biroz jilmayib turgach, Tursunoyning hozirgi ahvoliga ishora eta-yotgandek qilib:

– Kasalni yashirsa, isitmasi bildirib qo‘yadi, qizim, – dedi.

Tursunoy shu gapdan keyin nimagadir o‘zini yo‘qotib qo‘yan odamga o‘xshab qoldi, gapining tanobi bo‘shashdi.

– Voy, tavba! Men nimani yashirar edim... Menda unaqa gap yo‘q..

Saodat buvi g‘alati qilib kuldi. Keyin Tursunoyning yuziga tikilib turib:

Bo‘lmasa, meni ko‘zlarинг chalg‘itibdi, – dedi. Tursunoy bir-dan seskanib tushdi.

Nimaga, buvijon?

– Qaydam. Xuddi bir narsasi bor deyayotgandek, o‘zini olib qochyapti-yu!

– Ko‘zim? Yo‘g‘-e...

– Yo‘q, dema, aylanay. Til aytmaganini ko‘z aytib qo‘yadi, shunaqa. Ha!

– Ko‘z... Ko‘z chaqimchimi?

Qaydam. Shunaqa illati bor shekilli-da. Nimaga desang, eskidan qolgan bir gap bor: ko‘zni – xoin, qulqoni – yolg‘on-chi, deyishadi. Xoin degan so‘z birmuncha qattiq. Lekin ko‘z egasiga yetkazadigan zarar jihatidan – xoin deganlari to‘g‘ri. Nimagaki, ko‘z dil sandig‘ida qulflog‘liq yotgan sirni oshkora qilib qo‘yadi. Ko‘z shunaqa – bamisoli oyna, ichingdagи narsani ko‘rsatib qo‘yadi, ayniqsa, ishqni.

Tursunoy buvisiga termilib turgan ko‘zlarini bir bahona bilan olib qochdi. Buvisi buni sezmay qolmadi. U qiqir-qiqir kulib, nevarasining boshini yana ko‘ksiga bosdi. Keyin Tursunoyning mayin sochlarni mehr bilan silab turib, qulog‘iga asta shivirladi:

– Ko‘ngling Rasuljondaga o‘xshaydi, a?

Tursunoy, xuddi elektr toki tegib ketgandek, qattiq seskanib tushdi.

Yuzini qayerga yashirishni bilmay, bir zum talpindi, keyin boshini buvisining ko‘ksiga bosib, bir qo‘li bilan Saodat buvisining og‘zini yopishga harakat qildi. Buvisi esa, og‘zini olib qochar, qiqirlab kular, ana, tiling aytmaganini ko‘zing aytib qo‘ydi-yu, deyardi. Unga sari Tursunoy boshini buvisining bag‘riga niqtab, uni gapirtirmaslikka tirishar edi. Nihoyat, Saodat buvi nevarasini ko‘ksidan ajratib, yoniga o‘tqazdi. Keyin jiddiy bir tusda gap boshladi:

– Yo‘q, uyalma, qizim. Aslida, sevish-sevilish – uyat emas. Sevish-sevilishni bilmaslik – uyat. Yuragingga bit yigitning ishq-tushsa-yu, sen u ishq chin ishqmi yo o‘tkinchi havasmi – buni bilmasdan, farqiga bormasdan, o‘zingni ko‘r-ko‘ronasiga, hayosizchasiga taslim qilib qo‘ysang – mana bu uyat! O‘zingni ham, ota-onangni ham, ta’lim bergen ustozlaringni ham yerga qaratib qo‘yadigan ko‘p yomon uyat. Sharmandagarchilik! Qaydam, har nechuk, menga shunday tuyuladi-ku. Shu yoshga yetib topgan aqlimga, orttirgan tajribamga, ko‘rgan-bilganlarimga qarab bir nima deydigan bo‘lsam, aylanay qizim, qarilar bilganini chindan ham parilar bilmaydi. Nima uchun? Shuning uchunki, qarilarning aqlлari juda chiniqqan, ming bir chig‘iriqdan o‘tgan, sinaqtı aql. Lekin, bu so‘zdan hamma qarilar aqlli-yu, hamma yoshlar nodon ekan, degan xulosa chiqmasligi kerak! Aslo! Yoshlar orasida ham aql-hushi joyida, ziyrak, tadbirkorlari ko‘p. Juda-juda ko‘p. Shunday bo‘lsa ham, u baraka topgurlar yana yoshliklariga borib, goho adashib qolishadi. Men, albatta, qarilar maslahati, qarilar tadbiri bilan ish tutgan o‘nta azamatning o‘novi ham to‘g‘ridan to‘g‘ri oyga chiqib ketaveradi, demoqchi emasman. Lekin ana shu o‘nta yosh avlodning to‘qqiztasi yerda burunlari qonab qolmasligini ta’kidlamoqchiman. Nachora, qarilardan lozimi – yoshlarga nasihat qilib turish ekan – azalning ishi bu. Meni ham, jon bolam, azalning ishini qilyaptilar, deb qo‘ya qolasan-da. Bo‘ptimi? Shunaqa, o‘rgilay, hayotning bir-biriga chandishib, chatishib ketgan murakkab yo‘llarida

o‘gitlarim zora joningga ora kirsa deyman-da. Xo‘p, bugungi gapim tamom, qizim. Vaqting bo‘lsa ertaga, oqshom pallada kirgin, suhbatimizni davom ettiramiz. Xo‘pmi?

– Voy, jonim bilan kiraman, buvijon! – Tursunoy suyunib ketdi.

– Xo‘p bo‘lmasa, bugungi suhbatimizga shu satrlar xotima bo‘lsin:

*Qari bilganini pari bilmas,
Deydi xalqimiz, aylanay bolam!
Buni esda tutsang – zarar qilmas,
Axir, bunda hikmat olam-olam!*

IKKINCHI OQSHOM HIKOYATI

*Qiz taqdirida bor o'zga bir xislat,
Bu taqdirga tan bermoq – husn-fazilat.*

Ertasi kuni kechgacha Tursunoyning fikr-xayoli buvisi aytdigan gapda bo'ldi. Nima deyishi mumkin? Ishqning inson qalbi bilmagan sirlari bormikan-a? Qiziq, Rasuljonga ko'ngli borligini qayerdan bildi? Buni boshqalar bilmasligi u yoqda tursin, Rasuljonning o'zi ham bilmaydi-ku! Buvijoni balo, hamma narsani biladi. Yo birovdan eshitdimi? Yo'q, Tursunoy hech kimga yorilma-gan bo'lsa, o'sha birov qayerdan biladi?

Tursunoy mana shu xil o'ylar bilan toliqib buvijonining oldiga kirganda, u yana divanda kitob o'qib o'tirgan edi. Tursunoyning salomiga alik olib, boshini kitobdan ko'tardi-da, intizorligi ushalgan kishi shodligi bilan nevarasiga yonidan joy ko'rsatdi. Ammo yonida bo'sh joy yo'q edi. Tursunoy ajablanib tevaragiga alangladi. Buvising ikki yonida kitob, daftar, gazeta qirqmalari, papkalar. Saodat buvi shu qiyofasida katta ilmiy ish bilan mashg'ul zo'r olimaga o'xshar edi.

– Voy-vo'y, shuncha kitobni nima qilasiz, buvijon? – deb yubordi Tursunoy hech nimaga tushunmay.

Saodat buvining chehrasiga hazil nuri yugurdi.

– Senga dars beraman shu kitoblarga qarab, bolam!

– Dars?! – Tursunoy shunday deb qichqirdi-yu, gandiraklab boshini changalladi. Keyin, hazillashayotgani oshkor sezilib tur-gan bir hayajon bilan dodlagan bo'ldi.

– Voy-dod! O'ninchini tugatib, darslardan endi qutuldim, deb suyunib yursam, hali bu yoqda chalasi bor ekan-da!..

Saodat buvi nevarasining qiziqchilagini sezib tursa ham, yana sharaqlab kuldi.

– Voy, qo‘rqma, qizim, bu sen aytgan darslardan emas, bu haqda nima desam ekan... ha, estafeta...

Tursunoy anqayib qoldi.

– Voy-voy, kitob ushlashib yugurishamizmi, buvijon?

– Yo‘q-yo‘q, yugurishmaymiz. Bu boshqacha estafeta. Men ko‘rgan-bilganlarimni, o‘qigan-eshitganlarimni senga omonat qilib topshiraman.

Tursunoy hamon angrayib qarab turardi.

– Tushunmadingmi? – deb so‘radi buvisi.

– Yo‘-o‘q... Gapingiz g‘alati bo‘lyapti-da, buvijon. Yo mening aqlim yetmayapti...

– Nimaga aqling yetmaydi?

– Axir, o‘zingiz omonat deyapsiz. Omonatni, odatda, qaytarib berishadi. Nima, siz ham qaytarib olasizmi?

– Yo‘q, men qaytarib olmayman. Bir kun o‘zingga o‘xshagan Tursunoylaringgami, Yorqinoylaringgami, ishqilib, kimga bo‘lsa ham, aytganlarimni oqizmay-tomizmay eltid berasan. Uqdingmi endi!

Tursunoy uqqan edi. Buvisi omonat etgan estafeta so‘zini ko‘nglining dahlsiz joyiga tugib qo‘ydi.

– Endi quloq sol gaplarimga, – dedi Saodat buvi Tursunoydan nido chiqmagandan keyin. – Yaxshilab quloq sol, aylanay. Keyin pushaymon yeb yurma. Ha-da, keyingi pushmon – o‘zingga dushman, deydilar.

Saodat buvi yonida uyib qo‘ygan kitoblari orasidan bittasini olib, xatcho‘p suqilgan joyini ochdi. Ichida bir nimalar o‘qiyotgani lablarining zaif harakatidan sezilib turar edi. Ko‘p o‘qimadi, kitobni yopib, yana yoniga qo‘ydi.

Juda uzoqni ko‘rib turgandek tuyulgan o‘tkir ko‘zlarida ni-maningdir e’tirozi borga o‘xshar edi. U g‘oyat bosiq, vazmin to-vushda gap boshladи:

– Tabiat qizlarni juda latif, zaif qilib yaratgan, deyishadi odamlar. Latifligiga so‘zim yo‘q, latif. Ilojini qilsam, qizlar tavsifiga bundan ham latifroq so‘z topardim, zaif deganlariga hecham qo‘shilgim kelmaydi. Nimaga desang, qiz bechoralarning bo-shida shunday bir og‘ir payt bo‘ladiki, buni peshanalarining

sho'ri desammi yo taqdir adolatsizligi desammi, har ikkala holatda ham ularga juda-juda jabr. Nazarimda, erkak zoti taqdirning bunaqa nayrangiga sira ham bardosh berolmasdi.

Tursunoy buvisining og'ziga tikilib, churq etmay o'tirar edi. U shu holatida ertaklardagi qotirib qo'yilgan qizlarga o'xshardi. Bir mahal o'ziga kelgandek asta qimirlab:

– Gaplaringizga yaxshi tushunolmayapmanmi, a, buvijon? – dedi.

Saodat buvi tagdor qilib kulimsiradi.

– Ajablanma, aylanay, hali boshingga tushmagan-da. Vaqt kelganda tushunib qolasan. Qiz bechora ota-onasining issiq bag'rida o'n yetti-o'n sakkiz yil yashab, shu oilaning urf-odatini, hayot tarzini, dunyoqarashini tanasiga singdirib, ota-onasining kasb-korini o'rganib, endi yetilganda, xuddi g'uncha tuga boshlagan yosh niholni tomir-pomiri bilan yulib olib, boshqa yerga ko'chirishganlari singari, qiz bechorani ham oila bag'ridan yulib ketadilar. O, aylanay bolam-ey, agar yoshlik o'ti, yoshlik jasorati bo'lmasa, aksar yoshlari ixtiyorlarini olib qo'yadigan o'zin-kulgi ishtiyooqi bo'lmasa, men o'ylayman, qizlarning anchaginasi tug'ilib-o'sgan uylarini tashlab ketmas edi. Afsus, ming afsuski, buni qizlarga oson tutadigan odamlar ko'p oramizda. Qaddi-qomatingni g'oz tutib, o'ynab-kulib yurgan o'z uyingdan, o'n sakkiz yil senga boshpana bo'lgan issiq iningdan ayrilib, boshqa birovning uyiga bosh egib kirib borishing – oson emas. Og'ir, bolam, o-o, judayam og'ir!

– Shunaqa og'irligini yigitlar ham bilisharmikan, a, buvijon?
– dedi Tursunoy yuragi achishib.

Saodat buvining yuzida istehzoli bir jilmayish paydo bo'ldi.

– Qani endi, yigit tushmagurlar ham bilishsa! Har xili bor: ba'zilari tushunishadi, ba'zilari yo'q. Ana shu tushtunmaydiganlar ko'pincha o'zlariga jabr qilishadi.

– Hammasi ham tushunsa yaxshi bo'lardi, a, buvijon?

– Nimasini aytasan, bolam. Ayni muddao bo'lardi-ku! Ko'p afsus, biz o'ylagan, biz intilgan narsalar ana o'shanaqa tushunmaydiganlar kasri bilan juvonmarg bo'ladi.

– Lekin, yuraging chiqmasin, hamma vaqt emas. Onda-sonda bo'lsa ham bizga ko'p ko'rindi. Ahvol shunday bo'lgandan

keyin qiz kishi boradigan joyiga faqat o'ynab-kulgani, yoshlik zavqini surgani boraman, deb emas, yo'q, hech ham bunday deb emas, yetti uxbab tushiga kirmagan, past-u balandini bilmagan, hayot tarzini ko'rmagan bir oilaga yangi, teng huquqli a'zo bo'lib boryapman, deb o'zini shunga tayyorlashi kerak. Ha, kelin deb atalgan yangi a'zo bo'lib. Lekin yangi a'zo bo'lib borish huquqi o'sha oilaning parchalanishiga emas, mustahkamlanishiga, ma'naviy kamolotiga xizmat qilsagina huquq bo'la oladi. Bunga esa, tayyorlanish, qunt bilan tayyorlanish kerak, bolam.

Tursunoy buvijonining og'zidan chiqqan har bir so'zni qamrab, yuragiga joylab o'tirsa ham, yana ko'ngli to'lmay so'radi:

– Tayyorlanish? Qanday qilib, buvijon?
– Oilalarning tashqi tomonlari, ya'ni sirti bir xil bo'lsa ham, – deya Saodat buvi tushuntira ketdi, – ichki tomonlari, ya'ni ma'naviy tuzugi – siyrati boshqa-boshqa bo'ladi. Bir oila tartibiga, qonun-qoidasiga o'rganib qolgan kishi boshqa oila royishiga darrov ko'nikib keta olmaydi. Bu qiyin narsa. Lekin imkon yo'q narsa emas. Ahd qilinsa, jazm etilsa, bu qiyinchilikni yengib o'tish mumkin. Shuning uchun kuyovga tegayotgan qiz tushayotgan joyiga kelinchak bo'lib borishdan oldin o'zini shu og'ir sinovga tayyorlab qo'yishi lozim. Bu tayyorgarlik qancha barvaqt ko'rilsa, shuncha yaxshi. Buning hikmati katta. U erta ko'chirilgan niholdek yaxshi ko'karadi. Balki, hech qanaqa tayyorgarlikning keragi yo'qdir, a, qizim? – dedi Saodat buvi, butun borlig'i qulolqqa aylanib tinglab o'tirgan Tursunoya qarab.

Tursunoy buvijonidan bunaqa savol kutmagan ekanmi, shoshib qoldi.

– Yo'q-yo'q, menimcha ham kerakka o'xshaydi. Kerak, buvijon, – dedi.

Barakalla, qizim. Kerak. Bu tayyorgarlikni qurayotgan turmushi, bu turmush zamiridagi kelinlik, xotinlik, onalik, Xudo umr bersa, buvilik burchi majbur qiladi. O'zing o'ylab ko'r-a, qizim, hech kim besh kunlik kelin bo'lish uchun turmush qurmaydi-ku! Hamma ham borgan joyida tomir yoyishni, unib-o'sishni, uvali-juvali bo'lishni, umr yo'ldoshi bilan ahil, totuv turib ketishni, qaynata-qaynanalari bo'lsa, xizmatlarini qilishni ko'ngliga tugib turmush

quradi. Modomiki har bir qizning dilida mana shunday niyat, pok, muqaddas niyat, mana shunday ahd-u paymon bor ekan, u yog‘ini bo‘sashfirmasin-da! Mana shu ahdiga qarab ish tutishi, borgan joyining ob-havosiga o‘rganishi kerak-da. Shundog‘mi, qizim?

– Shundog‘, buvijon, shundog‘.

– Barakalla. Xuddi shundog‘ bo‘lishi kerak. Yo‘q, otanonam menga bunaqa ishlarni qildirmagan, qo‘limni sovuq suvgaga urdirmagan, idish-tovoq yuvdirmagan, kir yuvishni, dazmol bosishni o‘rgatmagan, deb kekkayib turib olsa, qani, o‘zing ayt, qizim, bunaqada turmush bo‘ladimi? – Tursunoy boshini chay-qadi. – Ha, barakalla! Bo‘lmaydi. Poydevori omonat uy sal zARBADAN qulaydi. Imoratni mustahkam ushlab turadigan narsa, asosan, poydevor. Poydevor qancha mustahkam, pishiq bo‘lsa, imorat shuncha puxta, shuncha umrboqiy bo‘ladi. Yoshlar turmushi ham ana shunaqa puxta imoratlarga o‘xhash mustahkam, pishiq qilib qurilsa, zavolga uchramaydi.

Oraga qisqa sukunat tushdi. Saodat buvi nimadandir jahli chiqqan odamday bir ijirg‘anib oldi.

– Men ba’zi bir qizlarga hayron qolaman, Tursunoy, – dedi u qovog‘ini uyib. – Bugun katta dabdaba, karnay-surnay, o‘yinkulgi bilan oyday suzilib, kunday kulib kelishadi-yu, ikki kUNDAN keyin qarabsizki, qosh-qovog‘i tushib, ketaman dardiga chalinib qoladi. Tavba, turmush qurishga rozilik berayotganlarida nimani o‘ylashar ekan o‘shanaqa beqaror, betayin qizlar? Besh kunlik tarallabedodnimi? Voy, bunaqa tarallabedodning qoragini o‘chmaydimi? Bu tarallabedod emas, borib turgan sharmandagarchilik! Labzi haromlik! Qara-ya, aylanay, nikoh bazmida kiygan kelinchaklik libosining taxi buzilmasdan turib turmushi buzilib o‘tirsa-ya! Yo‘q, qizim, bunaqasidan Xudo asrasin!

Saodat buvi yuragi siqilib, asabi buzilgan kezlarda alamini baqirishdan, bo‘lar-bo‘lmas so‘zlarni aytib shang‘ishdan olmas edi. Aksincha, dami ichiga tushib ketgan odamday churq etmay, hatto na-fas ham olmayotganday o‘tirib qolar edi. Hozir ham shunday bo‘ldi. Buni Tursunoy darrov payqadi. U buvijonini jahlidan tushirish uchunmi yo o‘zi ham o‘shanday betayinlardan nafratda edimi:

– E, qo‘ying, buvijon, battar bo‘lishmaydimi! – dedi. Saodat buvi asta bosh chayqadi:

– Shunaqa deysan-u, lekin ularga ham odamning yuragi achi-shadi-da, qizim.

Tursunoy buvisining bo‘yniga osildi.

– Nima, mening yuragim achishmaydimi? Achishadi, lekin qo‘limizdan nima keladi? Xafa bo‘lamiz-qolamiz – shu-da! Shundog‘mi, buvijon? Shundog‘, a, shundog‘-a? – dedi erkalanib Tursunoy.

Tursunoyning bolalarcha qilig‘i Saodat buvining ko‘nglini yayratib yubordi. Bir charaqlab kului. Ammo kulgichi uzoqqa bormadi. Yana qovoqlari uyildi.

– Turmush qurish – bozordan moda ko‘ylak yo platforma tuflı sotib olishdek jo‘n narsa emas, – deya Saodat buvi o‘ychan so‘zlay ketdi. – O‘zing bilasan, qizim, bozorga yo magazinga bir narsa sotib olgani borgan odam rosa tanlaydi. Unisini qo‘yib, bunisini ko‘radi. Ishqilib, o‘ziga munosibini, didiga yoqadiganini topmaguncha tanlaydi. Bunga hech ajablanmaymiz. Hadeb tanlayverasanmi, deb ayblamaymizam. Lekin buguningni, ertangni, butun umringni birga o‘tkazadigan, kelajagingni, orzu-umid-laringni bag‘ishlaydigan yor tanlash payti kelganda, ko‘rsavdolik qilib qo‘yadigan notavonlar onda-sonda bo‘lsa ham uchrab turadi. Bozor savdosida adashish mumkin, ya’ni bo‘yiga, qaddi-qomatiga yarashmaydigan yoki yoshiga to‘g‘ri kelmaydigan kiyim olib qo‘yish hollari bo‘ladi. Bundan inson umriga hech qanday zavol yo‘q. Bu mato, qimmati ham mato qadar. Umr yo‘ldoshni tanlash esa, chayqov bozoriga borib, bor-baraka qilish emas! Yo‘q, bu o‘z tengini tanlash, sinash, bilish, aql roziligi bilan ish ko‘rish degan so‘z. Bu savdoning qimmati inson taqdiri qadar. Shuning uchun bu masalada, ya’ni umr savdosida shoshma-shosharlik bilan ish tutish – o‘z umringga, taqdiringga, qadr-u qimmatingga, ayniqsa, qiz deyilgan juda chiroyli, juda e’tiborli nomusingga bolta urib qo‘yish bilan barobar. Keyin attang deysan-u, foydasi bo‘lmaydi.

Tursunoy shoshqaloqlik, ko‘rsavdolik orqasida badnom bo‘lgan qizlar uchun aybdordek, yerga qarab oldi. Saodat buvining g‘amgin ko‘zlari bebosh qizlar sho‘rini alamlı man-

zarasida edimi, nevarasining boshi tushib ketganini payqamadi. U xayol ko‘zlarini o‘sha alam tug‘yoni ko‘tarilgan nuqtadan uzmay der edi:

– Innaykeyin, shoshgan qiz erga yolchimabdi, degan maqol ham bor xalqimizda. Ha, azaldan bor. Bu maqolni biz bugun yo kecha o‘ylab chiqarganimiz yo‘q bolam. Shuning uchun bo‘yi yetgan har bir qiz birinchi uchragan yigitga darrov rozilik bera qolmay, andisha yo‘lini tutishi kerak. Andisha yo‘li deganimiz esa – shoshmaslik yo‘li, o‘ylashlik yo‘li, aql bilan bamaslahat ish ko‘rishlik yo‘li deganimiz. Har holda, men shunday deb tushunaman. Buni ulug‘ bobomiz hazrati Navoiy ham ta’kidlaydilar:

*Har kimsaki aylamas oshiqmoqlikni xayol,
Yaproq‘in ipak qilur, chechak bargini bol.*

Saodat buvi Navoiy kulliyotini buyuk ehtirom bilan joyiga avaylab qo‘ydi-da, boyagi fikrini yana ham kengaytirib davom ettirdi:

– Har bir qiz to‘yga rozilik berishdan oldin quradigan turmushini buzmasdan saqlab qolishga qurbi yetadimi-yo‘qmi, undan ham muhimrog‘i – buzilmasdan saqlanib qolishiga aqli yetadimi-yo‘qmi, hayot so‘qmoqlarida uchraydigan o‘nqir-cho‘n-qirlardan o‘ta oladimi-yo‘qmi – bunga o‘zida ishonch hosil qilishi, kuch topishi kerak. Yana aytaman, aylanay qizim, bu uch-to‘rtta qiz bola yig‘ilib olib o‘ynaydigan to‘ptosh emas, bu turmush qurish, jamiyat hujayralaridan biriga aylanish, ya’ni jamiyat oldidagi onalik burchini bajarish sari birinchi qadam tashlash degan so‘z. Ha, xuddi shunday, bolam.

Saodat buvi yonidagi kitoblardan bittasini olib varaqladи, bir nimalarni o‘qidi, keyin uni yopdi-da, nimadandir g‘ururlangan kishi ovoziga o‘xhash tovush bilan dedi:

Hamma xalqda, jumladan, o‘zimizning o‘zbek xalqimizda ham odamda ixtiyor hissini jo‘shtiradigan hikmatli gaplar ko‘p uchraydi. Bular tasodifan og‘izga yo xayolga kelib qolgan shunchaki gaplarmi yo necha-necha zamонлар, ne-ne ajdodlar idroki chig‘irig‘idan o‘tib, yombidek quyilib qolgan hayot haqiqatimi? Sen nima deysan, qizim?

– O‘sha, siz aytganingiz bo‘lsa kerak, buvijon, – dedi Tursunoy ishonch bilan.

– Ha, barakalla, aqlli qizimsan-da. Hayot haqiqati – hammasi. Asrlar, zamonlar osha sayqal topib, tom ma’nosi bilan hikmatga aylangan xalq daholari bular. Mehnatdan yer, suvdan o‘simlik, quyoshdan borliq yashnaydi. Xuddi shunga o‘xshash, odam bolasi ham zakovat nuriga, fikrat niholini gullatuvchi aql nuriga hamisha muhtoj. Bundayin nur bor, aylanay qizim, bor. Bu nur xalq ichida, xalqning zukko farzandlari aytgan hikmatli so‘zlarda. Bizdan lozimi esa, jon qizim, buyuk insonlar, zamonlar qoldirgan aqliy merosni har dam ko‘z o‘ngimizda tutish, kelajagimizga, hozirimizga, hatto o‘tmishimizga ham biron jihatni bilan zarar yetkazib qo‘yish ehtimol bo‘lgan qadamni tashlashdan avval ota-bobolatrimiz hikmatiga, albatta, murojaat qilishdir. Bundan ko‘riladigan foya beqiyos. Ammo bitta sharti bor: bironta ham hikmatli so‘z bu qulog‘ingdan kirib, u qulog‘ingdan chiqib ketmasligi kerak.

Saodat buvi xayol surib, bir necha daqiqa jimb qoldi. Tursunoy nariyoqdagi stolga bir nimalar yozib o‘tirgan edi, asta yuzini o‘girib buvisiga qaradi. Saodat buvining bir nuqtaga tikik ko‘zlarini tinib qolgandek tuyulsa ham, Tursunoy u ko‘zlarda harakat borligini, qayerlarnidir, kimlarnidir ko‘rib turganligini sezdi. Saodat buvi boshini quyi solib, oldidagi yozig‘liq qog‘ozga qaradi. Bir necha lahzadan keyin, qog‘ozdan ko‘zlarini uzmay, tetik bir ovozda gapira ketdi:

– Xalqimizda «Yetti o‘lchab, bir kes», degan maqol bor. Bu gapda hikmat katta bo‘lsa kerak. Ha, katta. Nimaga desang, qizim, bir marta o‘lchab bir kes yo ikki marta o‘lchab bir kes demasdan, yetti o‘lchab, bir kes, depti. Demak, qiladigan ishing o‘zingga ham, o‘zgaga ham zarar yetkazmasligi uchun, nimaiki qilsang puxta qil, pishiq qil, keyincha o‘tida yonib yurma, demoqchidir-da, a, bolam?

Tursunoy qo‘qqisdan berilgan savol shoshirib qo‘ygan shogirdday alangsb qoldi. Saodat buvi, gapimga quloq solmayotgan ekan, deb o‘ylab, ozorlanib so‘radi:

- Ha, qizim, gaplarim joningga tegdimi?
- Yo‘g‘-e, buvijon.
- Bo‘lmasa nega surat solib o‘tiribsan?

– Voy, o'libmanmi, buvijon! Shunday yaxshi narsalarni gapirib bersangiz-u, men qulq solmay boshqa ish qilib o'tirsam uyat bo'lar. Yo'q, buvijon, jonga rohat-ku bu gaplar! Daftarimga yozib olyapman.

Saodat buvining boshqalar to'g'risida yomon narsalar o'ylash odati yo'q edi. Hozirgi ishidan xijolat bo'lib, kallasini sarakladi. Keyin o'sal bo'lган odamning nimjon tovushida:

– Ha, a-a, yozib olayotuvdingmi? – dedi.

– Ha, buvijon, yozib olayotuvdim. Maylimi, a, yozib olaversam?

– Ixtiyoring, bolam, ixtiyoring. Ma'qul tushgan joylari bo'lsa yozib olaver, bemalol, aylanay, bemalol. Xo'p, gapimizni davom ettiraylik. Menga qolsa-chi, Tursunoy, umr yo'ldoshi tanlashda yetti marta o'lchab emas, yo'q, hech ishoshmasdan, yetmish marta o'lchab, keyin bir qarorga kelar edim. Lekin men keladigan qaror hech qachon, hech bir sharoitda o'zgarmaydigan, tob tashlamaydigan, yerda yemirilmaydigan, mustahkam, metin qaror bo'lar edi. Ha, qizim, men keladigan qaror bahor kezları tez-tez o'zgarib turadigan beqaror ko'klam havosiga o'xshamaydigan, har qanday sharoit tazyiqida ham bukilmaydigan, qat'iy qaror bo'lar edi. O'zing o'ylab ko'r-a, qizim, bugun bir yigitni ko'rib yoqtirsang, yaxshigina tanishgan bo'lib ko'ngil bersang-da, ertsiga aynib o'tirsang! Uyat! Shuning uchun qiz bola zarracha ham shoshmaslik sharti bilan bir yigitni tanlabdimi – bo'ldi! O'shuning etagini mahkam tutsin. Shunday tutsinki, qo'lidan hech qanday dovullar, bo'ronlar yulib olib ketmasin! Ha, shunday bo'lsin!

Tursunoy qo'lidaga qalamini qog'oz ustiga qo'yib, yer ostidan buvisiga qaradi. Nima uchundir yuzi lovullab yonar edi.

– Bitta savolim bor-u, so'rashga...

Saodat buvi charaqlab qaradi.

– Voy, so'rayver, qizim. Yo uyalyapsanmi? Yo'q, uyalma, aylanay. Suhbatimizning boshida ochiq gaplashamiz, deb pisanda qilishib edik, shekilli?

Tursunoy boshi bilan «ha» ishorasini qildi. Keyin duduqlanib, so'zini yo'qotib, ko'nglidagini ayta boshladi:

– Buvijon-da, haligi... bordi-yu, qiz... ko'ngilsiz bo'lib qoldi. Unda...

– Unda nima qilish kerak, demoqchisan-da?

– Ha.

Saodat buvi sekin miyig‘ida kulib qo‘ydi.

– Bu boshqa masala, qizim. Bu juda katta tahlil talab qiladigan murakkab masala. Bu to‘g‘rida keyin alohida gaplashamiz. Hozircha, xah, xayolimni ham bo‘lib yubording, qaqajon! Nima deyayotuvdim, a? Ha, topdim, topdim. Yosh kelin-kuyov boshiga bitgan bir balo bor. Bu qorang o‘chgur baloning oti – g‘idi-bidi! Yengiltak yoshlari oilasini zavolga sudraydigan yalmog‘iz – shu g‘idi-bidi! Kim ko‘ribdi qishni izg‘irinsiz? Hech kim, qish bo‘lsin-u, qahraton sovug‘i, izg‘irini bo‘lmasin? Yo‘q, bo‘ladi, bo‘lmay iloji yo‘q. Ba’zan izg‘irin juda qattiq kelib, odamlarni qaqshatsa, ba’zan salgina zirqiratib o‘tib ketadi. Uy-ro‘zg‘or, oila ham aslida shunaqa. U yerda ham g‘idi-bidi deb atalgan izg‘irin bo‘lib turadi. Faqat uning oldini olish, quturib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun derazalarni mahkam yopish kerak, toki u yerda bo‘ladigan g‘idi-bidilar ovozasi tashqariga chiqmasin. Yosh kelin-kuyov ham nodon jo‘jaxo‘rozlarga o‘xshash bir-birlariga tashlanmasdan, g‘idi-bidi damini kesishga harakat qilishsa, olam guliston: uy yana tinch, yana totuv. Hozir bir rivoyat esimga tushib ketdi. Meni kuyovga uzatishdan oldin katta buvim aytib beruvdi. Ha, bir kambag‘al kosib ertadan kechgacha bo‘z to‘qir ekan-u, topgani tirikchilikka ketib, bolalari ham, o‘zi ham qirq-yamoq ko‘ylak-lozimda yurar ekan. Kim biladi, «Bo‘zchi bel-bog‘ga yolchimabdi», degan maqol ana shunaqa kambag‘allarga qarab aytilgan bo‘lsa ham ajab emas. Xayr, bu boshqa masala. Muddao bu yoqda. O‘sha kambag‘alning oldingi xotini vafot qilgan ekan, boshqa bir juvonga uylanibdi. Bu nodon juvon bo‘zchi bilan turmush qurishga quribdi-yu, ko‘p o‘tmay aynib qolibdi. Unaqa ekan-bunaqa ekan, deb ota-onasinikiga arz qilib boraverar ekan. Axiyri, bir kun otasining jahli chiqibdi. «Shunday qilib-ku, bir marta erdan chiquvding: yana chiqasanmi, sharmanda?! Yo‘q, orqangga qayt, qanoat qil, o‘zingni bos, eringning pinjiga kirib kamini but qil!» – deb otasi uni qaytarib yuboribdi. Juvon o‘lgudek nodon, aqli past ekan. Otasining nasihatini qulog‘iga olmay, eri bilan urishadigan, bo‘lar-bo‘lmasga shang‘illaydigan

qiliq chiqaribdi. Uyingda u yo‘q, uyingda bu yo‘q, dermish-u, erining pinjiga kirib olib bo‘z to‘qishni, og‘irini yengil qilishni o‘ylamas emish. Nodon bo‘z to‘qishni, og‘irini yengil qilishni o‘ylamas emish. Nodon o‘ylamabdki, uyida u yo‘q, bu yo‘qli-giga eri aybdor emas. U bechora ertadan kechgacha bo‘z to‘qiydi, ro‘zg‘or tebrataman, deb qora terga pishib ishlaydi. Demak, hamma balo kambag‘alchilikda, yetishmovchilikda, muhtojlikda ekan. Innaykeyin, oila yukini baravar ko‘tarishi zarur bo‘lgan xotinning qo‘lini sovuq suvga urgisi kelmaganligida, qizim. Sizlar, hozirgi tasaddug‘ing ketay zamonamizning baxtli yoshlari, kambag‘al-chilikni eshitgansizlar-u, o‘zini ko‘rmagansizlar. Xudo ko‘rgilik qilmasin, bolam. Kambag‘alchilikning qahri qattiq, zahri o‘tkir. Xayr, o‘sha bo‘zchining xotini ro‘zg‘oridagi yo‘qchilikdan, shu yo‘qchilik sabab eri bilan o‘zi o‘rtasida bo‘lib turadigan g‘idi-bididan to‘yib, hayyo-hayt deb uyidan boshini olib chiqib ketibdi.

– Voy, esi yo‘q juvon ekan-u! A, buvijon? Erini yetimchalari bilan yo‘qchilik o‘tiga uloqtirib ketguncha, biron yerga borib ish-lasa bo‘lmas ekanmi?! – dedi Tursunoy murg‘ak bolaları bilan mo‘ltirab qolgan bo‘zchiga yuragi achishib.

Saodat buvi zaharxanda qildi:

– O, bolam-a, ish degan narsa endi, sizlarning zamoningizda ko‘paydi. Bizning yoshligimizda ish – anqoning tuxumi edi. Mana, nima ish qilaman desalaring – o‘sha ish jonivor muhayyo-da! U mahallar ish yo‘qligi uchun kambag‘allar ko‘p edi.

– Bilaman, o‘qiganman, buvijon.

– Ha, bilganing yaxshi. Xo‘p, endi boyagi nodon xotin mojarosini eshit. Uyidan chiqishga chiqibdi-yu, lekin qayerga borishni bilmay, o‘rta ko‘chada qaqqayib turib qolibdi.

Otasinikiga boray desa, otasi yana haydab chiqarishidan qo‘r-qibdi, buning ustiga, ular ham o‘lguday kambag‘al, yejar-ichari yo‘q, yelkalari bilan zo‘rg‘a nafas olib yurishibdi.

Shunday qilib, u boshi qotib turgan ekan, yerdan chiqib-dimi yo osmondan tushibdimi – yonida ivirsigan bir kampir paydo bo‘lib qolibdi. Bo‘zchining xotini qarasa, kampirning boshida kattakon tugun, egnida isqirt paranji, qo‘lida tol hassa. Chimmati tushurig‘liq.

– Hey, Xudoning aqli noqis bandasi, serrayib turaverasanmi!
Ol boshimdan tugunni! – debdi kampir erkaklarnikiga o‘xshagan do‘ng‘i tovush bilan. Bo‘zchining xotini miyasidan tayoq yegan odamday bir gandiraklab tushibdi. Keyin o‘zini o‘nglab, kampirning boshidagi tugunni olibdi-da, orqasidan ergashib ketibdi.

Tursunoy hayron bo‘lib so‘radi:

- Birov ko‘ribdimi shunaqa bo‘lganini, buvijon?
- Eri ko‘ribdi. Shashtingdan qayt, deb to yarim yo‘lgacha orqasidan yalinib borgan ekan. Hammasini ko‘ribdi.
- Keyin nima bo‘pti?

Xotini shu ketganicha qaytib kelmabdi. Birovlar, dashtda bo‘rilar yeb qo‘ydi, yana birovlar qilgan ishidan pushaymon bo‘lib o‘zini osib qo‘ydi, deyishibdi. Qaysi biri to‘g‘ri – Xudo biladi. Unday bo‘lganda ham, bunday bo‘lganda ham ayb o‘zida. Boriga qanoat qilsa, erining yonida turib birga mehnat qilishsa yetimchala larga ham jabr bo‘lmas edi, o‘zi ham shu kunga tushmas edi.

– Albatta. Men ham shunday deb o‘ylayman. Ha, aytmoqchi, eri yetimlari bilan qon yutib qolishgandir, a?

– Yo‘q. Yalinib-yolvorishlariga qaramay, xotini ketib qolgandan keyin bo‘zchi sho‘rlik yurak-bag‘ri qon bo‘lib bolalari yoniga qaytib kelibdi. Shundan keyin ham kelib qolar, deb xotinini uzoq vaqt kutibdi. Bir yildan keyin bo‘zchiga boshqa bir bevani olib berishibdi. Bu juvon yaxshi xotin ekan – eri bilan adi-badi aytishib, bo‘lar-bo‘lmas narsaga janjal qilish o‘rniga erining pinjiga kirib olib bo‘z to‘qishibdi, bolalarini yuvib-tarabdi, eriga qarabdi, ro‘zg‘orni tejab-tergab ust-bosh qilibdi, uydagi sovuq bo‘yralar o‘rniga issiq kigiz olib solibdi... Mana ko‘rdingmi, qizim, bo‘zchining avvalgi xotini ham bersang yeymen, bermasang o‘laman, deb g‘idi-bidi ko‘chasiga kirib olmaga, yomon qilmishining qurban bo‘lmas edi. Tursunoy ham xuddi shu narsani o‘ylab o‘tirgan ekan:

– Juda to‘g‘ri aytdingiz, buvijon, – dedi.

Saodat buvi oldidagi kitob-daftarlarini yig‘ishtira boshladи.

– Bugungi suhbatimiz yakuniga shu hikmatni keltirgim bor:

*Qilar ishni bilib qilding – shodmonsan,
Bilmay qilding – o‘taketgan nodonsan!*

UCHINCHI OQSHOM HIKOYATI

*Ishqdir abadiylik avjida oftob,
Hayot chamanida toledan xitob.*

Umar Xayyom

Saodat buvi bugungi suhbatga kitob qarab o'tirgan edi, Tursunoy xuddi nojo'ya ish qilib qo'ygan odamday qimtinib kirib keldi. U bir zum ko'zlarini kitobdan uzib, nevarasiga razm soldi:

– Tinchlikmi? – dedi qimtinish sababiga tushunolmay. Tursunoy pastki labini chiroylikkina burib, ko'zları bilan kuldi. Uning odatida uzr alomati edi bu.

– Tinchlikka tinchlig-u, lekin sizdan beso'roq bir ish qilib qo'ydim-da, buvijon, – dedi u, «kechiring» degan bir iltijo bilan.

Saodat buvi nevarasini yaxshi bilar edi. U hech qachon hech bir vaj bilan yomon ish qilmasligini bilsa ham, yana so'radi:

– Nima ish ekan?

– Kechagi gaplaringizni dugonalarimga aytib beruvdim, ular: «Biz ham borib eshitaylik», deb turib olishdi. Sizdan so'ray, in-naykeyin, desam ham qo'yishmadni, – Tursunoy shunday deb, er-kalanishga tushdi. – Maylimi, a, kelishsa, buvijon? Mayli deng...

Saodat buvining ko'zlarida qora bulut emas, charaqlagan qu-yosh bor edi. Ana shu quyoshdan nur sochib so'radi:

– Sen nima deding? Xo'p dedingmi?

– Xo'p dedim.

– Xo'p degan bo'lsang, yana nimaga so'raysan mendan? Nima, men seni chakki qilibsan, deb koyirmidim yo dugonalaringni haydab chiqararmidim? Bordi-yu, shunday qilsam, sen dugonalaring oldida nima degan odam bo'lar eding?

– Uyatga qolar edim.

Saodat buvi nevarasini xijolatdan chiqarish uchunmi, sho'x-gina kuldi:

– Ha, barakalla. Maslahatsiz ish hammani hamma vaqt uyatga qoldiradi, qizim. Mana, maslahatlashib bir qarorga keldik. Sen ham uyatdan xorij bo‘lding. Bo‘pti, kelaverishsin, hammasiga ham joy topiladi uyimizdan. Bemalol.

Tursunoy suyunganidan kichkina qizlarday sakrab borib, buvisining bo‘yniga osildi. U betidan bu betidan cho‘lp-cho‘lp o‘pdi. Quvonch chashmasi qaynoqqa kelib, uni hatto ashula ham ayttirib yubordi. Bu ashula hali hech yerda eshitilmagan, hech kim tomonidan hech mahal aytilmagan, jarangi chiroyli, yangi ashula edi. Buni Tursunoy: «Omon bo‘lsin bag‘rikeng, mehri daryo buvijonim», deb boshlashga boshladi-yu, «daryo» so‘ziga munosib qofiya topolmay, «Omon bo‘lsin bizni deb...» – deganicha dami ichiga tushib ketdi. Chala qolgan bu misrani bir necha marta duduqlanib-duduqlanib qaytardi, ammo ohangdosh, vazndosh so‘z kelavermadidi. Ana shundan keyin ikkalasi qah-qah urib kulib yuborishdi. Ana shu kulgi, chaq-chaq ustiga o‘ntacha qiz uyalishib, qimtinishib kirib keldi. Saodat buvi ularni ochiq chehra bilan kutib oldi. Har birini tarovatli yuzidan, muattar sochidan o‘pib o‘tqizdi. Bular orasida tabiatan sho‘x, xushchaqchaq, hazilkash bir qiz ham bor edi. Lekin hazillari ibo doirasidan chiqmas, sharaqlab kulishlari qiz sha’niga uyat keltiradigan pardaga ko‘tarilmas edi. Saodat buvi qizlarning o‘zlaridan, uy ichlaridan hol-ahvol so‘ragandan keyin haligi Otika ismli qiz bir kulib, bir jiddiy turib, hazilga yo‘g‘rilgan uzrini aytta boshladi:

– Shu deng, opoqijon, kecha Tursunoya juda chiroyli gaplar aytib bergen ekansiz, bugun ertalab bizni ko‘rdi-yu, o‘sha gaplar yuragidan toshib chiqib ketdi. Qarasak, bizni ham mahliyo qilyapti. E, bizni ham obor, bizam bir eshitaylik, desak qizg‘anchiqligini qarang, yo‘q deydi-da! Ha, nimaga yo‘q desak, oldin buvijonimdan so‘ray, keyin oboraman, deb turib olsa bo‘ladimi! Shu deng, opoqijon, yo‘q deganini eshitib, yuragim tars yorilib ketay dedi. Bizam chumchuq pir etsa, yuragi shirr etadigan qo‘rqoqlardan emas ekanmiz shekilli, yo‘-o‘q, qayrilma qoshlaringga Otikang tasadduq, bizam boramiz. Agar opoqimlar seni chakki qilibsan, deb kaltaklamoqchi bo‘lsalar, sen yallangni qilib yuraver, mana men orqamni tutib beraman, ura-ura o‘zları charchaydilar, miq

etsam, Otika nomimni boshqa qo'yganim bo'lsin, dedim. Bosib kelaverGANIMIZ Uchun aybga buyurmaysiz. Endi ixtiyor o'zlarida, opoqijon, istasalar zahri gavron bilan, istasalar aqli davron bilan bizni sarafroz qilurlar...

Saodat buvi Otikani endi ko'rayotgani yo'q edi. U Tursunoy bilan juda ko'p marta kelgan, hazilkashligi sinashta bo'lib qolgan edi. Shuning uchun Saodat buvi yurakdan chiqqan toza bir kulgi bilan yayrab kului-yu, suhbatini boshlash taraddudiga tushdi. Qizlarning hammasida daftar, qalam bor edi. Ularning o'zlarini ham guldasta qo'yilgan stol atrofida bahor lolalaridek ochilib o'tirishar edi. Saodat buvi qizlarga bir-bir ko'z yogurtirib chiqdi. Unga bu chiroyli qizlar lovullab turgan bir xokandoz cho'g'ga o'xshab ko'rindi. Yuragi yorishdi, qalbiga ajib bir mehr tushdi.

— Nazarimda, ba'zi narsalarni yozib olasizlar shekilli, — dedi Saodat buvi, qizlar oldidagi qalam-daftarga ishora qilib. — Mayli, yozib olaveringlar. Lekin sizlardan bitta iltimos: tushunmagan, uqmagan narsalaringizni, erish ko'ringan joylarni xato yozib olgandan ko'ra, so'rab-bilib yozganga nima yetsin. So'raganning aybi yo'q. Innaykeyin, ba'zi masalalarni, chunonchi, muhabbatga aloqador narsalarni so'rasak uyat bo'lmasmikin, deb tortinib o'tirmanglar. Avvalambor, hammangiz ham Tursunoya o'xshash qizlarimsiz, qolaversa, bu yerda erkak kishi yo'q. O'zimiz, jon qizlarim. Xo'pmi? Ha, shunday bo'lsin.

Qizlar yerga qarab o'tirishar edi. So'nggi savolga boshlari sal egildi-yu, lekin sado chiqmadi. Saodat buvi kulimsirab, mud-daoga o'tdi.

— Bugun muhabbat haqida gaplashamiz. Ishq-muhabbatni har kim har xil ta'rif qiladi. Birov quyoshga o'xshatsa, yana birov otashga, birov gulga o'xshatsa, yana birov bulbulga. Menimcha, bu ta'rif-tavsiflarning hammasi ham o'z yo'lida to'g'ridir. Ni-maga desanglar, muhabbatni har kim har xil his qiladi. Muhabbat o'tida yonish yo uning lazzatidan qonish — hammada ham bir xil bo'lavermas. Ishq-muhabbat moddiy narsa emaski, tarozida tortib yo metrda o'lchab ko'rsak. Qisqa qilib aytilganda, muhabbat — his, bir kishida ikkinchi kishiga nisbatan tug'iladigan joziba hissi. Ammo dunyodagi jamiki hislar, tuyg'ularning toji. Shu jihatdan,

odamning qarorini olib qo'yadigan qudrati jihatidan u tushunib bo'lmaydigan qandaydir sirga, odamzod ixtiyoriga tobe bo'lma-gan bir qudratga egadek tuyuladi. Aslida esa, bunda hech qanday sir, odamzod ixtiyoridan tashqari hech qanday qudrat yo'q. Mu-habbat bir qarashdayoq odam ixtiyorini olib qo'yadigan qudratlil his bo'lib tuyulishi haqiqat, lekin, aslida, unday emas. Bu yerda, menimcha, boshqa gap bor. Odamlarda his-tuyg'u har xil bo'-ladi, dedik. Haqiqatan ham, hayotda birovga oq yuz, qora soch, kulib turgan sho'x qiz yoqsa, boshqa birovga ko'rinishidan, kiyi-nishidan, o'zini tutishidan, yurish-turishidan, siyratidan aql-idrok yog'ilib turgan og'irtabiat qiz yoqadi. Qizlarda ham xuddi shu his-tuyg'u hukmron. Bilmayman, buni tabiat ilmining peshvo-lari jins tanlash deyishadimi yo just tanlash – bu yog'i olimlarga havola. Lekin biz sodda odamlar yulduzi yulduziga to'g'ri kelsa-gina muhabbat sodir bo'ladi, deymiz.

Qizlardan biri asta boshini ko'tarib Saodat buviga qaragan edi, u darhol fahmlab:

– Ha, bir nima demoqchimisan? – deb so'radi.

Qiz so'raydigan gap qaltisroq ekanmi, so'ramasdanoq qizarib, aytar gapini yo'qotib qo'ydi:

– Haligi...

Haligilamay gapi raver, qizim, tortinma. So'ra. Yuragingda tu-gun qolmasin, aylanay, – dedi Saodat buvi qizga dalda berib.

Qiz so'zlarini xuddi birov og'zidan ombur bilan sug'urib ola-yotgandek qiynalib, yana:

– Haligi... Xah, nimaydi? – dedi-yu, tag'in to'xtab qoldi. Qiz-lar gurr etib kulib yuborishdi. Haligi qiz bo'lsa yuzini to'sib, yerga qarab oldi. Saodat buvi birdan qovog'ini uydi.

– Hay-hay, qizlar! Bu qanaqa qiliq? O'zi gapini topolmay nima ahvolda-yu, sizlar yana uyaltirasizlar, kulib. Qo'yinglar, so'rab olsin.

Saodat buvining tarafkashligidan keyin ham qiz darrov o'zini o'nglab ololmadi. Ancha qizarib, o'ylanib turgandan keyin, asta boshini ko'tarib dedi:

– Unaqa bo'lsa nimaga yigitlar avval sevishib, keyin tashlab ketishadi?

Yana o‘rtada qizlar kulgisining jarangi yangradi. Savol bergen qiz battar qizarib ketdi.

– Kulmanglar dedim-a sizlarga, qizlar! Bas qilinglar! – dedi Saodat buvi chinakam xafa bo‘lgan qiyofada.

Lekin bu ham kor qilmadi. Savol bergen qizning yonida o‘tirgan durkun, ko‘zga yaqin boshqa bir qiz uning boshiga do‘q etka-zib urdi-da, chap qo‘li bilan o‘z yuzini timdalab:

– Uyat! Uyat! – dedi. Buni Saodat buvi ko‘rib, kulib yubordi...

Nimaga uyat deysan, Muqaddas? Bilmaganini so‘rasa uyat bo‘ladi, deb kim aytdi senga? Unaqa qilma, bolam. Bilmaganini so‘rasa ayb bo‘ladi, deb o‘tirgandan ko‘ra, odob doirasida so‘rab, bilib olgan yaxshi emasmi? Yo‘q, qizlar, unaqa qilmanglar. Xo‘p bo‘lmasa, Muqaddas, shu qizning savolini bersam, javob qila ola-sanmi? Qani ayt-chi, yigit tushmagurlar nimaga tashlab ketish-larini bilasanmi, a, qizim?

Muqaddas, boshini yerdan ko‘tarmay, yo‘q, dedi.

– Ana, ko‘rdingmi, aylanay, o‘zing ham bilmas ekansan-u, tag‘in bechora Hilolani ermak qilyapsan. – Saodat buvi dav-radagi qizlarga murojaat qildi: – Qani, kim aytib beradi buning sababini? – Hech kim churq etmadni. – Demak, javob o‘zimizga qoldi. Xo‘p, bo‘pti, o‘zim aytib beraman. Ko‘p yoshlari, ayniqsa, qizlar muhabbat masalasida ko‘rsavodlik qilib qo‘yishadi. Sevgi izhor qilgan hismi – buni ko‘pincha farq qilishmaydi. Nima uchun farq qilishmaydi? Aql-u farosatlari yetmaydimi yo boshqa sababi bormi? Ha, boshqa sababi bor. Bunga shoshqaloqlik sabab. Ba’zi yoshlari chuqur o‘ylab, yaxshi chamalab ish ko‘rish o‘rniga shoshma-shosharlik qilishadi – xuddi birov, tez bo‘l, tez bo‘l, deb qistayotgandek. Shoshqaloqlikning yana bir kasri shundaki, u haqiqiy his bilan hirs degan baloni farq qildirmay qo‘yadi. His bilan hirsni esa, farq qilish kerak, juda ham kerak. Aksar qizlar shoshqaloqlik orqasida hirsni beozor his deb qabul qilishadi-yu, keyin o‘ylamay bosgan qadamlari dog‘ida qovu-rilib yurishadi. Bu ikki so‘z, ya’ni his bilan hirs yonma-yon tur-ganda bulardan biri ko‘ngilni ravshan qiladigan yuksak, ikkin-chisi esa, inson qadrini yerga uradigan tuban ma’nodagi so‘zlar ekani ko‘zga yaqqol chalinadi. His – biron yaxshi yo yomon

narsani yo ong bilan, yo badan tegishi bilan sezish, ya’ni sezgi bo’lsa, hirs – bir narsaga hayvonlarcha tashlanish, yomon narsaga berilish, odam bolasiga yarashmaydigan xunuk, tuban ishlar qilish, zo’rlik yo aldov bilan nafs qondirish, ya’ni nafs baloligidir. Ana shunday hirs bandalari ustida gap ketganda: «Ha, umi? O’lguday dunyo orttirishga hirs qo’ygan-da!» deb, boshqasi, haqida: «Ha, taniymiz, qorasi o’chsin! Nuqlu nodon qizlarni tuzoqqa ilintirgani-ilintirgan!» – deyishadi. Agar muhabbatning insondagi eng oliv tuyg‘ular yig‘indisi, eng shirin, eng pok va halol hislar, ezgu jozibalar ka’basi ekan nazarda tutilsa, harom-xarish yo’llar bilan o‘ynab qolishdan, boylik orttirishdan o‘zga tilagi, o‘zga intilishi bo‘lmagan nafs bandalari uchun dunyoda faqat tuban hirs bor, zinhor yuksak his yo‘q! Bunday nobakorlar jirkanch lazzat va rohatlarini o‘zgalar sho‘ridan qidirsalar, birovning molini, yana birovning nomusini o‘g‘irlasalar, bir chaqalik manfaatlarini deb imonlarini, vijdonlarini sotsalar, yana baribir, ichdan ezilishmaydi, qora qilmishlaridan pushaymon bo‘lishmaydi, axir bir kun burunlari qonab, ko‘zlar ochilmaguncha yaramasliklarini davom ettiraveradilar. Hirs o‘lgur shunaqa yomon narsa. Shu qadar yomonki, oxir-oqibatda odamni odamgarchilikdan chiqaradi, hatto ertami-kech boshiga ham yetadi. Bu yomon kasofat, oppoq qizlarim! Shuning uchun oq bilan qorani, yaxshi bilan yomonni farq qiladigan aqli raso odamlar o‘t dahshatidan o‘zlarini qanday olib qochsalar, hirs kasofatidan ham shunday qochadilar. Aqli bor odam, avvalambor hirs vasvasasiga uchmaydi. Bordi-yu, bilibmi, bilmaymi yo boshqalarning kasriga qolibmi, shunday yomon ish qilib qo‘ydi, deylik. Bunday vaqtida aqli odam qilmishlaridan pushaymon bo‘lib gunohini tezroq yuvadi, yomonlik qilib qo‘ygan odami oldida yuzini yana yorug‘ qilib olishga intiladi.

Shijoat degan qiz gapirgisi kelib o‘tirgan ekanmi, Saodat buvi nafasini o‘nglash uchun to‘xtar-to‘xtamas, o‘rnidan turinqirab:

- Ruxsat bersangiz, ikki og‘izgina gapim bor edi, – deb qoldi.
- Voy, gapiraver, bolam, bemalol.

Shijoat qizarib, qimtinib o‘tirmadi. O‘zini tutib olgan pishiq-qina qiz ekan, biyron-biyron gapirib ketdi:

– To‘g‘ri-da, opoqi, birovga, ayniqsa, seni o‘ziga yaqin tutgan odamga bilibmi-bilmaymi yomonlik qilib qo‘ysang – bundan eng oldin o‘zing ezilasan. Axir, u seni do‘stim deb, vijdoningni ham o‘ziniki singari toza deb bilsa-yu, sen unga g‘alamislik qilsang – juda yomon pastlik, vijdonsizlik, do‘stlik shartiga xiyonat bo‘ladi-ku! Shuning uchun siz aytganday qilib, ya’ni yomonlik qilgan odamingdan darhol uzr so‘rab, yuzingni yorug‘ qilib olishing kerak. Men sizning gapingizga yuz foiz qo‘shilaman, opoqi. Mening-ku, boshimdan o‘tgani yo‘q bunaqa narsalar, lekin qilmishing o‘kinchi yuragingda qora tugunchak bo‘lib yotsa, yashash qiyin bo‘lsa kerak!

– Ofarin, qizim! Yashash juda qiyin, tob keltirib bo‘lmaydigan darajada qiyin bo‘ladi.

Saodat buvi oldida yotgan qog‘ozlarini kovlashtirib, izlaganini topolmadimi, negadir birdan qiqirlab kulib yubordi.

– Shijoatxon, aylanay, juda yaxshi gapirding-u, lekin meni gapimdan chalg‘itib qo‘yding-da. Ha, mayli. Nima to‘g‘risida gapirayotuvdim?

Qizlar xushchaqchaq kulishib:

– His bilan hirs to‘g‘risida, – deyishdi.

– Ha, to‘g‘ri, his to‘g‘risida, esimga tushdi. Shuni yaxshi esda tutinglarki, qizlarim, his muhibi ham, hirs bandasi ham el-u ko‘y nazaridan chetda bo‘lmaydi. Yaxshi yurgan, o‘zlarini yaxshi tutgan yigit-qizlardan gap chiqsa, odamlar: «Ha, u falonching bolasi, otasiga rahmat. Ko‘p baodob, xulq-hayosi baquvvat bola-da!» – deb maqtashsa, yomon yurgan, yomon xulq-atvori bilan badnom bo‘lgan yigit-qizni: «E, attang, tuppa-tuzuk odamning bolasi edi-ya! Nima jin urdi, a? Bay-bay-bay, la’nati shayton yo‘ldan ozdirganov! Ota-onasiga isnod keltiribdi-ya!» – deb hayfsinishadi.

Qizlar bir-birlari bilan pichirlashib qolganlarini ko‘rib, Saodat buvi gapini to‘xtatdi. Qizlardan biri darhol so‘radi:

– Opoqi, shayton degan narsa yo‘g‘-u, nega uni odamlar og‘izlaridan tushirishmaydi. Hayronman, yo‘q narsa qanday qilib odamlarni yo‘ldan urishi mumkin? Shunisiga hech aqlim yetmaydi. Nimaga bunaqa, a, opoqi?

– Hamma balo shunda-da, bolam. Biz qilar ishni qilib qo‘yib, gunohni boshqaga to‘nkaymiz. Yana taajjubki, birov yaxshi ish qilsa, «shaytonga chap beribdi», deyishmaydi-yu, yomon ish qilib qo‘ysa, «shayton yo‘ldan ozdirganov!» deyishadi. Yaxshi yo‘lga emas, yalang yomon yo‘lga boshlaydigan o‘scha la’nati shayton nima? Aft-angori, turqi qanaqa? Ko‘rgan bormi?

Qizlar, bilmaymiz, deb yelkalarini qisishdi. Saodat buvi yana so‘radi:

– U qurib ketgur ham siz bilan bizga o‘xhash odamba-sharami?

Qizlar yana yelkalarini qisishdi. Saodat buvi yana so‘radi:

– Oramizda yuradimi? Yursa, nimaga ko‘rmaymiz?

O‘rtaga sovuq sukunat tushdi. Qizlar ham, Saodat buvi ham churq etmas edi. Anchadan keyin qizlardan biri tortinibroq gap boshladi:

– Men ko‘rganman...

Qizlar qiyqirib kulib yuborishdi. Saodat buvi ham alag‘da bo‘lib qoldi. Birdan qizlar chug‘uri boshlandi.

– Bekorlarni aytibsiz! Hech kim hech qachon ko‘rgan emas shaytonni! Yolg‘on aytasan, sen ham ko‘rgan emassan! – degan edi. Mohina, shaytonni ko‘rganligini aytgan qiz, ont icha boshladi:

– Yolg‘on aytsam... haligi... yolg‘on aytsam-chi, qizlar, bo‘pti – institutga kirolmay qolay! Ana, endi ishondinglarmi?

Yana jarangdor kulgi ko‘tarildi. Qizlar qotib-qotib kulishar, haligi qiz bo‘lsa, chinakam ko‘rgan kishi qat’iyati bilan pinagini buzmay o‘tirar edi. Axiyri, qizlardan biri so‘radi:

– Xo‘p, qayerda qo‘rgansan, ayt-chi?

U qiz ham hech tap tortmay:

– Televizorda, – dedi.

Yana kulgi, yana chug‘ur-chug‘ur boshlandi. Qizlar bir-birlariga so‘z bermay chug‘urlashar, kulgidan so‘zni na eshitib, na tushunib bo‘lardi.

– Voy, qayrilma qoshlaringga Otika opang tasaddug‘-ey, – dedi durkun qiz sho‘x kulib, – adashmasam, Gogolning «Dukanka xutoridagi kecha»sini aftyapsan, shekilli?

Uni hammamiz ham ko‘rganmiz. O‘sha sen shayton degan narsani haligi polvon yigit qopga solib, avval rosa qiyaydi, keyin minib olib, podsho saroyiga olib boradi, a?

Ha, – dedi ko‘rganini da’vo etayotgan qiz, – Peterburgga, podsho saroyiga olib boradi. Ana o‘sha-da, shayton.

Qizlar sho‘xligiga havasi kelib, divanda kulimsirab o‘tirgan Saodat buvi gap jilovini yana o‘z qo‘liga oldi.

– O‘sha hammamiz maza qilib ko‘rgan filmda, innaykeyin, turli ertaklarda tasvir qilingan shayton inson tasavvurining mahsuli, xolos. Birov shayton bor deydi, yana birov bo‘lsa bordir, men qayerdan bilay, deb gumon qiladi. Faqat odam degan dono xilqat sha’niga yarashmagan ba’zi yaramas qiliqlarimizni, past-kash ishlarimizni yashirish uchun, «buni o‘zimiz qilmadik, la’nat shayton vasvasasiga uchib qilib qo‘ydik, shu sababdan ayb bizda emas, shaytonda», deyish uchun odamzod ana shu yo‘q aybdorni o‘ylab chiqargan bo‘lsa kerak. Ha, nazarimda, shunday bo‘lsa kerak. Shayton ko‘proq diniy kitoblarda, diniy rivoyatlarda tilga olinadi. Ammo shayton bor, faqat biz aytgan nom-u biz o‘ylagan qiyofada emas. Nomi ham, qiyofasi ham boshqa. Haqiqiy shayton ana o‘sha! Uning haqiqiy nomi – hirs! Ya’ni nafs baloligi! Irodasi zaif, tushunchasi past, dunyoqarashi betayin, haq va nohaq qayerdaligini bilmaydigan, odamiylik fazilatlaridan mahrum, oqibat va mehr-shafqat tuyg‘ulariga begona, kaltabin, qadamini ko‘rib, bilib bosmaydigan ko‘zi ochiq ko‘rlarnigina yo‘ldan ozdiradigan shayton – ana shu hirs!

Saodat buvi, ichi yonib ketdi shekilli, yonidagi termosga qo‘l cho‘zgan edi, Tursunoy darrov turib choy quyib berdi. Saodat buvi bir-ikki ho‘pladi-da, boshidagi durrasini tuzatib, yana boyagi haroratda so‘zini davom ettirdi:

– Afsuski, oramizda yomonlik hirsini yaxshilik hissidan kuchli deb bilib, unga qarshi kurashishdan bosh tovlovchi qo‘rkoqlar uchrab turadi. Yo‘q, unday emas. Yaxshilik hissining qudratini bilmaydigan, hatto uni ko‘z oldiga keltirishga ham qurbi yetmaydigan ojiz odamlarning valaqlashi bu! Yo‘q, qizlarim, men undog‘ gaplarga ishonmayman. Agar bunaqa bema’ni gaplarga, quruq safsatalarga qulq soladigan bo‘lsak, unda aziz Vatani-

mizni kundan kunga bezab, boyitib, qudratiga qudrat qo'shib kelayotgan ajoyib kishilarimiz xizmati qayerda qoldi? Shunday haqli savol tug'ilmasmikan? Albatta, tug'iladi. Tug'ilishi tabiiy. Agar odamlarimizga, azamat kishilarimizga ularning fidokorona mehnatlarida Vatanimizga, nurafshon zamonamizga bo'lgan be-qiyos mehr-muhabbat va sadoqat hislari rahnamolik qilmaganda, yurtimiz shunchalar gullab-yashnarmidi!

Saodat buvi savoliga javob kutayotgandek, qizlarga qarab qoldi. Qizlar bir necha zum jim o'tirishgandan keyin xuddi qo'g'irchoqqa o'xshagan chiroyli, kelishimli, nozikkina bir qiz o'midan turdi.

– Gapimiz yaxshilik bilan yomonlik ustida edi. Agar shuncha narsalar qilingan bo'lsa, bularning hammasi yaxshilik oqibati bo'lsa kerak. Har holda men shunday deb tushunaman.

– Tushunsang judayam to'g'ri, Yorqinoy. Bularning hammasi yaxshilik samarasi. Shuning uchun ham, ota-bobolarimiz yaxshilikni nurga, yomonlikni esa zulmatga qiyos qilganlar. Biz buni jichcha o'zgartirib: yaxshilikni his-u yomonlikni hirs deb ko'raylig-a. Ana unda hirs balosini daf qilish kurashidan o'zlarini chetga tortib yurgan boqibeg'amlarning ahvoli hirs qadar yaramas, hirs qadar xunuk ekani ravshan bo'ladi. Bunday o'ylab qaraganda, qachon zulmat nurni yengibdi-yu, qora hirs oq hisni yengsin! Yo'q, hech qachon yenga olmaydi!

Saodat buvi ovozi ko'tarilib ketayotganini sezib qoldimi yo boshqa andisha bilanmi, shu yerga kelganda pitcha to'xtab qoldi. Qizlar xuddi sehrlab qo'yilgandek, qimir etmay, churq etmay o'tirishar edi.

«Muhabbatning saroyi keng ekan, yo'lni yo'qotdim-ku», deb nola qilgan ekan bir oshiq. Haqiqatan ham, muhabbat tilak manzili bo'ladigan bo'lsa, unga olib boradigan yo'l ko'p. Gap shundaki, bu yo'llarning hammasi ham ravonmi, o'nqir-cho'nqiri, g'ov tushgan yeri yo'qmi? Buning ahamiyati kichkina emas. Bizni bu borada hamisha hushyor bo'lishga majbur etadigan bir narsa bor. U istagimizning yuzaga chiqmay qolish ehtimoli. Taqdir taqozosi bilan tushib qolgan yo'limizda uchrashi mumkin bo'lgan eng katta g'ov – yana o'sha badbaxt hirs. Shu boisdan ham, uning

to‘g‘risida ancha bat afsil gaplashdik. Maqsad – o‘zlar ингизга ма‘лум: yor tanlashda, umr yo‘ldoshi tanlashda hushyor bo‘ling, shoshilmang, es-hushingizni yo‘qotmang: huzur onining mast-u alasti bo‘lmang, demoqdir.

Qizlardan biri sinfdagi singari asta qo‘l ko‘tarib so‘z so‘radi.

– Gapiraver, qizim, gapiraver, – dedi Saodat buvi xursand jilmayib.

– His bilan hirs to‘g‘risidagi gaplaringizga batamom qo‘shilaman. Dunyoda hirs degan narsa borligini, ancha-muncha qizlar undan jafo chekishlarini men shu vaqtgacha bilmas ekanman. Lekin avval sevishib, keyin ajrab ketish hollariga faqat shu hirsgina sababmikan yo chinakam muhabbat degan narsa aslida yo‘qmikin? Shu to‘g‘rida fikringizni eshitgim bor edi.

– Albatta, ajrab ketish hollarining sababi birgina hirs emas, – dedi Saodat buvi, munozara boshlanayotganidan mammun bo‘lib.

– Shubhasiz, boshqa sabablari ham bor, lekin ular to‘g‘risida keyinroq, o‘rnii kelganda gaplashamiz. Yoshlar bilan o‘tkaziladigan uchrashuvlarda o‘rtaga tashlanadigan bir masala bor, hozircha shu masala ustida to‘xtasak. Bu – muhabbat masalasi. Yoshlar, ayniqsa, qizlar: «Haqiqiy muhabbat bormi?» – deb so‘rashadi. Mana, hozir ham dugonangiz «Chinakam muhabbat aslida yo‘qmikin?» degan gumonni bildirdi. Agar masalaga xolis ko‘z bilan qarab, bir nima deydigan bo‘lsak, albatta, muhabbat bor, deb javob beramiz. Muhabbat bor, bo‘lgan, bundan keyin ham bo‘ladi, shubhasiz. Agar muhabbat, buning ustiga yana haqiqiy muhabbat bo‘lma ganda, muhabbatni kuylab, uni pok saqlashni avlodlarga vasiyat qilib ketgan ulug‘ donolarni qalblarimiz qo‘ri bilan ardoqlab kelmas edik. Agar muhabbat, buning ustiga, yana haqiqiy muhabbat bo‘lma ganda, hazrati Navoiyning «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» kabi o‘lmas dostonlari, Pushkinning «Yevgeniy Oengin»i, «Kapitan qizi», Lev Tolstoyning «Anna Karenina»si, Natasiasi, Abdulla Qodiriyning Kumushbibisi bilan Otabegi, qisqasi, ularga o‘xhash ulug‘ qalam sohiblarining bashariyat mulkiga aylangan umriboqiy asarlari dunyoga kelarmidi?

Saodat buvi asta ko‘zlarini yumib, bir zumgina to‘xtab qoldi. Shu zumda Shirinning siyomisi ko‘rinib ketdimi ko‘zlariga yo Ku-

mushbibimi, buni bilguvchi bo‘lmadi. Keyin, tahsin o‘qigan kishi qiyofasida boshini sekin-sekin qimirlatib, so‘zini davom ettirdi:

– Muhabbatni inkor etayotganlarning o‘zlar ham buni tan olish u yoqda tursin, xayollariga ham keltirmaydilar. Muhabbat faqat ongli mavjudodda, ya’ni odamzoddagina emas, parranda-yu darrandada, hatto muhabbatga hech aloqasi yo‘qdek tuyulgan yirtqich hayvonlarda ham bor. Juftidan ayrilib, dunyo ko‘ziga qorong‘i bo‘lgan oqqush ham, turna ham judolik alamiga chidalomay, o‘zlarini toshga urib nobud qilarmish. Bu haqiqatmi yo bir naql – bu bizni o‘ylashdan, o‘y tagiga yetishdan xalos etmaydi. Xo‘p, o‘ylaylik, qizlar. Qani, qushlarning o‘zlarini nobud qilishlarini nima bilan izoh qilamiz? Balki, buni bir-biriga o‘rganib, suyanib qolish oqibati deb tushuntirarsizlar? Qaydam, birov birovni yoqtirmasa, ayniqsa, yaqinlik hissi sezmasa o‘rganarmikin? Menimcha, o‘rganmaydi. Aksincha, o‘zini olib qochadi. Shunaqa, qizlar, yolg‘on muhabbat yo‘q, faqat muhabbatni yolg‘on tushunish bor. Ya’ni ko‘r-ko‘ronasiga tushunib, xato ketish bor. Muhabbat shunday kuchki, mubtalosining ixtiyorini olib qo‘yib, xunukni chiroyli, chiroylini dono qilib ko‘rsatadi. Ana shunday kezlarda ishq mubtalolari qalblarida uyg‘ongan muhabbat hissi chin yo o‘tkinchi havas jazavasimi – buni bilishga ulgurmay, yo‘q-yo‘q, bilishga harakat qilmay, darhol ko‘ngil mulkini sinamagan odamining qo‘liga tutqazib qo‘yadi. Yoshlar bir-birlari bilan tanishib, bir-birlariga yaqinlik hissi sezib yurgan dastlabki kunlarda ko‘zlarini yog‘ bosib qolganidanmi yo qo‘yayotgan qadamlariga mas’uliyatsizlik bilan qarashganidanmi, qaydam, bir-birlarining qanaqaliklariga tuzuk-quruq qiziqishmaydi. Shuning uchun ham, ularning xarakterlari, dunyoqarashlari, intilishlari, orzu-umidlari ravshan ko‘rinmay, ko‘ngil go‘sasining allaqayerida ko‘zdan qo‘chib qoladi. Keyin, yigit bilan qiz murod-maqsadiga yetib, sevgi alangasi kechagi taftidan tushgach, ilgari ko‘zdan yashirinib qolgan nuqsonlar bo‘rtib chiqadi-yu, kechagina ishq-muhabbat bodasidan mast-alast yurgan oshiq sochini yulib fig‘on qiladi: «E Xudo, men nima qilib qo‘ydim-a?! Mening aqidamga, tabiatimga tamom begona bu nuqsonlarni nimaga ko‘rmadim? E-voh, ko‘zim qayerda edi?!» – deya pushaymonlik o‘tida yonib. Bunaqa pu-

shaymonlik, albatta, ertami-kech turmushni buzadi. Agar yoshlar bir-birlari bilan tanishgan dastlabki kunlaridan boshlab, hamma ixtiyorini ko'ngil ra'yiga berib qo'ymay, aql mayliga ham quloq osishsa, men aminmanki, avvalambor, o'rtada shoshma-shosharlik bo'lmas edi, qolaversa, sevgilari ajralish bilan natijalanmas edi. Sevgida aql andishasi bilan emas, ko'ngil shaytonining vasvasasi bilan qo'yilgan qadam oqibati hamisha ko'z yoshi, hamisha dog'-u hasrat! Sevgi ikkinchi shaxsga qaratilgan chuqur mahramlik hissiki, uni zo'rlik bilan paydo ham qilib bo'lmaydi, zo'rlik bilan yo'q qilib ham bo'lmaydi. U shunday bir qudratki – Saodat buvi oldidagi xatcho'p suqib qo'yilgan kitoblardan birini qo'liga oldi, – Dante o'zining «Ilohiy komediya»sida, «Quyoshni va falakni harakatga keltirib turgan narsa sevgidir», deydi. Har bir sevgi sohibi muhabbatga shu nuqtayi nazardan qarasa edi, ya'ni uning kuch-qudrati, ulug'ligini tan olsa edi, sevgi muqaddasligini yo'qotmas, nodonlar, gumrohlar oyog'i ostida toptalmas edi.

Saodat buvi haqsizlikni ko'rib yuragi ezilgan odamday mahzun o'tirib qoldi. Bu alam, bu g'am qizlarga ham ta'sir qildi. Ular ham boshlarini ko'tarmay o'tirishar edi. Bir mahal Saodat buvi boshini ko'tarib, suhbatini davom ettirdi:

– Dunyoda har bir insonning ayrilmas do'sti bo'ladi. Kechalari yurganda – qo'lida chirog'liq, kunduzlari esa, asolik vazifasini bajarib, odamni ko'p falokat va kulfatlardan saqlaydi. Uning oti – aql! Lekin biz ba'zan shunday g'amxo'rimizni nazar-pisand qilmay, boshqa bir jodugarning so'ziga uchamiz. Uning oti esa – ko'ngil! Eh-he, bu jodugar ko'ngil nimalarni qo'msamaydi jilovingizni tutqazib qo'ysangiz! Bu jodugar aqlni yoniga yo'latmaydi, aql maqbul yo'l topgancha bo'lmay, odamni o'zining pastqam yo'llariga boshlab ketadi. O-o, bu yo'llar, bu pastqamliliklar! Ne-ne sharmandaliklarga, ne-ne yuziqoraliklarga duchor qilmaydi, deysiz. Mavlono Lutfiy kuyib aytganidek, bizni rasvo qiladigan ana shu ko'ngil-u pushaymonlik o'sha yondiradigan uning pastqam ko'chasi!

Saodat buvi yonida taxlog'liq turgan ko'k muqovali kitobni olib varaqlay boshladi. Keyin qizlarga qarab, dedi:

– Gapimiz ko'ngil peshvolarining ranjiga kelib taqaldi. Haqiqatan ham, ko'ngil dastidan dod deb o'tganlar ilgari zamonalarda ham bo'lgan edi, hozir ham bor. Bundan olti asr ilgari dunyoga kelib, odamzod baxti uchun, haq-adolat uchun butun umri va ijodini baxsh etgan ulug' o'zbek klassik shoiri mavlono Lutfiy ham ko'ngil ra'yidan kuyganligini mana shu taxlit yozgan edi:

*Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul,
Xor-u rasvo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.*

*Dushman-u do'st orasinda meni g'ofilni mudom
Besar-u po qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.*

*O'zgadin ko'rmaki ko'zing yoshini, ey Lutfiy,
Ayni daryo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul.*

Saodat buvi Lutfiy she'rining eng hayajonli satrlarini o'qib berib, qizlarga bir zumgina tikilib turdi. Qizlar darrov bir narsa deyishavermagach, Saodat buvi yoqimligina kulimsirab, so'zni yana o'zi davom etkazdi:

– Hozirgi bahsimiz eski bir rivoyatni esimga tushirdi. O'zi ertakka o'xshagan-u, lekin aql bilan ko'ngil mojarosida ibrat bo'ladigan joylari bor. Agar ota-bobolarimiz ming-minglab ertaklari qatori buni ham bizga meros qoldirib ketgan ekan, demak, bizdan lozimi – foydalanish.

Quloq solinglar: «Kunlardan bir kun Aql Ko'ngil ishidan norozi bo'lib:

– O'luguay shoshma-shosharsan, o'pkang yo'q. O'zingga yoqqan narsani mundog' tekshirib ko'rmay, shilq etib tushasan-u, ikki o'rtada meni sharmanda qilasan! E, xayf-e! Bir ish qilishdan yo bir gap aytishdan oldin yaxshilab o'yla, tekshir, surishtir, sina, so'ra, chamala, ana undan keyin bir qarorga kelgin-da! Ko'ngilman deb bilgan noma'qulchilicingni qilaverasanmi?! – debdi.

Ko'ngil Aql dashnomini eshitibdi-yu, xaxolab kulib yuboribdi.

– E, seni qara-yu, qachon Aql boyvachcha yetti o'lchab bir kesib berar ekanlar, deb og'zimizdagini oldirib o'tiraymi? Suf-e senga! – debdi. – Sen o'lchab, u yog'idan o'tib bu yog'iga, bu yog'idan o'tib u yog'iga qaraguningcha og'zimni ochib o'tira-

manmi?! Yo‘q, og‘ayni, bunaqasiga bizda toqat yo‘q. Biz darrov ishimizni bitiramiz-u, yallomizni qilib yuraveramiz.

Bu gapdan Aqlning jahli chiqibdi.

– E, yallo-mallong bilan qo‘shamozor bo‘l! Keyingi ko‘z yoshining uvoli nimaga? – degan ekan u. Ko‘ngil yana battar xaxolab kulibdi:

– Aqlman deb gerdawayapsan-u, shuni ham bilmaysanmi? Uvli o‘ziga, mening ko‘chamga kirganga-da! – debdi».

Qizlar birdan chug‘urlashib ko‘ngilning beyuzligini qoray boshlashdi. Hatto qizlardan biri bunaqa ko‘ngilning qorasi o‘chsin, deb ham yubordi. Saodat buvi indamay eshitib o‘tirdi. Keyin so‘z navbatini yana o‘ziga oldi.

Ana, ko‘ngil rasvoligi to‘g‘risida birdaniga ikkita misol. She’rdan bildinglar, o‘sha qadim zamon shoiri ham ko‘ngil ra‘yiga uchmanglar, uchsangiz, menga o‘xhash pushaymonchilik o‘tida yonasizlar, deb ogoh qilyapti. Ertak ham xuddi shuni ta‘kidlayapti. Haqiqatan ham, yuqorida qayta-qayta ta‘kidlaganimizdek, bu mol savdosi emas, umr savdosi. Bu savdoga ochiq ko‘z, tiniq aql, hushyor holat, katta mas’uliyat bilan qaralmasa, oqibati – oh-u voh! O‘ylab qaranglar-a, qizlar, odam bozor-o‘charga borganida olma oladimi, anor oladimi yo boshqa tur mevasi – hamma vaqt u yoq-bu yog‘ini qarab, tanlab oladi-ku! Idish-tovoq magaziniga kirganda ham, boshqa mol-mato do‘koniga kirganda ham qidirib kelgan narsasining asilini tanlaydi. Shunaqami, qizlar?

Albatta.

Ha, barakalla! Sevgida-chi? Tanlash kerak emasmi? Shoshqaloq ko‘ngil nima desa, shuni qilaverish kerakmi? Aql-chi? U nima deydi? Uning ovoziga ham quloq solish kerak-ku! Albatta, kerak. Yo qanaqasi bo‘lsa ham bizga baribir, deydigan aql ham bo‘ladimi? O‘ng quloq-so‘l qulog‘ingizda bo‘lsin, qizlar, yor tanlash – ko‘p mas’uliyatli ish. Shu qadar mas’uliyatliki, buguningiz, ertangiz, kelajagingiz rohati, baxt-saodatingiz shunga bog‘liq. Tanlaydigan yoringizning bo‘yi basti, aql-hushi, odob-andishasi, yurish-turishi, hatto kulish-jilmayishi, gapirishi, ovozi, muomalasi, madaniyatni va odamiyligi didingizga yoqadimi, sizga har jihatdan munosibmi – shu tomonlarini tekshirib, yaxshi bilib olgandan

keyingina, aql roziliqi bilan ko'ngil mayliga ixtiyor bersa bo'ladi. Qani, qizlar, sizlar nima deysizlar: aql ovoziga qulq solish zarur, deyilgan gapni shu ma'noda tushunsa bo'ladimi?

Qizlar har xil ovozda «bo'lar» deyishdi. Shundan keyin Soadat buvi so'zini yana davom ettirdi:

– Yoshlar quradigan yangi oilaning buzilib ketmasligi uchun, kelajaklarining g'am-g'ussadan, er-u xotin o'rtasida chiqishi mumkin bo'lgan sharm-hayosiz janjallardan tamom musaffo bo'lishligi uchun yuqoridagi shartlarga rioya qilsa, oila baxti yana ham ravnaq topar edi. Axir, ana shu shartlar zarurligini unutib qo'yib, aql maslahatisiz ish ko'rgan qizlar qilmishlari oqibatida hamisha barmoq tishlab qoladilar. Sevgan kishisining siyratida ko'zdan qochib qolgan bir xunuk narsa kunlardan bir kun yuzaga qalqib chiqadi-yu, kechagina ko'yida jonini fido qilishga tayyor turgan yorini ko'rgisi kelmay qoladi. Daf qilib bo'lmaydigan jirkanish, hazar hissi ixtiyorini olib qo'yadi. Bunday his oqibat-natijada ko'ngilsizlikka olib keladi. Ana ko'rdingizmi, bu devona ko'ngil qilar ishini qilib qo'yib, endi uni ajralish yo'liga yetaklayapti.

Ajralish esa, cho'ntagingizdan tushib qolgan besh tiyinchalik qadrsiz musibat emas. Bu judolik zamirida jismoniy fofia alami bo'limganda ham, undan qolishmaydigan ma'naviy fofia dardi bor. Bu fofia yetkazgan qalb jarohati bir umr bitmaydi. Kim biladi, tashlab ketgan munosibini topar-u, hamma narsa unut bo'lib ketar, lekin tashlangan, xorlangan tomonning holi nima kechar-kin? U, albatta, tashlab ketgan tomonini vafosizlikda ayblaydi, kuyadi, yonadi, o'zini urib yig'laydi, hatto nodonroq bo'lsa, o'z joniga qasd qilishdan ham toymaydi. Qani, aytinlar-chi, qizlarim, kechagina sevgi o'ti va iztirobidan uzoqda, g'am-u g'ussadan yiroqda o'ynab-kulib yurgan bir begunoh qiz boshiga buncha azobni kim ravo ko'rди. Yaxshilab o'ylab qaranglar-a, qizlarim! Qizning o'zi ravo ko'rmadimikan? Bu savdoda o'zi, faqat qizning o'zi aybdormasmikan? Agar u boshda yorini har tomonlama tek-shirgan, o'rgangan bo'lsa, bunaqa ayriliq o'tida kuyib qolmas edi. Ha, kuyib-yonmas edi. Men bunga aminman. Ana shunday qayg'uli hodisalarining bevosita alamzadalari yo guvohlari bo'lmish qizlar: «Yigitlarda vafo yo'q, ular faqat aldashadi», deyishadi.

Qizlardan kuygan yigitlar-chi? Ular ham qizlarni vafosizlikda ayblashadi. Natijada, ular ham, bular ham: «Dunyoda haqiqiy muhabbat yo‘q», deydigan tamom yanglish, tamom xato fikrga keladilar. Yo‘q, jon bolalarim, chin muhabbat bor. Faqat uni bor qilish ham, yo‘q qilish ham sizlarning o‘z qo‘llaringizda. Bu narsa sizlarning xulq-atvoringizga, olgan tarbiyangizga, odamiylik fazi-latingizga, muhabbatdek pok, toza hisni oyoqosti qilishdek gum-rohlikdan saqlanishingizga bog‘liq. Dunyoda insof degan adolat qudrati bor. Uning ne’mati beqiyos. Ana shu beqiyos ne’mat haqi o‘ylab ko‘ringlar, jon qizlarim, agar dunyoda chin muhabbat bo‘lma ganda, Sharqda – Firdavsiy, Umar Xayyom, Hofiz, Navoiy, Fuzuliy, Rudakiy; G‘arbda – Dante, Bayron, Pushkin, Lev Tolstoy, Lermontov daholari muhabbat mehrobiga bosh qo‘yib, ishqning, chinakam ishqning borligiga ont ichar, bu sehrgar qudrat domiga tushganlar taqdiri bilan shoh asarlaridagi zarvaraqlarini ilohiy bir mahorat bilan to‘ldirar edilarmi? Yo‘q, albatta, qizlarim, yo‘q!

Saodat buvi bu gaplarni ovozini ko‘tarmay, og‘ir-bosiq gapirgan bo‘lsa ham, lekin to‘lqinlangani, hayajoni shundoqqina sezilib turar edi. U o‘zini bosish uchunmi yo boshqa bir niyat-dami, oldidagi kitoblardan birini qo‘liga olib, varaqlay boshladi. Qizlar jimgina qarab o‘tirishar, olovga yo‘g‘rilgan yangi so‘zlar kutishar edi. Lekin unday bo‘lmadi. Saodat buvi kitobni yopib, ko‘zidan oynasini oldi.

– Ishq-muhabbat haqidagi suhbatimiz ancha cho‘zilib ketdi. Uzr, sizlarni charchatib ham qo‘ydim. Xo‘p, bugungi suhbatimizni shu satrlar bilan tugatamiz:

*Kimki debdi: chin muhabbat abasdир,
Yopsin og‘zin, kufr-u yolg‘oni basdir.*

TO'RTINCHI OQSHOM HIKOYATI

*Shoshqaloqlik – shaytonning vasvasasi,
Buguni lazzat-u, zahar – ertasi.*

Kechqurun soat rappa-raso sakkizda qizlar yetib kelishdi. Oralarida yana ikkita yangi qiz bor edi. Qisilibroq, surilishib o'tirishdi. Saodat buvi auditoriyaga kirgan keksa professor qiyofasida qizlarga ko'z yogurtirdi-yu, salom-alikdan keyin yana o'sha salobatlil ovozda so'z boshladи:

– Kecha vaqtimiz ziqlik qilib, sizlarda savollar bormi-yo'qligini so'ray olmadim. Hechqisi yo'q, kecha xato qilgan bo'lsak, bugun tuzatamiz-da. Vaqt ham, imkon ham bor bugun. Marhamat, savollaringiz bo'lsa beringlar, – dedi Saodat buvi tizilishib o'tirgan qizlarga ko'z yogurtirib.

Qizlarda savollar bor ekan. Kecha kechqurun uylariga qaytishayotib yo'lda ancha gap talashishibdi. Biri chin muhabbat borligiga gumon qilsa, yana biri, bor, deb olibdi. Talashishibdi, isbotlashishibdi, lekin qat'iy qarorga kela olishmabdi.

– Shuni siz dalillab, ajrim qilib bersangiz, opoqi, – deb iltimos qildi kechagi durkun qiz.

– Xo'p bo'ladi, dalillaymiz, qizlar. Chin muhabbat borligini qo'limdan kelganicha isbotlashga harakat qilib ko'raman. Kecha bu to'g'rida hech nima demadik yo deyish xotiramizdan chiqibdi, desak noto'g'ri bo'lar. Asrlardan asrlarga, zamonlardan zamonlarga o'tib kelib, bugun ham bizning ma'naviy hayotimizga juda katta ta'sir qilayotgan mashhur doston va romanlarni kecha tilga oldik. Chin muhabbatning borligiga tariximizdan, hozirgi ibratli yoshlari orasidagi pok muhabbatdan ortiq yana qanday dalil kerak? «Sutdan og'zi kuygan qatiqni puflab ichadi», degan gap bor xalqimizda. Odamzodki bor, muhabbat bor. Agar muhabbat

bo‘lma ganda yaratish, bunyod qilish, o‘sirish, voyaga, kamolga yetkazish degan narsalar ham bo‘lmas edi. Inson nimaiki yaxshilik qilsa, hammasini yoqtirish, sevish orqasida qiladi. Modomiki, bugungi chirolyi, dilrabo dunyomizni shu taxlit go‘zal qila olgan ekanmiz, demak, bu muhabbat sharofatidan. Bu go‘zalliklarning hammasini inson aqli va qo‘li bilan yaratgan.

Saodat buvi so‘zini to‘xtatib, allaqanday konvertlarni kovlash-tira boshladi. O‘shalardan birini olib, ichidan taxlog‘liq qog‘oz chiqardi.

– Muhabbat to‘g‘risida menda bitta xat bor edi, qarshi bo‘lmasalaringiz o‘qib bersam.

Qizlar chug‘urlashib:

– O‘qing, o‘qib bering, opoqi, – deyishdi.

– Bo‘pti, qulq solinglar: «Hurmatli opoqi, o‘tgan hafta bizning texnikum qizlari bilan bo‘lgan uchrashuvda siz juda yaxshi gaplarni aytdingiz. Buning uchun ko‘pdan ko‘p rahmat. Ammo muhabbat haqidagi dalillaringiz, kechirasiz-u, menda unchalik qanoat hosil qilmadi. O‘shanda o‘rnimdan turib e’tiroz bildirmoqchi bo‘ldim-u, lekin o‘qituvchilarimizdan, ayniqsa, Siz hurmatli opoqimizdan uyalib, ko‘nglimdagи gapni aytolmadim. Mana endi uzoqdan, xat vositasi bilan e’tirozimni bayon qilyapman. Meni ma‘zur ko‘ring, jon opoqi. Men, chin muhabbat bor, deyilgan gaplarga hech ishonmayman. Menda bu ishonchsizlik o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmadi. Buning sababi, asosi bor. Dunyoda muhabbat emas, aldov bor ekan. Muhabbatning ko‘zlarni qamashtirib, odam hushini olib qo‘yadigan chirolyi libosiga burkangan aldov bor ekan! Buni o‘z-o‘zini aldash deb tushunaylikmi yo boshqami – baribir. Shuning uchun o‘sha uchrashuvda chin muhabbat foydasiga keltirgan dalillaringiz har qancha asoslidek ko‘rinsa ham, baribir, men o‘z fikrimda qolaman. Sababimi? Sababi bor, albatta. Bo‘lganda ham bitta emas, istaganingiz qadar. Lekin men shularдан faqat bittasi ustida to‘xtayman. Texnikumimizda Sabohat degan bir qiz bor edi. A’lo baholarga o‘qirdi, bo‘sh vaqtlarini badan tarbiyasiga bag‘ishlar edi. U bilan ikki yil birga o‘qidim. Juda odobli, hayoli qiz edi. Sinfimiz qizlari kechqurunlari birgalashib dars tayyorlar edik. Shunday paytlarda muhabbatdan gap chiqib

qolsa, u o‘zidan o‘zi qizarib, yonimizdan turib ketardi. Sevgidan gap ketganda dugonalaridan ham uyaladigan shunday hayoli, shunday iboli bir tortinchoq qiz oradan yarim yil ham o‘tmay, mana shu sevgi o‘tida yona boshladi! Balki, tafsil kerakdir? Marhamat, opoqi. Biz har xil rayonlardan kelganimiz sababli texnikum yotog‘ida turardik. Kechki paytlarda qo‘limizni band qiladigan uy ishlari bo‘limgani uchun kim kitob o‘qir, kim rasm chizar, kim jismoniy tarbiya bilan qomatiga chiroy berardi. Sabohat ikkalamiz yugurishni yaxshi ko‘rardik. Uzun, chiroyli oyoqlarini xuddi tog‘ ohusidek chaqqon tashlab, hamma vaqt mendan o‘zib ketardi. U bir necha marta yugurish musobaqalarida qatnashib, texnikumimiz sharafini yuksaklarga ko‘tardi. Bo‘y-basti kelishgan, ko‘zлari kulib turgan, chehrasi ochiq shunday dirlrabo, shunday jonon qiz uch oy deganda bir yomon kasri bilan dori ichib kasalxonaga tushib qoldi. Men nodon o‘zim bilan, darsim bilan bo‘lib, g‘aflatda qolibman. Xayriyatki, doktorlar bir amallab jonini saqlab qolishdi, ammo, avvalgi quvnoq, baxtiyor Sabohatdan juda kam narsa qoldi. Endi u zamonlar o‘tgan sari rangini yo‘qotgan, xiralashib qolgan eski suratga o‘xshar edi. Men voqeani eshitib, darrov kasalxonaga yetib bordim. Sabohat bir ahvolda yotar edi. O‘ziga kelgandan keyin hamma gapni aytib berdi. Ich-ichidan ezilib, yig‘lab o‘tirib gapirdi. Ko‘zлaridan duv-duv yosh to‘kilar, hiq-hiqidan nafasi bo‘g‘ilib qolar edi. Men bir narsani o‘ylab, qo‘rqib ketdim. Uning dard bilan, alam bilan to‘liq gaplari o‘limi oldidan gunohlariga tavba qilayotgan bemor gapiga o‘xshab ketdi. Men ham chiday olmay yig‘lab yubordim. Gap bunday bo‘pti: o‘sha kechasi Sabohatning tushiga onasi kiribdi. Bir ahvolda yig‘lab, sochlarni yulib yurgan emish. Yomon hodisa bo‘ldi shekilli, deb qo‘rqibdi-yu, darsdan keyin shaharlararo telefon stansiyasiga borib, onasi bilan telefonda gaplashibdi. Onasining mehribon ovozini, uydagilarning tinch, sog‘-salomat ekanliklarini eshitib, zaldan xursand chiqib ketayotgan ekan, eshik tomondan bir sur yigit kelib: «Ketmay turing, hozir chiqaman, birga ketamiz», debdi. Bir begonaning tomdan tarasha tushganday qilib aytgan gapi unda hushyorlik uyg‘otishi kerak edi, lekin buning aksi bo‘pti. Qarang, Sabohatning ko‘zлari uning ko‘zлari bilan to‘qnashibdi-yu, yuragi jiz etib, butun vujudini

g‘alati bir o‘t olibdi. Sabohat qanchalik tortinchoq, uyatchan qiz bo‘lishiga qaramay, yigitning o‘t chaqnagan ko‘zlarini sehridan nes bo‘lib qopti. «Menga nima balo bo‘lganini bilmayman. Tanimagan, bilmagan bir odamning iltimosidan ko‘ra, buyruqqa o‘xshagan so‘zi bilan ketmay tursam bo‘ladimi!» – deydi. Bir zum ham o‘tmay yigit qaytib chiqibdi-yu, xuddi eski tanishdek, Sabohatni bilagidan ushlab tashqariga yetaklabdi. «Hayronman, hamma balo bilagimdan ushlaganida bo‘ldimi, ichimda bir olov lovullab ketdi, ko‘zlarim tindi, bir vaqt qarasam – mashinada ketyapman. Mashinaga qanday qilib chiqib qolganimni bilmabman ham. U ancha yergacha indamay bordi. Keyin tilga kirib, mendan qo‘rqmang, men ham sizga o‘xshagan bir bechoraman, dedi. Tili shiringina ekan. Menga qarab gapirgan kezlarida nafasi yuzimga tegsa, nafas emas, o‘t tekkandek bo‘lar edi. Shu-shu, u qalbimga kirib, ixtiyorimni oldi-qo‘ydi», deydi. Mana ko‘rdingizmi, jon opoqi, qo‘ydek yuvosh bir qizning soddaligidan foydalanib, u bechorani ne balolarga giriftor qilmadi, yigit o‘lgur! Sevaman debdi, sizsiz yashayolmayman debdi, dunyoda chin muhabbat bo‘lsa, o‘sha muhabbat meniki debdi, ko‘nglimdagagi qizni endi topdim, qurbaningiz bo‘lay, debdi. Xullas, u yog‘idan o‘tib, bu yog‘idan o‘tib avrabdi, boshini aylantirib, bir begunohni sharmanda-yu sharmisor qilib, tashlab ketibdi!..»

So‘nggi satrlar Saodat buviga og‘ir botdi shekilli, qo‘lidagi xatga qaraganicha uzoq jim bo‘lib qoldi. Qizlar ham shu ahvolda edi. Ular ham churq etmay o‘tirishar, hatto ba’zilari yig‘lab yuboray-yig‘lab yuboray deb turar edi. Anchadan keyin Saodat buvi namlangan ko‘zlarini ro‘molchasi bilan artib, qizlarga ma’yus qaradi.

– Xo‘p, u yog‘ini o‘qiylik. «Ayting, opoqi, mana shunaqa voqealardan keyin, chin muhabbat bor, degan gapga qanday ishonib bo‘ladi? Kim ishonsa ishonsin, lekin men hecham ishonmayman. Yo‘q, opoqijon, Sizning dalillaringizga hech ishonmayman. Chin muhabbat yo‘q! Yana aytaman, bu – aldov! O‘zini ham, o‘zgani ham baqrayib turib aldash! Ha, aldash!

O‘sha uchrashuvda o‘rtaga tashlagan mulohazangizda meni qanoatlantirmagan yana bir joyi bor. Ijozatingiz bilan uni ham

aytsam. Masalan, hamma qilg‘iliqni yigitlar qiladi-yu, yana ular suvdan quruq chiqishadi. Baloga qizlar qolishadi. Bamisoli til-ka-pora qilib tashlangan qo‘y nimtalari ustiga kelib: «Hoy, mut-taham, nimaga o‘zingni begunoh bo‘riga yedirding?» – deb da’vo qilganlariga o‘xhash. Yo‘q, bu oshkor adolatsizlik! To‘g‘ri-da, qiz bechoralar shuncha jafo ko‘rishsin-u, yana qora ham bo‘lishsin-mi? Yo‘q, qani insof, qaniadolat, nahotki qo‘y zo‘rlik bilan o‘zini og‘zi qon bo‘riga yedirsa?! Agar shu e’tirozim haq bo‘lsa, men bunga Sizni ishontira olgan bo‘lsam – demak, qizlar ham o‘zlari-ni nomardlar oyog‘iga keltirib tashlashlari aqlga sig‘maydigan bir afsona ekan. Ha, hech qachon o‘zini keltirib tashlamaydi! Bunga uning qizlik sha’ni, qizlik g‘ururi, qizlik ibosi, odamlik tushun-chasi yo‘l qo‘ymaydi.

Hurmatli opoqi, maktubimda qattiq ketgan joylarim bo‘lsa – uzr. Shu bilan e’tirozlarim nihoyasiga yetdi. Sizga salom va ehti-rom bilan muxlisingiz Sojida Qambarova, texnikum o‘quvchisi».

Saodat buvi xatni taxlab, yana konvertga soldi. Keyin boshini xiyol ko‘tarib, qizlarga qaradi.

– Qani, nima deysizlar bu xat to‘g‘risida?! – dedi. Qizlar kim nima der ekan, deb bir-biriga qarab o‘tirishdi. Vaqt o‘tib borar edi. Saodat buvi o‘g‘il bolaga o‘xshagan zuvalasi pishiq qizga muro-jaat qildi:

– Otikaxon, sen nima deysan, qizim?

Otika malol kelayotgandek turdi-yu, yelkalarini qisib, boshini sarakladi. Keyin yonidagi qizga ishora qildi.

– Jamila aytsin, juda so‘zga chechan, – dedi Otika, dugonasini qo‘ltig‘idan olib. – Tura qol, qayrilma qoshlaringga tasadduq.

Hamma sharaqlab kulib yubordi. Jamila ham kulib o‘rnidan turdi.

Sojidaning maktubida jon bor, ba’zi dalillariga qo‘shilish mumkin, ammo hammasiga emas.

Jamila shunday dedi-yu, to‘xtab qoldi. Saodat buvi uni biroz kutdi. U hamon indamay turar edi.

– Masalan, qanaqa joylariga qo‘silmaysan? – dedi Saodat buvi.

Jamila ko‘ziga tushib qolgan mayin sochlarini puflab uzoq-lashtirdi-da, boshini baralla ko‘tarib dedi:

– U boshdan oyoq Sabohatni oqlayapti. Menimcha, shunaqa bo‘lib qolganiga o‘zi ham aybdordir? Nimaga bo‘lmasa tanimagan, yetti uxbab tushiga ham kirmagan bir ro‘dapo bilagidan ushlab, yur, desa indamay ketaveradi?

– Jamila juda to‘g‘ri aytdi. Ayb o‘sha qizning o‘zida. Sojida: «Hech qanday qo‘y o‘zini bo‘ri og‘ziga keltirib tashlamaydi», deb yozibdi-yu, lekin u himoya qilayotgan qiz ham qilmaydigan nodonlikni qilib, bir shilqim orqasidan ergashib ketibdi. Ajab bo‘pti! – dedi jikkak Ra’no.

Uning so‘nggi iborasi hammani kuldirdi. O‘rtada ko‘tarilgan bu qiyg‘os kulgi Saodat buvini ham chetda qoldirmadi. Bu beozor kulgi Sojidaning maktubi tug‘dirgan ma’yuslikni birmuncha o‘rtadan ko‘tardi. Halizamon yig‘lab yuboray deb o‘tirgan qizlarning chehrasi yana gulgun tus oldi. Bir chekkada kulgiga qo‘shilmay, qovog‘ini ochmay bir oq-sariq qiz o‘tirar edi. U kulgi tugar-tugamas asta qo‘lini ko‘tardi.

- Ha, gaping bormi, Shijoatoy! – deb so‘radi Saodat buvi.
- Ikki og‘izgina.
- Gapiraver, qizim, bemalol.

Shijoatoyning yuzida nimadandir jahli chiqqan odamning ho‘mrayishi bor edi. U hamon qovog‘ini ochmay do‘ng‘illadi:

– Bir bechora soddalik qilib adashibdi. Adashgani uchun kulish kerakmi? Otika ham, Ra’no ham hamma aybni Sabohatga to‘nkadi. To‘g‘ri, Sabohat bu baxtiqarolikda beayb emas. O‘ziga yarasha aybi bor. Lekin birda-ikkida odamlardan yomonlik ko‘rmagan, demak, zada bo‘lмаган bir qishloq qizi o‘sha pochtada yo‘liqqan nomardning qo‘lidan yomonlik kelishi mumkinligini qayerdan bilibdi? Sabohatga o‘xshagan to‘g‘riso‘z, to‘g‘riyo‘l odam boshqalar to‘g‘risida yomon fikr qilishi mumkinmi? Bu biron mantiqqa to‘g‘ri keladimi? Shuning uchun, Sojida maktubida yozganidek, tilka-pora qilingan bechora qo‘y nimtasi ustida: «Nimaga o‘zingni begunoh bo‘riga yedirding?!» – deb qo‘yga emas, yo‘q, «Qo‘yni soddaligidan, himoyasizligidan yeb qo‘yaverasanini?! – deb og‘zi qon bo‘riga borib aytish kerak emasmi? Ha, shunday qilish kerak! Menimcha, Sabohatdagi odamlarga bo‘lgan odamlarcha ishonishdan o‘z baloyi nafsi uchun foydalangan o‘sha badkor aybdor.

Boshqa so‘zlovchilar bo‘lmagani uchun munozaraga Saodat buvining o‘zi yakun yasadi:

– Hech qachon qo‘y, meni ye, deb bo‘ri oldiga bormaydi. Borish u yoqda tursin, bo‘ri sharpasini bildi deguncha, potirlab qochadi. Shu jihatdan Shijoatning mulohazasida ma’lum darajada jon bor. Ha, jon bor, qizlar. Lekin bu masalaning ko‘zga darrov ilinmaydigan boshqa tomoni ham bor. Bu tomonni sira-sira es-dan chiqarib bo‘lmaydi. To‘g‘ri, qo‘y hecham o‘zini bo‘ri og‘ziga tutib bermaydi. Bu – haqiqat. Shunday bo‘lsa ham, baribir, bo‘riga yem bo‘lishida yana o‘zining qo‘yligi sabab. Xulosa shuki, u bechora qo‘y bo‘lgani uchun bo‘ri tashlanadi. Afsuski, qizlarimiz orasida ham qo‘ytabiat bo‘shanglari ko‘p. O‘zinglar bilasizlar, qo‘y sodda bo‘lgani, o‘zini himoya qilolmagani uchun bo‘riga yem bo‘ladi. Bo‘shang qizlar ham o‘zlarini himoya qilolmaganlari, bo‘shangliklari, sezgir-hushyor emasliklari uchun olg‘irlarga qurban bo‘lishadi. Shuning uchun qiz bola hamma vaqt hushyor bo‘lishi, bilmagan-tanimagan odamidan, ayniqsa, ko‘zlarida hirs o‘ti yonib turgan shilqimtabiat bedavolardan o‘zini nari tutishi kerak. Jar yoqasidan o‘tayotganimizda-ku, qulab ketmaslik uchun jonimizning boricha ehtiyyot bo‘lamiz, shundog‘mi? Ha, barakalla. Nega bo‘lmasa taqdirlarimizda jarga qulashdan ham battarroq qalb shikasti qoldirishi mumkin bo‘lgan hollarda ehtiyyotsizlikka, go‘llikka yo‘l qo‘yamiz? A, nega bunday? Nahotki, shunchalar farosatsiz, shudsiz bo‘lsak? Saodat buvi «E attang!» deganday qilib boshini siltadi. Keyin oldida uyulib yotgan gazetalarni tit-kilab, ichidan bittasini oldi.

– Shu gazetada bir maqola bor. Yo‘q demasalaringiz, shuni ham o‘qib bermoqchiman. Nima deysizlar?

Tursunoyning shirin, yoqimli ovozi yangradi:

– Qanaqa maqola ekan, buvijon?

Saodat buvi gazetani baralla ochib, maqolaning sarlavhasini o‘qidi:

– «Jоним deganiga uchma».

Tursunoy xuddi o‘ziga qarab aytilgan gapdek qizarib ketdi. Birdan kulgi ko‘tarildi. Yana qizlar chug‘uri boshlandi. Oralarida uni o‘qiganlar ham bor ekan. Bu maqola ham Sojida maktubida

ko‘tarilgan masalaning davomiday narsa ekanini, o‘qib berilsa, boshqalar ham eshitsa yomon bo‘lmasligini aytishdi. Saodat buvi ko‘zoynagini to‘g‘rilab, asta o‘qiy boshladi:

— «Farg‘ona vodiysining janubiy shaharlaridan birida yashovchi Muhabbat ismli qizdan xat oldik, — deb yozibdi ma-qola muallifi. — Yuragi to‘lib turib yozilgan bu hayajonli maktubda Muhabbatxon debdi: «...Men bir yo‘lga tushib qoldim. Adashdimmi yo to‘g‘ri tushdimmi — bilmayman. Men sakkiz yillik mактабни тугатиб, савдо тeхникумига о‘qishга кirdim. Shu paytlarda nima bo‘ldi-yu, bir yigit bilan tanishib qoldim. Hozir magazinda sotuvchi bo‘lib ishlayman. U har kuni do‘konga keladi. Mana, uch yil bo‘ldi — o‘sha yigit bilan inoqmiz. Ko‘ngil berib qo‘ygan ekanmanmi, bir zum ko‘rmasam turolmayman. O‘zimni har qancha qo‘lga olishga, undan uzoqlashishga tirishsam ham bo‘lmaydi. Nimaga desangiz, oydek xotini, to‘qlidek bolasi borligini bilib qoldim. Voy o‘lay, endi nima qildim-a?! Yo xotinini qo‘ydirib tegib olaymi? Hozir o‘t ustida xotinini qo‘yib meni olsa, keyin, taftidan tushgach, meni tashlab ketib qolmas-mikan? Axir, bitta yo bir nechta bolasi bilan xotinini tashlab ketgan nomard erkakka ishonib bo‘ladimi. U bir kun emas bir kun seni ham tashlab ketadi, deyishadi-ku odamlar. Rostdan shunday bo‘larmikan? Voy o‘lmasam! Qanday kunlarga qoldim-a! Maslahat beringlar, nima qilay? Yo ota-onamga yig‘lab-yig‘lab aytaymi? Ular nima deyishar ekan? Har nima bo‘lganda ham qizlariman, balki, rahm qilib, gunohimni kechirishar? Unda yigit nima bo‘ladi? Men axir, uni yaxshi ko‘raman-ku!..»

Saodat buvi gazetani asta oldiga qo‘ydi-da, qizlarga bir qarab olib, keyin davomini o‘qidi:

«Ana xolos, endi bu yog‘i qanaqa bo‘ldi? Qilar ishni qilib qo‘yibdi-yu, yana maslahat so‘raydi. Men nima deyman? Ota-onangni roziliginı olmay, xotini bor, bolasi bor, boshi bog‘liq hirs bandasiga tegaver, deymi? Yo‘q! Hech qachon mendan bunaqa maslahat chiqmaydi. O‘n sakkiz yil hasratini chekib, zo‘rg‘a katta qilgan ota-onani qaqqhatish, el-yurt oldida yuzini yerga qaratib qo‘yish — farzand ko‘rnamatligigina emas, shafqatsizligi, ota-onan oldidagi farzandlik burchiga behayolarcha tuflashi bo‘ladi-ku, axir!

Muhabbatxon, qarang, taqdir ekanmi yo ayanchli bir tasodifmi, bundan bir necha fursat ilgari Muhabbat ismli boshqa bir qizdan ham xuddi shu mazmunda xat olib edim. O'qib qarang-a:

«...O'tgan yili bir yigit bilan tanishdim. Biz u bilan ancha yaqinlashib qoldik. Oradan to'qqiz oy o'tdi. Shu to'qqiz oy meniga qanchalar baxt keltirganini hech bir so'z bilan ifodalab berolmayman. Lekin, e-voh, baxtli kunlarim o'sha to'qqiz oydangina iborat ekan! Dod, men baxtiqaro bo'lib qoldim. Yorim deb bino qo'ygan yigitimning oyday xotini, qo'zichoqdek ikkita o'g'ilchasi bor ekan... Yo tavba! Men jonimdan ortiq sevsam-u, o'zi ham sevgisini oyoqlarim ostiga poyandoz qilsa-yu, yana bu qanaqa nayrang?! Xullas, u ahdi yolg'onning aldoqchiligi oshkor bo'lgandan keyin yona-yona, kuya-kuya cho'p bo'lib qoldim. Nima qilay: do'st-u dugonalarimga, ota-onamga yorilaymi, dar-dimni yashirmay aytaymi? Ammo... ammo... ammo qaysi bet bilan? Bu noma'qulchilik, beboshlik yuzimga surtgan qoran endi qanday qilib yuvaman? Yo'li bormi, yo'lini aytинг, ustoz! E, attang, yaxshi ish qilmabman! Ha, ha, yaxshi ish qilmabman! Yaxshi ish qilmaganimni mana endi, sharmanda bo'lqanimdan keyin angladim... Angladim-u, u ahdi yolg'onnei hech qachon, hech mahal yonimga yo'latmaslikka so'z berdim. O'zim o'zimga so'z berdim. So'z? O, so'zni ham so'zida turadigan bersin ekan! Men bo'lsam turmadim. Yo'q-yo'q, turolmadim. Men u yolg'onchini jonimdan ortiq sevar, yo'lida hasrat chekib yurar edim. Nimayam bo'ldi-yu, bir kun yo'limdan chiqib qoldi. Teskari burilib ketolmadim. O'tirib gaplashdik, yurib gaplashdik, uzoq gaplashdik. Goh xo'rligim kelib yig'lar, goh bu o'tkinchi baxtli onlardan quvonib kular edim...

Kim eshitadi endi mening oh-u zorimni! Axir, o'sha «seni jonimdan ortiq sevaman», deb ont ichgan, oyoqlarimga bosh qo'yib qasamyod etgan nomard meni badnom qilib ketdi. Men esam uyatlari qilmishim o'tida yonib, sharmandayi sharmisor bo'lib qoldim... Aytинг, aytингlar, odamlar, endi nima qilay, bu uyatlari boshimni qaylarga uray?!»

Maktub faryodidanmi, Saodat buvining boshi pastga tushib ketdi. Ko'zoynaklari ostida bir nima yiltiragandek bo'ldi. Yig'-

ladimi, anchagacha bir nima demay, barmoqlari bilan lablarini to'sib o'tirdi. Qizlar ham xuddi og'ir yuk ostidadek ezgin edilar.

Tursunoy og'ir turib kelib, buvijoniga termosdan choy qu'yib tutdi. Saodat buvi choydan ustma-ust ho'pladi. Ana shundan keyingina yuziga qon yugurib, gazetani yana qo'liga oldi.

– Xo'p, o'qishni davom ettiraylik, – dedi u qizlarga ko'z yugurtirib.

«Qizlar hayosi umumaxloq va odob tarkibidagi masalalar ning eng muhimlaridan biri, desak, xato bo'lmas. Chunki bugungi qiz – ertaga ona. Ona esa, farzandlariga hayat bag'ishlabgina qolmay, ayni zamonda ularni xalq xizmatiga yaroqli, jamiyatga ibratli, vatan himoyasiga salohiyatli, bardam, baquvvat, boodob, boandisha odamlar qilib tayyorlaydigan tabarruk zotdir. Shuning uchun qizlar toifasi bequsur axloqi, beg'ubor hayosi bilan hamma zamon va makonda shoyon tahsinga sazovordir. Bizda, bizning mamlakatimizda esa, ayniqsa, kuchli bu his.

Ammo bir afsusga o'rin bor. Gul tikansiz bo'lmaydi. Ba'zi qizlar sharaflı cheklariga tushgan yuksak burchlarini, ya'ni ona bo'lish kabi porloq istiqbollarini yo anglamaydilar, yo qadrlamaydilar. Shuning uchun ham, qizlar o'zlarining sha'nlariga yuqorida biz maktubini misol qilib keltirgan qizga o'xshash dog' tushirib qo'yishadi. Keling, qizim Muhabbatxon, shu to'g'rida bir voqeiy hikoyamiz bor, shuni aytib beray:

«Adolat bilan Risolat degan ikki dugona bir kunda oliy maktabga kirdi. Adolat og'irtabiat, o'ziga, so'ziga nazorati zo'r qiz. Qadamini o'ylab bosadi. Ammo odamovi emas. Chehrasi ochiq, kulib turgan quvnoq, sarbast qiz. Dugonasi Risolat esa, uning teskarisi – hurkak, ichimdan top. Risolat o'rta maktabda o'qib yurgan kezlarida o'zini durustroq ko'rsatishga ulgurmagan yo jur'at qilmagan ekanmi, oliy maktabga kirar-kirmas birdan o'zgardi – o'zini ham, so'zini ham yo'qotib, bosar-tusarini bilmay qoldi. Bu ahvolida u avvalgi hurkak Risolatga hecham o'xshamas edi. Yurish-turishi dugonasi Adolatga yoqmay qoldi. Risolatni xoli topib koyib berdi:

– O'rtoqjon, bu ketishing juda qaltis-da. Esing borida etagingni yig'ishtirib ol, Risolat! Ha, aqlingni yig', o'qishingni o'yla, – dedi u kuyinib.

Risolatga bu ogoh yoqmadi. Jahli chiqib jerkib tashladi:

– Menga aql o‘rgatadigan onam uyda. Sen menga onalik qilma! O‘zingni bil!

Risolat dugonasining o‘gitiga qulqoq osish o‘rniga teskari o‘girilib ketvordi. Shunday bo‘lsa ham Adolat uning taqdiriga qo‘l siltamadi. Yana bir kun Risolatning yo‘lini to‘sdi. Endi jiddiy ta’kidladi:

– Sayoq yurishingni bas qil, Risolat! Bo‘lmasa oyingga borib aytaman. O‘rtamiz buzilmasin, yana boyagidek do‘sst bo‘lib qolaylik desang, bas qil bu yurishingni! Ha, bas qil! – dedi Adolat qat’iy qilib.

Risolatga bu ta’kid ham ta’sir qilmadi. U o‘z foydasiga aytigan bu to‘g‘ri gapni emas, kulgili hangomani eshitgan odamday qah-qah urib kului. Buni Adolat yaxshi tushundi. Shunday bo‘lsa ham, yana shashtidan tushmadi, so‘zida qattiq turdi. Adolat qasdma-qasdlikka emas, zaruratdan Risolatlarnikiga borishga majbur bo‘ldi. Uyda onasi bor ekan, Adolatning kuyib-pishib aytgan gaplarini eshitib, qizining g‘ami bilan kelgan odamga rahmat aytish o‘rniga, bobillab berdi:

Yursa, nima bo‘pti! Ozod zamon, xohlagani bilan yuradi, xohlaganiga tegadi. Biz, u bilan yurma, bu bilan yur, undog‘ qilma, bundog‘ qil, desak zamon ko‘tarmas. U qorang o‘chqur eski zamondan zo‘rg‘a qutuldig-u, yana qaytishimiz kerakmi! Siz shunga ishora qilyapsizmi? Yo‘q, kechirasiz, zamonamiz yorug‘, o‘zimiz forig‘. Mening qizim o‘ziga mahkam, men qizimga ishonaman. Qo‘ying bunaqa ig‘vo gaplarni! – dedi sho‘ring qurg‘ur ona...»

Voy tavba, shunaqayam beg‘am ona bo‘lar ekanmi? – deb yubordi Hilola nafratidan o‘zini bosolmay.

Saodat buvi chuqur xo‘rsindi. Risolatning onasi to‘g‘risidagi gaplar uni qattiq hayajonga solgani oshkor ko‘rinib turar edi.

– E-e, ba’zi bebaxt qizlar peshanasidagi sho‘r ko‘pincha shunday, aylanay bolalarim! Onaki bolasining hayot o‘nqir-cho‘nqirlarida qoqilib qolmasligining g‘amini yeyish o‘rniga, darvozani katta ochib: «Katta ko‘cha, xohlagan joylaringga borib, xohlagan ishlaringni qillaring», deb tursa, qiz bechora adashmay kim adashsin?! Axir, u hayotda yaxshilik bilan birga yomonlik ham

borligini, bu qorang o‘chgur yomonlik changaliga tushganning holi voy ekanini qayerdan bilsin? Meni o‘sha xotinning o‘z qiziga, o‘z jigargo‘shasiga munosabati, bu sovuq munosabatda onalik mehri, onalik tashvishi yo‘qligi hayron qoldirdi. O‘ylab qaranglar-a: insonni-ku biz jonivorlar olamining eng aqli xilqati deb bilamiz. Yo‘q, shunday deb taniymiz. Risolatning onasi ham, shubhasiz, aqli xilqat toifasiga, inson toifasiga kiradi. Shunday bo‘lgandan keyin, u xotinning og‘zidan chiqqan gapga, xulq-atvoriga qarab g‘azabing kelmay ilojing qancha? U beandisha, onaman, deb bosh ko‘tarib yuraveribdi-yu, lekin onalik burchi nimalardan iboratligi ustida hech o‘ylab ko‘rmabdi. Tovuq ham ona. Odamchalik aql-farosati yo‘q shu kichkina jonivor ham jo‘jalarini tashqariga olib chiqqanda, bor, bilganlaringni qil, deb ixtiyorni polaponlariga berib qo‘ymaydi-ku! Aksincha, bolalari donlashayotganda ko‘zi tevaragida bo‘ladi – kalxat chovlab ketmasin deb. Polaponlari to‘yganda esa, qanotlari ostiga yashirib oladi – mushuk ilib ketmasin deb. Risolatning onasi-chi? U nima qildi? Bolasini yomon ko‘zdan, yomon yo‘ldan ehtiyyot qildimi? Yo‘q, qilmadi. Aksincha, odamlar ichida yomon xulqlilari ham borligini pisand qilmay, qizini o‘z mayliga tashlab qo‘ydi. Esiz ona! Sadqayi ona!

Saodat buvi ichida g‘alayonga kelgan nafratini bosolmay, bir necha daqiqa yerga qarab o‘tirdi. Lablari qimirlardi-yu, uni chiqmas edi. Tursunoy yana choy quyib tutdi. Saodat buvi piyolani olib, yoniga qo‘ydi – ichmadi. Keyin mungga cho‘kkani alamli ko‘zlarini qizlarga tikib, g‘am to‘la tovushda dedi:

– Xo‘p, endi u yog‘ini o‘qiylik: «Adolat yig‘lagandan battar bo‘lib chiqib ketdi. Qadrdon dugonasini qaltis yo‘ldan qayirib olish qo‘lidan keladigan birdan bir huquq dor kishi – onasi edi. Onaki shunday deb turgandan keyin Adolat nima qila olardi?.. U bir necha kun ko‘ngli alag‘da bo‘lib, gangib yurdi. Qarasa – bo‘lmaydigan. Risolat haddidan oshib ketyapti. Surunkasiga uch kun darsga kelmadi. Kasal-pasal bo‘lib qoldimi, deb surishtirsa, yo‘q, soppa-sog‘, faqat Rayimjon degan bir yigitning bog‘iga chiqib ketibdi. Adolat yeyar-icharini ham unutib, bog‘ga chopdi. Risolat esa dugonasi qidirib chiqqaniga quvonish, quchoq ochib kutib olish o‘rniga burnini jiyirib do‘ng‘illadi:

– Voy, zinda-yey, shu yerga ham poylab chiqdingmi, a?!

Adolat bu sovuq muomala yuragiga sanchgan nishtar og‘-rig‘ini sezdirmay, dugonasini borib quchoqladi. Rayimjon yo‘q ekan, ikkalasi o‘tirib uzoq gaplashishdi. Nihoyat, Adolat maq-sadga ko‘chdi:

– Yaxshi qilmayapsan, o‘rtoqjon, – dedi u ichi yonib tur-sa ham o‘zini og‘ir tutib. – Bunaqangi darslarga borib-bormay yursang, institutdan haydashadi-ku. Hech o‘ylaysanmi shuni, Risol?

Risolat sharaqlab kulib yubordi. Bu zavqlangan kishining beozor kulgisiga o‘xshamas edi. Unda o‘lgudek soddasan, hech nimaga aqling yetmaydi, deguvchi ta’naga o‘xshagan bir kesatiq bor edi.

– Nima, sevish ayb bo‘ptimi! – dedi u nihoyat, kulgisini xiyol bosib.

Adolat o‘zini har qancha og‘ir tutsa ham, bo‘lmadi. Risolat-ning kulgisidagi nishtar yuragiga borib tegdi. U og‘riqqa chida-may qichqirdi:

– Yo‘q! Hech kim senga «sevish ayb», deyayotgani yo‘q! Sevsang elga e’lon qil-da, o‘g‘ri mushukdek yashirinib yurma!

Risolatning ko‘zлari kosasidan chiqib ketdi.

– «Elga e’lon qil?» Bu nima deganing? Ko‘chaga chiqib jar sol, demoqchimisan?

– Yo‘q, ZAGSdan o‘tinglar, to‘y qilinglar – hamma bilsin!

Risolat o‘g‘irlik ustida qo‘lga tushgan jinoyatchiday ko‘zla-ri ni olib qochdi. Keyin Adolatga qarab emas, allaqayoqqa, chetga qarab po‘ng‘illadi:

– Sevgi bo‘lgandan keyin ZAGSga balo bormi. Bu o‘taket-gan rasmiyatichilik. Menga hech qanaqa ZAGS kerak emas, bil-dingmi? Ha, ZAGS kerakmas!

Adolatning yuzida achchiq bir jilmayish ko‘rindi.

– Bordi-yu, sevgi deganing sevgi emas, havas – shunchaki o‘tkinchi bir havas bo‘lib chiqsa-chi? Unda nima qilasan?

Risolat qo‘lini siltab chinqirdi:

– Yo‘q, bizning sevgimiz – chin sevgi. Biz, hatto sevgimizga dog‘ tushirmaymiz, deb qasamyod ham qilganmiz. Ha!

Adolat o‘zining ovora bo‘lganiga emas, dugonasining gap uqmaganiqa xafa bo‘lib qaytib ketdi. Lekin oradan ko‘p o‘tmadi, «chin sevgilari»ning misi chiqib qoldi. Rayimjon Risolatning «chin sevgisi»ga ham, xomtama bo‘lib yurgan bu nodon qizning o‘ziga ham tuflab, institutdan bir kunda g‘oyib bo‘ldi. Risolat esa, uch oylik qonunsiz yuki bilan teng-to‘shlari orasida sharmandayi sharmisor bo‘ldi».

– Hayo ketdi, balo yetdi, deganlari shu bo‘lsa kerak-da? – dedi Saodat buvi qizlar yuziga tikilib. Keyin gazetaning shu maqola-siga o‘zining munosabatini ulab ketdi: – Men shu maqolani o‘qidim-u, qani, o‘sha nodon qanaqa qiz ekan, bir ko‘rib kelay, deb uyiga bordim. So‘rab-surishtirib topdim. Ko‘rinishda noppa-nozanin, ko‘zga yaqin, yoqimtoy, adashmasam, bir oilani olam-jahon shodlik, baxt bilan sarafroz qiladigan gulruxsor qiz. Hayfim keldi. Shunday ofatijon qiz o‘zini badnom qilib qo‘yishdan hayiqmaganiga, qilar ishni qilib qo‘yib, yana: «Rayimjon meni hurmat qiladi», deganiga hayfim keldi. Yarq etib ko‘ziga tikildim. Ajabo, hurmat talab qilishga haqi bormi shunaqa qizning?! Qizlik sha’niga o‘zi isnod keltirib qo‘yib, yana barbod etilgan nomusni hurmat qilinglar, deb o‘tirsa, o‘rinli bo‘larmikan? Menimcha, yo‘q. Ha, yo‘q, aylanay qizlarim! Qiz bola o‘zining malohati, bokira lato-fati, gard qo‘nmagan toza sharm-hayosi, musaffo kulgisi bilangina emas; yo‘q-yo‘q, bular ham juda-juda zarur, lekin eng muhimi – iffati bilan qiz! Shuning uchun, menimcha, qiz bola boshqalardan hurmat talab qilishdan oldin, o‘zini behurmat qilib qo‘ymasligi, qizlik sha’niga dog‘ tushirmasligi kerak. Jon qizlarim, qiz hayosi xo‘jako‘rsinga saqlanadigan allov, yolg‘on ibo emas, yo‘q-yo‘q, hecham bundog‘ emas! Bu narsa qiz tabiatidaq, ma’naviy hayotidan, gulruxsoridan sizib chiqib, har qadamda, har bir muomala va mukomalada ravshan ko‘rinib turadigan poklik ramzidir. Ba’zi odamlar tabiatning qizlarga ato qilgan bu va bunga o‘xshash noyob ne’matlarini bir yoqlama tushunadilar. Qarang, qiz hayosi odamlarga yaxshi ko‘rinishi uchun kerakmish! Yo tavba, shunchalik ham past o‘ylash bo‘ladimi, a?! Yo‘q, bu xil o‘ylash, bu xil qarash xatogina emas, qizlar sha’niga haqorat ham! Qiz hayosining o‘rnini hech narsa bosolmaydi, u – bebaho ziynat. Ammo

kerak bo‘lganda taqib yuriladigan, kerak bo‘lmaganda esa, qu-tichada saqlanadigan taqinchoq xilidagi ziynat emas, aksincha, qiz husnini ko‘zga yana ham yaqinroq, chiroyliroq, yana ham jozibali qilib ko‘rsatadigan sehrli ko‘zgu. Buni sandiqlarda saqlab, axiyri kuyaga yedirib qo‘yiladigan antiqa liboslarga yo zanglatib qo‘yiladigan qimmatbaho taqinchoqlarga qiyoq qilib bo‘lmaydi. Chunki bu pulga sotib olinadigan narsa emas, bu – tabiat ne’mati! Bu – hamisha odam chehrasida yarqirab, uning yuzini yorug‘ qilib turadigan bebahoy ziyodir. Qizlar jamolidagi ana shunday hayo ziyoysi ko‘rgan kishi sehrli suratni ko‘rayotgan odamday mahliyo bo‘lib qoladi. Ammo qizlar hayosi odamlarni sehrlash yo mahliyo qilish uchun emas, yo‘q, buning uchun emas, qizlarning o‘z qizlik sha’ni sharaflariga gard tushirmasdan saqlashlari, yomon ish qilib qo‘yib, yerga qarab qolmasliklari uchun juda-juda kerak.

Saodat buvi kitob javoni ustida chiqillab turgan soatga qarab oldi. Hali vaqt bor ekan shekilli, indamay so‘zini davom ettirdi:

– Adolatning maktubidan bildilaringizki, Risolatning maktab partasidan kechagina turib, bugun darrov qoqilib qolishiga taqdir aybdor deb o‘ylash yo buni bir tasodif deb xotirjamlikka berilish – mana shunaqa xunuk ishlarga yo‘lni keng ochib berish bilan baravar. Yo‘q, aylanay qizlarim, bunda taqdirning ham, tasodifning ham aybi yo‘q. Ayb – o‘zimizda, o‘zimizning temsa-tebranmasligimizda, boqibeg‘amligimizda, beparvoligimizda, halollik, poklik fazilatlarining qadr-qimmatiga yetavermaganimizda! Ammo yurishda ham yurish bor-da, jon qizlarim! Qizlik sha’nining – qizlik nomusining g‘amini yemay, Risolatning yo‘lidan ketish, ya’ni ko‘ngil bergen kishisini durustroq sinamay turib, uning sevgi o‘tidan yonmagan muzdek bag‘riga otilish – hech qanday zamonga, ayniqsa, bizning axloq barqaror bo‘lgan zamonomamizga hecham to‘g‘ri kelmaydi. Ko‘rmasdan bosilgan tikanning zahri qanchalar og‘ir-u, sinamay berilgan ko‘ngil jarohati yengil bo‘larmishmi?! Yo‘q, jon qizlarim, buning zahri ham, qahri ham odam bardoshiga mute emas. Yoshgina boshiga shuncha sho‘r-g‘avg‘o orttirish, ming-minglab talaba o‘rtoqlari, hurmatli

o‘qituvchilari, dugonalari, qavm-qarindoshlari, tanish-bilishlari, mahalla odamlari orasida badnom bo‘lib, yerga qarab qolish – kichkina bebaxtlik emas-a, jon qizlarim!

Saodat buvi bo‘g‘ziga tiqilib kelgan hayajonini bosish uchun bir daqiqa sukut qildi. Boya Tursunoy quyib bergan choy sovib turgan edi, shuni olib ichdi. Yonida yotgan oppoq ro‘molcha bilan og‘zini avaylab artdi. Keyin, yana qizlarga yuzlanib, gapida davom etdi:

– Endi bu yog‘iga e’tibor qilinglar, qizlar. Xayr, bo‘lar ish bo‘libdi, deylik. Lekin bu ko‘p xunuk, ko‘p bema’ni voqeaneaning aybdori kim? Qiz qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirib, unga oltin qasr va’da qilgan nomus o‘g‘risi – vijdonsiz Rayimmi? Yo pulga sotib olish mumkin bo‘lgan har qanday bezakdan ham qimmatliroq qizlik nomusini bir nomardning oyog‘i ostiga keltirib tashlagan uyatsiz Risolatmi? Yoki yuksak onalik burchini, odamiylik burchini, sharm-hayo burchini, qizining sofligini saqlash burchini, bu – burchlar burchi ekanini unutgan, umuman, insonlik burchini anglamagan befahm onami? Yo gap inson taqdiri ustida ketayotganda: «E-e, og‘rimagan boshimni nima qilaman og‘ritib?» – deb o‘zlarini chetga olgan ba‘zi temsa-tebranmaslarmi? Bunday voqealar bizda hayrat, yo‘q-yo‘q, nafrat uyg‘otmasdan iloji yo‘q. Axir, o‘zlariningiz o‘ylab ko‘ringlar, oppoq qizlarim, ming-minglab, millionlab yoshlarmiz – dillari pok yigit-qizlarimiz yurak amri bilan jonbozlik mo‘jizalarini ko‘rsatab turgan shunday yorug‘ kunlarimizda xuddi ko‘r kalamushday qo‘lansa inlarda yorug‘ ko‘rmay, odamlardan yashirinib «maishat qilish» – yigit uchun ham, qiz uchun ham o‘z ixtiyori bilan o‘zini tubanlik chohiga tashlash bilan baravar-ku!

Shu yerga kelganda, Saodat buvining yuzida iztirob olovi lovullab ketdi. Ko‘zları bir narsadan qamashgan odamday, kipriklarini pirpiratib bir necha zum yerga qarab turdi. Qizlar ham jum edi. Faqat soat chiq-chiqigina eshitilib turar edi. Saodat buvi birdan soatga qaradi. Kallasini bir tebratib, qizlarga dedi:

– Risolatning sho‘ri hammaga ibrat bo‘ladigan sho‘r. Shuning uchun ham, biz bu borada ancha mukammal gaplashdik. O‘ylaymanki, bunga faqat achinibgina qolmaymiz. Ayni zamonda,

o‘zimizga kerakli xulosa ham chiqarib olamiz. Birovdan, adabni kimdan o‘rganding, deb so‘raganlarida, u: «Adabsizdan», – deb javob bergen ekan. Albatta, adabsizning qilig‘ini qilmaslik – yaxshi fazilat. Risolatning yo‘lidan ketmaslik ham qizlar iffatini saqlash shartlaridan biridir. Xo‘p, qizlar, savol-javobimizga er-tangi suhbatimizni bag‘ishlasag-u, bugungi musobahamizni shu maqol bilan tugatsak:

*Hayoli qiz borini yeydi,
Hayosiz qiz orini yeydi.*

BESHINCHI OQSHOM HIKOYATI

*Aql emish – inson ongin quyoshi,
Shu uchun munavvar ogillar boshi.*

Qizlar qiy-chuvlashib xonaga kirib kelishganda Saodat buvi odatdagi o‘rnida yo‘q edi. Har kun yoniga uyib qo‘yiladigan kitob, jurnal, gazetalar ham ko‘rinmasdi. Demak, bugun suhbat bo‘lmaydi.

Qizlar bir-biriga mo‘ltirab qarashdi. Hammasing ko‘zida ta-assuf alomati bor. Hazilkash, dilbar Otika buni sezmay qolmadi. U qizlarga stul qo‘yib berayotgan Tursunoyning yengidan tortib hazillashdi:

– Tursunxo‘ja, bu qanaqa tartibsizlik? Bizki, shogirdi omilar, ya’ni-masalan, tolibus aqlar, kichik boshlarimizni katta qilib kelsag-u, haligi... aqlxonalarimizni to‘ldiramiz, deb professor opoqi o‘rinlarida bo‘lmasalar-a! Yo‘-o‘-o‘q, buning sababini aytmasangiz ham, boisini tushuntiring, xo‘jam!

Bir ma’nodagi ikki so‘z o‘yini qizlar davrasida sho‘x kulgi ko‘tardi. Ular shunday chiroqli, shunday yoqimli bir sado bilan kulishardiki, tarovatli yuzlari kulgi nuridan porlab, xonada jonon chinni jaranglab ketganday bo‘ldi. Ular Otikaxonga emas, Tursunoya qarab kulishardi. Chehralarida «Qani, Tursunxo‘ja, siz nima deysiz?» degan savol bordek edi. Tursuhoy ham javobda savol uslubidan qolishmadi:

– Hurmatli shogirdi omi va tolibus aql Otikayi balandparvoziy, andak pastga tushsalar, bu yerda sabr bodasi ma’talkim, andin bir qultum tanovul etadilar-da, professor opoqilarining tashrif soatlari uzoq emasligiga qanoat hosil qiladilar.

Tursunoy qadim zamon qasrlariga xos bir tavoze bilan kulib ta’zim qildi.

– Xo‘p, tushsak tushibmiz-da, Asakamiz ketibdim! – dedi Otika, yuqoridan sakrab tushayotganday qiliq qilib.

O‘rtada yana kulgi ko‘tarildi. Bu safar qizlar uzoq kulishdi, chug‘urlashishdi, axiyri Tursunoy qo‘lini ko‘tarib ularni tinchitdi.

Qizlar, buvijonimni narigi mahallaga bir zarur maslahat uchun chaqirib ketishgan. Hademay kelib qoladilar. Tezda kelaman, qizlar ketmay turishsin, deb tayinladilar. Zerikib qolamiz desanglar, yuringlar, narigi katta xonaga chiqaylik, ashula aytamiz, o‘ynaymiz, men pianino chalib beraman. Otika bir yigitchasiga o‘ynab beradi. Bo‘ptimi, qizlar?

Bo‘mapti! – dedi Otika, Tursunoyning so‘zini cho‘rt kesib. – Innaykeyin, shuni ham yaxshi bilib qo‘yingki, Tursunxo‘ja eshon, Otika to‘ra hamma yerda ham o‘ynayvermaydi. O‘ynasa sizning to‘yingizda bir yigitchasiga o‘ynab bersinki, qizlar oh-vohlashib, yigitlar dog‘da qolsin. Ha, hozir o‘yining vaqt emas. O‘yin bo‘lsa qochmaydi. Undan ko‘ra, kechasi suhabatga qo‘yilmagan joylarimiz bo‘lsa, shular to‘g‘risida gaplashaylik. Bu yerga shu niyatda kelyapmizmi, ishimiz ham shu to‘g‘rida bo‘lavversin. Nima deysizlar, qayrilma qoshlar?

Hamma shu fikrda ekanini aytди. Yana Otikaning hazil-mutoyiba ovozi yangradi:

– Bo‘pti, qizlar, kimning qanaqa gapi bo‘lsa, mayli, mendan beruxsat aytaversin. Faqat navbat bilan. Qani, marhamat.

Tortinchoq Hilola uyalib, qizarib dugonalariga, ayniqsa, shaddod Otikaga qaradi.

– Meni qattiq o‘ylatib qo‘ygan bir narsa bor. Uyat qilmasalaringiz, shuni sizlardan so‘rab olmoqchi edim, – dedi u qimtinib.

– Voy suzuk ko‘zlaringga Otika opang tasaddug‘-ey! So‘ra, jonginam, so‘rayver, sira tortinma.

Otika shunday deb Hilolaning yelkasidan quchdi.

– Risolat-ku, bo‘laricha bo‘pti, pushaymonidan yonib o‘tsa o‘tar, lekin... haligi...

– Tushundik, tushundik, gapirova.

– Haligi, bolaning taqdiri nima bo‘ladi? Bir kun kelib u sho‘rlik: «Hamma bolaning adasi bor ekan, meniki qani?» – deb qolsa-ya!

Deydi-da, axir, bir kun deydi!

Hozirgina hazil-mutoyiba nuridan porlab turgan xonaga g‘am cho‘kdi. Qizlar ustlaridan sovuq suv quyilgandek muzlab qolishdi. Hazilkash Otika ham, ko‘ngliga kulgi sig‘mayotgan-dek, tumshayib oldi. Oraga sovuq jimlik cho‘kdi. Hamma hali tug‘ilmagan, tug‘ilganda ham ota mehrini ko‘rishdan mahrum murg‘akni o‘ylar edi. Bolalar maktablarida yo mahalla-ko‘ylarda: «Mening adam uchuvchi, meni Moskvalarga uchirib olib boradilar», «Meniki injener, terim mashinasining yangi xilini o‘ylab topadilar», «Mening adam o‘sha mashinani zavodda yasab beradilar!», «O, meniki-chi, binokor, osmono‘par uylar quradilar», deb maqtanishsa, bolalik baxti oyqosti qilingan bu bechora nima deb maqtanadi? «Otamni ko‘rganim yo‘q, men tug‘ilmasimdan bizni tashlab ketib qolgan ekanlar», deb o‘kinadimi? Yo dunyoda ota degan kimsa borligini eshitgan bo‘lsa ham, o‘zi qanaqa, mehr-u muhabbat qanaqa, quchog‘i, bag‘ri issiqmi – bilmagani uchun bir chekkada bo‘ynini qisib o‘tirarmikin?

– Xah, nima qilarding shu gapni qo‘zg‘ab?! Odamning yuragini ezbording-ku! – dedi Tursunoy yig‘lagandan battar bo‘lib.

Endi qizlar Hilolaga yopisha ketishdi.

– Nuqlu odamni shunaqa xafa qiladigan gaplarni qo‘zg‘ab yurasan!

Qizlardan biri shunday deb Hilolaga tashlangan edi, ikkinchisi undan ham oshib tushdi.

– Qaysi kuni ham mashina bosib ketgan bolaning onasi dodlab yig‘laganini aytib-ku, yuraklarimizni to‘kuvding!

Qo‘yinglar bunaqa gaplarni! Ana, bir qop yong‘og‘imiz Otika poshshaning ham damlari ichlariga tushib ketdi. Aytinglar, gapirsin, picha kulaylik, bo‘lmasa halizamon hammamiz selda qolamiz, – dedi Nigora ko‘zlariga ishora qilib.

Boshqa mahal bo‘lsa bu gap, albatta, Otikani sayratib yuborar edi. Lekin bu safar unday bo‘lmadi. Otika boshini yerdan ko‘tarmay:

– Yorqish gapirsin, – dedi.

– Bo‘pti, sen gapira qol, Yorqish! Bola taqdiri to‘g‘risida...

Bahor subhidamida ochilib, nozik yaproqchalarda shabnam durlari kilkillab turgan atirgul singari nafis, xushtal‘at Yorqinoy

o'rnidan turdi. Qo'g'irchoqdek xushbichimligi, biyron tili, o'tkir aqli uchun uni hamma sevib, Yorqish deyar edi. Ana shu o'rta bo'yli, chiroyli qiz so'z boshladi:

– Albatta, aslida bunday bo'limgani ma'qul edi. Bo'libdi, endi aza ochishdan foyda yo'q. To'g'ri, bolasi dunyoga kelmay turib o'lib ketadigan otalar ham bo'ladi. Nodon Risolat ham o'sha nomardni o'lganga chiqarishi mumkin. Lekin bu til bilan dil baqamtiligidan kelingan qaror bo'la olarmikan?

– Yo'q! – deb qichqirdi dangalchi Muqaddas.

– Men ham shunday deb o'ylayman. Tilingda o'lib ketgan desang-u, diling seni yolg'onchilikda ayblab, qarshingga bosh ko'tarib chiqsa! Dod salsa, faryod ko'tarsa, kuysa, ezilsa, chaqalog'ing kulganda bu kulgi tagidan tirik yetimlik zori eshitilib tursa, oh, qizlar, aytinlar, bir umr emas, bir zum ham tinch yashab bo'ladimi?!

– Bo'ladi, – dedi Mohina peshanasiga tushib qolgan mayin sochlari uzun, nozik barmoqlari bilan yig'ishtirib.

Yorqinoy ajabsinib qizlarga qaradi. Oq-sariq, ko'zlar katta, dilbar Nigora o'rnidan chapdast turdi.

– Menimcha ham ko'z yoshi qilmay yashasa bo'ladi. Nima, bir nomardni deb hayotdan voz kechish kerakmi? Yo'q, qaytaga, shunday yashash kerakki, ko'rganda o'shanaqa qorang o'chgurlarga alam qilsin, kuyib-yonib o'lzin!

Nigora chiroyli boshini shunday shox tashladiki, xonadagi hafagajaklik arimaganiga qaramay, qizlar sharaqlab kulib yuborishdi. Endi Yorqinoy ham kulib yubordi. Uning kulgisi ham o'ziga o'xshash shiringina edi. Qonib, yoyilib kului.

Halgacha gapga aralashmay, bir chetda munozarani kuzatib o'tirgan Dildora, gapirmasa bo'lmaydigandek, qovog'ini solib o'rnidan turdi.

– Shoshma, Nigora, sen do'ppisini ol desa, kallasini olayotgan odamning ishini qilyapsan. Men dalillaringga ishonmayman. Unaqa emas! – dedi u qovog'ini ochmay.

– Bo'lmasa, qanaqa? Seningcha, qanaqa?

– Menimcha, osongina o'tib ketadigan alam emas bu! Birov chidar, birov chidamas. Axir, sevgining rad etilishidan ham battar xo'rlik bormi sevguvchi kishi uchun? Menimcha, yo'q.

– Ha, shunday bo‘lganda ham...

Dildora bo‘g‘ilib ketdi.

– Voy-voy, axir qanday qilib? Mundoq tushuntirib gapir, Nigora?

Nigora lablarini burib, kallasini qiyshaytirdi.

– Qandayligini o‘zim ham bilmayman. Lekin yuragim sezib turibdi – yashash kerak.

Bu gap qizlarga dudmal tuyuldimi, yana kulib yuborishdi. Nihoyat, o‘rtaga Otika chiqdi.

– Voy, sendaqa agitatordan o‘rgildim! O‘zing bilmagan narsani nima qilasan bizga ishqab? Chayqovchilikdan ham bormi deyman-a?

Nigora qizarib ketdi.

– Jinimdan battar ko‘rganim shu chayqovchi o‘lgurlar-u, yana meni...

– Bo‘pti, chayqovchimassan! – Otika uzr so‘ragandek bosh egdi. Keyin badantarbiyada chiniqqan qaddi qomatini rostlab, qizlarga murojaat qildi: – O‘rtoqlar, asosiy maqsad u yoqda qolib, biz bu yoqda o‘tlab ketdik-ku! Kelinglar, bekorchi gaplarni yig‘ishtirib qo‘yib, muddaodan gaplashaylik. Xo‘s, bola taqdiri nima bo‘ladi? Buni kim ishonarli qilib tushuntirib yo asoslab bera oladi?

Otika qizlarga ko‘z yogurtirdi. Qizlar jim, gapiray deguvchi yo‘q. Allamahaldan keyin Hilola o‘tirgan yeridan turmay:

– Sizlarni bilmayman-u, lekin men bu haqda bir nima deyolmayman. Bilmagan narsam to‘g‘risida gapireshni yomon ko‘raman, nimaga desanglar, bilmagan narsasi to‘g‘risida gapiresh – qip-qizil ahmoqlik. Har holda men shunday deb tushunaman. Shuning uchun bu jumboqni hali opoqimlar kelganlarida o‘zlaridan so‘rab olsak, adashmasdik-da, qizlar, – degan edi, kulganda yuzlari yulduzday chaqnab ketadigan yoqimtoy Muqaddas e’tiroz bildirdi. U shahodat barmog‘i bilan o‘zining kallasiga bir niqtab qo‘yib, dedi:

– Hilola beginim, agar mana buning ichidan o‘zimizga kerakli narsani topolmasak, nima qilib ko‘tarib yuribmiz-a? Qo‘rqmang, topamiz. Ko‘plashib topamiz. Men topmasam, Shijoat topadi,

Shijoat topmasa, Tursunoy topadi. Xullas, ko'plashib, tirishib-tir-mashib yurib topamiz-da. Shunga javob topolmasak, bizni kim aytadi o'n yillik maktabni bitirib, institutga shox tashlayotgan oqila qizlar deb?!

Qizlar shukuh qilib kulishdi. Ammo Muqaddasning o'zi kulumadi. U boyagidek dadil turib, Tursunoya murojaat qildi:

– Sen gapir, aylanaqolay! Axir, buvijoningning o'ng qo'lisan-ku. Jindak bo'lsa ham aqlaridan yuqqandir?

Tursunoy jilvaga o'xshagan bir ado bilan beozorgina kulim-sirab, qizlarga yuzlandi.

– E-e, judayam qiziqsizlar-da! Shoshmanglar, bolapaqir hali tug'ilсин, keyin biron gap bo'lar, axir, – dedi u qo'l imosi bilan hammani jim bo'lishga chaqirib.

Lekin qizlar bu masalani tugal hal qilmay, chala tashlab ketish uchun ko'tarishmagan ekan, hech kim jim bo'lishni xohlamadi. Shijoat sapchib o'rnidan turdi.

Shu odating yoqmaydi menga, Tursunoy! Bir masalani o'rtaga tashlasak, doim shunaqa – paysalga solasan. Ertaga deysan, indinga deysan, dudmal qilib, keyin... E, shu ham gap bo'ldi-yu! Bola bechoraning taqdiri nima bo'ladi – bilsang, gapir. Bizni ham, o'zingni ham tinchit.

– Bilmasam-chi?

– Bilmasang jim o'tir, bilganlar gapirishsin.

– Mana men bilaman, – dedi Mohina, asta o'rnidan qo'zg'alib. Hamma uning og'ziga tikildi. – Bizning bu shoshma-shosharligimiz kulgiligina emas, ayb, menimcha. Ha, nima bo'pti? Otasi tashlab ketgan bebaxt bola dunyoda shu bittaginami yo ilgarilar ham bo'lganmi? Bo'lgan, qizlar, afsuski, bo'lgan! Dunyo, nima, yaxshi odamlardan kamchilmi? Bitta-ikkita yomonga qarab, hammani yomonga chiqarishimiz to'g'rimi? Yo'q, to'g'ri emas! Yomonni barmoq bilan sanaydilar. Yaxshilarni-chi? Sanashga son yetarmikin? Yo'q, yetmaydi! Shuncha yaxshilar ichida o'sha bolasni o'ziga o'g'il yo qiz qilib oladigan bирonta yaxshilar yaxshisi to-pilmasmikin? Men aminmanki, topiladi. Topiladi, aziz dugonalar!

Mohinaning gapidagi jon Muqaddasni o'yantirib qo'ydi. U chakkasidagi sochlari to'g'rilib, ikkilangan kishi ovozida e'tiroz etdi:

– Topilishga-ku topilar-a, lekin o‘z otasidek bo‘larmikin? Gap shunda, Mohina! Ha, o‘z otasidek bo‘lmashigi mumkin, har nima bo‘lganda ham o‘gay – o‘gay-da...

Bu gumon Yorqinoyga yoqmadı.

– Muqaddasposhsha, halitdan vahimaga tushmang, aylanay, – dedi u bosig‘i bilan. – Avval bola dunyoga kelsin, Risolat ham ko‘zi ochilib, ya’ni yaxshi bilan yomonni farq qiladigan darajada aql topsin, keyin ma’lum bo‘ladi. Agar u kishi chinakam inson bo‘lsa, albatta, bolani o‘gaylab qo‘ymaydi. Siz bu yog‘iga amin bo‘lavering, Muqaddasxon!

Qizlar bir-birlari bilan shivirlasha boshlashdi. Yorqinoyning dalillariga ham qo‘shilmovchilar bor edi. Nigora kallasini silkitib e’tiroz bildirdi:

– Gap uning o‘gaylab qo‘yish-qo‘ymasligida emas-da, Yorqinoy. Hamma falokat shundaki, mana shu ko‘ngilsiz voqeа sababli o‘rtaga yolg‘on aralashadi. Men shunisiga qarshiman.

– E-e, ochiqroq gapir, qanaqa yolg‘on? – dedi Otika xit bo‘lib.

– Ana o‘sha kishi bolaga otang menman, deydimi? Deydi. Onasi ham otang shu, deydimi? Deydi. Xo‘s, bu yolg‘onmi? Yolg‘on. Bolalarga yolg‘on gapirish tarbiya talabiga to‘g‘ri keladimi? Kelmaydi. Xo‘s, endi bu yog‘iga qanaqa bo‘ldi? Yolg‘on aralashgani shumi?

Otika qo‘lini siltab, Nigorani o‘tqazdi.

– Qanaqa bo‘lardi, yaxshi bo‘ladi. Bola, otam shu, deb ko‘nglini but qilib yuraveradi. Innaykeyin... ha, esimga tushdi. Katta oyimlar, yaxshilikka xizmat qiladigan yolg‘on ham bo‘ladi dunyoda. Bunaqa yolg‘on gunoh emas, savob, derdilar. O‘zim eshitganman shu gaplarini. Ha.

Tursunoy ishtibohini aytdi.

– To‘g‘ri, shunday ham bo‘lar, lekin bir kun emas-bir kun bola otasi boshqaligini bilib qolsa-chi? O‘zini aldangan hisoblab ko‘ngli vayron bo‘lmasmikin? Yo, bo‘lmasa, nima uchun boshdayoq to‘g‘risini ayta qolmadinglar, deb o‘gay otasi bilan onasi dan xafa bo‘lmasmikin? Qani, aytinqlar, qizlar?

Bular osongina javob beriladigan savollar emas edi. Innaykeyin, qizlar bunaqa savollarga javob beradigan hayot tajribasiga

ham ega emas edilar. Shuning uchun savolga bevosita javob o‘rniga yana yangi shubha tug‘ildi. Bo‘ydor Dildoraning salobatli ovozi yangradi:

– Bu-ku, menimcha, ota bilan ona o‘rtasidagi sir. Uchinchi kishi bilmaydi, deyishimiz mumkin. Shu sababdan bola hamma vaqt, otam shu, onam shu, deb yuradi. Shunday bo‘lgandan keyin otasi bu emasligini qayerdan biladi u?

– Eh, Dildorajon, qayrilma qoshlaringdan opaginang o‘rgilgur! – deya Otika kallasini likillatdi. – Boya-ku, dunyo yaxshilardan xoli emas, dedik-a? Dedik. Xo‘s, yaxshilar bor joyda faqat yaxshilar bo‘ladi, yomonlar bo‘lmaydi, deb birov aytganmi senga? Aytgan taqdirda ham, bu gapning rostligiga ishonasanmi? Qoyil, kallangni likillatishingdan bildik, hech kim aytmagan. Demak, yaxshilar oyog‘iga o‘ralashib yurgan yomonlar ham uchrab qoladi, desak bo‘lar ekan-da?

– Ha, Otikang tasadduq, shunaqa. Oramizda o‘ralashib yurgan yomonlardan – hamma sho‘rimiz! Ha, yomonlardan, jon dunganlar! Birovning baxtini ko‘rolmay, uni qon yig‘latishdan huzur qiladigan ichiqoralardan, fitnalardan, ziqnalardan – sho‘rimiz!

– Obbo, namuncha sho‘rilamasang! Pashshani puflab fil qilaman deysan-a! – Muqaddas ovozini yigitchasiga do‘rillatib gapirgan edi, qizlar qah-qah urib yuborishdi.

Faqat Yorqinoygina kulmadi. U pushti rangga moyil nafis lablarini yalanqirab, suzgun ko‘zlarini Muqaddasga qadadi:

– Yo‘q, Muqaddas, bularni, ya’ni qoralari o‘chgur yomonlarni pashshaga qiyos qilyapsiz-u, lekin unchalik emas. To‘g‘ri, pashsha ham beozor maxluq emas. Zarari qiyosdan tashqari. Mana, o‘zingiz o‘ylab ko‘ring: bir soatchadan beri bitta masalani muhokama qilamiz-u, tagiga yetolmay, gap talashamiz. Kim bizni bunga majbur qildi? Bir yomonmi? Ha, barakkala, o‘sha nomard Rayim. Faraz etaylik, ana shunday yomonlardan biri o‘z bolalik dunyosining charog‘on kunlaridan quvonib, g‘am nima, g‘ussa nima – bilmay, o‘qishdan, o‘ynab-kulishdan o‘zgasini bilmagan bir baxtiyor murg‘ak qulog‘iga kelib: «Hoy, nodon, ko‘zingni och! Otang bu emas, boshqa!» – deyishi mumkinmi ilon singari vishillab? Mumkin. Ko‘p afsuski, mumkin. Shunaqa battarinlar

bormi oramizda? Ko‘p afsuski, bor. Xo‘s, bular kimlar? Qanaqa odamlar? Menimcha, yo tirnoq ko‘rmay, tirnoq huzuri naqadar buyukligini bilmay, quruq kesak bo‘lib qolgan bedavolar, yo bo‘lmasa boshqalar ko‘z yoshidan lazzat topadigan g‘alamislar.

Otika «e, ko‘p cho‘zvording-ku», deganday qilib qo‘l siltadi.

– Hozir tugataman. Otika, picha sabr qil. Menimcha, bunaqa odamlar dunyoda chirolyi narsalardan, tabiat go‘zalliklaridan, odamlardagi yaxshi fazilatlardan, ayniqsa, bola kulgisidan bahra olishdek olrijanob his-tuyg‘ulardan mahrum, qovog‘i soliq, turqi sovuq bedavolar bo‘lishsa kerak. Kim bilsin, ular ham el qatori odamlar bo‘lganlarida o‘z dunyosida yayrab-yashnab yurgan bir begunoh bola ko‘ziga yosh chiqarish, kichkinagina yuragini qon qilib ezish – ko‘p yomon gunoh ekanini tushunishar, bunday gumrohlikdan o‘zlarini tiyisharmidi!

Qizlar bexosdan kirib qolishgan xalta ko‘chadan chiqolmay chug‘urlasha boshlashdi. Hech kim hech narsa tushunmas, uysiga cho‘p suqilgan asalarilar singari g‘uv-g‘uvlarini qo‘yishmas edi. Shuning ustiga Saodat buvi o‘zida yo‘q xursand holda kirib keldi. Hamma bir zumda jim bo‘lib, xuddi sinfdagi singari o‘rnidan turdi. Saodat buvi ular bilan peshanalaridan o‘pib, sochlarni silab ko‘rishdi. Keyin ko‘z va qo‘l imosi bilan qizlarni o‘tirishga taklif qildi.

Uzr, qizlar, zarur ish chiqib qolib, sizlarni ancha kuttirib qo‘ydim, – dedi Saodat buvi, o‘zi ham, qizlar ham o‘tirishgandan keyin. – Lekin men bundan xursandman.

Bizni kuttirganingizgami, opoqi? – dedi Otika odatdagি hazilalaridan qilib yuborishdan o‘zini zo‘rg‘a tiyib.

Saodat buvi yana ochilib kuldi.

– Yo‘q, aylanay, sizlarni kuttirib qo‘yganidan emas shu kutish sababi o‘rtalariningizda chiqqan juda chirolyi, juda ma’noli munozaradan. Hamma gaplaringizni eshitdim...

– Voy!

Qizlar birdan yuzlarini yashirib yerga qarab olishdi.

– Yo‘q, uyal manglar, qizlarim. Yaxshi gapni aytish – yaxshi, sharaf ham. Men sizlar to‘planganingizdan keyinroq kelgan bo‘lsam kerak. Ko‘chadan kirib deraza yonidan o‘tib ketayotsam,

ichkaridan bir chiroyli munozara qilayotganlaringiz qulog‘imga chalindi. Deraza ochiq ekan-da. Shu yoshlaringizda ancha baqvuvat fikrlarni o‘rtaga tashlayotganlaringizga havasim kelib, hatto faxrlanib, turgan yerimda turib qolibman. Barakalla, oppoq qizlarim! Men sizlarni bunaqa masalalarda hali xom, g‘o‘r deb yur-sam, qaranglar, noppa-nozanin fikr yurita oladigan dono qizlar bo‘lib qolgan ekansizlar. Voy, tavba! Ming rahmat sizlarni mana shunday yetuk qilib tarbiyalagan ustozlaringizga! Qaranglar, husni chiroyigagina emas, aql-farosatiga ham havaslansa arziyidigan dono qizlar mehmonim ekan-u, shuncha kundan beri bilmabman-a! Endi sizlardan bir iltimos, qizlarim. Gapimizni opoqimlar o‘g‘rincha eshitib olibdilar, deb o‘ylamanglar. Yo‘q, aylanaylar, hecham undoq emas. Men yomon niyatda, sirlaringizni bilib olish niyatida jo‘rttaga poylab eshitganim yo‘q. Ha, hecham undog‘ qilganim yo‘q. Meni qoralamanglar, qizlarim.

Qizlar uyalib, jilmayib o‘tirishar, Saodat buvi esa, tasanno o‘qiyotgan odam singari kallasini silkita-silkita oshkor bir havas bilan qizlarga suqlanib qarar edi. Keyin yaxshi narsaning ta’mi hamon og‘zidan ketmagan kishiga o‘xhash tamshanib, dedi:

– Munozaralaringizni mukammal eshitdim, desam bo‘ladi. Shuning uchun ko‘targan masalalaringizni hal bo‘lmay qoldi deyoilmayman. Bola taqdiri haqidagi tashvishlaringizga kelsak, bu, albatta, bejiz emas. Ba’zi kaltabin, shoshma-shoshar qizlar aybi bilan yoshlik baxti qaro qilingan bu kichkina farishtalar taqdiri hamma vaqt odamzodni tashvishga solib kelgan. Shu boisdan sizlarning tashvishlaringiz juda ham o‘rinli. Mohinaning shu to‘g‘ridagi gapi menga judayam yoqdi. To‘g‘ri, qizlar, chindan ham dunyo yaxshilardan xoli emas. Tug‘ilguvchi bola peshanasiga ham ota bitilgandir. Uni o‘z bag‘riga olib isitadigan odam topilib qolar, albatta, topiladi. Shuning uchun bu haqda folbinlik qilib o‘tirmasag-u, chala qolgan gaplarimiz bo‘lsa, shularni hal qilib olsak. Nima deysizlar, qizlar?

Qizlar bosh ishorasi bilan xo‘p deyishdi.

– Qani, kimning esida: qaysi gapimiz chala qolgan?

Hilola asta o‘rnidan turdi.

– O‘tgan suhbatimiz muhabbatga bag‘ishlangan edi, – dedi Hilola xiyol qizarib. – Men o‘shanda bir narsani so‘rovdim...

– Nimani so‘rovding?

– «Agar chin muhabbat bo‘lsa, nima uchun bir yo bir necha yildan keyin yo o‘rtadan butunlay ko‘tarilib ketadi, yo bo‘lmasa, nafratga aylanadi?» – deb so‘rovdim.

Ha-ha, esimda, bu to‘g‘rida keyinroq gaplashamiz, devdim-a? Nazarimda, javob berish mavridi keldi, shekilli. To‘g‘ri, bir-birlarini sevishib topishgan ba’zi er-u xotinlar o‘rtasidagi muhabbat bir yo bir necha yildan keyin dastlabki haroratini yo‘qotib, goho begona odamlar orasidagi loqaydlikka, hatto nafratga aylanib ketish hollari ham uchrab turadi.

– Voy, opoqijon-ey, uchraganda qanday! – dedi qizlardan biri birdan tutaqib. – Ammamning katta qizlari bir yigitga ko‘ngil berib qo‘ygan ekan, uydagilari yo‘q, u yigit senga to‘g‘ri kelmaydi, sening tenging emas – yengil-yelpi yuradi, deb ko‘nishmadi. U o‘zini urib chunon yig‘ladiki, shunda ham ota-onasi rozi bo‘lmadi. Axir, bir kuni haligi yigit bilan til biriktirib qochib ketdi. Oradan bir yil o‘tdimi yo... ha, bir yarim yilcha o‘tibdi. Bir kun ko‘z yoshini oqizib kelsa bo‘ladimi! Avvaliga ota-onasi uni uyga kirgizishmadi, bizni el oldida yerga qaratding, deb. Qarashsa, qizlari ko‘chada qoladigan. Shundan keyin, farzand ekan, rahmlari kelib bag‘irlariga olishdi. Nimaga bunaqa bo‘ldi, deb so‘rashsa, bilmayman, ko‘zimga birdan xunuk ko‘rinib qoldi-yu, ko‘ngilsiz bo‘lib qoldim, qiliqlari sovuq, shilqim, yolg‘onchi, ichkilikka mukkasidan ketgan bir bedavo ekan, deydi. Nimaga shunaqaligini avval ko‘rmadi ekan-a, opoqi?

Saodat buvi darrov javob bera qolmadi. Uzoq o‘yga botib o‘tirdi. Keyin ro‘molchasi bilan lablarini artib, xayolchan dedi:

– Nazarimda, buning bitta emas, bir nechta sababi bo‘lsa kerak. Haqiqatan ham, turmushda bunaqa hodisalar bo‘lib turadi. Buning sabablaridan birini ilgarigi suhbatimizda aytgan edik. Menimcha, qiz yigitni haqiqiy sevgi bilan sevmagan, faqat nimasigadir ishqiboz bo‘lgan. Bir narsaga ishqibozlik, odatda, ma’lum fursatda o‘tib ketadi. Har holda, ertami-kech o‘tib ketadi. Ikkinchisi sababi – qiz o‘zining qalbi nimaga moyil ekanini, intilgani nima ekanini, odam-

dagi qanday xislat va fazilat, qanday chiroy va farosat mahliyo qilishini bilmagan. O‘z qalbining intilishini, nimani xohlashini bilmagan odam hamma vaqt hayotda qoqilib qoladi. Uchinchi sababi esa, fikrimcha, u qiz muhabbatning nimaligini, talab va ehtiyojini umuman tasavvur qilmasa kerak. Ma‘lumki, muhabbat ham barcha yaxshi hislar qatori mubtalosi yashagan muhitda, odam ongida tarbiyalanadi. Modomiki, muhabbat toza, pok, olivjanob, odamiy tuyg‘ular majmuasi ekan, demak, bu ham tarbiyalanishi, voyaga yetkazilishi, toza intilish bilan sug‘orib turilishi kerak. Esingizda bo‘lsin: bu olivjanob his tarbiya etiladigan, kamol toptiriladigan birdan bir makon – oila bag‘ri, ota-onas dargohidir. Ko‘chadan yo boshqa yerdan izlash foydasizgina emas, zararli hamdir. Agar oilada, xususan, ota-onas o‘rtasida poklik, vijdon, vafo, sadoqat, shafqat o‘rniga mansabparastlik, shuhuratparastlik, shafqatsizlik, oqibatsizlik, boshqalar taqdiri va baxtiga parvosizlik ruhi, ayniqsa, ota-onas o‘rtasida kelishmovchilik, vafosizlik, hurmat-e’tiborsizlik, xiyonat hukm sursa, bunday muhitda tarbiyalanadigan yoshlarda ham ana shu nuqsonlar ma‘lum darajada saqlanib qoladi. Bunday odamlar insoniy burchlarini ana shunday tuban hislar bilan chegaralab qo‘yib, sevgilarini ham manfaat, tama asosiga quradilar. Holbuki, toza sevgi bilan tuban qalloblik bir makonda, bir qalbda yashayolmaydi – bular bir-biriga zid, bir-birini yemiruvchi ashaddiy dushmandir. Shuning uchun sevgiga ishi tushgan odam xoh baland martabada bo‘lsin, xoh pastda, sevgini manfaatparastlik deb atalgan jirkanch, qabih intilishlardan uzoqda, musaffo havoda saqlasa, sevgisi pokligini, tarovatini yo‘qotmaydi, baloxo‘rlik, ochko‘zlik, yulg‘ichlik quroliga aylanmaydi.

Saodat buvi bu gapi qizlarda qanday taassurot qoldirganini bilgisi keldi shekilli, davraga ko‘z yugurtirgan edi, Shijoat qo‘l ko‘tarib qoldi:

– Men bir narsaga tushunolmayapman, opoqi, – dedi u o‘rnidan qo‘zg‘alib. – Muhabbat-ku sof, toza hislar majmuasi deb aytamiz. Shunday bo‘lgandan keyin, unda yaxshi niyatdan, yaxshi intilishdan bo‘lak yana qanaqa manfaat bo‘lishi mumkin? Menimcha, eng yaxshi, eng olivjanob manfaat – toza sevgiga toza sevgi bilan javob berish bo‘lsa kerak. Shu boisdan.

– Shu boisdan, shuning o‘zi sevishganlar uchun juda katta baxt bo‘lardi, Shijoatoy. Lekin sevgiga hamma vaqt, hamma yerda biz o‘ylagancha qarayverishmaydi-da! Masalan, ota-onabag‘rida manfaatparastlikdan o‘zgasini ko‘rmagan molparast, dunyoparast qizlar uchun tegadigan yigitlarining tagida mashinasi, ota-onasi solib bergen dang‘illama uy-joyi bo‘lsa bas! Shularga uchib ketaverishadi. Lekin birga umr qilish kerak bo‘lgan yigitining ma’naviy dunyosi qanaqa, jamiyatda tutgan yo ertaga tutishi mumkin bo‘lgan mavqeyi qanaqa – bu eng muhim tomoni bilan ishlari bo‘lmaydi! Ular uchun «uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o‘pka yaxshi». Ular tumshuqlaridan narisini ko‘rmaydigan mana shunaqa kaltabin odamlar. Xayr, bu shunchalik bir kaltabinlik oqibati bo‘lsa-ku, bir nav edi-ya, lekin bunaqa emas-da. Bular – ota-onalarinikida yuqqan ochko‘zlik, tayyorga ayyorlik balosining qora soyalari! Shunisi yomon, qizlar! Yosh kelinkuyov o‘rtasiga tushadigan sovuqchilik sabablaridan biri – ota-onanuhitida haqiqiy, insoniy sevgi ruhi emas, manfaatparastlik, tamagarlik, shuhratparastlik ruhi hukmron bo‘lganidadir. Bunday qo‘lansa muhit kuyov-kelinni ertami-kech ajratib yuborishi turgan gap. Bunaqaligidan bexabar yoshlar: «Sevgida vafo yo‘q. Aslida chin sevgining o‘zi yo‘q!» deb umidsizlikka beriladilar. Bu – masalaning bir tomoni. Yana bir muhim tomoni – odamda yoshlik chog‘laridan boshlab orttirilishi, ya’ni tanasiga singdirib borilishi zarur bo‘lgan ko‘p chiroyli bir fazilat borki, uning oti – go‘zallik hissi, go‘zallik ishqidir. Inson qalbi yoshligida ana shu ma’naviy go‘zallikni o‘ziga qancha ko‘p jo qilsa, keyincha topishadigan ikki qalb sevgisi ham juda ko‘p yillar davomida tarovatini, haroratini, tozalik va pokligini yo‘qotmaydi. Qalbingda jamg‘argang o‘zallikni, ya’ni ma’naviy boylikni sevdim degan kishing bilan baham ko‘rganingdagina, toza sevgi, so‘nmaydigan sevgi, boqiy sevgi umring hamrohi bo‘ladi. Ma’naviy boylik orttirmagan, sevganiga biron narsa berolmagan odamlar tezda bir-birlariga malol kelib, ajrab ketishadi. O‘ng qulolq-so‘l qulolqlaringizda bo‘lsin, oppoq qizlarim, kimki boshqalar taqdiriga o‘z taqdiridek, boshqalar shodligi va qayg‘usiga o‘z shodligi va qayg‘usidek qarar ekan, u chinakam insondir. Chinakam insonlarda esa, sevgiga xiyonat

emas, sadoqat, vafodorlik kuchli bo‘ladi. Buning yana bir yaxshi tomoni shundaki, oila a’zolari, ayniqsa, bo‘yi yetib borayotgan bolalari ota-onalaridan sadoqatni, vafoni, insoniy his-tuyg‘uni o‘rganadi. Bu esa shu oila uchungina emas, jamiyat uchun ham katta baxt.

Saodat buvi qo‘qqisdan bir narsa esiga tushgan kishi singari yalt etib devor soatiga qaradi.

– Voy-vuy, allamahal bo‘lib qopti-ku. Kechirasizlar, qizlar, bugun sizlarni uzoqroq tutib qoldim. Agar hoziroq javobtalab savol-laringiz bo‘lmasa, bugungi suhbatimizni shu satrlar bilan tugatsak:

*Bilki, qilding aql bilan ish
Daf o‘ldi yo‘ldin barcha tashvish.*

OLTINCHI OQSHOM HIKOYATI

*Kelin baxti – kelinning o‘z qo‘lida,
Chaman bor qilmoq ham yurgan yo‘lida.
Mehr qo‘ygan uyiga baxti yordir,
Mehrda rom etuvchi jodu bordir.*

– Mana men hozir sizlarga o‘qib eshittirgan yuqoridagi satr-lardan ham ko‘rinib turibdiki, qiz bola tushib borgan xonadonida baxt topishi, e’tibor orttirishi, hammani o‘ziga rom qilishi – eng avval o‘ziga, o‘zini tutishiga, yurish-turishiga, fe’l-atvoriga, xatti-harakatiga bog‘liq ekan. Erkaklar iborasi bilan aytganda, do‘ppini yerga qo‘yib bir o‘ylab ko‘raylig-a, shu gapda haqiqat bormikan, bo‘lsa qanchalik ekan? Ha, aytmoqchi, qizlar, mana shu savolimdan ham sezgan bo‘lsalaringiz kerak, men sizlarni somelikdan, ya’ni indamay o‘tirib eshitish zahmatidan ozod etib, munozaraga tortmoqchiman. Shunaqa, endi har birimiz bilganimizni gapiraveramiz.

Qizlar birdan chuvullahib yuborishdi.

– Voy-voy, bizdan qanaqa aql chiqardi, opoqi, – dedi Dildora, Saodat buvining so‘zini bo‘lib.

Saodat buvi xijolati bor kishiday g‘alati qilib kulimsiradi.

– Yo‘q, aylanay, noppa-nozanin aqli qizlarsizlar. Men buni kecha, o‘zinglar qilgan munozaradan bildim. Haqiqatan ham, kechagi munozaralaringiz meni juda xijolat qildi, qattiq uyalib qoldim. Men sizlarni hali ko‘p narsaga tushunmaydigan, g‘o‘r qizlar deb yurgan ekanman.

Endi bilsam, tappa-tuzuk aqlroringiz kirib qolibdi. Aql jihatidan ham, dunyo mojarolariga qarashingiz jihatidan ham ancha yetilib qolganingizdan bexabar hamma gapni o‘zim aytaverib-man-u, sizlarni munozaraga tortmabman. Endi muhokama qiladigan masalalarimizni birgalikda hal etamiz, birga fikrlashamiz, birga bir qarorga kelamiz. Bo‘ptimi, qizlar?

Qizlar tushunchasi uchun katta sinov edi bu. Shuning uchun ular jon-jon deb rozi bo'lishdi.

– Barakalla, qizlarim. Munozaraning foydasi katta – odam o'sadi, – dedi-da, Saodat buvi oldidagi yozuvga bir ko'z tashlab olib, o'zi so'zlab ketdi: – Shu mahalgacha, qizlar, his bilan hirs, sevgi bilan havas o'rtasidagi chalg'ishlar ustida, dunyoda chin muhabbat borligi va uning jonli dalillari ustida ancha mukammal gaplashdik. Bular, asosan, yor tanlashga qaratilgan gaplar edi. Endi kelin masalasiga o'tamiz.

– Ha, shunga o'taylik, opoqijon, – dedi kimdir. Lekin kim aytganini Saodat buvi payqamay qoldi. U «Xah, shayton qiz!» deganday qilib qizlarga bir qaradi-da, so'zini kelgan joyidan ulab ketdi: – Faraz qilaylik, biz xayol qilgan qiz ko'nglidagi yigitini topdi, yorim deb etagini ushlagan yigitning sevgisi o'tkinchi bir havas emas, chin muhabbat ekaniga inondi, dunyoqarashi ham insoniy ekanidan ko'ngli to'q bo'ldi. Shundan keyin umrbod birga bo'lishga, vafo yostig'iga dog' tushirmay, poklik, halollik farishtasi bo'lib qolishga qasamyod qildi. Oqibat kelinlik libosida quyoshdek chaqnab, sevgining o'zidek porlab yor xonadoniga karnay-surnay sadolari, «To'ylar muborak!» kuyi navolari ostida viqor bilan kirib keldi. Ha, jon qizlarim, kelinchak keldi-yu, butun olam shod-u xurramligi to'yxonaga jo bo'ldi. Kimlar o'yinga tushadi, kimlar ashula aytadi, kimlar kelin bilan kuyovga baxt-saodat, chiroyli hayot, biri-biridan shirin o'g'il-qizlar tilaydi. Kelinchak esa, to'rda ibo farishtasi bo'lib yerga qarab o'tiribdi. Qani, qizlar, shu paytda u nimalarni o'ylaydi? Yo'q-yo'q, kechirasizlar, nimalarni o'yplashi kerak?

Qizlar bunaqa savol tushishini kutishmagan ekanmi, bir nima deyolmay qolishdi. Shu payt birdan Hilola qo'l ko'tardi.

– Opoqi, bitta gapim bor edi, aytsam – mana bular kulisshadi-da, shunisidan qo'rqaman, – dedi.

Qizlar qiqirlab kulib yuborishdi.

– Ana, ko'rdingizmi, opoqi, hali gapimni aytmasimdan kulislyapti bular.

Saodat buvi xiyol qovog'ini uydi.

– Kulmanglar, qizlar. Kim kulta, o'zini gapirtiramiz. Aytaver gapingni, aylanay.

Hilola bir aytar, bir aytmas bo‘lib so‘z boshladi:

– Men turmush qilishga qo‘rqaman.

Qizlar sharaqlab kulib yuborishdi. Saodat buvi ham bu beozor soddalik nash’asidan jilmaymay qolmadi. U o‘zini zo‘rg‘a bosib so‘radi:

– Nimadan qo‘rqasan, aylanay?

Hilola biroz tamshanib, ko‘ziga yosh olganday holatda turdi-da, bo‘shang kishi tovushi bilan duduqlanib dedi:

– Men, haligi... o‘zinglar bilasizlar... bo‘shgina qizman...

Haligi, yalmog‘iz kampirga o‘xshagan biron ta qaynanaga tushib qolsam... meni qovurib o‘tirmay, xomligimcha yeb qo‘yadi, deb qo‘rqaman-da.

Bo‘ldi kulgi, bo‘ldi qiyqiriq, qani endi buni osonlikcha bosib bo‘lsa! Saodat buvi ham kulgini bosishga ojizlik qildi, shekilli, o‘zi ham ularga qo‘shilib kular, kulgi zo‘ridan ko‘zidan chiqqan yoshni artib-artib qo‘yar edi. Hilola o‘rnidan dast turib ketdi.

– E, bo‘ldi-ye! Hadeb kulavermang, men gapimni aytib olay axir! – dedi u qichqirib. – Mening gapim shu: nima uchun biz bechora qizlar yigitnikiga bo‘ynimizni qisib borar ekanmiz-u, u qorang o‘chmagurlar bizlarnikiga shumshayib kirib kelishmas ekan?! Yo‘q, bu adolatdan emas. Ular ham ichkuyovlik azobini tortishsin-da!

Yana qizlar kulgisi, hech nimani tushunib bo‘lmaydigan chug‘ur-chug‘uri boshlandi. Saodat buvi kulgini bosib, javob qildi:

– Fikrimcha, buning sababi bitta emas, bir nechta bo‘lsa kerak. Avvalo, er – har nima bo‘lganda ham erkak kishi.

Erkak kishi esa, kuch-quvvat, hatto qudrat timsoli. Buning ustiga, yana surriyot davomchisi ham. Qolaversa, xotinni har jihatdan ta‘minlash, boshpana g‘amini yeyish, qornini to‘ydirish kabi katta-kichik zahmatlarning hammasi, asosan, er zimmasida. Azaldan shunday edi, bundan keyin ham shunday bo‘lib qolsa ajab emas.

– Nimaga? Hozir eridan ko‘proq topadigan, hatto ro‘zg‘or tebratadigan xotinlar ham bor-ku, – dedi Lola norozi bir ohangda.

Saodat buvi bosh harakati bilan uning gapini tasdiqladi.

– To‘g‘ri, shunaqalari ham bor. Bor bo‘lganda ham, barmoq bilan sanaladigan darajada kam emas, anchagina. Demak, qizlarning ham kuyovnikiga kelishlarida mantiq bor. Xo‘s, qanaqa mantiq bo‘lishi mumkin, kim aytadi?

Otika sapchib turdi.

– Qiz tushgan joyda yangi oila vujudga keladi.

Saodat buvi xuddi o‘zining tili uchida turgan gapni Otika topib aytganidan quvonib ketdi.

– Ha, barakalla! Qiz tushib borgan joyda yangi oila vujudga keladi. Bu esa, jamiyatda yana bitta hujayra paydo bo‘ldi, degan so‘z. Ana, ko‘rdinglarmi, qizlar, sevgi ikki kishining shaxsiy ishi bo‘lsa ham, ular oilaviy ittifoq tuzganlaridan keyin ijtimoiy ahamiyat kasb etyapti. Shuni esdan chiqarmanglarki, bu oilaviy ittifoq farzand paydo bo‘lgandan keyin davlat ahamiyati darajasiga ko‘tariladi. Shu boisdan ham, davlat oila huquqini himoya qiladi, ya’ni uning mustahkamligini saqlash uchun buzilish yo‘llarini yo‘qotish g‘amini yeydi. Xo‘p, endi boyagi gapimizni davom ettiraylik. Yaxshi, demak, qizlardan lozimi – kuyovnikiga borishni zimmaga olish-u, borgan yerida vujudga kelgan yangi ijtimoiy hujayraning ildiz otishiga astoydil hissa qo‘sish ekan. Shundog‘mi, Lolaxon?

Lola boshini astagina egib, «ha», dedi. Hilola payt poylab turgan ekan, darhol o‘rnidan turdi.

– Boyagi mening gapim javobsiz qolib ketdi-ku, opoqi, – dedi u bu safar qimtinmay.

– Gaping esimdan chiqqani yo‘q, qizim. Savoling javobsiz qolmaydi. Faqat yana picha sabr qilasan-da. Shunaqa bo‘lib qoldi. Oldin, boyta men o‘rtaga tashlagan savolimga javob qilaylik. Esinglardami boyagi savolim? «Kelin to‘rda ibo farishtasidek yerga qarab o‘tiribdi. Qani, qizlar, shu payt u nimalarni o‘ylaydi? Yo‘q-yo‘q, nimalarni o‘ylashi kerak?» – deb savol tashlab edim. Hozir shunga javob qilaylik. Qani, kim gapiradi?

Qizlarning biri: «Men qayerdan bilay?» desa, ikkinchisi: «Ichiga kirib chiqmagan bo‘lsak», dedi. Xullas, qizlardan kutilgan javob olinmadidi. Shundan keyin Saodat buvi boshini bir saraklab qo‘yib, o‘zi gapirdi:

— Men istardimki, qizlar, kelinchak ibo farishtasi timsolida yerga qarab o'tirgan o'sha baxtli damda, ko'nglidan loaqal shu qasamyod o'tsa: «Taqdirki peshanamga shu yigitni bitibdi, ming-ming roziman. To o'lgunimcha vafoli yori, sadoqatli do'sti, pok, halol yostiqdoshi, vijdonli rafiqasi bo'lib qolaman! Bu mening kelinchaklik subhidamimda, kelinchaklik taxt-u baxtimda ichgan qasamyodim bo'lsin!»

Qizlar birdan chapak chalib yuborishdi. Hatto: «Yashang, opoqi!» degan sadolar ham ko'tarildi. Saodat buvi qizlarga mam-nun qarab, so'radi:

— Qarsaklariningizdan ma'lum bo'ldi – shunday o'yashi, shunday qasamyod qilishi to'g'ri. Shundog'mi, qizlar?

Yorqinoy nozik qomatini rostlab o'rnidan turdi.

— Hurmatli opoqi, qani endi har bir kelinchak to'y tantanasi, to'y o'yin-kulgisi qalblarni qamrab olgan o'sha qaytmas damda siz aytgan shu qasamyodini ko'ngliga tugib qo'ysa!.. Buning ne'matini umr bo'yi tatir edi.

— Ha, barakalla, aqlli qizim. Shunaqa tantanali damda qilin-gan qasamyod yo etilgan ahd hamma vaqt ko'z o'ngingda bo'-ladi. Hayot yo'lida uchrashi mumkin bo'lgan o'ydim-chuqurlar-dan tekis, ravon yo'lga chiqib olishingda qasamyoding yordami shu qadar katta bo'ladiki, kelinchaklik taxtida so'ppayib o'tir-masdan, kelajak ahdini qilganing uchun o'zingdan behad min-natdor bo'lasan.

Qizlarga ham shu xulosa ma'qul bo'ldi, shekilli, hech kim e'tiroz qilmadi. Ana shundan keyin Saodat buvi gapini yana o'zi davom ettirdi:

To'y tantanasi o'tib, tong yorishishi bilanoq kelinchak xona-donidagi odamlar bilan tanishadi, ularning fe'l-atvorlarini o'rga-nishga kirishadi. Bilasizlar, bir oilada o'n kishi bo'lsa, o'novi ham bir xil fe'l-atvor, bir xil tushuncha kishisi bo'lavermaydi. Biri – injiq, qildan qiyiq axtaradi, biri – ivarsi, temsa-tebranmaydi, yana biri – ichiqora, boshqalar baxtini ko'rolmaydi, biri – insofli, haq-adolat yo'lida jonini beradi, biri – qari, izzattalab, yana biri – yosh-u, o'lguday mahmadona, boshqaga gap bermaydi. Nima deysizlar, shunaqa oilalar ham bo'lishi mumkinmi?

- Mumkin. Lekin hamma oila emas.
- Ha, barakalla, hamma oila emas, lekin shunaqalari bo‘lishi mumkin. Xo‘p, shunaqa oilalarga tushib qoladigan kelinchaklar ham bo‘lishi mumkinmi?

Yana qizlar gurullab, «mumkin», deyishdi.

- Barakalla, mumkin. Shunday holda nima qilish kerak? Qochish kerakmi? Nimadan qochish kerak? Shunaqa olaquroq oilalardanmi yo unga singib ketishdek og‘ir zahmatdanmi? Qochish kerak bo‘lsa, menimcha, har xil fe‘l-atvordagi odamlar orasida kun ko‘rish qiyinligidan qochilsa kerakdir-da? Ha, boshqacha qilib aytganda, hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan qiyinchilikdan qochish! Yo‘q, bunday qilish yaramaydi. Qiyinchilik hamma yerda ham uchrashi mumkin. Qiynalib ketdim deb qochaversak, bu odatta aylanib, butun umrimiz qochish bilan o‘tsmasmikan? Hayotda qochadiganlar ham bo‘ladimi? Bo‘ladi. Undaylar o‘zini qiynagisi, sabr qilgisi kelmay, sabil jonining huzurini ko‘zlaydigan bedavolar, hayot qiyinchiliklariga bardosh berolmaydigan qo‘rroqlar! Yo‘q, bunaqa qilish, katta-kichikning yuziga oyoq qo‘yish, yana shoshqaloqlikka yo‘l qo‘yishdan boshqa narsa emas. Kimki ku-yov xonadoniga tomir yoyish, uvali-juvali bo‘lish niyatini yuragiga tugib kelibdimi, tamom – bu muqaddas niyatidan qaytmasin! Yo‘lida o‘t bo‘lsa o‘tib, suv bo‘lsa kechib, shu qiyinchiliklarni yengish harakatiga tushsin. Uni yengish esa, oiladagi odamlarning kattasidan kichigagacha, hamma-hammasini – ularning fe‘l-atvorini, xarakterini bilib, shunga qarab ish tutishdan, shunga qarab muomala qilishdan boshlanadi. «O‘zimnikini o‘tkazaman, o‘zim bilganimni qilaman»dan ish boshlagan kelinchak qoqilib qoladi.

Voy-vuy, yana bitta institut deng, opoqi! – dedi Lola betini timdalagan bo‘lib. – Voy, sho‘rim!..

Hilola jahl bilan o‘rnidan turib ketdi:

- Nimaga institut bo‘lar ekan? Do‘zax-ku! Qanday qilib yashab bo‘ladi unaqa xonadonda?! Yo‘q, bu xo‘rlik, bunga chidab bo‘lmaydi!

Saodat buvi g‘alati qilib kulimsiradi.

- Yo‘q, yashash kerak. Yashash yo‘lini qidir, hammani o‘zing-ga iydir, yaxshisini ham, yomonini ham o‘zingga rom qil – il-

dizing uzoqqa ketadi. Bunday qilish qiyin, lekin iloji bor. Iloji har bir qizning o‘z qo‘lida, xarakterida, g‘ayratida, sevgan kishisi yo‘lida uchrashi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni yengib o‘tishga har doim tayyorligida.

Siz ham shunday qilganmisiz, opoqi? – dedi Otika, birdan xandon urib kulib.

Saodat buvi chiroyli qilib jilmaydi.

– Bu aytganlarim bizning zamonomiz kelini boshiga tushgan xo‘rlik oldida holva, bolam. Ha, sen so‘rama, men aytmay. Qanaqa azoblarga, qanaqa xo‘rliklarga chidaganmiz.

Ming marta shukur, u kunlarni sizlar ko‘rmagansizlar, ko‘rmaysizlar ham. Judayam ko‘ngillaringiz cho‘kmasin, qizlar, boshimizda shunaqa sho‘r ham bor ekan, deb. Kuyov xonadonidagi odamlar yuqorida biz xayol qilgan tarzda bo‘lmasliklari mumkin. Bunaqalari yo‘qdir, bo‘lsa ham evidadir. Keyin shunda ham, ehtimoli shardan, tayyor turish yo uni nazarda tutish foydadan xoli bo‘lmas, deb o‘ylayman.

– Odam sakrab o‘tolmaydigan jardan sakraysanlar, demoqchisiz-da, a, opoqi? – dedi qizlardan biri kesatib.

Bu o‘ziga otilgan kesak ekanini Saodat buvi yaxshi tushundi, shunday bo‘lsa ham, muloyimlik bilan kulimsirab javob qildi:

– Agar shunday deb tushungan bo‘lsang, nachora, xato tushunbsan, deymiz-da. Lekin bir narsa esingdan chiqmasin, aylanay, o‘sha sen g‘amini yeyayotgan odam jardan sakray oladi, unda shunday qudrat bor. Faqat sakrash yo‘lini topishi, buning uchun dovyurak bo‘lishi kerak. Mashina-mashina sep ko‘tarib borguncha, kichkinagina yurakchangizni to‘ldirib ep ko‘tarib boring, qizlarim. Ana shunda ostonasi tillidan uy sizniki! Ha, yana bir narsa esimdan chiqayozibdi, qizlar. Kelin tushib boradigan xonadon odamlari yuqorida biz taxmin qilgan darajada vahimalimi yo el qatori odamlarmi, bundan qat’i nazar, hammasining ko‘zi kelinda bo‘ladi. Kelinning yurish-turishida, o‘zini tutishida, ishlatgan so‘zida, yuz-ko‘z harakatda, kattalarga hurmati-yu kichiklarga shafqatida, uyning supurib-sidirilishida, ko‘rpa-to‘shaklatining yig‘ishtirilishida, idish-tovoqlarning yuvilib, saranjom qilib qo‘yilishida va hokazolarida bo‘ladi. Bu narsalar kelin uchun

haligi sizlarni vahimaga solgan jardan sakrash mushkulotidan ham mushkul imtihon. Bularning mushkulligi shundaki, kelinchak hamma vaqt uydagilarning ko‘zi – nazorati ostida ekanini bilmaligi yo hamma vaqt ham sezavermasligi mumkin. Kelin taqdirida bu dastlabki imtihon bahosi besh bo‘lsa – a’lo, past bo‘lsa-chi? Unda kelin qozonishi shart bo‘lgan husni tavajjuh olov o‘chib boradi va oqibatda uning o‘rnini saraton jaziramasi ham eritolmaydigan sovuqlik oladi. Mana shu bir-birini sinash davri har ikki tomon uchun ajrim fasli hisoblanadi. Bunda kelinning bop-nobopligi qancha aniqlansa, kelin tushgan xonadon odamlarining yangi a’zoga munosabatlari ham shuncha ravshanlashadi.

– Opoqi, – dedi Otika birdan o‘rnidan turib, – faraz qilaylik, kelin bilan kuyov tomon chiqishmadi, nima qilish kerak? Ajrab ketishlari kerakmi yo boshqa yo‘li bormi?

– O‘zim aytmoqchi bo‘lib turgan gapimni bo‘lib qo‘ydingda, qizim. Qulq sol: agar kelin shu oilada umr qilishni istasa, kuyov tomon ham shu kelinni o‘z bag‘irlarida saqlab qolish tilagida bo‘lishsa, ya’ni kuyov shuni xohlasa, har ikki tomon ham bir-biriga munosabatini darhol yaxshilashi, ahillik, inoqlik, tutuvlik yo‘lini qidirishi kerak. Bunday yo‘l bor. Xohish bo‘lsa, albatta, topiladi.

Saodat buvi qog‘ozlarini titkilab, bittasini qo‘liga oldi.

– Men boyta, suhbatimiz boshida, bitta to‘rtlik o‘qib bergen edim. Xabarlariningiz bor, boshdan oxir kelinga taalluqli. Kelinglar, shuni yana bir bor o‘qib beray-da, keyin fikr yuritaylik.

Kelin baxti kelining o‘z qo‘lida,

Chaman bor qilmoq ham yurgan yo‘lida.

Mehr qo‘ygan uyiga – baxti yordir;

Mehrda rom etuvchi jodu bordir.

Qani, qizlar, kimda qanaqa fikr bor?

Tursunoy durkun gavdasini chaqqon ko‘tarib o‘rnidan turdi-da, tabassumdan charaqlagan xumor ko‘zlarini bilan avval dugonalarini bir suzib chiqdi, keyin buvijoniga mammun qaradi.

– Mening tushunishimcha-da, buvijon, bu to‘rtlikda hikmat katta. Bundan ta’kidlangan narsalarga amal qilding – baxt topding,

yo'qsa – ko'z yoshing daryo, kuning qaro. Axir, bu yerda gap kelin shaxsi ustida emas, inson taqdiri ustida ketmayaptimikan? O'yab qaraylig-a, qizlar, bugun iymanib, begonalardek qimtinib kirib kelgan yangi mehmon ertaga shu xonadon bekasi, qator-qator bolalar onasi, zahmatkash yostiqdoshi yonida turib oila baxtini quruvchi vafodor xotin, mehribon ona-ku! Ayol baxtini topib ketsa, bu o'sha oila kishilar bilan birga butun jamiyatning ham yutug'i-ku. Demak, kelin baxtiga kelinning o'z shaxsiy ishi deb qaramasdan, bundan jamiyat ham manfaatdor ekanini ko'z o'ngimizdan qochirmasligimiz kerak ekan. Agar kelinchak ham masalaga shu tarzda, ya'ni o'z baxti jamiyat baxti bilan chambarchas bog'liq ekanini anglasa, boshiga mushkul ish tushgan paytlarda qiyinchiliklardan qochmay, ularni yengib o'tib, oila zaminini mustahkamlashga intilari, buni o'zining xotinlik, onalik burchi deb bilar edi. Shu ma'noda:

*Kelin baxti kelinning o'z qo'lida,
Chaman bor qilmoq ham yurgan yo'lida, –*

deyilgani juda to'g'ri, juda o'rini. Tursunoy gapini tugatar-tugatmas, Nigora o'rnidan turdi.

Mening ham ikki og'iz so'zim bor edi, – dedi u gap navbatini boshqalar ilib ketishidan qo'rqayotgandek shoshib.

– Marhamat, gapiaver.

– Nigora oq-sariq, uzunchoq yuziga juda yarashgan chiroyli burni ustidagi ter durlarini nafis ro'molchasi bilan asta artib, so'z boshladgi:

– Tursunoy juda to'g'ri gapirdi. Qani endi hamma kelinchaklar ham taqdiriga Tursunoya o'xshab qarasa! Ba'zi yosh oilalarda tur-mushga shunaqa qarash yo'q. Yo, bo'lsa ham yetarli emasdirki, tezda ajralib ketishadi. Menimcha, bu yoqdan kelin bo'lib tushib borib, u yoqdan unisi yoqmadi, bunisi yoqmadi, onasi unaqa ekan, otasi bunaqa ekan, menga u qildirdi, menga bu qildirdi, degan tuturiqsiz bahonalar bilan uyg'a qaytib kelishi – shunchaki bir nodonlik emas, borib turgan ahmoqlik! Ha, ahmoqlik! Ota-onasi yemay-ichmay to'plagan sep-u salobatini yondirish, el-yurt oldiga solgan tabarruk dasturxoniga mag'zava to'kish – ertaga ona bo'lishi muqarrar bir tabarruk zot sha'niga isnod bu! Ha, isnod, qizlar! Baxt koshonasini

qurish yo‘lida uchraydigan qiyinchiliklardan qo‘rqib, umid bilan bir yostiqqa bosh qo‘ygan yorini ota-onasi bilan dog‘-u hasratda qoldirib qochish – tubanlikning tubanligi! Vijdonsizlik!

– To‘g‘ri, juda to‘g‘ri, Nigorposhsha!

– Menga qolsa, – deya Nigora so‘zini davom ettirdi, – menga qolsa, o‘shanaqa tegmanozik o‘ktamnisolardan so‘rar edim: xo‘p, onasi-ku, unaqa ekan, otasi ham bunaqa ekan, xo‘sh, o‘zing qanaqa eding? O‘zingni qanaqa tutding? Sen qo‘ydek yuvosh, beayb edingmiki, ular bo‘ridek yirtqichlik qilishdimi? Nima uchun shunday qilishdi? Hech narsadan hech narsa yo‘q, besabab, bevaj seni sig‘dirishmadi – tursang o‘poq, o‘tirsang so‘poq deyishibdimi? Xo‘p, ular-ku shunaqa nobop odamlar ekan, sen-chi? Sen ular bilan til topishishga, ularni iydirib, apoq-chapoq bo‘lib ketishga harakat qildingmi? Yo ota-onangning baland oxuridan tushmay kekkayib yuraverdingmi? Har narsa bo‘lay, qizlar, bu savollarni tirmoq ostidan kir qidirish maqsadida berilgan g‘irrom savollar deb bo‘lmaydi. Menimcha, bular javob berilishi juda-juda zarur bo‘lgan, nihoyatda o‘rinli, nihoyatda adolatli savollar. Xayr, qochoq kelin davramizda yo‘q. Shuning uchun ming afsuski, haligi haqqoniy savollarimizga javob ololmadik, deylik. Xo‘sh, shu bilan gap tamom, ora ochiqmi? Yo‘q, menimcha, opoqimlar keltirgan to‘rtlikda muhokamatatalab bir joyi bor. U mehr haqida. Mana, eshitinqlar:

Mehr qo‘ygan uyiga – baxti yordir;

Mehrda rom etuvchi jodu bordir, –

deyiladi. Muhokamamiz shu to‘g‘rida bo‘lsa...

Saodat buvi Nigoraning aqlli gaplaridan xursand bo‘lib, qu-yosh misoli charaqlab ketdi.

– Xo‘p, aylanay, bo‘lmasa mehr haqida, mehr turlari va sharo-fati haqida gaplashaylik. Qani, qizlar, kim gapiradi?

Yorqinoy charaqlab o‘rnidan turdi. Uy ichi ham Yorqinoyning yorqin chehrasi kabi yorishib ketganday bo‘ldi. U o‘ziga yarashib tushgan nozik bir ado bilan Saodat buvidan izn so‘radi.

– Gapiraver, qizim, – dedi Saodat buvi ham ko‘zi, ham yuzi bilan jilmayib.

– Qochoq kelin masalasiga kelaylik, opoqi, ba’zi odamlarda yaramas bir illat bor. Masalan, birovni qoralaydigan bo‘lsa, axlatga bulg‘ab tashlaydi. O‘ziga-chi? Hay-hay, gard ham yuqtirmaydi! Falonchi – unaqa, falonchi – bunaqa! Xo‘s, o‘zing-chi, o‘zing qanaqasan? O‘zingda ham biron gard bormi? Vajohatidan ma’lum – gard yo‘q, top-toza, oppoq! Kechagina yor-yorlar bilan, tantana-dabdaba bilan kuyovnikiga borgan kelinchak bugun aynab, uyini tashlab qochgan ekan, bilingki, u ham o‘sha yaramas illat bandalaridan. Agar u, she’rda aytilganidek, uyiga mehr qo‘ysa – albatta, baxt topardi, obro‘ topardi, hurmat-e’tibor topardi. Yana o‘sha she’rga murojaat qilaylik. So‘nggi satrida «Mehrda rom etuvchi jodu bordir», deyiladi. Qaranglar, mehrda biz xayolimizga ham keltirmagan shunaqa qudratli kuch bor ekan! Endiki, miyamizga shu fikr kirdi, kelinglar, qizlar, bir o‘ylab ko‘raylig-a! Qanchalik haqiqat bor ekan bu balandparvoz tavsifda?

Bu yog‘ini men aytsam maylimi, a, Yorqish? – deb qoldi Muqaddas yalingansimon yoqimli bir tovushda.

Saodat buvi yarq etib Muqaddasga qaradi. Uning mehribon ko‘zlarida «maylimi?» degan savol bor edi. Yorqinoy charaqlab kuldi.

– Voy, sizdan aylanay-ey, Muqaddasposhsha, maylingiz nimas, gapiravering, aylanay, bemalol, – dedi u.

Muqaddas o‘g‘il bolalarnikiga o‘xshagan do‘rildoq tovushini baralla qo‘yib, so‘zlab ketdi:

– Men biron aqli gap aytishga hali yoshlik qilarman. Lekin shunday bo‘lsa ham, odam mushohadasiz bo‘lmas ekan, ko‘rgan-eshitgan narsalarimizga qarab bir nima deydigan bo‘lsak, mehr kirgan hovli – baxtiyor hovli, buguni kumush, ertasi oltin hovli deyishga to‘g‘ri keladi. Nimaga desangiz, mehr kirgan hovlida buzilish bo‘lmaydi, aksincha, tuzalish, yashnash, gullah bo‘ladi. Men xuddi shu fikrdaman. Gapimga ishonaveringlar, o‘rtoqjonlar, mehrda faqat yashnash, gullah, rivoj bor. Boya Yorqinposhsha mehrda qudratli kuch borligini aytdi. Shu gapi bilan meni qoyil qoldirdi. Qaranglar, mehrda shunaqa qudratli kuch, qudratli his borligini shu mahalgacha o‘ylab ko‘rmagan ekanman. Haqiqatan ham, shunaqa. Nimaga deysizmi? Hozir

aytaman. Avval, ana o'sha mehr qayerda, qachon, qanday shaitida paydo bo'ladi – shular to'g'risida gaplashib olaylik.

Hazilkash Otikaning xushchaqchaq ovozi yangradi:

– O, ko'zim chirog'ining munavvar nuri, o'zingiz aytib qo'ya qoling, Otikangiz tasadduq!

– Yo'q-yo'q, Otikaxon, meni bu xijolatpazlikdan qutqaring. Bilasiz-ku, men o'zini yaxshi bilmagan narsalar to'g'risida og'iz ochmayman, – dedi Muqaddas qo'llari bilan rad alomatini qilib.

– Qo'ying, Otikaxon, bilmagan narsasini gapirishga majbur qilmaylik. Menimcha ham, bizning tishimiz o'tadigan jo'n narsaga o'xshamaydi bu. Opoqimlardan iltimos qilaylik, o'zlarini aytib bera qolsinlar, – dedi Ra'no.

Saodat buvi qizlarga ko'z yogurtirib, ularning ham nigohlarida shu iltijo borligini ko'rdi. Chehrasini charaqlatib yuboradigan odatdag'i jilmayish bilan qizlarga qarab chiqdi. Hammaning ko'zi Saodat buvida edi, u dedi:

– Qaydam, mehr hammada ham bo'lavermaydigandek tuyuladi menga goho. Agar u iliqlik, issiqlik, yurak harorati, ishq-muhabbat otashi bo'ladigan bo'lsa, gumanimda ma'lum darajada haqiqat bor. Xudbin, sovuq, qo'rs, kesaktabiat odamda mehr nima qilsin, bolalarim! Agar yurak o'ti mehr-u muhabbat uchqunidan tutashgan o't bo'ladigan bo'lsa, menimcha, xuddi shunday! U holda, gulxan cho'p-xashaksiz o'chib qolganiga o'xhash, mehr ham yonilg'isiz so'nadi. Qalb gulxanining yonilg'isi esa, fikrimcha, sevgi, sadoqat, vafo, ardoq, ko'ngil pokligi, so'nmas istak, tiniimsiz intilishdir. Yuqoridagi ishtibohimiz haq bo'lsa-yu, mehr har qanday yurakda paydo bo'lavermasa, u holda qanday yurakda paydo bo'ladi? Hozirgina aytdik: «Yurak o'ti – mehr-u muhabbat uchqunidan tutashgan o't», deb. Demak, uning tomiri yoyilgan joy – yurak, unib-o'sishiga, gullab-yashnashiga, ravnaq topishiga ozuqa beradigan ham – yurak. Demak, hamma gap yurakning tozaligi va pokligida ekan. Kim bilsin, odam baxti va baxtsizligining ham siri shundadir. Illo:

*Pok bo'lsa yuraging – yuzing charog'on,
Qayga tushsa yo'ling – yurgingdir ravan, –*

deyilgan ekan, demak, mehr, ham shunday pok, shunday toza yurakda paydo bo‘ladi. Shuning uchun, jon qizlarim, yuraklari ngizni pok tuting, mehr – kunduzlari quyoshingiz, kechalari to‘lin oyingiz bo‘lsin. Bilingki, yurakni pok tutishga, demak, yaxshi odam bo‘lishga, vafoli yor bo‘lishga, yaxshi umr yo‘ldoshi, sadoqatli yo‘ldosh bo‘lishga intilish zamirida juda katta baxt bor. Bu baxt – shaxs baxtigina emas, jamiyat baxti, ijtimoiy baxtki, bunday baxt yo‘lida jonni tasadduq qilsa arziydi.

Saodat buvi so‘zini shu yerda to‘xtatib, oldidagi qog‘ozlar ichidan nimanidir qidira boshladi. Hamma jum. Faqat Hilola bezovtadek. U o‘rtadagi sukunatdan foydalanib qo‘lini ko‘tardi. Saodat buvi o‘z ishi bilan bo‘lib, ko‘rmadi. Shundan keyin Hilola:

– Opoqi, mening savolim javobsiz qolib ketyapti-da, – dedi holvasini zo‘rlab yedirgan Afandi singari. Qizlar piqirlab kulib yuborishdi. Bu kulgi qog‘ozlarni titkilab o‘tirgan Saodat bуни boshini ko‘tarib qarashga majbur qildi. Hilolaning so‘zini eshitmagan ekan shekilli, nima deysan, deb so‘ragan edi, Hilola savolini takrorladi. Saodat buvi boshini qimirlatib:

– Ha, esimda. Yana picha sabr qilasan, shekilli, qizim, – dedi. Keyin qizlarga qarab gapira ketdi: – Yana bitta muhim gap chiqib qoldi, qizlar, aytmasam bo‘lmaydi. Biz jamiyat baxti to‘g‘risida gapirganimizda, ba’zi odamlarga shaxsiy baxt inkor ostida qolayotgandek ko‘rinadi. Yo‘q, unaqa emas, ma’lumki, donolar ta’limotida shaxsni jamiyat hujayrasi deyiladi. Agar jamiyat baxtli bo‘lsa, demak, shaxs ham baxtli, u ana shu baxtdan bahramand bo‘ladi. Shuning uchun yangi kelin tushgan xonardonida kuyovi, qaynana-qaynatasi va boshqa oila a’zolari bilan birgalikda, bir yoqadan bosh chiqarib, inoq-totuv yashasa, buguni, ertasi va kelajagi uchun suvdan ham, havodan ham zarur oila baxtini qidirsa, uni topish yo‘lida jon kuydirsa, katta-kichik bilan muomala va mukolamada kelinchaklarga yarashgan chiroyli tavozeda bo‘lsa, buning oqibati qand-u novvot, aylanaylar. «Tuyaga yantoq kerak bo‘lsa, bo‘ynini cho‘zadi», degan maqol ham bor xalqimizda. A, bor, a? Ha, barakalla, bor. Senga ishq-muhabbatini, hurmat va e’tiborini poyandoz qilib xonardoniga katta umid bilan olib kirgan yigit oldiga shunchaki o‘ynab-kulish uchun emas, yo‘q,

qizlarim, o'sha yerda tomir yoyish, baxt topish uchun borganing hamma vaqt ko'z o'ngingda bo'lsin. Demak, shu niyatda kelib-sanmi, tamom, niyatingning ustidan chiq, o'zingni o'tga urib bo'lsa ham, suvgaga tashlab bo'lsa ham niyatingga yetish. Yo'q, aylanay qizlarim, bersang – yezman, bermasang – o'laman qabillida temsa-tebranmay, bez bo'lib, kesak bo'lib olsanglar – tur-mush bo'lmaydi. To'g'ri, yangi joy, yangi muhit, yangi odamlar kelinchakni ba'zan dovdiratib ham qo'yadi. Ayniqsa, qaynanasi-ning tili achchiq, o'zi injiq bo'lsa. Bunday paytlarda kelinchak-dan lozimi – o'zini yo'qotib qo'ymaslik, umidsizlikka tushmaslik, qaynananing qattiq so'zlarini og'ir olmaslik, aksincha, uning fe'l-atvorini, xarakterini, nimani yoqtirishi-yu, nimani yoqtir-masligini obdan bilib olib, shunga qarab ish tutishlik. Bu talab, albatta, og'ir. Hatto ba'zan toqat qilib bo'lmaydigan darajada fojiali ko'rinishi mumkin. Xuddi mana shu «Hayot qilko'prigi»dan eson-omon o'ta olgan kelinchakkina baxtini topib, uvali-juvali bo'lib ketadi. Har dam yeb yuboradigandek ko'ringan qaynana-ning u yengidan kirib bu yengidan chiqa bilgan, ko'nglidagini topib gapiradigan, uy-ro'zg'or ishlarini saranjom-sarishta qila-digan kelinni qaynanasi yalmog'iz bo'lganda ham yeb tashla-maydi. Yo'q, Hilola, yeb tashlamaydi. Aksincha, aql-idroki, yax-shi muomala va mukolamasi bilan sehrlab olgan kelinga qaynana mehribon ona, dono maslahatgo'y, samimiyl, g'amxo'r murabbiy bo'lib qoladi. Bu juda katta baxt. Lekin bu osonlik bilan qo'lga kiradigan baxt emas. Bunga erishish uchun sabr, sabr va yana sabr-toqat kerak. Shu ma'noda gul haqida aytilgan bir hikmat bor: «Gul tikan zahriga chidash bermaganda, hecham gul bo'lmas edi», deyiladi. Haqiqatan ham, hayotda gul bag'rige sanchilgan tikanga o'xshash nishtarlar urilib turadi yuragimizga. Chidasak – gul bo'lamiz, chidamasak – yona-yona kul bo'lamiz.

«Sabr qilsang – g'o'radan halvo bitar, besabrlar o'z oyog'idan yitar» degan maqolimiz ham bor-a, opoqi, – dedi Shijoat o'tirgan yeridan sal boshini ko'tarib.

Bor, qizim, bor. Innaykeyin: «Qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit», degan pichingli maqolimiz ham bor. Ividiq, ivrisiq kelinchaklarga qaratib aytilgan yashirin ta'na emasmikan bu?

Qizlar javobga ojizmidi yo tortinishdimi, bir-birlariga qaray boshlashgan edi, shaddod Otika boshini bir yoniga qiyshaytirib, labini burdi.

– Eh, opoqijon-a, shunaqa shamalarga ham bardosh berishimiz zarurligi qalamda ketgan bo‘lsa, nachora, bardosh beramiz-da, – dedi u kulgili qilib.

Qizlar sharaqlab kulib yuborishdi. Saodat buvi kulgi tugagach, Hiloladan so‘radi:

– Sen nima deysan, bardosh berish kerakmi yo qaynanam yeb tashlaydi, deb qochvorish kerakmi?

Hilola birdan qizarib ketdi. Keyin o‘zini bosib:

– Yo‘-o‘q, bardosh beramiz, – dedi-da, bir fursat labini tishlab turgach, asta qo‘shib qo‘ydi. – Boyagi savolimga ham javob oldim, rahmat, opoqi.

Unday bo‘lsa, – dedi Saodat buvi oldidagi qog‘ozlardan biringi qo‘liga olib, – unday bo‘lsa, bugungi suhbatimizni ham, odatdagidek, bir band she’r bilan tugatamiz:

*Qanoatning tubimiz – zar-u oltin,
Qanoat qilgan xotin – oltin xotin!*

YETTINCHI OQSHOM HIKOYATI

*Yaxshi bo 'lsang, taxt-u baxting yo 'lingda,
Turfa gullar ungay o 'ng-u so 'lingda.*

Kelinchak xulq-atvori haqida kecha aytilgan so‘zlar chuqur taassurot qoldirgani shundoqqina ko‘zlaridan ko‘rinib turar edi. Saodat buvining kechagi gaplardan ko‘ngli uncha to‘lмаган, shekilli, qizlar to‘planar-to‘planmas gapini yana o‘sha mavzudan boshladi:

– Kechagi suhbatimizda kelinchak qanday bo‘lishi, o‘zini qanday tutishi to‘g‘risida gaplashdig-u, lekin oilada, ayniqsa, kelin bilan qaynana o‘rtasida janjal chiqib qolsa, uni qanday bosish, umuman, janjal chiqarmaslik yo‘lini topish to‘g‘risida gaplashib olishga ulgurmadi. O‘zlarining eshitdilaringiz, Hilola tili achchiq zahar qaynanadan qo‘rqishini aytdi. Lekin shunaqa qaysar, qildan qiyiq qidiradigan injiq kampirni iyitib olish mumkinmi-yo‘qligi ustida gaplashib ololmadik.

Holbuki, bu juda muhim masala. Qaynanalar nima uchun kelinlarini ilg‘ashadi, qiyashadi, tergashadi – eng oldin shuni aniqlash kerak. Aslida, qaynanasi shunaqa fe’li yomon, qitmir xotinmi, yo kelinining xatti-harakati uni shu kepataga solganimi? Agar, aslida, fe’li o‘zi shunaqa bo‘lsa, u vaqt kampirga yoqadigan, uni iyitib olishga yordam beradigan yo‘lni tutish kerak. Bordi-yu, bunda kelinchak aybdor bo‘lsa-chi? U holda kelin insof yo‘liga kirishi, o‘zini o‘nglash harakatiga tushishi lozim bo‘ladi. Agar qaynana bilan kelin o‘rtasida hadeb janjal chiqaversa, o‘rtada ittifoqlik, ahillik bo‘lmasa, bunday oiladan halovat ko‘tariladi, xosiyat ham ketadi. Buning ustiga, kelining ham, qaynananing ham, ular kasriga qolgan qaynata bilan

kuyovbolaning ham yegan-ichgani zahar bo‘ladi. Bunday oila uzoqqa bormay qazoga uchraydi. Shu haqida ikkita hayotiy hikoyatim bor, yo‘q demasalaringiz, o‘qib bersam.

YAXSHI KELIN

Shakarxonni nikoh oqshomining ertasiga, tong endi ko‘z uqalay boshlagan subh-sodiqda kelinsalomga olib chiqishdi. Qaynata-qaynana, qaynag‘a-qaynegachi, amma-xola, yaqin-uzoq qarindoshlar ataganlarini ushlab qator turishardi. Shakarxon boshiga solingan harir xindu ro‘moli ostidan ularga qaradi-yu, yugurib borib qatorlariga turib olgisi keldi. Shunchalar yaqin, shunchalar aziz ko‘rdi ularni o‘ziga!

Shakarxon yanga e’loni bilan avval qaynatasiga ikki bukilib salom berdi. Qaynatasi ataganini uning boshiga qo‘yib, uzoqdan uzoq duo qildi. Yetti pahlavon o‘g‘il-u yetti jonon qiz tiladi. Ahil bo‘linglar, totuv yashanglar, dedi. Qaynanasi esa, Shakarxonning boshiga bitta sopol laganni to‘q etkazib qo‘ydi-yu, duo ham qilmay, qayrilib ketaverdi. Yer yorilmadi-yu, Shakarxon yerga kirib ketmadi. Birinchi kundanoq shunaqa sovuq muomala boshlansa, keyin nima bo‘ladi? Shakarxon shu narsalarni o‘yladi-yu, ustidan bir chelak sovuq suv quyib yuborilgandek bo‘ldi. U hozirgi holatida o‘zini yer ustida emas, jar ostida his qilardi. U bir entikib o‘zini orqaga oldi, ko‘zlari tindi, quloqlari shang‘illab ketdi. Bu shang‘illash Shakarxonga hozirgina bitta sopol laganni boshiga to‘qillatib qo‘yib chiqib ketgan qaynanasining xunuk baqirig‘iga o‘xshar edi. U o‘zini yo‘qotib, nes bo‘lib qoldi. Endi u kimlarga salom berdi – bilmadi, kimlar nima dedi – uqmadi. Faqat uyga kirkandagina o‘ziga keldi. Yanga shu yerda edi, u ma’yus dedi:

– Bu qanaqasi bo‘ldi, a, opa? Qaynana ham shunchalik bemehr bo‘ladimi? Tavba! Halitdan shunday qilsalar, keyin nima bo‘larkin, a?

Yanga uning qalbida tutay boshlagan o‘tni yondirmadi. O‘zini og‘ir tutib, bosiq ovozda dedi:

– Nima bo‘lishi o‘zingga bog‘liq, aylanay. Yaxshi bo‘lsang, ular ham yaxshi bo‘lib ketadilar. Yomon bo‘lsang-chi, hali buni

holva bilaver. Odamni odam ilitadi, esingda bo'lsin! – dedi yanga Shakarxonga dalda berib.

Shakarxon yangasining aytganini qildi. Qaynanasi bilan gaplashganda, tilidan bol tomardi, dakki-dashnom eshitganda lab-lunjini osiltirib, qora bulutga o'xshab olmay, charaqlab kular, ayniqsa, bir narsani unday qilmabsiz, bunday qilmabsiz, desa, «Voy, kallam qursin-ey, aqlim yetmabdi-ya! Xo'p, oyijon, siz aytganingizday qilaman. Basharti undan ham orttirib qoyil qilib qilsam – urishmaysizmi? A, oyijon, urishmaysizmi?» – deydi-yu, charaqlab kelib, qaynanasini u betidan bu betidan cho'lp-cho'lp o'pib oladi. Jahli chiqib, qumortqisi oqib turgan serjahl qaynanasini ana shunaqa hazil-mutoyiba bilan yengib yuboradi. Shakarxonning bu uyda ildizini mustahkam qilgan, qaynanasini asta-sekin ilitib olishiga imkon bergen fazilatlaridan biri – cha-qimchi emasligi bo'ldi. U qaynanasidan haqsizlik,adolatsizlik ko'rsa ham, ilon po'st tashlab yuboradigan yomon gaplar eshitsa ham ichiga yutib, alamini kulgi bilan yengib yuraverdi.

Shakarxon asil kelin ekan. Qaynanasidan ko'rganadolatsizliklarning birontasini eriga aytmadni, ko'z yoshi qilib erining yuragini ezmadi. Ayniqsa, unday bo'ldi, bunday bo'ldi, deb onasining oldiga yig'lab bormadi. Aksincha, hech qanday jafo ko'rmagan baxtli odamday ota-onasining oldiga kulib borib, kulib kelib yurdi. Shakarxon bu ko'rgiliklarni ertami-kech shifo topib ketadigan o'tkinchi dardga o'xshatar, shifo kuni kelishini qanoat bilan kutar edi. Shu taxlit kunlar, oylar o'tdi. Qildan qiyiq topadigan, o'zining gapidan o'zgasini tan olmaydigan, qaysar, kajr qaynana Shakarxonni shunchalar yaxshi ko'rib qoldiki, uni yerga ham, ko'kka ham ishonmay e'zozlaydigan bo'ldi.

Qizig'i shu bo'ldiki, tabiatan qo'rs, tars-turs gapiradigan qaynanasi Shakarxon sharofati bilan noppa-nozanin muloyim, yumshoqso'z ham bo'lib qoldi. – «Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqadi», deganlari shu ekan-da!» – deb quvonadi qaynatasi xotinining yumshoq bo'lib qolganidan terisiga sig'may xursand bo'lib.

– Ha-da:

*Gulki berdi tikan zahriga bardosh,
Bo'ldi oqibat gul misoli quyosh.*

YOMON KELIN

Kajirani nikoh oqshomining ertasiga, tong endi ko'z uqalay boshlagan subh-sodiqda kelinsalomga olib chiqishdi. Qaynana-qaynata, qaynag'a-qaynegachi, amma-xola, yaqin-uzoq qarindoshlar ataganlarini ushlab qator turishardi.

Kajira boshiga solingan harir hindu ro'moli ostidan ularga qaradi-yu, birdan yuragi orqasiga tortib ketdi. «Voy, qorang o'ch-gurlar-ey, namuncha ko'p?! Shuncha odam ichida qanday kun ko'raman-a! Yo'q, bular yeb tashlashadi meni!» – deb o'yladi u.

Kajira yanga e'loni bilan avval qaynatasiga salom berdi. Kelingchaklarga yarashgan bir ado bilan ta'zim qilmadi, yo'q, kekkayganicha kallasini bir siltab qo'ydi. Qaynatasi ataganini boshiga qo'yib, uzoqdan uzoq duo qildi, yetti pahlavon o'g'il-u yetti jonon qiz tiladi, ahil bo'linglar, totuv yashanglar, dedi. Qaynanasi ochiqqina, xushchaqchaq xotin ekan, kelinining boshiga yangi chiqqan bir kiyimlik alomat atlas, antiqa ro'mol, yana allanimalar qo'yib, u betidan bu betidan cho'lp-cho'lp o'pdi. U ham baxtsaodat, uzoq umr, totuv hayot tiladi. Lekin bu narsalar Kajiraga yoqmadni. Yangasi qo'ymaganiga ham qaramay, boshqalarga salom bermasdan, ichkariga kirib ketdi. Hamma hang-mang bo'lib qoldi. Yanga orqasidan halloslab kirdi.

– Bu qanaqa sharmandagarchilik?! Nomusga o'ldirding-ku!
E, xayf-e! – dedi u xunobi chiqib.

Kajira, xuddi hech narsa bo'limgandek, xiringlab kului.

– Qo'yavering, yangacha, hechqisi yo'q. Tuyaga yantoq kerak bo'lganda bo'ynini cho'zgan ekan, bularga ham kelin kerak bo'lsa, boshimga tosh qo'ymasdan, oyog'imga bosh qo'yishsin. Ha, oyog'imga bosh qo'yishsin. Men bularga pochinitsa qilmayman. Qo'yavering, yangacha, o'zлari yalinib kelishadi hali!

Yanga nima qilishini bilmay gangib qoldi. U deb ko'rdi – bo'lindi, bu deb ko'rdi – yana bo'lindi. Kajira kajrlik qilib turib oldi. Oxiri yanga:

– Endi bu yog'i nima bo'ladi – o'zingga bog'liq. Yaxshi bo'lsang – oshingni yeysan, yomon bo'lsang – boshingni! – dedi-yu, cho'rt o'girilib chiqib ketdi.

Kajiraga zarracha ham ta'sir qilmadi bu o'rini ta'na. Agar kelinsalom malol kelgan, xo'rlikday tuyulgan bo'lsa – bunda ham o'zi aybdor. Nimaga desangiz, taomilimizda qaynata-qaynana bilan tanishish bahonasida salom berish bor, xohlasang, salomga olib chiqaylik, yo'q desang, mayli, o'zing bilasan, deyishganda, Kajira qarshi turmadi. «Mayli, taomilimizda nima bo'lsa – shu-da», – dedi. Mana endi salomni tashlab ketib, o'zini xunuk ko'rsatib qo'ydi. Xayr, bu ham-ku o'tdi-ketdi. U keyin ham o'zini qo'lga olmadi. Qaynanasi bilan qaynatasini – erining hurmat qilinishi lozim bo'lgan ota-onasi o'mida ko'rmay, u deyishsa, bu dedi, bu deyishsa, u deyaverdi. Ularning aytganini emas, o'ziga ma'qulini qilaverdi. Dard desa, balo dedi. Ayb o'zida ekan ravshan ko'rini turgan nojo'yalikda ham o'zini oqlab, boshqalarni qoralayverdi, o'trsa – o'poq, tursa – so'poq, deya-verasizlar, sizlarda insof yo'q, odamgarchilik yo'q, deb qaynana bilan qaynatasiga do'q uradigan odat chiqarib oldi. Hatto bir kun: «Tfu! Basharalaring qursin!» deb so'ka-so'ka ko'chaga ham chiqib ketdi. Bolamiz xafa bo'lmasin, qaylig'ining xunuk ishlarini eshitib ezilmasin, deb ular o'g'illariga aqalli bir marta shikoyat qilishmadidi. Kelin esa eri ishdan keldi deguncha, hormang, eson-omon ishlab keldingizmi, deb ko'ngil olish o'miga, otang u dedi, onang bu dedi, deb yurak-bag'rini ezar edi. Uning eng yomon qiliqlaridan biri – uyida o'tgan past-baland gapni darrov onasinkiga ko'tarib borishi edi.

– Meni kimga berdinglar? O'lar bo'lsam, o'lib bo'ldim! Otasi u deydi, onasi bu deydi, kuyovingiz esa, ota-onasini mundog' bosib qo'yish o'miga nuqul kuchi menga yetadi. Sen o'zing unaqasan, sen o'zing bunaqasan, deb kun bermaydi, yo'q, chiqaman. Yaxshilikcha borib ajratib olinglar. Bo'lmasa-chi, ha-da, keyin yomon bo'ladi – o'zimni...

-- Hay-hay, jon bolam, ajratib olamiz, unaqa dema, o'rgilay, – deydi onasi yo'lga otlanib.

Kajiraning onasi ham qiziga o'xhash yengiltabiat xotin ekan. Qizini shashtidan tushirish, unga nasihat qilish o'miga qudalari bilan urishgani chopaverardi. «Men qizimning qo'lini sovuq suvga urdirmaganman. Endi kelib sizlarning axlatlaringizni tozalaydimi!

Yo‘q, men buni sizlarga cho‘ri qilib emas, o‘gillaringizga qayliq, uyingizga beka qilib bergenman!» – deb Kajirani yetaklab ketardi. Lekin Kajira bir yerda qanoat qiladigan qiz emas ekan. To‘rt-besh kun yo‘q bo‘lib ketgandan keyin onasinikiga ham sig‘may yana qaytib kelar, shunda ham burniga suv kirmay eski qilig‘ini qilaverar edi. Axir, bir kun pichoq suyakka yetdi-yu, eri bosig‘i bilan so‘radi:

– Kajiraxon, ular-ku, siz da’vo qilganingizdek, bo‘lar-bo‘lmasga janjal chiqarishib, sizni nohaq xafa qilishar ekan, shundog‘mi?

Kajira shu to‘g‘ri gapga ham sapchib ketdi.

– Xafa qilisharmish-a! Qonimni ichishyapti! Qonimni! –

– Xo‘p, faraz qilaylik, qoningizni ham ichishyapti...

– «Faraz qilaylik» emish»! Farazi yo‘q! Siz shunaqasiz, uzukun o‘sha... ota-onangizning yonini olasiz.

– Munchalik qo‘pchimang, Kajiraxon, og‘ir o‘tirib gaplashaylik. Xo‘p, farazi yo‘q bo‘lsa, yo‘q bo‘la qolsin. Xayr, ular-ku, qat-tiq-quruq gapirib sizni xafa qilishar ekan, a?

Kajira to‘ng‘illab:

– Ha! – dedi.

– Siz-chi, siz ularga shirin gapirasizmi, gaplarini qaytarmaysizmi?

– Podumayesh! Nimaga qaytarmas ekanman! Qaytaraman! Ammamning buzog‘iga o‘xshab lalayib o‘tiramanmi?! Nima, meni bu yerga tili yo‘q, zaboni yo‘q qul qilib berishganmi? Net, izvinyayus! Men, bilasizmi, kimman? Bilmasangiz, bilib qo‘ying, ha, bilib qo‘ying: men institutni bitirgan oliy ma'lumotli zamонавиy qizman! Otam doktor, professor! Oshlarini oshab, yoshlarini yashab qolgan allaqanday chol-kampirning mog‘orini yuvasan, deb o‘qitishgan emas meni oliy mакtabda! Tavba, shunaqayam aralashqoq bo‘ladimi odam degan! Hali o‘mingni yig‘ishtirmabsan, deb dakki berishadi, hali idish-tovoqlar yuvuqsiz qolibdi, deb dashnom berishadi, nima, men ota-onangizdan so‘kish eshitgani kelibmanmi eshicingizga?!

Erining sabr kosasi to‘ldi. Shunday bo‘lsa ham, yana jahlini bosib dedi:

– Yo‘q, Kajiraxon, unchalik emas. O‘ylab ko‘rdingizmiyo‘qmi, o‘zingizda ham ayb bor, albatta. Misol keltiraymi? Xo‘p. Masalan, men ertalab ishga ketayotganimda turib choyimga qaramaysiz, yotgan yeringizda qimir etmay yotaverasiz. Yaxshi emas-da.

Kajira jahli chiqqanidan ko‘karib ketdi.

– Niması yaxshi emas, uyqumni harom qo‘shib, sizga choydamlab kelmaganimmi? – dedi Kajira chinqirib. – Yo‘q, izvinya-yus, men sizning oqsochingiz emasman, xotiningizman! Ha, xotiningizman. Bizning zamonda er bilan xotin huquqi bab-baravar. Ha, esingizdan chiqmasin – bab-baravar!

Eri zaharli qilib jilmaydi.

– To‘g‘ri, bab-baravar. Ha, bizning zamonamizda er bilan xotin huquqi bab-baravar. Men buni qarsaklar bilan, jon-dilim bilan olqishlayman. Lekin shunisi quvonchliki, bu baravarlik siz o‘ylaganingizcha emas. Ishga ketayotgan erini choy ichirib jo‘natish oqsochlikka kirmaydi. Odamiylikka kiradi. Odamiylikka, Kajira!

– E-e, baqirma-ye! Meni senlarning uyingga qonini ich, yuragini ez, bos, topta deb keltirib tashlaganmi?! Turmayman! To‘ydim!

Shundan keyin eri ortiq insofga ham chaqirmadi, yalinib-yolvorib ham o‘tirmadi, uyimiz buzilmasin, achchig‘ingizdan tushing ham demadi. Yuklarini mashinaga ortib, onasini kiga oborib tashladi. Nachora:

*Gulki bilmabdi o‘z qadr-u qiymatin,
Xazon bo‘pti gullatolmay sifatin.*

Saodat buvi qo‘lidagi qog‘ozni sekin yerga qo‘ydi. Keyin qiz-larga o‘ychan qarab, dedi:

– Mana, yaxshi kelin bilan yomon kelin tavsifi – qisqacha shunday. Shu bilan gapimiz tamom degan so‘z emas. Hali bu haqda ko‘p gaplashish mumkin. Lekin biz kelinchaklar sifatidagi yaxshi-yomon tomonlarni bat afsil qalamga olmadik. Faqat bir qarashdayoq ko‘zga tashlangan tomonlar ustidagina qisqacha so‘z

yuritdik. Bu bejiz emas, albatta. Endi ular tavsifini davom ettirish – sizlarga havola, oqshoq qizlarim.

Qizlarning bir qismi Shakarxonning odobi, tadbirkorligi, ayniqsa, shirintilligining asiri bo‘lib, hali o‘zlariga kelmagan bo‘lishsa, qolganlari Kajiraning fe'l-atvoridan g‘azabda edilar. Shuning uchun bo‘lsa kerak, bir necha daqqa churq etmay yerga qarab o‘tirishdi. Bularning hozirgi ahvollariga chuqurroq razm solgan odam ular qalbida mavj urgan ikki xil to‘lqinni ravshan ko‘ra olardi. Bu to‘lqinlarning biri o‘z qatorlaridan Shakarxon kabi yaxshi bir inson yetilib chiqqani uchun faxr va quvonch hissi to‘lqini bo‘lsa, ikkinchisi – Kajira kabi yaramas, past bir kimsaning ham shu musaffo havodan nafas olib, shu musaffo dunyoda rizq topib kelayotganiga hayfsinish, afsuslanish hissi to‘lqini edi.

Bir necha daqiqadan so‘ng Hilola qo‘rqib-pisib o‘rnidan xiyol ko‘tarildi. Uzunchoq yuzi qip-qizarib ketgan edi.

– Men Shakarxonga qoyil qoldim. Qaynanasi o‘lguday sovuq, qo‘rs, yomon xotin ekan, oh, bechora, seni qovurmasdanoq yeb qo‘yadi bu yalmog‘iz, deb achinuvdim, yo‘q, shunday alvastini ham... kechirasizlar, og‘zimdan yomon so‘z chiqib ketdi, shunday bag‘ritosh qaynanasini ham o‘ziga ilitib olibdi-ya! – dedi u haya-jonlanib.

– O, jon gulshanimning mayin shabadasi, ko‘rdingmi, ana shunday yosumanni ham yo‘lga solsa bo‘lar ekan?! – dedi Oti-ka Hilolaga tikilib. Keyin unga dalda bera ketdi: – Qo‘rqma, sen ham, o‘n besh kunlik oyim! Shakarxonning yo‘lidan borsang – tovaga tushmaysan. Ha, aslo qo‘rqma, bir narsha bo‘lsa, mana, o‘zimiz bormiz, seni tovada qovurtirib qo‘ymaymiz. Dadil bo‘l, qayrilma qoshlaringga Oti kang tasadduq!

Otkaning hozirgi hazilkashligi juda o‘rnida bo‘ldi. Bo‘lmasa qizlar Kajiraning nodonligidan qaynab, qon bo‘lib o‘tirishgan edi.

Endi Mohina so‘z oldi:

– Shakarxonni maqtashdan boshqa so‘zimiz yo‘q. Sog‘ bo‘lsin, ko‘p bo‘lsin shunaqa dono, uddaburon kelinchaklar! Qani endi, hamma kelinchak ham Shakarxonning yo‘lini tutsa! Afsus,

ming afsus, tutmaydiganlar ham bor ekan-da, Kajiraga o‘xshagan! Bundaylar o‘zlarigagina emas, qiz zotiga isnod keltirishadi! Nahotki, shuni tushunishmasa, a?

Qiziqsan-a, tushungan odam o‘zini shunchalik rasvo tutarmidi! Yo‘q, turish-turmushi, qiliq-qilmishi bilan rasvoyi odam bu-lar! – dedi Muqaddas o‘zini bosolmay.

So‘z navbatini qaqa-jon Yorqish oldi.

– To‘g‘ri, qizlar. Kajira tumshug‘idan narisini ko‘rmaydigan, ko‘rsa ham faqat o‘z nafiga xizmat qiladigan narsalarnigina ko‘radigan xudbin, qaysar, gap uqmas bir balo ekan. Tavba, unda bu-naqa o‘jarlik, kajrlik, boshqalarga tepadan qarashlik, ya’ni kibr-u havo qayerdan paydo bo‘ldi, a? Shunisiga hayron bo‘lib qoldim. Yo tug‘ma qusurmikan-a, bu? Unday desak, xarakterning shakl to-pishiga, yo unday, yo bunday fe’l-atvor ortishiga muhit, ya’ni oila, jamoa ta’siri zo‘r bo‘ladi, deyishadi-yu? Bu yog‘i qanday bo‘ldi?

Saodat buvi kallasini qimirlatib, Yorqinoyga qaradi.

– Gaping juda to‘g‘ri, qizim. Oil, muhit ta’siri odamni yo kamolga, yo zavolga olib boradi. Kajira kimning qizi ekanini, qanday tarbiya olganini kuyoviga dag‘dag‘a qilgan paytda baland dimog‘ bilan kerilib aytdi. Otasi fan doktori ekan, onasi qizining qo‘lini sovuq suvga urdirmapti. Demak, odatdagicha, suv etagi-dan emas, boshidan loyqa. Ota-onasi farzandining tarbiyasiga vaqt topolmaptimi, jamiyat qabul qilgan to‘g‘ri yo‘lga solib yuborol-maptimi, tamom, oqibati hamisha shunday – achinarli. Yosh bola – misoli mum. Istanak, qunt qilsak, biz – ota-onalar ham bolala-rimizni jamiyat ko‘rki qilib tarbiyalashimiz mumkin. Bunday ibratli ota-onalar ham, jamiyat ko‘rki bo‘lib qolgan farzandlar ham, xayriyat, istaganimizcha topiladi bizda. Bolalarimiz umrlari yo‘lida oqsab-yo‘qsab qolishmasin desak, murg‘akliklarida naq tanalariga asl odamlik xislatini joylaylik, toki issiq bag‘rimizdan sovuq Kajiralar chiqmasin, qizlarim!

Qizlar xursand bo‘lishib, chapak chalib yuborishdi. Tursunoy fursatdan foydalanib o‘rnidan turdi. Saodat buvi nevarasining chehrasidan bir narsa istagi borligini sezib so‘radi:

– Gaping bormi?

- Ruxsat bersangiz...
- Gapiraver, qizim.

Kajiraning otasi fan doktori, onasi esa, qizining qo‘lini sovuq suvga urdirmagan tirnoq ichidagi mehribon ona. Kajira-chi? Shu ota-onaning arzandası. Lekin bu – hamma fan doktorlari, hamma ilm-davlat arboblari farzandlariga, ayniqsa, bir kun emas-bir kun boshqa xonadonga borib, uy tutish taqdirlarida bor qizlarga Kajiraning ota-onasi singari munosabatda bo‘ladi, degan so‘z emas. Yo‘q, aslo unday emas. Mana, qatoringizda fan doktorlaridan birining qizi o‘tiribdi. U ham Kajiraning yaramas tarbiyasidan g‘azabda. Shundog‘mi, Sojida?

Sojida bo‘ylari uzungina, xipchabel, nekchehra qiz. O‘rnidan turganda uni oq gulday ochib yuborgan oq ko‘ylagidanmi yo shahlo ko‘zlaridanmi, xonaga nur sochilib ketgandek bo‘ldi. Sojida gap boshlashga shoshilmadi. Avval dugonalariga, keyin Saodat buviga alami g‘alayonga keltirgan g‘azabli kishi ko‘zi bilan bir necha lahma qarab turgach, uzr so‘rayotgan bir tovushda dedi:

– Meni kechiringlar, Kajiraning qilig‘i, sovuq qilig‘i, qiz sha’niga tuhmat qilig‘i, ayniqsa, «Men axir fan doktori, profesorning qiziman!» – deb kuyovi betiga shaltoq otgani meni juda yomon o‘rtantirib yubordi. Bu qanday uyatsizlik?! Qanday sharmandagarchilik?! A? Xo‘sh, otasi fan doktori. Professor ekan – juda yaxshi. Lekin bu yaxshi ishda Kajiraning hissasi bormi? Otasinинг kechalari mijja qoqmay, kunduzlari tinim bilmay qilgan nihoyatda og‘ir ilmiy mehnatini yengillashtirishda Kajiraning ma’naviy ulushi bo‘lganmikan? Menimcha, bo‘lmanov. Yo‘q, do‘sstar, bo‘lman. Xo‘sh, haqiqat-ku, shundog‘ ekan, ota-onsa sharafini pesh qilib, bitmagan ishimizni bitirib olishga haqqimiz bormi biz farzandlarning? Yo‘q! Yo‘q! Yana bir marta aytaman – yo‘q! Xo‘p, u holda biz farzandlarning nimaga haqimiz bor? Menimcha, shunday ota-onaning farzandi bo‘lganimizdan, ota-onamiz erishgan yuksak sharafdan faxrlanishga! Faxrlanishga va ota-onalarimizga o‘xshash odam bo‘lishga! Ularning sharaflarini ahmoqona qiliqlarimiz bilan yerga urishdan saqlanib, bu sharafni yana ham baland ko‘tarishga! Ularning sharafli yo‘llari-

dan yurishga! Ota-onalarimiz kabi sof axloq, pok vijdonli kishilar bo‘lishga!..

Saodat buvi charaqlab ketdi.

– Ofarin, qizim, ming ofarin!

Sojida yonib gapirganidan hansirab qolgan edi. Saodat bувining luqmasi joniga ora kirdi. U bir qancha nafas sukul etib, o‘zini o‘nglab oldi.

O‘zinglarga ma’lum, men ham fan doktorining qiziman. Men biron marta otam unaqa, otam bunaqa deb kerilganmanmi? Yo‘q, kerilmayman, aslo. Nima uchun? Shuning uchunki, otam sharafi o‘zim mehnatda orttirgan shaxsiy sharafim emas. Ota-onsa sharafini yo mavqeyini qurol qilib ish bitirish – o‘g‘irlik qilish mening tushunchamcha! Insonlik qadr-u qiymatini bilmagan ba’zi nodon farzandlar biz qoralayotgan shu tushkunlikdan hazar qilishmaydi. Ular ota-onsa soyasida biqinib mehnatsiz, zahmatsiz kun ko‘radilar. Ha, ana shu taxlitda kun ko‘rishi mumkindir, lekin yashashi mumkin emas. Ha, odamlarcha yashashi mumkin emas. Ha, odamlarcha yashashi mumkin emas! Hamma o‘z mehnatining samarasini yeishi, o‘z sharafiga o‘zi haykal qo‘yishi kerak. Bu, menimcha, masalaning bir tomoni, ikkinchi tomoni esa – ota-onsa sharafi yo mavqeyiga mahliyo bo‘lgan farzand g‘aflatda qolib, g‘animat yoshligini boy berib qo‘yadi. Ochiqroq qilib aytganda, ota-onsa sharafini o‘ziga qalqon qilib olgan nodon farzand oqibatda jamiyatga tiriktovon bo‘lib qoladi. Ha, shunisi alam qiladi odamga!

Ofarin, qizim, ming ofarin! – dedi Saodat buvi yana Sojidani quchib olgudek bir harorat bilan.

Sojida qizlarning qarsaklari ostida o‘rniga o‘tirdi. Oradan zum o‘tmay Nigora turdi.

– Opoqi, – dedi u o‘ziga yarashib tushgan bir tavoze bilan, – ijozat bersangiz, mening ham shu haqda ikki og‘izgina gapim bor edi.

– Ayta qol, qizim, ayta qol.

Kajiraning: «Otam fan doktori, professor», deganiga qarab, ota-onasi tushungan odamlar bo‘lishsa ham, qizlariga yomon tarbiya berishgan ekan, shunaqa betamiz bo‘lib qolishiga ota-onsa-

si aybdor ekan, deb o‘ylovchilar ham bo‘lar. Lekin men bunaqa o‘yga qarshiman. Nimaga desangiz, odamning katta harf bilan yoziladigan Odam bo‘lib yetilishida oila bilan jamoaning roli juda katta. Buni yuqorida ta’kidlab o‘tdik. Bu rolning muhimligini inkor qilib bo‘lmaydi. Lekin shunisi ham borki, tarbiyası buzuq ota-onaning bolasi hamma vaqt buzuq, tarbiyasi tuzuk ota-onaning bolasi hamma vaqt tuzuk bo‘ladi, deya olmaymiz-ku. Agar shunday deydigan bo‘lsak, avvalo, jamoa ta’sirini, jamiyatning ta’sir rolini inkor qilgan bo‘lamiz. Qolaversa, dononing bolasi dono, nodonning bolasi nodon bo‘ladi, deyilgan xato hukmga imzo chekkan bo‘lamiz. Hayotda, haqiqatda esa bunaqa bo‘lmaydi. Ahmoqdan aqli, aqlidan ahmoq tug‘ilishi mumkin. Bu gapimdan xulosa shuki, har qanday aql-hushi joyida odamning bolasi o‘zining yurish-turishiga, dunyoqarashiga baho berishdan ojiz qolib, yengil-yelpi hayat kechirish ko‘chasiga kirib ket-sa (bunaqalar hayotda bo‘ladi), Kajira singari odamlar nafratiga yo‘liqib, ota-onasiga ham la’nat keltiradi. Qarabsizki, bechora ota-onsa shuncha qilgan mehnati evaziga bolasi kasri bilan la’nat olib o‘tiribdi-da! Xo‘s, buni yaxshilikka yomonlik, deymizmi? Ha, xuddi shunday deymiz. Ota-onalarimizdan ko‘rgan yaxshiliklarimiz uchun o‘la-o‘lguncha minnatdor bo‘lish, bu yaxshiliklar haqini hisobsiz yaxshiliklar bilan to‘lash o‘rniga biz ularga yomonlik qilamiz. Bilib qilamizmi, bilmay qilamizmi, baribir, oqibati shunday bo‘lib chiqadi. Yo‘q, o‘rtoqjonlar, biz yoshlarning yomon xulqimiz uchun faqat ota-onani, jamoani qoralayvermasdan, o‘zimizda ham ayb borligini, millionlab asl yoshlarimiz el baxti, yurt baxti, demak, o‘zlarining ham baxti uchun jonbozlik ko‘rsatayotgan bir paytda yomon yo‘lda sanqib qolganimizni betimizga aytgan yaxshi. Demoqchimanki, ota-onsa, muhit tarbiyasidan tashqari, yoshlarning o‘zlarida ham yaxshilikka yaxshilik bilan javob berishga intilish bo‘lishi kerakmi? Kerak! Odamni odam qiladigan, nodonni dono qiladigan biron kuch bo‘lsa, menimcha, u kuch – intilish! Xalqimizda: «Pul bo‘lsa, changalda sho‘rva», degan bir maqol bor. Biz uni zamonaviylashtirib: «Yaxshilikka intilish bo‘lsa, baxt-u taxting kaftingda», desak bo‘lmasmikan?

– Bo‘ladi, qizim, juda bo‘ladi-da! – dedi Saodat buvi ko‘ngli-dagi gapni topib gapirganlardan quvonib.

Nigoraning so‘zi tugagan ekan, u hammaga bir ta’zim qilib joyiga o‘tirdi. U joyiga o‘tirgan bo‘lsa ham, boyagi otashin so‘zlarining jarangi hamon qulqlarda yangrar edi. Shunday chuqur fikrlar topish, shunday otashin qilib gapirish oson emas edi. Bir necha zum qizlar, yuraklari botinmay jim o‘tirishdi. Kimdir gapirishi kerakligini bilgandek, Saodat buvi ham indamay o‘tirar edi. Nihoyat, Dildora ijozat so‘radi:

– Sojidaning juda ma’noli, aqlli gapidan keyin, ayniqsa, Nigorposhshanning otashin so‘zlaridan keyin sizlarga manzur bo‘ladigan gap topish, o‘lay agar, juda qiyin. Shunday bo‘lsa ham, opoqimlar keltirgan hikoyatda menga ko‘proq ta’sir qilgan bir narsa bor. Men shu haqda gapirmoqchiman. Odamni bor qiladigan ham, baxtga yor qiladigan ham – niyat ekan. Buni biz ikkita kelinchak haqidagi hikoyatda ravshan ko‘rdik. Shakarxon kelinsalomga chiqqanda, yangi qarindoshlarini ko‘rib shunchalar suyundiki, qatorlariga borib turib olgisi keldi. Xoh ishoninglar, xoh ishonmanglar opoqimlar hikoyatning shu joyini o‘qiyotganlarida ta’sirlanganimdan ko‘zimdan yosh chiqib ketayozdi. Nimaga deb so‘ramaysizlar – bilaman. O‘zlarizingiz ham yig‘lab yuboray-yig‘lab yuboray deb zo‘rg‘a o‘tiruvdinglar. Nima uchun shuncha ta’sirlandik, a? Menimcha, Shakarxon risoladagi kelinchak, eng yaxshi kelinchak namunasi bo‘lgani uchun, quvonchimiz ichimizga sig‘may hayajonga tushganimiz uchun. Qaranglar-a, Kajira ertalab kelinsalomga chiqqanda yangi qarindoshlarini ko‘rib, ulardan yaxshilik emas, yomonlik kutdi. «Voy, qorang o‘chgurlar-ey, namuncha ko‘p?! Bular yeb tashlashadi-ku meni!» deb o‘ylab, to‘nini teskari kiyib oldi. Shakarxon-chi? Yo‘q, Shakarxon unaqa emas. U yetti uxbab tushga kirmagan bu xonadonga mehmon bo‘lib emas, beka bo‘lib kelayotganini, shu xonadonda tomir yoyib ketishi, uvali-juvali bo‘lishi taqdirida ekanini obdan anglagan pok niyatli kelinchak! Shuning uchun ham, yangi qarindoshlari ko‘ziga olovdek issiq ko‘rindi.

– Menda ham bitta mulohaza bor edi, – dedi Ra’no Dildoranning so‘zi tugashi bilan.

– Gapiraver, qizim, gapiraver.

Mening gapim ham Kajira to‘g‘risida. Men u qizni yaxshi taniyman. Xolamlarning mahallasida turadi. Men Kajirani oqlamoqchi emasman, borib turgan satang qiz u. Lekin hamma aybni Kajiraga yuklab, ota-onasini oqlaganga o‘xshash gap bo‘layotganiga qarshiman. Yo‘q, unchalik emas. Oddiy odam bilan oddiy odam o‘rtasida tafovut bo‘lganidek, ilm kishilari o‘rtasida ham tafovut bo‘ladi shekilli-da. Kajiraning otasi, haqiqatan ham katta olim. Ilmiy asarlar yozadi, oliy o‘quv yurtlarida ma’ruzalar o‘qydi. Ishqilib, boshini qashishga vaqt yo‘q emish, deb eshitganman-da. Kim biladi, chindan ham otasi qizining tanobini tortib qo‘yishga vaqt topolmaganmi yo onasi qizini papalab, paxtaga o‘rab o‘stirganmi, har nima bo‘lganda ham, Kajiraning shu kepataga tushib qolishida ota-onasi aybsiz emas, menimcha. Hatto, ota-onasi ma’lum darajada aybli ekaniga ishonaman. Nimaga desangiz, men uni har ko‘rganimda ust-boshiga, taqinchoq-bezanchoqlariga qarab og‘zim ochilib qolar edi. O‘rta maktabda o‘qib yurganida ham qo‘lida oltin bilaguzukli tilla soat, quloqlarida qashqarcha boldoq, egnida hali Toshkentda rusum bo‘lмаган antiqa gazmoldan tikilgan ko‘ylak, oyoqlarida esa, qayoqdan topganlariga odamning aqli yetmaydigan qimmatbaho narsalarga uning o‘zi burkanib olmagandir-ku? Qizlar mактабга shunaqa yasan-tusanda borsa, avvalo, hamma talab uchun majburiy bo‘lgan maktab kiyimi buzilishini, ayniqsa, mактабдаги boshqa qizlarning ko‘zлари kuyishi mumkinligini professor otasi bilan kalondimog‘ onasi bilmasmidi?

Saodat buvi quvonchidan charaqlab ketdi.

– Juda to‘g‘ri ko‘tarding shu masalani, qizim, – dedi u Ra’no so‘zini tugatib joyiga o‘tirgandan keyin. – Ota-onan qanday mavqe va martaba kishisi bo‘lishidan qat‘i nazar, hamma vaqt ota-onan bo‘lib qoladi. Bolalarini zamon kishilari qilib, jamiyat ishiga yaroqli qilib tarbiyalash – ularning farzandlari oldidagi ota-onalik burchi, jamiyat oldidagi grajdanilik burchi, avlod va zamon oldidagi muqaddas burchidir. Bolasi tarbiyasiz, axloqsiz, andishasiz, farosatsiz, shudsiz bo‘lib o‘ssa – ota-onaning professor-

ligi ham, fan doktorligi ham, boshqa baland martaba va unvoni ham ma'naviy mas'uliyatdan qutqarib qololmaydi. Ko‘p afsuski, jamiyat qonun-qoidasiga xilof ish qilib qo‘ygan bolalarning ota-onalari ko‘pincha xashaki bahonalar bilan o‘zlarini oqlashga tishadilar. Biri komandirovkada ekanini bahona qilsa, ikkinchisi jamoat yo davlat ishlari bilan bo‘lib bexabar qolganini ro‘kach qiladi. Uchinchisi esa, ilmiy ishi qistalang bo‘lib turganini, shu sababdan bolasiga qaragani vaqt topolmaganini aytadi.

Bu sabablarda ma’lum darajada jon bordir, lekin masala bola tarbiyasiga borib taqalganda, vaqtning bormi-yo‘qligi sabab bo‘la olmaydi. Ota-onha har qanday vaziyatda ham bolalariga ko‘z-quloq bo‘lishga, tarbiyasini bir zum ham esdan chiqarmaslikka majbur. Bizdagi ijtimoiy qonun, insoniy qonun shuni taqozo qiladi! Bu qonundan ozgina bo‘lsa ham uzoqlashish – xatodan o‘tib jinoyatga qadam qo‘yish bilan barobar. Ha, xuddi shunday, qizlarim!

*Yomon yoursang – ketar baxting qo‘lingdan,
Adashma hech to‘g‘ri yurgan yo‘lingdan!
Yomon xulqning oqibati – ko‘p yomon,
Jazo tortgung axir bir kun beomon!*

SAKKINCHI OQSHOM HIKOYATI

*Erni er qiladigan ham xotin,
Qaro yer qiladigan ham xotin.*

Saodat buvining oqshom suhbatlari qizlar maroqini kun sayin orttirib borar edi. Ba'zi qizlar kech kirib, soat sakkiz bo'lishini toqatsizlik bilan kutishardi. Shakarxon bilan Kajira to'g'risidagi kechagi hikoyat qizlarda juda qattiq taassurrot qoldirgan ekanmi, bugun suhbat soatini ham kutib o'tirmay barvaqt kutib olishdi. Saodat buvi bundan behad xursand edi. U har bir qiz bilan ko'rishib, ota-onalarining hol-ahvollarini g'amxo'rlik bilan so'radi. Keyin odatdagি vazmin ovozda suhbatini boshladi:

– Biz bu oqshomgi hikoyatimizni «Erni er qiladigan ham xotin, qaro yer qiladigan ham xotin» maqoli bilan boshlaymiz. O'zbek xalqining hayot tajribasi sayqal topgan bu maqoldan ravshan ko'rinish turibdiki, xotin bo'lish – nahorda turib tut qoqishdek oson narsa emas. Bu kelinchaklik shodiyonasi o'tib, vafodor xotin, mehribon ona va, nihoyat, dono qaynana bo'luncha oila tashvishi bilan yashash, oila kam-u ko'stini butlash, er hurmatini joyiga qo'yish, oxiri janjalga olib borishi ehtimol bo'lgan isrofgarchiliklardan, beboshliklardan qochish, bolallarga mehribon ona, g'amxo'r murabbiy bo'lish, qaynana bilan qaynataga kelin emas, umrlarining oxirlarigacha qiz bo'lib qolish kerak, degan so'z. Bu shartni esdan chiqargan yo pisand qilmagan kelin yaxshi xotin bo'lolmaydi. Aksincha, kecha muhokamamizdan o'tgan Kajira singarilarning axir bir kun kavushi to'g'rilab qo'yiladi.

Saodat buvi gazeta qirqmalaridan ikkitasini olib, oldiga qo'ydi. Goh gazetaga qarab, goh o'z ko'nglidan chiqarib gapira ketdi:

– Er bilan xotin o‘rtasidagi totuvlik misoli bir daryo, uning keltiradigan ne’mati olam-jahon. Eng avval, oila a’zolari bundan baxt, rohat ko‘radi. Agar xotin eriga shirin til, yaqin dil bo‘lsa, o‘zini oilada odob, andisha doirasida tutsa – bunday xotin eriga suyukli xotin, bolalariga mehribon ona, mahalla-ko‘yda ibrat malikasi bo‘lib qoladi. Ana shunday xotinlarning qizlari ona izidan borishga, kelgusi umr yo‘ldoshlariga onasi singari hurmat-izzat bilan qarashga o‘rganadilar. Lekin, afsuski, jamiyatimizda ming-minglab Shakarxonlar orasida yakka-dukka Kajiralar ham uchrab turadi. Bundaylar erni er o‘rnida ko‘rishmaydi, er gapini nazarga olishmaydi. Oqibatda o‘zlarigagina emas, oila farog‘atiga, ayniqsa, jamiyat ravnaqiga ma’lum darajada ziyon yetkazadilar. Shu haqda madaniyatimiz onaxonlardan biri – filologiya fanlari doktori Muzayyana Alaviya xonim «Bolalaringizning otasi» nomli otashin maqolalari bilan biz ayollarga murojaatda bo‘ldilar. Men ana shu ko‘p dono, ko‘p boandisha fikrlar bilan to‘liq maqoladan o‘zimizga kerakli joylarini sizlarga o‘qib eshittirmoqchiman, qizlarim.

Qizlar chug‘urlashib, «O‘qib bering, opoqi, jon deb eshitamiz», deyishdi. Saodat buvi maqola parchalarini o‘qishdan oldin shunday dedi:

– Hurmatli olimamiz maqolalarida shundog‘ deydilar:

«...Alisher Navoiy xotinlar haqidagi hikmatlarida: «Uyning oroyishi, uylikning osoyishi – xotinda; jamoli bo‘lsa – ko‘ngilga marg‘ub, aqli bo‘lsa – jonga matlub; aqli bo‘lsa – ro‘zg‘orda intizom, uying tartibli-yu saranjom; qayg‘uli kunda hamdaming, dardli damda malhaming, yomon tillik bo‘lsa – ko‘ngil yaraliq, yomon ishlik bo‘lsa – yuz qaroliq!» – degan edi. «Xotin pokiza bo‘lsin, erga sodiq do‘s, vafoli yor bo‘lsin, hayoli, andishali, tili totli bo‘lsin; vafoli yor bo‘lsin; xushfe’l, xushatvor bo‘lsin», deydi dono xalqimiz. Har bir ayol, har qancha huquqqa, har qancha amalga, har qancha davlat va mavqega ega bo‘lganda ham, xalqimizning bu dono o‘gitlarini esda tutishi lozim.

Xotin-qizlarimizga berilayotgan beqiyos imkoniyat va imtiyozlar, doimiy g‘amxo‘rlik va e’tibor, shubhasiz, biz ayollarning

boshlarimizni osmonga yetkazadi. Lekin bu ulug' ne'matlarni suiiste'mol qiluvchilar ham borligi bizni afsuslantirmay qo'y maydi. Nazarimda, ba'zi ayollar bu oliyjanob imtiyozlardan kibrlanib ketishayotganga o'xshaydi. Ayrim ayollarning xulq-atvori, yurish-turishi, jamiyatda o'zini tutishi, axloq-odob doirasiga sig'maydigan betayin qiliqlari bizni o'ylatib qo'yyapti. Erkaklar bilan huquqimiz bir deb, erni er o'rnida ko'rmaydigan ayollar ham ba'zan uchrab qoladi. Bunday ayollar teng huquqlik zamirida o'zlarining ayollik latofatlarini, oilaga, bola-chaqaga mehr-u muhabbatlarini, ayniqsa, ayollik latofati, andishasini orttiruvchi kuch borligini anglamasalar kerak.

Yaxshi ayol har qanday sharoitda ham o'z latofati va mehr-u shafqatini yo'qotmaydi. Xoh olima, xoh shoira, xoh baland martaba sohibasi bo'lsin, baribir, u hamma sharoit va muhitda ayol, xotin, ona bo'lib qoladi. Shuning uchun kerilib-gerdayish, men falonchiman, deb havolanish, erga o'dag'aylash – ayol sha'niga isnod. Juda katta isnod! Yaxshi xotin erini o'ziga faqat umr yo'ldoshi debgina tushunmaydi. Ayni zamonda bolalarining g'amxo'r otasi, oilasining suyanchig'i, o'zining zabardast himoyachisi ham deb tushunadi. Erining shunaqaligidan faxrlanadi. Axir, er uyda bo'lsa, hamma yoq yorishib, to'lib ketganday bo'ladi. Qizlarim, har bir xotinning o'ng qulog' so'l qu log'ida bo'lsin; er – oila boshlig'i. Uni izzat qilish kerak. Er kelishi bilan uy fayzga to'lib ketadi, hamma narsaga ruh, jon kiradi. Lekin bu narsa o'z-o'zidan bo'lmaydi. Buni xotin, ya'ni er hurmatini joyiga qo'ygan yaxshi xotin vujudga keltiradi. Er ko'chadan kirganda, yaxshi xotin «hormang» deb kutib oladi. Shirin gapirib, shirin qabul qiladi. Bolalari sho'xlik qilayotgan bo'lishsa, ularni tinchitadi, eri oldiga choy keltirib, hol so'raydi. Biron gap bo'lsa, yotig'i bilan aytadi. «Ertalab tayinlagan narsamni qilmabsiz!» – deb do'q urmaydi. Ishdan charchab kelgan erini bema'ni g'idi-bidilar bilan ta'bini xira qilmaydi. Ovqatini zaharga, to'shagini tikanga aylantirmaydi.

Ba'zi betamiz xotinlar erdan baland kelish maqsadida uni xo'rlaydilar. Ana shunday paytlarda er janjalni gazak oldirmas-

lik uchun o‘zini bossa, farosatsiz xotin, mendan qo‘rqtyapti, deb avjiga chiqadi. Hatto uy sirini ko‘chaga olib chiqishdan ham toymaydi. Er sirini, uy sirini ko‘chaga chiqarib yoygan xotin – hech qachon sadoqatli, vafoli turmush yo‘ldoshi bo‘la olmaydi. Bu xunuk qiliq o‘zi sevib bir yostiqqa bosh qo‘ygan erining qalbida muz bo‘lib qoladi. O‘rtadagi muhabbatga, izzat-u hurmatga putur yetadi.

Yana bir afsuslanadigan joyimiz shuki, qizlar, o‘ylamay bosgan odimi bilan erini beobro‘ qiladigan, ish joyidan ketishga sabab bo‘ladigan xotinlar ham uchrab qoladi qatorimizda. Bundaylar erlarini beobro‘ qilish bilan birga o‘zlarini ham, bolalarini ham yerga qaratib qo‘yayotganlarini tushunishsa edi! Yo‘q, tushunishmaydi! Aksincha, umr yo‘ldoshimizning xatosini ko‘rsak, ko‘chaga chiqib jar solgandan yo ishxonasiga borib arz qilgandan ko‘radi, imijimida bosib olishga harakat qilsak bo‘lmaydimi? Bo‘ladi. Faqat buning uchun istak, harakat kerak. Yaxshi xotin, yaxshi ayol, yaxshi inson bo‘lib qolishni istagan, nomiga gard tushirishdan hazar qilgan xotin shu odamiy yo‘lni tanlaydi, shu pok yo‘l bilan boradi, erini yerga kirgizmaydi, yo‘q-yo‘q, balandga, shon-u shuhrat arshiga ko‘taradi!»

Saodat buvi so‘nggi satrlarni chuqur his va baland hayajon bilan o‘qidi. Keyin gazeta qirqimlarini yana jildga solib, og‘ir bir nigoh bilan qizlarga qaradi.

– Qani, sizlar nima deysizlar, qizlar? – dedi.

Qizlar ham Saodat buvidan kam ta’sirlanishmagan edi.

Shuning uchun darrov bir narsa deyishga shoshiluvchi bo‘l-madi. Oradan juda uzoq tuyulgan lahzalar o‘tdi. Nihoyat, Yorqinoy oyday charaqlab o‘rnidan turdi.

– Qars ikki qo‘ldan chiqadi, degan gapimiz bor. Qaydam, er-u xotin o‘rtasidagi munosabatga shu gapni ham tatbiq qilsa bo‘ladimi-yo‘qmi? – dedi u Saodat buviga savol nazari bilan qarab. Opoqi bir nima demadi. Shundan keyin Yorqinoy yana so‘zini o‘zi davom ettirdi: – Fikrimcha, tatbiq etsa bo‘ladiganga o‘xshaydi. Nimaga desangiz, izzat-u hurmat, yaxshi munosabat har ikki tomondan bo‘lganda, totuvlik buloq suvi singari o‘zi qaynab

chiqaversa kerak, deyman-da. Payqashimcha, opoqimlar suhbatlarini bir yoqlama olib boryaptilar, ya’ni oila poydevorini mustahkamlashdagi er bilan erkak zimmasidagi qarzni, katta oilaviy burchni tilga olmay, qizlar, kelinlar, xotinlar zimmasidagi burchgagina to’xtadilar. Shu sababdan ham, hamma gapimiz faqat ayollar, xotinlar, qizlar ustida boryapti.

Shu yerda bir afsuslanadigan joyimiz bor, nazarimda. Bu munozaramizni qog’ozga tushganda o‘qigan yo orqavorotdan eshitgan ba’zi nomard erlar xotinlariga o‘dag‘aylab: «Ana, ko‘rdingmi, Saodat buviday dono xotinki: «Erni er qiladigan ham, qaro yer qiladigan ham xotin», depti-yu, sen bo‘lsang nuqul meni ayblaysan! Haqiqatda esa, turmushimizdagi hamma chatoqlik mendan emas, sendan ekan!» deyishi mumkin. Ha, sira uyalmay, qizarmay, nomussizlarcha, vijdonsizlarcha shunday deyishadi! Holbuki, o‘zлari ro‘zg‘orga qarashmaydi, bolalariga kiyim-kechak olib berishmaydi, oyligini allaqayerlarda yo‘q qilib, pulim yo‘q, deb bez bo‘lib oladi. Bu narsalar er uchungina emas, erkak kishi uchun katta nomus ekanini tan olishmay, hatto bolalarining oziq-ovqatlariga ham qarashmaydi yo qarashsa ham yeng uchidagina u bu qilib qo‘yishadi. Xotin maoshini ro‘zg‘orga yetkazolmay qiynganda esa, xotinidan ikki yo ikki yarim baravar ortiq maosh olishiga qaramay: «Xo‘p, bo‘lmasa, ro‘zg‘orni bir oy sen tebrat, bir oy men tebratay», deb «oliyanoblik» qilishadi. Aytinlar, odamlar, bu beor, beandisha odam qanday erkak, qanday er, qanday ota bo‘ldi, shu «chayqovchilikdan», shu «yoymachilikdan» keyin? Axir, otalik burchidan, erlik burchidan tubanlarcha ochish-ku, bu! Men o‘ylaymanki, opoqimlar «Erni er qiladigan ham, qaro yer qiladigan ham xotin» deyilgan xalq maqolini keltirganlarida er, ota nomiga dog‘ tushirmay yurgan haqiqiy insonni nazarda tutganlar. Oilaning moddiy chiqimidan, bolalarining ust-boshiga, qorinlariga zarur bo‘lgan qonuniy xarajatdan qochgan nomard erni, bemehr otani ko‘zda tutgan emaslar! Bu hech qanday kurakda turmaydigan noma’qulchilik-ku! Bunday noma’qulchilikni ko‘tarishga or qilmaydigan biron ta kurak topilarmikan dunyoda?! Topilmasov! Men aminman, erkaklar va nomard erlar qilmishi

beshafqat olib tashlanadi. Men o'shanaqa erlarning o'zlarini go'llikka solganlariga ajablanaman. Axir, xotindan erlik huquqini, erlik hurmatini talab qilishdan avval, arning o'zi haqiqiy er bo'lish, erlik burchlariga sodiq qolish g'amini yesa yaxshi bo'lar, odamiylik bo'larmidi?

– Albatta, albatta, qizim! – dedi Saodat buvi.

Yorqinoy kichik bir ta'zimdan keyin so'zini davom ettirdi:

– Modomiki, oldimizdag'i hozirgi vazifa xotinlik burchi us-tida ekan, yana shu haqda – xotinning eri oldidagi burchi haqida gaplashamiz. Lekin men, bu yerda o'tirgan qizlarning hammasi bu haqda asosliroq, chuqurroq qilib gapirishga ancha ojizmiz. Shuning uchun...

– Shuning uchun opoqimlarning o'zlarini gapirsinlar, demoq-chisiz-da, a? Voy qayrilma qoshlariga Otika opovsi tasaddug'-ey! Yaxshi, ayni ko'nglimizdag'i gapni aytdingiz, Yorug' oyim! Ke-ling, biz ham yoningizda turib, opoqimlardan so'raylik, suhbatlari-ning bu yog'ini ham zabardast yelkalaridan tushirmasınlar.

Otikaning beozor hazillari hammani, hatto Saodat buvini ham jon-dildan kuldirdi. Opoqi xo'p ma'nosida boshini asta egib so'zlab ketdi:

– Turmush qurgan ayol boshidagi tashvish shu qadar ko'p bo'ladiki, sanasang yo ko'z oldingga keltirsang, vahimadan yura-ging orqingga tortib ketadi. Ovqat pishirish, kir yuvish, dazmol bosish, uy tozalash, hovli supurish, idish-tovoq yuvish, bola bo-qish, bozor-o'charge yugurish, bolalarni bog'chaga olib borib, kechqurun yana bog'chadan olib kelish, bog'chada, mакtabda, ota-onalar majlisida yo maqtov, yo tanqid eshitish... Tavba, shun-cha tashvish yetmagandek, yana kap-katta erga ham qarashimiz kerak! Shu qilganimiz to'g'rimi? Menimcha, to'g'ri. Nima uchun to'g'ri? Qani, qizlar, aytinglar-chi, nima uchun to'g'ri? – Qizlar churq etishmadi. – Demak, sizlardan javob yo'q. Xo'p bo'lmasa, o'zim javob qilaman. Biz, ayollar shirin so'z, shirin muomalaga qancha o'ch bo'lsak, erlar ham parvarishga shuncha o'ch bo'-lishadi. Buning boisi bor. Xotin kishining ko'zi tabiatan o'tkir, mirishkor. Hamma narsani bir ko'rishdayoq bilib, baholay oladi.

U shunday qobiliyatga ega. Masalan, ro‘parangizdagи odamning kiyimida dog‘, g‘ijim bormi, tugmasi tushgan yo osilganmi, sochi taralgan yo to‘zg‘iganmi – bu narsalarni ayol kishi darhol ko‘radi va ko‘rishi kerak. Agar shunday kamchilik eringizda bo‘lsa-chi? Ya’ni eringizning ko‘ylagi dazmollanmagan, yoqasi kir, galstugi qiyshiq, pidjaginiн oldi dog‘ deylik. Bunga kim aybdor? Er. Shundaymi? Ha, ma’lum darajada er aybdor. Lekin yuz foiz emas. Aslida esa, menimcha, bunda xotin aybdor. Ni-maga deysizlar, albatta. Xotin kishining-ku, ko‘zini o‘tkir, didi-ni nozik dedik. Shundog‘ bo‘lgandan keyin nima uchun erining ust-boshidagi shu kamchiliklarni ko‘rmadi? Bu xil kamchiliklarni ko‘rish xotin uchun burchmi yo fazilatmi? Burch desak, yangilikni xato tushunadiganlar eskilik deb ayyuhannos solishadi. Yo‘q, eskilik emas. Kim aytdi arning ust-boshidagi kamchilikni xotini ko‘rmasligi kerak, deb? Yo‘q, hamma jamiyatlarda, hamma vaqt bor edi, bundan keyin ham bo‘ladi, chunki bu shunchaki burch emas, fazilat ham. Xotin kishida fazilat qancha ko‘p bo‘lsa, shuncha yaxshi. Ana shunday fazilatga ega bo‘lgan xotin nima uchun erining ust-boshidagi shu kamchiliklarni ko‘rmadi? Nima uchun erini shunday kamchiliklar bilan ko‘chaga, el ko‘ziga chiqardi? Ana, ko‘rdingizmi? Erdagi nuqsonni ko‘rgan odam eng avval xotinini ayblaydi. To‘g‘ri ayb, chunki erini shu kepatada ko‘chaga chiqargan xotinning o‘zi ham haligidek kir-chir yuradigan qassang‘ilardan bo‘lsa kerak-da. Shunaqa, qizlarim, bo‘lg‘uvchi umr yo‘ldoshingiz kiyinib ishga ketayotganida bir ko‘zdan kechiring: ko‘ylagi yaxshi dazmollangan, galstugi to‘g‘ri bog‘langan, sochi taralgan, pidjagiga dog‘ tushmagan bo‘lsin.

– Opoqi, – deb qoldi birdan Hilola, – hamma narsani xotin qilaversa, er oq poshsho bo‘lib o‘tirar ekan-da! U ham qarasin-da, o‘ziga...

– Bilasizmi, Hilolaxon, hamma erkak ham barcha ishni qilavermaydi. Ya’ni qo‘lidan kelmaydi, qilolmaydi. Neppanozanin kir yuvadigan, osh pishiradigan, hovli supuradigan erkaklar ham bor dunyoda. Lekin bundaylar barmoq bilan salsalsa kerak. Erkak kishi kir yuvishni bilmasa, ovqat pishirishni

bilmasa, hovli supurishni bilmasa – ayb emas. Ammo shu yu-mushlarni xotin kishi bilmasa ayb. O‘zining tugmasini, erining tugmasini qadashni bilmagan xotindan: «Qayerdan, qanday tarbiya olgansan?» – deb so‘rashar odamlar? So‘rashadi. Albatta, so‘rashi kerak. Shuning uchun kiyim-kechakdagi, kiyinishdagi nuqsonlar erga tashlab qo‘yiladigan bo‘lsa, eng avval, buning o‘tida o‘zimiz yonsak kerak, qizlar? Er kiyimidagi nuqsonlarni o‘zi o‘nglab olar, deb xotirjam yuraversak, erni yor-u do‘satlari, tanish-bilishlari, xizmatdoshlari, jamoat oldida yerga urgan bo‘lamiz-ku!

Erni yerga kirgizib yuboradigan sovuq muomalalardan yana biri – ernen qarindoshlarini sig‘dirmaslikdir. Bu qiliq, menimcha, qarindoshlarga qilinadigan qiliqlar ichida eng xunugi bo‘lsa kerak. Hozir bir narsa esimga tushib ketdi. O‘zlarizing ham bilsalaringiz kerak, odamlar orasida «savatbosh», «ilonbosh» degan gap yuradi. Savatboshlar – er qarindoshlari-yu, ilonboshlar – xotin qarindoshlari emish. Er qarindoshlari kelsa, kelin eshididan o‘tolmas ekan – savati xalal berar ekan-da. Kelin qarindoshlari kelsa-chi, o-o, eshigi tugul teshigidan ham ilon singari silliqqina o‘tib olar ekan. Bu gap har qancha kulgili bo‘lsa hamki, nachora, hayotda bor. Ba’zi nodon xotinlar o‘zlarining qarindoshlarini papalab osmonga ko‘tarishadi, mehmon bo‘lib kelib qolishsa, o‘tzazadigan joy topolmay, charx urishadi, og‘izlaridan bol tomizishadi, eng tansiq ovqatlar qilib oldilariga qo‘yishadi. Er bechoraning qarindoshlari kelsa-chi? O-o, so‘ramanglar! Muomalasi – muz, ko‘z qarashi – muz, hamma yoq muz! Bundayroq ovqat pishirib kelish u yoqda tursin, oldiga dasturxon solishga ham qo‘li bormaydi. Mana endi o‘zinglar o‘ylab ko‘ringlar: qarindoshlari mana shu taxlit xor qilinganini ko‘rgan yo eshitgan er ezilmaydimi? Eziladi. Xotinining besharmligi, beandishaligi tufayli qarindoshlari oldida yerga kirib ketmaydimi? Albatta, yerga kirib ketadi. Eri bilan umr qilib ketish tilagidagi xotin erining qarindoshlariga, nahotki shunaqa sovuq muomalada bo‘lsa?! Yo‘q, bu sharmandagarchilikning borib turgani! Bunday xotin bag‘rida issiq muhabbat emas, sovuq ilon yotadi!

Yaxshi xotin erining qarindoshlaridan nojo‘ya gap eshitganda ham, bir qulog‘idan kirkizib, ikkinchi qulog‘idan chiqarib yuboradi. Gap chaqib, er bilan qarindoshlari o‘rtasiga sovuqchilik solmaydi, aksincha, o‘rtalarida nizomi, nifoqmi bo‘lsa, uni o‘rtadan ko‘tarib tashlab, yana boyagidek ittifoq bo‘lib ketishlari uchun zarur choralarini ko‘radi. Erining vaqt yo iloji bo‘lma ganda o‘zi ularni yo‘qlab, kam-u ko‘stlarini baholi qudrat to‘ldirib beradi. Bunday xotinni xalqimiz «Oltin xotin» deydi.

O‘z qadrini bilmagan xotinlar toifasida erni yerga kirgizadigan yana bir xili ham bor. Eri bitta-yarimta og‘aynisi bilan uygaga kirib kelsa, xuddi bor-yo‘g‘ini yeb-talab ketadigandek, ko‘zi tepasiga bitib, hushidan ketar darajaga keladi. Og‘aynisi erini yomon yo‘lga boshlaydigan yomon xulqli odam bo‘lmasa ham, yetti yet begona emas, erining xizmatdoshi yo hamkasbi ekanini bilsa ham, shu sovuq qilig‘ini qo‘ymaydi. Er bechora o‘rtog‘i oldida nima degan odam bo‘ldi? «Yer yorilsa-yu, yerga kirib ketsam!» – demaydimi shunday paytda! Deydi. Yer yorilmasdanoq allaqachon yerga kirib ketgan bo‘ladi. Xotinning shunday bema’ni qilig‘idan keyin er sho‘rlik yor-u do‘satlari, hamkasblari orasida qanday bosh ko‘tarib yuradi? O‘zimiz dugonamiz bilan uyimizga bir yayrashaylik, deb kirib kelsak, erimiz bizni shunday xunuk qabul qilsa, qanday ahvolga tushar edik? Ha, barakalla. Oldin pichoqni o‘zingga ur, og‘rimasa boshqaga, deydilar. Faraz etaylik, o‘rtoqlari xotinining betamizligini betiga solmaganda ham, hazil orasida bilibmi-bilmaymi: «E, qo‘y, bu erkaklarning ishi!» deb yuborsa, eri xijolatdan qip-qizarib, yuragi qonga to‘lmasmikan? Oqibatda asabi buzilib, biron yomon dardga chalinib qolmasmikan? Er kasalmand bo‘lib qolsa yo dard olib ketsa buning alami kimning boshida? Eng oldin xotin boshida bo‘ladimi? Hammadan ko‘p eziladigan, bema’ni xatti-harakatlaridan pushaymon bo‘ladigan yana o‘sha ziqna xotin bo‘ladimi? Ha, barakalla! Modomiki, shunday ekan, erni tirikligida, sog‘ligida ezmasket, bemaslahat ish qilmasak, bema’ni raftorimiz bilan yerga qaratmasak, qaytaga asrasak, sog‘ligini – salomatligini o‘ylasak, ko‘chada, el orasida erkaklarga yarashadigan bir g‘urur bilan bosh ko‘tarib yurishining g‘amini yesak – bundan eng ko‘p o‘zimiz naf

ko'ramiz, yomon xotin degan tavqi la'natdan qutulamiz. Shunaqa, qizlarim, er ko'nglini topgan xotin – dono xotin, buguni ham, ertasi ham porloq xotin, o'ktam xotin! Eslaringizdan chiqmasin, qizlarim, xalqimizda: «Yaxshi xotin – naqd oltin!» degan gap bor. Innayke-yin, o'tmish shoirlari ham:

*Xotin bo'lsa qobil-u aqli raso,
Erni shoh etar, gar ul bo'lsa gado! –*

deganlar. Qanchalik dono gaplar bular. Shunday vasiyat va nasihatlarga qaramay, men senga kerak bo'lsam – ko'nglimni top, bo'lmasa – katta ko'cha, to'rt tarafing – qibla, ketaver, deydigan xotin o'ziga xorlikni ixtiyor qilgan nodon, nontepki xotindir. Bunaqa kalondimog'likdan, kekkayishdan eng oldin xotinning o'zi jabr ko'radi. Erning ko'ngli soviydi, o'rtadan mehr-u muhabbat, oqibat ko'tariladi. Demak, oila buziladi, degan so'z. Ana ko'rdingizmi, tikanni o'zimiz bosib, yana o'zimiz dod deymiz!

Erlik xotinlar orasida yana bir kajr toifasi bor. Bular na qanoatni bilishadi va na insofni. Bunaqalarga yasan-tusan bo'lsa bas. Bular yasan-tusanni ro'zg'or tashvishlaridan yuqori qo'yishadi. Erlarining ham, o'zlarining ham xizmat maoshlaridan ortiq topar-tutarlari yo'q. Demak, oila budjeti ortiqcha orzu-havasni ko'tarmaydi. Buni xotinning o'zi ham yaxshi bila-di-yu, tag'in eriga uni olib ber, buni olib ber, deb xiralik qiladi. Tirikchilikdan qiynalib qolamiz, bolalar bor, desa, bunga ham javob tayyor: «Bolalar bir-ikki oy non-choy ichishib turishar, ochdan o'lib qolishmas», deydi. Er bu noto'g'ri yo'lga yurishga rozi bo'lmasa, xotin birdan o'dag'aylab, havolanishga tushadi: «Falonchi o'rtog'imning eri falon narsa olib beribdi, pistonchi o'rtog'imning eri piston narsa olib beribdi. Men shu eski modada yuraveramanmi?» – deb turib oladi. Er bechora olib berolmagani uchun eziladi. Goho jahli chiqib, qattiq-quruq gaplar ham gapirib yuboradi. Xotin arazlab, bolalarini yetaklab otasinikiga ketadi. Lekin otasinikiga quruq bormaydi. Bir daryo ko'z yoshi oqizib boradi. «Meni qanday gadoyvachchaga berdinglar?! Hech

narsa kiymay, yosh umrim eski-tuskida o‘tib ketyapti!» – deb endi ota-onasiga dag‘dag‘a qiladi.

Xo‘sish, bu qanaqa qiliq? Falonchi falon narsa kiygan bo‘lsa, butun jamiyat, butun bashariyat shunaqadan kiyishi kerakmi? Innaykeyin, iloji bo‘lgandirki, kiygandir. Erining hozircha iloji yo‘q ekan, bu umringning oxirigacha eski modada o‘tib ketasan, degan so‘z emas-ku. Iloji bo‘lar, olib berar. Shunga ham erni ezish, kunini kunidan ko‘rsatish kerakmi? Yo‘q, oppoq qizlarim, turmush – yasanib-tusanib chiqiladigan bayramgoh emas. Unda hamma narsa bo‘ladi: yetishmovchilik ham, muhtojlik ham, goho ko‘z yoshlari, ko‘ngil ozori ham. Shunisiga chidasang – maza seniki, bo‘lmasa – Kajira qismati!

Saodat buvi charchadimi yo o‘zi aytgan gaplardan o‘zi ham ta’sirlandimi, bir necha daqiqa peshanasini ushlab, yerga qarab o‘tirdi. Qizlar ham ezgin holatda edilar. Churq etuvchi bo‘lmadi. Anchadan keyin Saodat buvi boshini ko‘tardi. Keksa chehrasiga nur yogurtirgan yoqimli bir jilmayish bilan so‘zini davom ettirdi:

– Bundan yarim asrcha, balki, chorak asrcha avval oilalar juda tor hovli-joylarda siqilib turishar edi. Har holda, aksariyati shunday edi. Buva-yu buvidan tortib ota-on, yosh kelin-kuyov, nevara-chevaragacha – hammasi ilojsizlikdan bir yerda turishar, bir qozondan osh ichishar, bir boshpana tagida qiyalib umr o‘tkazishar edi. Xayriyat, u qiyinchiliklar uzoq orqada qolib ketdi. Endi shaharlarimizgina emas, qishloqlarimiz ham yangi tus oldi. O‘g‘illar uylanib, boshqa uylarga ko‘chib chiqishyapti. Demak, yangi, yosh oilalar ko‘payyapti. Bularning hammasi yaxshi. Lekin ota-onalarini eski hovlilarida qoldirib ketayo‘tgan farzandlar qariyalardan xabar olishyaptimi? Yo ota-onalari oldidagi qiyomat qarzlarini unutib, begonalashib ketishyaptimi? Bizni mana shu narsalar tashvishga soladi. Men o‘zimizning mahallamizdagi ahvolga qarab, bir nima deydigan bo‘lsam, yo‘q, hamma yosh oilalar ham ota-onalarini esdan chiqarib, hol so‘rab turishmaydi, deyolmayman. Mahallamizda, umuman, shahrimizda ota-onalardan alohida turadigan shunday yosh oilalar borki, ular milliy bayramlarda ham, zamonaviy bayramlarda ham, ayniqsa, ota-onalarining tug‘ilgan

kunlarida ularni kelib tabriklashadi. Pazanda o‘g‘il-qizlar tansiq ovqatlar pishirib siylashadi. Xo‘sish, bu baraka topkurlarning asl insonlar ekanini mahalla ahli bilmaydi deysizmi? Biladi. Ayniqsa, ota-onasini unutmagan, ularning sog‘lik-salomatliklaridan xabar olib turgan mehribon farzandlarni juda yaxshi biladi.

Saodat buvining yuzi birdan o‘zgarib, qovog‘i tushdi. Bir necha zum pastki labini tishlab turdi. Keyin birdan boshini ko‘tarib, shiddat bilan gapira ketdi:

– Lekin bilibmi-bilmaymi, ota-onalariga ozor yetkazib qo‘yayotgan beparvo farzandlar ham uchrab turadi. Bundaylar ota-onanigina emas, atrofda ko‘rib, payqab turgan odamlarni ham xafa qilayotganlarini bilishmaydi-da! Urush vaqtida qiyinchiliklar jafosini men bilan birga tortishgan bir zahmatkash dugonam bor edi. Betob deb eshitib, yaqinda uyiga ko‘rgani bordim. Og‘ir yotgan ekan. Meni ko‘rdi-yu, ho‘ngrab yig‘lab yubordi. Qani endi yupata olsam! Bitta-yu bitta o‘g‘li bor edi. Qancha qiyinchilik bilan boqqani, o‘zi yemay bolasiga yegizgani hali-hali esimda. O‘sha og‘ir mahallar ishxonamizda atalaga o‘xshagan bir narsa berishar edi – kunduzgi tanaffusda. Bechora shuniyam ichmay, bolasiga olib ketardi. Mana endi, o‘sib-ulg‘ayibdi, katta bir idoraning boshlig‘i bo‘libdi. Tagida mashina emish. Gapning qis-qasi, o‘zidan tinchib, onasidan xabar olmay qo‘yanmish. «Sog‘ vaqlarimda-ku, uncha bilinmas edi, yotib qolganimdan keyin chidayolmayapman – bolamni ko‘rgim kelaveradi. Ikki ko‘zim ko‘chada – o‘g‘lim kelib qolarmikan, deb. Xayr, o‘zi-ku kelol-mapti, mundog‘ bolalarinimi, xotininimi yuborib, xabar oldirsa bo‘lmaydimi?! Shunisi alam qiladi, Saodatxon! Voy uni deb tortgan azoblarim, bilasiz-ku!» deb rosa yig‘ladi. Mana shu ayanchli voqeanning o‘zini tahlil qilib ko‘rganimizda ham xotin zimmasidagi ayb ernikidan oshib tushadi. To‘g‘ri, farzand har qanday sharoitda ham ota-onsa holidan xabar olib turishga majbur. Bunga uni ota-onasi oldidagi qiyomat qarzi majbur qiladi. Lekin kurakda turmaydigan, nojo‘ya bahonalar bilan o‘zini oqlashga tirishish – gumrohlik ustiga qilingan gumrohlikdan boshqa narsa emas. Men ana shu «vaqt topolmadim, ishim ko‘p edi-da», degan so‘zini

onasidan eshitib, uyiga borib, o'zi bilan gaplashdim. Uyaltirdim-pinagini buzmaydi. «Kunim majlis bilan, qistalang ishlar bilan, komandirovka bilan o'tsa, onamni ko'rishga qayerdan vaqt topaman, xolajon?!» – deydi mendan shafqat tilaganday yolvorib. Lekin men gapiga tirnoqcha ham ishonganim yo'q. Ishonmayman bunaqa bahonalarga! Bular sabab emas, quruq bahona! Xo'p, u kishi-ku katta odam ekan, ishi ko'p ekan, qon yig'lab, ko'rishga zor bo'lib yotgan onayizori qoshiga kelolmapti, a? Bo'lmasa nimaga bolalarini yubormaydi? Xotinchasini-chi?

Er-xotinni oldimga o'tqazib olib, ikkalasini rosa tuzladim!

– Kelinposhsha, – dedim tutaqib ketib. – Salimjon sizga uylanmasdan burun o'g'illik burchini bajo keltirib, onasini boshiba ko'tarar edi. Biron shirin narsa topsa, tomog'idan o'tmay, onasiga keltirar, onasi betob bo'lib qolsa, doktorma-doktor yugurib, sog'aytirish yo'lini qidirar edi. Endi nima bo'ldi Salim-jonga? Kim eringizning bag'ridan onasiga bo'lган mehr-u muhabbat ildizlarini bag'ritoshlik bilan yulib tashladi? Bu siz emasmisiz, kelinposhsha? – devdim, rangi oqarib, ko'zlar ola-kula bo'lib ketdi. Qarasam, oyog'imga yiqilib qarg'anadigan. Bildimki, Salimjonning yuragiga beparvolik urug'ini sochgan bu emas. Aytdi ham, qarg'andi ham. Ishlari ko'p shekilli, deb beparvo yuraveribman, dedi. Beparvo? Erni yerga kirgizishi aniq bo'lган narsada qanday xotin beparvo qoladi? Yo'q, ming qarg'anmasin, ming tavba-tazarru qilmasin, baribir, aybning kattasi xotinda! Erining ishi har qancha ko'p bo'lganda ham onayizorni ko'rib kelish uchun bir soat-yarim soat vaqt topishi mumkin edi. Bu xotin esa onasini yo'qlamay qo'yganligi sababli erining yuzi qora bo'lishi muqarrarligini o'ylamagan. Erni borolmaganini ko'rib turib, bolalarini yubormagan, o'zi ham bormagan. Xotinlar tomonidan bo'ladigan mana shunaqa beparvolik, tempsa-tebran-maslik ham er qadrini yerga uradi, er yuzini qora qiladi.

Saodat buvi gapni tugatmasdanoq, Otika o'midan dast turib ketdi. Nafrati yuziga urgani shundoqqina ko'rinish turar edi.

– Onangdan xabar olmabsan, deb o'sha onabezorining bashesarasiga tuflamadingizmi, opoqi? – dedi odatdag'i hazillarini bir

yoqqa yig‘ishtirib qo‘yib. – «Aybning kattasi xotinida», deb juda to‘g‘ri aytdingiz. Xotini odam bo‘lsa, erini qo‘yarda-qo‘ymay onasini kiga olib borar, farzandlik mehrining yo‘qolishiga emas, kuchayishiga sababchi bo‘lar edi. Bunday yaramas xotinning Kajiradan nima farqi bor? Bu ham o‘sha qorang o‘chgurning bittasi! Adresini ayting, opoqijon, borib bir boplاب kelay!

Qizlar og‘ir holatda o‘tirishsa ham, baribir, piqirlab yubo-rishdi. Saodat buvi og‘zidan hazil-kulgi arimaydigan bu xush-chaqchaq qizni yoshligidan bilar edi. Hech kim, hech qachon hech qanday qattiq so‘z bilan jahlini chiqara olmaydigan bu bir qop yong‘oq singari shaldir-shuldur qizni g‘azab changalidan qutqazish uchun Saodat buvi sharaqlab kului.

– Voy, qanday qilib odamning betiga tuflab bo‘ladi, aylanay? – dedi u kulgisini zo‘rg‘a bosib. – Menden eshitgan dakk-i-dashnomi sen aytganidan kammi, bolam?

– Bilgan kishiga bu o‘n marta tuflagandan battar-ku?

– Ha, bilgan kishiga!

– Bildi. Xotini ham, o‘zi ham yer yorilmadi, yerga kirib ketishmadi. Shunday mulzam qildimki, oldimda otlanishib, onasini ko‘rgani, agar rozi bo‘lsa butunlay ko‘chirib kelgani ketishdi.

Endi Otika xandon urib kulib yubordi:

– Voy tavba, qanday qilib vaqt topibdi? Majlislari, qistalang ishlari devalanib yotardi-ku amaldor amakimlarning?!

– Shunaqa, qizim, kimki xohlasa, ota-onha hurmatini, ular oldidagi farzandlik burchini esdan chiqarmasa, hamma vaqt, hamma yerda xabar olib turishga imkon topadi. Men o‘ylayman, hatto ishonaman hamki, agar xotin erini el oldida uyatga qolishini istamasa, hech bo‘lmasa bayramlarda, ayniqsa, qariyalar betob yotgan kezlarda erini yoniga olib, bolalarini ham yetaklab, borib ko‘rib keladi. Bu uning kelinlik, xotinlik, insonlik burchi.

Kelinglar, bugungi suhbatimizni ham bir shingil she‘r bilan tugataylik:

*Erni er qilding – topding e‘tibor,
Erni yer qilding – o‘zing bo‘lding xor!*

TO'QQIZINCHI OQSHOM HIKOYATI

*Onani deydilar – yearning quyoshi,
Bashariyat aql-u hissining boshi.*

– Qizlarim, musharraf ona, mukarrama ona madh-u sanolariidan birini o'qib berdim sizlarga. Ogoh bo'linglar, ona haqida aytigan balandparvoz xushomad emas bu. Yo'q, bu rad etib bo'lmaydigan haqiqat, bor gap. Chindan ham butun borliq, butun hayot yerda ekan, odamzod yerda tug'ilib, yerdan voyaga yetar ekan, unga hayot bergen, aql bergen, til bergen, uni hamma vaqt harakatga keltirib turuvchi his-tuyg'u bergen ona ekan, uni yer quyoshi, odamzod quyoshi, aql-idrok quyoshi demay bo'ladimi. Mehribon onani madh etishni, uning tabarruk poyiga dil durlarini to'kishni o'ziga sharaf yo ona oldidagi muqaddas burch deb bilmagan biron shoir yo olim o'tganmikan tarixda? Onalar haqida ulug'lar aytgan madh-u sanolardan misollar keltirmoqchi emasman. Avvalo, ular ko'p, qolaversa, hammaga ma'lum. Men faqat zamonamiz qalam sohibalaridan birining ona haqida ixchamgina tavsifi bor ekan, shuni o'qib beraman. Samarqandlik Bibisora «Tong» degan she'rida onaga shunday ta'rif beribdi:

Ana quyosh! Nur sochishi onamday!..

O, barakalla! Haqiqatan ham, siz bilan biz bilgan quyosh – koinot quyoshi bo'lsa, ona – insoniyat quyoshi. Biz shu quyosh nurini emib unamiz, shu nur tufayli o'samiz, o'zimiz ham bir kun borib quyoshchalar bo'lib yetilamiz! Mana, qizlarim, har biringizning taqdiringizda quyosh bo'lish sharafi bor! Faqat bu sharafga sharaf bilan yetib borish kerak. Boshqacharoq qilib aytganda, bolalariga ko'kragidan sut berib, qozonidan osh berib boquvchigina bo'lib qolmay, ularning tarbiyali bolalar bo'lishini, ma'naviy xazinalari eng

nodir durdonalar bilan to‘lishini, zamonga munosib insonlar bo‘lib yetilishini o‘ylaydigan, butun mehnat va zahmatini shu oliv maqsadga sarf qiladigan ibratli murabbiya ham bo‘lishi kerak. Turmush dargohiga qadam bosdingmi, bo‘ldi, bu yog‘iga turib berasan! Endi sen tushib borgan hovlingda – beka, umr yo‘ldoshingga – xotin, dunyoga keladigan bolalaringga – ona, ro‘zg‘or tashvishlarini chayir yelkangda ko‘tarib, oila chirog‘ini baland yoqib yurguvchi – nurbonsan. Bu gaplarni eshitgan yo o‘ylagan qizlar: «Voy-vuy, hamma g‘avg‘o biz sho‘rliklarning boshimizda ekan-da!» – deb vahimaga tushishlari mumkin. Yo‘q, unaqa emas, aylanay qizlarim. Qo‘rqqanga hamma narsa ham qo‘shaloq ko‘rinarmish. Shuning uchun qo‘rqishni emas, dadil bo‘lishni o‘ylaylik, shuning payida bo‘laylik.

– Hamma ishni xotin bechora qilsa, er boyvachcha bo‘lib qolar ekan-da! Yo‘-o‘q, unaqasi ketmaydi! Nima, ohorlaridan qolishadimi ular ham ro‘zg‘orga qarashsa?! – dedi Hilola Saodat buvining so‘zini bo‘lib.

Saodat buvi, soddasan-da, deganday qilib jilmaydi.

– Yo‘q, qizim, ohorlaridan tushib qolishmaydi. Tebratisha-yotgan ro‘zg‘orlarida ularning ham o‘zlariga yarasha burchlari bor. Agar suhbatlarimizda erlar burchini tilga olmagan bo‘lsak, ularni ayaganimiz yo oiladagi burchlaridan ozod qilishni istaganimiz uchun emas, hecham buning uchun emas, suhbatlarimiz faqat qizlarga, ularning oila qurbanlaridan keyingi vazifalariga bag‘ishlangani uchun – faqat qizlar to‘g‘risida, ularning oilaviy hayotdagи burchlari to‘g‘risidagina gaplashamiz. Qadimda er bilan xotinni oila qo‘smini haydovchi qo‘sh ho‘kiz deyishar edi. Bu ancha qo‘pol bo‘lsa hamki, haqiqatdan uzoq emas. Bunda o‘ziga xos hikmat bor. To‘g‘ri-da, bir tomon oila qo‘smini haydasa-yu, ikkinchi tomon tomoshabin bo‘lib o‘tirsa – turmush-turmush bo‘larmishmi! Bu-ku, eski zamonda, oilalar madaniy va xo‘jalik jihatidan juda qoloq, ibridoiy shaklda ekan paytlarda tug‘ilgan gap. Hozirgi oilalar-chi? Eh-he, hozirgi oilalarga qiyos bormi! Hozirgi oilalar shu qadar taraqqiy etib, madaniylashib, talab va ehtiyojlari shu qadar oshib ketganki, uning tarzi-tartibini, sarajomligini ta‘minlash – oila a‘zolarining hammasidan katta e’ti-

bor va intizom talab qiladi. Bu e'tibor va intizom boshida esa uy bekasi – ona turadi. Shu jihatdan onani oila ansamblining dirijori desa bo'ladi. Insoniyat onani boshiga ko'taradi. Nima uchun deb so'rashga o'rin bormi? Menimcha, yo'q, o'rin yo'q. Shuning uchun yo'qki, onaning buyukligini, ona qalbi quyoshligini, ona shafqat va muhabbat chashmasi ekanligini, hammasidan ham – dunyoga bashariyatni davom ettiruvchi o'g'il-qizlar in'om etayotgan mo'jiza insonlar ekanligini hamma biladi. Mana shunday tabarruk, mana shunday musharraf ona bo'lish baxti bor har bir qiz taqdirida. Demak, qiz bo'lib dunyoga kelibsizmi, bo'ldi – qanday ona bo'lib yetilishingiz o'zingizga bog'liq. Shuning uchun aqlingizni tanigan kuningizdan boshlab yaxshi ona bo'lib yetilish niyati, shuning harakati bilan yashashingiz, o'zingizni shunga tayyorlashingiz, hayotda ona tadbirida ko'rgan yo eshitgan eng yaxshi narsalariningizni tanangizga singdirib, bolajon ona, oqila ona, dono ona bo'lish payiga tushing, oppoq qizlarim!

Dildora boshini saraklab:

– Voy-vuy, yana bitta maktabni bitirish kerak ekan-da, – degan edi, Otika jim deb qo'l siltadi.

– To'g'ri aytding, qizim, bunaqa oliy niyat uchun bitta emas, o'nta universitetni bitirsa ham arziydi. Lekin sen qo'rqa-yotgan universitet auditoriyada emas, hayotda, yashab ko'rib turgan yeringda, odamlar orasida, jamoada, jamiyatda. Auditoriyasiz katta universitet deydilar hayotni. Biz ana shu katta universitedan o'zimizga, oilamizga, jamiyatga foydali narsalarni olishimiz, to'g'rirog'i, ola bilishimiz kerak. Ana shundagina orzularimiz ushaladi. Ana shundagina ta'rifi, ibratli ona bo'lamiz. Qaysi kuni mahallamizda bir uchrashuv bo'ldi. Shunda ko'zlar atrofiga ko'k surtgan, baland poshna platformasida zo'rg'a turgan bir ozg'ingina juvon: «Hadeb onalar unaqa bo'lsin, onalar bunaqa bo'lsin deyverasizlarmi-ey! Qo'yinglar, xohlagan oshlarini ichishsin!» – devdi, oppoq soqolli bir qariya kallasini saraklab o'rnidan turib ketdi. Jahli chiqqanidan butun vujudi qaltirar edi. Shunday bo'lsa ham, o'zini bosib, qariyalarga yarashgan bir salobatda haligi juvonni tanqidga oldi.

– Yo‘q, qizim, xato ketyapsiz. Ona to‘g‘risidagi gaplarimiz juda o‘rinli, xo‘p deyavering. Mana o‘zingiz o‘ylab ko‘ring, chirog‘im, ona yaxshi bo‘lsa, bola ham yaxshi bo‘ladimi? Ha, kam bo‘lmang. Bola yaxshi bo‘lsa-chi? Ota-onaning obro‘yi – shundog‘mi? Obro‘yigina emas, huzuri ham. Lekin bu faqat ota-onaningga huzurimi? Yo‘q, bizning ham, sizning ham, hammanizning huzurimiz! Nima uchun, bilasizmi, chirog‘im? Bilmaysiz. Xo‘p, unda o‘zim aytib beray. Bugungi jujuqlar – ertangi buyuklar, degan so‘z bor. Eshitganmisiz? Eshitmagansiz. Xo‘p, o‘zim aytib beraman. Eshitib qo‘ying – bugungi bolalar, ertangi egalar degan so‘z. Ya‘ni xalqimiz, davlatimiz, zamonamiz shu bolalar qo‘lida bo‘ladi, ha, shundog‘ bo‘ladi! Bular kelajagimizning egalari. Shu boisdan bo‘lsa kerak, bolalar tarbiyasi birinchi o‘ringa qo‘yilgan. Oppoq qizim, bolalar yaxshi bo‘lsa – odamzod yaxshi, odamzod yaxshi bo‘lsa-chi? Bizdan keyingi avlodlar yomonlik zahrini totmay, urush jafosi nimaligani bilmay, tinch, osoyishta yashashadi. Demak, odamzod yaxshi bo‘lsa – dunyo yaxshi, odamlarning bir birlariga munosabatlari yaxshi. Urush bo‘lmaydi, qirg‘in bo‘lmaydi, vayronachilik bo‘lmaydi, ochlik-xorlik bo‘lmaydi. Ana shu boisdan ham onalar oldiga talab qo‘yamiz: unday bo‘ling, bunday bo‘ling, deb. Siz ham biz aytganimizni qiling-a, qizim, kam bo‘lmaysiz. Ha, sira kam bo‘lmaysiz!

Odamlar shunday chapak chalishdiki, haligi juvon aytgan gapiga ming pushaymon bo‘lib yerga qarab oldi. Men bu nuroni cholning gapiga yuz foiz qo‘shilaman. Haqiqatda, bola tarbiyalash – juda mas’uliyatli ish. Afsuski, bu ishga hamma ona ham ana shu mas’uliyat bilan qaraydi, deya olmaymiz. Birlari – boqibeg‘am, bolalarini kir-chir tashlab qo‘yishadi. Yana birlari borki, ular bolalarga jismoniy taraqqiyot bilan birga ma’naviy, aqliy taraqqiyot ham suv, havodek zarur ekanini xayollariga keltirishmaydi. Qornini to‘ydirsam, ust boshini qilsam – bo‘ldi, deb bemalol yuraverishadi. Bundaylar onalik burchi nimadan iboratligini bilmaydi yo bilsa ham parvo qilmaydi. «Biz ham bir mahallar yerda yumalab katta bo‘lganmiz. Bular ham, umrlari bo‘lsa, yumalab-sumalab katta bo‘lib qolishadi. Innaykeyin,

hadeb yuvib-tarayverganimiz bilan bular osmondag'i yulduzni uzib berisharmidi bizga!» – deyishadi. Kim bilsin, yaxshi yuvib-tarasangiz, yaxshi tarbiya bersangiz, yaxshi o'qitib, yaxshi chiqar, siz ham Ulug'larning onalari singari eng baxtli ona bo'larsiz, degimiz keladi o'shanday boqibeg'amlarga!

Saodat buvi ko'ngliga kelgan gapdan quvongan kishi singari yorishib ketdi.

– Bugungi texnika taraqqiyoti, inson aqli taraqqiyoti, fan-ixtiro taraqqiyoti davrida, qaniydi bizning bolalarimiz ham sayyoralarga uchib chiqishsa, qizlar? Bunday hollar ertaklik, afsonalik faslidan o'tdi. To'g'ri, hali Mirrixga odam oyog'i yetgani yo'q, lekin odam qo'li bilan yasalgan asboblar, aqli mashinalar borib qo'ndi. Bu mashinalar inson ixtiyorining elchilari emasmikan? Ha, bugun mashinasi borgan joyga ertaga insonning o'zi yetib borsa, ne ajab? Shunday, qizlarim, inson niyat qilgan narsasiga yetadi, faqat harakat qilsa, shu niyatini amalga oshirish payiga tushsagina yetadi. Hozir rus sarkardasi Suvorovning bir gapi esimga tushib ketdi. Men buni urush mahalidagi gazetalarida o'qigan edim. «General bo'lishni niyat qilmagan soldat ham bo'libdimi!» – degan ekan. Yaxshi gap, a, qizlar? Shuning uchun bolalarimiz ongiga: harakat qilgan, ahd-u paymonida mahkam turgan har bir odam zamonlar va makonlar orzusini ushaltirishi mumkin, degan tushunchani singdirib borsak, – bundan o'zimizgina emas, bolalarimižgina emas, butun odamzod naf ko'rarmidi, deyman-da, bolalarim. Bunaqa orzularning tug'ilishi ham, ushalishi ham ko'p jihatdan muhtarama onalarimizga bog'liq. Shuning uchun bolalaringizni mayda, bachkana odamlar so'qmog'iga emas, ulug' insonlar o'tib borib, ulug' orzulariga erishgan katta yo'lga, sharaf yo'liga boshlang. Bolalaringizni urmang, so'kmang, ayniqsa, ularning izzat-nafslariga tegadigan, haqorat bo'lib tushadigan gapdan qoching. Mabodo bolangizda biron jismoniy yo aqliy kamchilik bo'lsa, zinhor-bazinhor uni betiga solmang. Bechora murg'akning kuyib yurgan jonini besh battar kuydirasiz, qalbida tuzalmaydigan yara ochasiz! Bola kichkina, ko'p narsaga tushunmasligi mumkin. Lekin bu – hech narsaga tushunmaydi, degan so'z emas-ku! Bola tushunadigan gaplar, bola aqli yetadigan narsalar ko'p bo'ladi.

Bolani bo‘lar bo‘lmas narsaga xafa qilish, ayniqsa, haqorat qilish oqibatida ularni ma’nan mayib qilib qo‘yishimiz mumkin. Xususan, nohaq, noo‘rin xafa qilingan bola kaltak yeishidan qo‘rqib, o‘z himoyasiga biron so‘z aytolmaydi. Aytsa: «Yana gap qaytarasan-a, juvonmarg!» deb boshiga tushirishlaridan qo‘rqadi. Oqibatda, bola alamini ichiga yutib, ichidan ezilib yo kasalga yo‘li-qadi, yo bo‘lmasa gap ta’sir qilmaydigan bez, ichimdan top dey-digan og‘zi qulf bo‘lib qoladi. Shunday paytlarda bolalarini urib, mayib qilib qo‘yadigan nodon ota-onalar ham uchrab turadi. Shundan keyin bola tarbiyasidagi ijtimoiy talab oldida, shafqatsizlarcha kaltaklangan va biron yeriga jarohat yetkazilgan o‘z jigargo‘shalarimiz oldida biz qanaqa murabbiy, qanaqa ona bo‘ldik, qizlar!

Saodat buvining ma'yus ko‘zları qizlar davrasida aylana boshladi. Bolalarini urib, mayib qilib qo‘ygan johil, bemehr onalar uchun aybdorlardek, qizlar yerga qarab o‘tirishar edi. Anchagacha miq etuvchi bo‘lmadi. Nihoyat, davrada Yorqinning yorug‘ chehrasi porladi.

– O‘zimizdan qiyos, – dedi u davradagi qizlarga ishora qilib, – biz ham kechagina kichkina, mo‘rtgina murg‘aklar edik. Suyaklarimiz qotgandek ko‘rinsa ham, haligacha mo‘rtligimiz bor. Nazarimda, birov turtib yuborsa yo bexosdan qattiqroq tegib ketsa, bir yerimiz lat yeb qoladigandek tuyuladi. Shuning uchun, opoqijon, aytgan gaplaringizning hammasi juda-juda o‘rinli. Haqiqatan ham, bolalarga muomala va munosabatda g‘oyat ehtiyyot bo‘linmasa, boyta aytganingizdek, yo ma’nan, yo jisman mayib qilib qo‘yishimiz hech gap emas. Bu borada faqat og‘izgagina ehtiyyot bo‘lish yetmas. Qo‘lga, ayniqsa, oyoqqa hazir bo‘lish zarur. Men buni, ya’ni ehtiyyot bo‘lishlikni bola tarbiyasida birinchi shartlardan bo‘lsa kerak, deb o‘yayman. Bitta misol bor edi, keltirsam maylimi, a, opoqi?

– Bemalol, qizim, bemalol.

– Bizning sinfimizda o‘g‘il bolalardan tashqari o‘n sakkizta qiz o‘qir edik. Hammamiz opa-singillardek qadrdon, bir-birlarimizga suyangan do‘s-t-u dugonalar edik. Ming shukur, haliyam shundaymiz. O‘rtamizdagи do‘slikdan, qadrdonlikdan har qancha

gapirsam, har qancha faxrlansam, haqliman. Lekin men boshqa narsani aytmoqchiman. Uchinchi sinfda o'qib yurganimizda Dilbar degan bir sinfdoshimizning onasi jahl ustida qo'lidagi vilkasini qiziga otib yuborgan ekan, qurib ketgur vilka kelib bechoraning ko'ziga sanchilsa bo'ladimi! Voy, ko'zginasi oqib tushdi! Bechora uch oycha kasalxonada yotib, shisha ko'z qo'ydirib chiqdi. O'zini ko'rsangiz – xuddi otiga o'xshagan dilbar. Ismi jismiga yarashgan. Kulib, jilmayib, yorishib turadi. Aqlni aytmaysizmi tag'in? Tilidan bol berib, bol oladi go'yo. Ana shunday qiz bir ko'zidan ayrilib qoldi. Xo'sh, kim qildi? Onasi! Ha, mehriboningman, deb yurgan o'z onasi! Ana shundan keyin u onaga hurmatimiz tugadi. Dilbarga har qancha achinsak ham, Dilbar uchun kuyib yonsak ham, ilojimiz qancha, uylariga bormay qo'ydik. Nima uchun? Shuning uchunki, o'zi dunyoga keltirgan jigargo'shasini ko'r qilib qo'yishdek katta gunohdan hayiqmagan johil onani ko'rishga ko'zimiz qolmagan edi. Biz-ku, biz, Dilbarning o'rtoqlarimiz. Yetti yet begonalar ham u xotin bilan bordi-keldini yig'ishtirib, to'y-hashamlariga chaqirmaydigan, o'zlar ham bormaydigan bo'-lishdi. Shunday qilishgani to'g'rimi? Menimcha, yuz foiz to'g'ri! O'z qizining ko'zini oqizgan zolim, johil onani mahalladan quvsalar ham oz edi! Afsus, quvishmadi. Lekin ma'muriy yo'l bilan jazoni rosa tortdi. To'g'ri, u jazosini tortdi. Ammo qizning ko'zi nogironligicha qoldi. Mana shunisi alam qiladi, opoqi! Bu gaplarni aytishimdan maqsad: yuqorida ham aytdim, bolalarga muomalada juda-juda ehtiyyot bo'lish zarurligini ta'kidlashdir. Men keltirgan misoldan ham ko'rinish turibdiki, jaholat shaytonini yelkaga mindirib olib, shu shayton amri bilan ish tutilsa, qo'lida bor yo qo'liga tushgan narsa bolaga otilsa, bunday qaltis muomalaning oqibati yo ko'z chiqaradi, yo bo'lmasa qo'l yoki oyoqni sindiradi.

Yorqinoy joyiga o'tirgandan keyin Saodat buvi yana gapiruvchilar bormi, deganday qilib qizlarga qaradi. Qizlar jim o'tirishar edi. Saodat buvi so'zni o'zi davom ettirdi:

– Ona burchi va vazifasi ustida gap ketganda, ancha-muncha afsus yeydigan joylarimiz bor, bularni aytmay o'tib bo'lmaydi. Masalan, hammasidan yomoni – bolani bo'lar-bo'lmasga urish-

lik. Yana qayerda, qachon urishadi denglar? Qaynanasidan yo eridan, yo bo'lmasa boshqa biron qarindoshidan gap eshitsa, darrov alamini bolasidan olishga tushishadi. Gapi qattiq tekkan odamiga qoqitib, bolalarini chirqiratib urishadi. «Xah, boshimga balo bo'lmay o'lgurlar! Senlar o'lmading – men qutulmadim!» – deb ovozlarining boricha qichqirishadi. Bola bechora esa, aybi nimaligini bilmay onasiga talpinadi. Ona-chi? To'g'ri kelsa qo'li bilan uradi, bo'lmasa oyoq bilan tepadi. Begunoh murg'ak yum-yum yig'lab, yerda yumalab qoladi! Bu ona emas, onalik sha'niga isnod keltiruvchi battol-ku! Boshqalarga tegizib aytgan gapini, begunoh bolasini eng yovuz so'zlar bilan qarg'ashdan maqsadi nimaligini bu yoqdagilar payqashmaydimi? Axir bu «qizim, senga aytaman, kelnim, sen eshit» qabilidagi oshkor kesatiq-ku! Hay-hay-hay, bunday qabohatdan nari bo'linglar, jon qizlarim! Buning kuyasi og'ir – yo o'zingga, yo bolangga uradi-ya! Ha, shunaqa bo'ladi, aylanaylor.

Saodat buvi og'ir bir vaziyatda boshini solintirdi. Alami oshkor sezilib turar edi. Tursunoy har gal buvijoni noxush ko'rингanda qiladigan odatini qildi. Sekin kelib yoniga qadalib o'tirdi. Keyin boshini buvisining yelkasiga qo'yib so'radi:

– Buvijon, bitta gapim bor edi, aystsam maylimi?

Shunday paytlarda Saodat buvining bag'ri yayrab, quvonchga to'lib ketar edi. Hozir ham shunday bo'ldi. U Tursunoyning boshini faqat onalar qo'ligagina xos bir sehrli muloyimlik bilan avaylab ushladi, keyin asta ko'tarib, baxtli bo'Igur, deb peshanasi-dan cho'lp etkazib o'pdi-da, davraga ishora qilib:

Bor, joyingga borib o'tir, – dedi.

Tursunoy xandon urib turib ketdi. Bu Saodat buvini og'ir holatdan qutqazish uchun jo'rttaga qilingan narsa ekanini qizlar yaxshi tushunishar edi. Tursunoy joyiga borib, so'z boshladi:

– Buvijon, o'tgan oy bir to'da qiz Komilalarnikida dars tayyorlagani borgan edik. Borsak, oyisi yo'q ekan-u, kelinoyisi bor ekan. Bizni yaxshilab kutib oldi. Shu yerda dars tayyorlanglar, deb bolalar xonasini ajratib berdi. Kenggina ekan, hammamiz bemalol sig'dik. Oldimizga dasturxon soldi, qand-qurs qo'ydi,

non ushatdi. Hammasidan ham deraza orqasida ochilib yotgan rang-barang gullarni aytmaysizmi! Hamma narsa ko'ngildagidek. Har kun kelib, davlat imtihoniga shu yerda tayyorlanamiz, deb ko'nglimizga tugib qo'ydik. Yaxshi joy ekan-da. Lekin ertasiga ham bormadik.

- Nima uchun? Nima bo'ldi?
- E-e, to'g'ri kelmay qoldi.
- Haligina yoquvdi-ku? Endi nimasi to'g'ri kelmay qoldi?

Tursunoy ikki xil bo'lib turdi. Keyin shartta dedi:

– Kelinoyisining og'zi yomon ekan! Bolalarini xunuk so'zlar bilan qarg'ar ekan. Biz dars tayyorlab o'tirsak, uch yo to'rt yasharlik qizchasi kirib qoluvdi, bizning oldimizda biram qarg'ab ketdi, biram qarg'ab ketdi, voy-vuy, eshitsa ilon po'st tashlaydi. Xayr, o'zining bolasi, qarg'asa qarg'agandir, dersizlar, lekin qarg'ashda ham qarg'ash bor-da. Avvalambor, bolani xunuk so'zlar bilan qarg'ash yaramaydi. Nimaga deyapsizmi, Otikaposhsha? Hozir aytaman. Kichkina bola, bilasiz, hamma narsaga taqlid qila-digan bo'ladi.

Kattalardan eshitgan so'zi yomon so'zmi yo yaxshi so'zmi – buning farqiga bormaydi, shuning uchun farqiga bormaydiki, u so'zning ma'nosiga hali tushunmaydi. Shu tushunmaslik, taqlid-chilik orqasidan shu so'zlarni boshqalarga ham aytadigan bo'ladi. Oqibatda «tuppa-tuzuk» so'kadigan, yomon so'zlarni og'ziga oладиган yomon xulqli yomon bola bo'ladi-qoladi. Hammasidan ham yomoni – begona odamlar, mehmonlar oldida, ayniqsa, qay-nata-qaynana singari hurmatli kishilar oldida bolalarini eshshak, to'ng'iz, cho'chqa, ahmoq, it deb so'ksa, bu yoqdagilarga qattiq tegar ekan. Xuddi jo'rttaga tegizib aytayotganday bo'lar ekan-da. O'sha kuni ancha o'tirmoqchi edik, yo'q, bo'lmadi. Tezda ketib qoldik. Qiziq, hali derazadan ko'ringan chiroyli gullar endi bosilgan, ezilgan, boyagi husn-chiroyini yo'qotgan sassiq ko'kat-ga o'xshab ketdi ko'zimga. Ertasiga Komila yig'lagandan battar bo'lib yana uyiga chaqirdi. Kelinoyisi kechirim so'rabdimalish. Endi kelishsa, hecham unday qilmayman, debdimish. Baribir bormadik, manavi Nigorposhshalarnikiga bordik. Ayasi ham, dadasi

ham bizni yaxshi kutib olishdi. So‘ri toklari tagiga, salqin joyga stol qo‘yib berishdi. Bitta kichkina, do‘ndiqqina singilchasi ham bor ekan, lekin u bizga xalaqit bermadi. Nigorposhshaning ota-si ham, onasi ham yomon so‘zlarni og‘izlariga olmas ekan, jundayam havasimiz keldi. Qarang, bola sho‘xlik qilsa yaxshi so‘z bilan, shirin muomala bilan yo‘lga solsa bo‘lar ekan-u! Qisqasi, Nigorposhshalarnikida o‘n kuncha dars tayyorlagan bo‘lsak, bizning nazarimizda, o‘n kun istirohat bog‘ida dam olib kelgandek bo‘ldik-da. Mana, hademay davlat imtihonlardan ham o‘tamiz. Attestatlarimizni qo‘limizga olamiz. Bu biz uchun hayotga yo‘llanma bo‘ladi. Bu yo‘llanmani qo‘lga kiritishimizda bizga hamma sharoitni yaratib bergen Flora xola bilan Xudoyberdi amakilar-ning hissalari katta bo‘ladi. Biz ularga chin qalbimizdan tashakkur aytamiz. Shunaqa, Nigoraxon, adangiz bilan ayangizga aytib qo‘yasiz-da bizning minnatdorchiligmizni, xo‘pmi?

Nigorposhsha oq-sariq yoqimtoy yuzida bir olam nur yog‘dirib, asta boshini egib qo‘ydi. Saodat buvi ona burchi haqidagi so‘zini tugatmagan ekanmi, yana shundan gapira ketdi:

– Xalqimizda bir yaxshi gap bor: «Arqog‘ini ko‘r – bo‘zini ol, onasini ko‘r – qizini ol», deydi. Bu nima degani? Onasi qanaqa bo‘lsa, qizi ham, ya’ni bolalari ham shunaqa, deganimi? Albatta. Bu juda to‘g‘ri xulosa. Qushki, uyasida ko‘rganini qilgandan keyin, bola ham uyida ko‘rgan-eshitgan narsalarini qiladi-da! Ota-on, ayniqsa, ona qo‘pol bo‘lsa, xunuk so‘zlar ishlatsa, bola hech qanday ikkilanmay o‘sha so‘zlarni takrorlaydi. Nima uchun? Shuning uchunki, ota-on, ayniqsa ona, oilaning eng hurmatli, eng e’tiborli kishilaridandir. Buni bolalar, albatta, sezishadi. Shuning uchun ular og‘zidan chiqadigan so‘zning yomon so‘zmi, yaxshi so‘zligini emas, qilinishi kerak bo‘lgan so‘zligini o‘ylashadi va shunday qilishadi ham. Shu boisdan bolani onasining aksi tushib turgan oyna desa bo‘ladi. Ust-boshi kir, burni uzzukun oqib turadigan bolaning onasi ham bolasiga o‘xshagan kir, ust-boshi yuvilmagan, dazmollanmagan, sochlari taralmagan – patak bo‘ladi. Uyiga kirsangiz-chi, voy-dod deb qochib chiqqingiz ke-ladi. Ro‘zg‘or asboblari hamma yoqqa sochilgan, oyoq kiyimlari

loy-balchiq, uyning poli yuvilmagan, hamma yoqqa kiyim-kechak, qog'ozlar sochilib yotganini ko'tasiz-u, xayfingiz kelib ketadi. Mana shunaqa onalar ham bo'ladi, qizlarim.

Saodat buvi gapini tugatmay, Sojida so'z so'rab qoldi.

– Gapiraver, qizim, – dedi Saodat buvi, muloyim tovushda.

Sojida tortinayotgan odamga o'xshab emas, o'z ishini yaxshi bilgan, qarorida dadil turgan odamday dadil gap boshladi:

– Uy tartibi, intizomi, saranjomligi, asosan, oila bekasining zimmasida bo'lishi tabiiy. Bunga e'tiroz yo'q. Lekin oilada zahmatkash onadan boshqa hech kim yo'qmi? Eri-chi? Ishga yaroqli boshqa erkaklar, o'g'il bolalar-chi? Nahotki hamma ishni onaga tashlab qo'yib, bir chekkada tomoshabin bo'lib o'tirishsa?! Shu to'g'rimi, opoqi?

– To'g'ri emas, qizim. Oilada qancha, qanaqa odam bir tom tagida yotib, bir qozondan ovqat yer ekan, uy ishlarini ham qo'-lidan kelgancha qilishi kerak. Bu vijdon burchidan faqat ish qilish qo'-lidan kelmaydigan kichkina bolalar-u, qarilargina ozod, xolos. Lekin uy bekasi, ya'ni ona, ro'zg'or ishini hamma baravariga qiladi, deb qarab o'tirmasdan, saranjomlik tashvishini o'zi yeyishi kerak. Masalan, supurgi hamma vaqt bir yerda, tayinli joyda turmasa, kerak bo'lib qolganda qidirishga, topolmasang, bosh-qalardan so'rashga majbur bo'lasan. Axir, bu ortiqcha tashvish, ortiqcha boshog'riq-ku! Mana shunday ahvolga tushmaslik uchun pichoq, vilka, qoshiq, taqsimcha, tarelka, lagan, kosa va shularga o'xhash narsalarning doimiy joyi bo'lishi kerak. Qaychi, ip, tugma, igna hamma vaqt tayinli joyda saqlanmasa, u yerdan olib ishlatilgandan keyin yana joyiga keltirib qo'yilmasa – ro'zg'ordagi ivrisiqlik, tartibsizlik davom etaveradi. Shunday besarishta xotinlar borki, xalqimiz ularni «Xotinning sarishtasi – odamning farishtasi», deb aytgan yuksak bahosidagi ayollarga sira-sira ya-qinlashtirib bo'lmaydi. Bundaylar hali qaychi, hali ip yo tugma qidirishgani-qidirishgan. Uzzukun ahvol shu. Qo'ygan joylari tayin bo'lmagandan keyin topisholmaydi-da, albatta. Ana undan keyin falon narsa qayerga gumdon bo'ldi, deb qichqirishlar, qarg'ashlar boshlanadi. Ba'zan urush-janjal ham chiqib ketadi.

Shuning uchun ro‘zg‘orda ishlatiladigan asboblarning hammasi doimiy joyida turishi, shu yerdan olib ishlatgan odam, yana shu yerga keltirib qo‘yishi kerak. Aks holda qidir-qidir, urish-janjal, hatto ko‘z yoshi bo‘lishi turgan gap. Yana ba’zi uy bekalari, onalar borki, farosatsizlik qilibmi yo erinibmi – bolalar tuvagini yo‘lga, odamlar ko‘ziga yaqqol ko‘rinadigan joyga qo‘yib qo‘yishadi. Supurgini ham. Yo‘q, bunday qilish onaga yarashmaydi. Ona deganning ta’bi nozik, didi nafis, tozalikka o‘ch bo‘ladi. Ko‘zga xunuk ko‘rinadigan narsalarni ko‘zdan qochirishga harakat qiladi. Yana bir xil onalar bor, ularni ham aytib o‘tay. Oshxonasida idishlari yuvilmasdan pashsha bosib yotadi, tarakanlar-suvaraklar yugurishib yuradi. Qani endi, parvoyiga kelsa! Yo‘q, yuvuqsiz idishlar ikki-uch kungacha ham qalashib yotaveradi. Oqibatda butun oshxona yuvuqsiz idish-tovoq kultepasisiga aylanadi. Bilib qo‘yinglar: erkaklarning ko‘pchiligi saranjomlikni, tozalikni, tartibni yaxshi ko‘rishadi. Shu sababdan ham ivarsiqlikni ko‘rganda ta’bi xira bo‘lib, xotini bilan aytishib qoladi. Haligi uquvsiz, betamiz xotin to‘g‘ri gapni og‘ir olib, eriga tashlanadi. Og‘ziga kelgанини bo‘g‘ziga qaytarmay, erini bolalari oldida xunuk so‘zlar bilan haqorat qiladi. Xotin degan yuksak martaba egasiga yarashmagan bu xunuk qiliq qayerdan paydo bo‘ldi u xotinda, dersizlar! Ha, masalaning shunday ayanchli tomoni ham bor. Menimcha, bunday betamiz xotinlar yoshliklaridan tozalikka, tartibga o‘rganmagan yo o‘rgatilmagan bo‘lishsa kerak, oshxonasini shu ahvolda tashlab qo‘yib, o‘zi divanda yotib olib televizor tomosha qiladi. Eri, ya’ni oila boshlig‘i, bolalarining otasi ustiga kirib qolsa, aqallli mundog‘ qimirlab ham qo‘ymaydi, hurmatini qilib. Qayoqda, bezrayib yotaveradi. Shu sovuq, shu muz qilig‘i bilan bolalariga, ayniqsa, qizlariga yomon ibrat bo‘lmasmikan? Albatta, bo‘ladi. Qizlari ham ana shunday yomon odatni o‘rganadi-yu, borgan joyida onasidan o‘rganganini qiladi. Bunday onaning bolalari ham onalariga o‘xhash beparvo, besarishta, ivarsiq, befahm bo‘lib yetishsa, ne ajab? Mana shunisi alam qiladi, qizlarim! Har bir ona balog‘atga yetayotgan o‘g‘il-qizlariga ogoh bo‘lmasa, bolalari boshida ham yuqoridagi ko‘rgilik bo‘lishi muqarrar. Onalardan

lozimi – bolalariga ular keljakda turadigan uylariga, quradigan oilalariga faqat ovqat yeylimadigan, dam olinadigan, uxlanadigan joy deb qarashi emas, oila zamiridagi haqiqiy, insoniy ma’noni tanalariga singdiradigan muqaddas joy deb o’rgatib borishdir. Haqiqatan ham, oila – u yerda yashovchilarning ma’naviy dun-yolari kengaytiriladigan, bir-birlariga mehr-u muhabbat va sidq-u oqibatlari metinlanadigan, haqiqiy insonlar yetishadigan tabarruk joydir. Oilaning yana bir sharofati – turli-tuman munosabatlar man-bayi ekanidadir. Bu yerda ijtimoiy-siyosiy, g‘oyaviy-ma’naviy, adabiy-axloqiy, san’atga va xo‘jalikka oid masalalar muhokama qilib turiladi. Shunday bo‘lgandan keyin, oila mustahkam bo‘lishi, oila a’zolari zamonamizning yetuk kishilari bo‘lishga intilishlari kerak. Bu borada onaning xizmati katta, beqiyos.

Xo‘p, aylanaylar, endi suhbatimizga andijonlik xushta’b shoir Xoldorjon Qurbonboyevning quyidagi she’ri bilan xotima bersak:

*Aziz ona mehri yulduzdan baland,
Butun odamzod shu mehrga payvand.*

O'NINCHI OQSHOM HIKOYATI

*Yuzingni yorug‘ tut, qarodin asra
Qaro ketidin kelur balodin asra.*

– Bu oqshomgi suhbatimiz inson sha'niga dog‘ tushiradigan ko‘p yomon illatlar, ya’ni yolg‘onchilik, g‘iybatchilik, chaqimchilik, ig‘vogarlik, tilyog‘lamalik, maqtanchoqlik, hasad, fitna-fujur ustida boradi. Yoshdir, qaridir, erkakdir, ayoldir, ishqilib, dunyoda odamman deb bosh ko‘tarib yurganki bor, mana shu yaramas illatlarning birontasiga duchor bo‘libdimi, bilingki – u ichiqora, yuzi qora odam. Unday odamlar qalbidan saxovat emas, qabohatgina yog‘iladi. Agar shu yaramas illatlarning birontasi xotin kishida, ayniqsa, qizlarda uchrasa-chi? Hay-hay-hay, bundan xunugi yo‘q! Ayol zoti go‘zallik, chamanlik, nafislik, mayinlik, shirinlik, malohat, husn-fusun kabi nihoyatda go‘zal, jozibador so‘zlardan ham yuqoriqqa qo‘yiladigan eng mo‘tabar «Ayol» so‘zi bilan tilga olinsa-yu, tag‘in og‘zidan shakar tomish o‘rniga zahar tomib tursa-ya! Ya’ni yolg‘on gapirsa, chaqimchilik qilsa, ig‘vo tarqatsa, g‘iybatdan og‘zi bo‘shamasa! Yo‘q, yuzqaroligi, ichqaroligi ergashtirib kelgan balo-ku bu! Jon qizlarim, boshlaringizga qilich kelsa ham rost gapiringlar, hech qachon hech kimga yolg‘on gapirmanglar, ha, faqat rostgo‘y bo‘linglar. Ulug‘lar so‘zi bilan aytganda: «Yolg‘on insonni ta’qib etib, chuvalchang bo‘lib miyasini kemiradi, qurg‘oqchilik bo‘lib dilini ship-shiydam qiladi, jallod bo‘lib jonini qiynaydi». Hazrati Navoiyning ham bu haqda nasihatlari bor. Ulug‘ bobomizning zamonlar, asrlar osha bizga yetib kelgan hikmatlaridan birida shunday deyiladi:

*Necha zarurat aro qolg‘on chog‘i,
Chin demas ersang, dema yolg‘on dog‘i.*

Qaranglar, gapirish zarurati oldida qolgan chog‘ingda rostini aytolmadingmi, yolg‘on ham gapirma, deb o‘git qiladi aql-andisha piri. Bunga biz xo‘p deymiz, tasanno deymiz, illo, haq boshni qilich kesmasligini bilamiz. Axir, xalqimiz ham: «To‘g‘ri til – toshni yorar, egri til – boshni yorar», deb bejiz aytmagan. Odamki, gunohdan forig‘ etadigan haq so‘zni aytolmabdi, gunohga botiradigan yolg‘onni ham aytmasin-da! Navoiy hazratlarining ta’kidlari ham xuddi shu to‘g‘rida. O‘zimizning vatandoshimiz, Buxoroda yashab, Buxoroda ijod etgan shoir Abu Shukur Balxiy bundan ming yilcha ilgari yolg‘onchilikni qoralab degan edilar:

*Yolg‘on aylar odam e’tiborin kam,
So ‘ng hech kim ishonmas rost gapirsa ham.*

Qanday ibratli gap-a, qizlar? Odamlar e’tiboridan, nazaridan qolishni, sharmanda bo‘lishni ixtiyor qilmagan kishi – yolg‘ondan o‘zini tortadi, hazar qiladi. Bir marta yolg‘on gapirdingmi – tamom, jilovingni yolg‘onga berding, adoyi tamom bo‘lding! Bu qurib ketgur yolg‘on ham papirosga o‘xshash xumor qiladimi, yolg‘on gapirishga o‘rganib qolgan odamlar yolg‘on gapirmasa tura olishmas emish. Mana shu yerda Anton Pavlovich Chexovning yolg‘on to‘g‘risidagi gapi esimga tushib ketdi. U kishi yolg‘onni o‘rmonga o‘xshatadilar: «...O‘rmonga qanchalik kirib boraversang, undan chiqib olish ham shunchalik qiyinlashib boradi», deydilar. Juda to‘g‘ri, yolg‘onga mukkadan ketdingmi – tamom, qaddingni rostlab ololmaysan! Xo‘sish, yolg‘onning o‘zi nima? O‘z qadr-u qimmatini bilmagan yengiltak odamlarni qanday qilib darrov domiga ilintirib oladi? Qani, qizlar, shu to‘g‘rida kim gapiradi?

Dildora uzun bo‘yni rostlab turdi.

– Yolg‘onni har kim har xil ta’rif qilsa kerak. Men uni ko‘zingni baqraytirib turib qilingan aldov deb bilaman. Ha, aldov! O‘zining haqligiga, gapining rostligiga boshqalarni ishontirish, shu bilan yo moddiy, yo ma’naviy manfaat ko‘rish ilinjida yolg‘on gaplarni rost o‘rnida o‘tkazish!

– Barakalla, qizim, – dedi Saodat buvi Dildora so‘zini tutgatib o‘tirgandan keyin. – Dildora juda to‘g‘ri ta’rif berdi. Ayollar

ichida (erkaklar ichida ham, albatta!) bo‘lar-bo‘lmasga laqqa tu-shadigan anqovlar anchagina. Ering falondaqa ekan, fismondaqa ekan, desa tekshirib-netmay, darrov janjal ko‘taradi. Tuxmatga qolgan og‘ir bo‘lsa-ku, yaxshi-ya, kulib yengadi, bo‘lmasa janjal madda bog‘lab, ayanchli oqibatlarga olib keladi. Shuning uchun: «Yolg‘onga yaqin yurma, keyin attang deb boshingga urma!» dey-dilar. Haqiqatan ham, yolg‘on – yuqumli balo. Bunga bir o‘rgan-gan odam ikkilamchi o‘zini tiyolmaydi. Bitta yolg‘ondan keyin ikkita, uchta, to‘rtta yolg‘on iz quvib kelaveradi. Lekin hamma vaqt emas. Axir, bir kun yolg‘onchining peshanasi devorga taq etib tegadi – yolg‘onchiligi fosh bo‘lib, sharmandasi chiqadi. Ana undan keyin nima degan odam bo‘ladi? Yolg‘onchilikning yana boshqa dog‘i ham bor. Masalan, birovga yolg‘on gapirding deylik. Agar yolg‘oningni eshitayotgan odam aqli bo‘lsa, shu on-dayoq sharmandang chiqadi. Qanaqasiga deysizlarmi? Hozir aytaman. Xo‘p, quloq solinglar. Avvalambor, aqli odam har qanday gapga laqqa tushavermaydi. Eshitgan gapini aql tarozisiga solib, obdan tortadi. Qarasa – aqlga sig‘maydigan gap. U bosig‘i bi-lan gapingni rad qiladi. Sen bo‘lsang, ganingning to‘g‘riligiga uni ishontirish uchun, boyagi yolg‘onning ustiga yana qator yolg‘on-lar to‘qiisan. Kuyib-yonib isbot qilasan, hatto non ushlab qasam ham ichasan. Aqli odam shunda ham ishonmaydi. Betingga bir nima demaganda ham, xayr, yomon bo‘lsa o‘ziga qiyin, deydi-yu, qayrilib ketaveradi. Mana shuning o‘zi ham yolg‘onchining qora yuziga qulochkashlab tortilgan shapati emasmi?

– Tushungan kishiga-da, a?

Saodat buvi yalt etib ovoz kelgan tomonga qaradi.

– Albatta, Ra’noxon. Shunaqa, qizlarim, yolg‘on o‘lgur, ustiga kerosin sepilgan o‘tday bir lovullab yonadi-yu, keyin pisillab, o‘chadi, ya’ni siri oshkor bo‘ladi. Bunday odamning gapiga ke-yin hech kim ishonmay qo‘yadi, bamisol zerikkanidan bo‘ri keldi, deb dodlagan aldoqchi qo‘ychivonga o‘xhash. Ana o‘sha qo‘ychivonning holi nima bo‘ldi? Bilasizlar-a? Ha, barakalla. Chinakam bo‘rilar kelib hujum qilishganda dodlab edi, hech kim gapiga ishonmay, yordamga kelmadi. Ana ko‘rdinglarmi, yolg‘on

odamni qanchalik yerga uradi, sharmandayi sharmisor qiladi! Xayr, yolg'onni eshitgan odam yuqorida biz faraz qilgandek aqlli emas-u, aqlsiz, shoshma-shoshar bo'lsa-chi? Bunday fojia ro'y bermaganda ham, ikki yo bir necha odam o'rtasidagi qadr-donlik, do'stlik, qarindoshlik iplari uzilib, bir-birlariga ashaddiy dushman bo'lib qolishlari mumkinmi? Mumkin. Bordi-yu, mana shu yolg'onchilik kasali bolalarga yuqdi. Yuqadi ham-da! Axir, bolalar ota-onalaridan, kattalardan ibrat olishadi-ku! Yolg'onchi onaning bolalari rostchi bo'larmikan? Xayr, bolalari yolg'onni o'rganishmaganda ham, yolg'onchi onaga qarashlari qanaqa bo'larkin? Yolg'onchi onalarini hurmat qilisharmikan? Yolg'onchi ona aytgan gapning qimmati, ta'siri bo'larmikan? Yo'q, qizlarim, yolg'on qasddan yo bexosdan aytilgan shunchaki beozor so'z emas! Yo'q, u hayot niholining ildiziga to'kilgan qurituvchi zahar, og'u! Shunaqa onalarga qanday qaraysiz, deb mendan so'rassalaringiz, men bunday der edim: yolg'on gapiradigan, yolg'onchiligi bilan bolalarini ham yolg'onga o'rgatadigan ona umuman ona emas, odam ham emas! Ha, xuddi shunday der edim.

Saodat buvi qizishib gapira turib birdan to'xtab qoldi. Lekin uyilgan qovoqlari ochilmadi, chehrasiga zarracha jilmayish yugurmadi, qayg'uga botgan odam singari, ma'yus holda yana so'zini davom ettirdi:

— Yozda, ayniqsa, bahor kezlarida go'zal tabiatgina emas, tabiatning eng go'zal ne'mati bo'lmish odamzod ham yashnab ketadi. Odamlarning gulgun chehralariga qarab bir quvonsangiz, egni-boshlaridagi xushbichim kiyimlarini ko'rib o'n quvonasiz. Nazarimizda, tabiat inson bilan go'zallik musobaqasida go'yo. Tabiatning ana shu gulqiyos chehrasini, uning chakkasiga taqilgan gul kabi go'zal insonni ko'rganingda, o'zing ham gul kabi yashnab, ochilib ketasan kishi. Ne baxtki, qizlarim, dog'-u dug'dan, gard-u gurddan musaffo, gultabiat kishilarimiz, ayniqsa, guldek chiroyli, guldek musaffo xotin-qizlarimiz, toza durlarimiz behisob! Ha, ha, behisob! Lekin ana shu behisob toza durlarning bittasi ham hayot tubida tilidan zahar sochuvchi ilon bo'lib o'tmasa-yu, hayot arshida porlab, nur beruvchi quyosh-

chalar, yulduzchalar bo‘lib o‘tsa! Mana bu insonga, insonlik sharafiga yarashgan juda-juda chiroylı fazilat. Ammo bu toza durlar orasida bizni afsus yediradiganlari ham yo‘q emas. Biz hozirgina yolg‘onchilikning kasr-u kasofati, xunuk afti ustida nafratlanib so‘zlashdik. Ana shu tasqaraning bir egizagi bor. Oti – chaqimchilik! Oh, qizlarim, jonim qizlarim, zinhor-bazinhor yuraklaringizdan bu qoraqurtga joy bera ko‘rmanglar! Bu shunday yaramas, past qurtki, ovqat tanlamaydi, to‘g‘ri kelganini qirchiyveradi, kemiradi, yemiradi! Uning zahridan ilon ham, chayon ham qochadi. Ikki do‘sni, er-u xotinni, aka-ukani, ota-bolani bir-biridan ayiradi, ibo pardasini ko‘taradi, ishqilib, kimki uning domiga tushibdi – oxiri voy – zor-u afg‘on! Ay-niqla, yosh kelinchaklar bu qorang o‘chgurdan hazar qilishlari, undan uzoq yurishlari kerak. Ba’zi bir xil kelinchaklar, hatto bitta-ikkita bolali bo‘lib qolgan juvonlar ham qaynanasi yo qaynatasidan gap eshitsa, kechasi erining qo‘yniga kirib olib, ilon singari vishillab chiqadi. Otang u dedi, onang bu dedi, akang bo‘limg‘ur so‘zlar bilan so‘kdi, deb. Bundaylar tinchgina yashab turgan o‘z ota-onalarini ham zaharlab kelishdan toyishmaydi. Kuyovingiz meni undog‘ deb so‘kdi, asli otang o‘zi shunaqa dedi, deb o‘z yostiqdoshini, bolalarining otasini onasi bilan otasiga shu taxlit xunuk ko‘rsatib qo‘yadi. Xo‘s, bundan nima naf ko‘radi? Ko‘radigan nafi – o‘zining chaqimchiligini, uydagi gaplarni ko‘chaga ko‘tarib chiqish odati borligini elga ko‘rsatib, yuzini qora qilib olish, xolos. Chaqimchi degan rasvordan hamma hazar qiladi. O‘z qadrini bilgan qizining baxtini o‘ylagan har bir ota-onal shunday paytlarda darrov chaqimchi qizining tanobini tortib, ikkilamchi gap tashimaydigan qilib qo‘yadi. Shunday qilishi, albatta, kerak. Chaqimchilik o‘lgur ham yolg‘onchilikka o‘xshab bir kun emas, bir kun hammaga oshkor bo‘ladi. Ana undan keyingi sharmandagarchilikni aytmaysizmi! Axir, har kimning ham o‘ziga yarasha siri, ko‘nglida yashirig‘liq gapi bo‘la-di-da! Birov seni odam deb ko‘nglidagi gapini aytsha-yu, sen uni ichingda saqlash o‘rniga boshqalarga borib shipshisang – xoinlik emasmi bu? Xo‘s, bu betamizlikdan maqsading nima? Seni

o‘ziga yaqin tutib sirini aytgan bir begunohni abgor qilishmi? Demak, sen uning yaqin do‘sti, sirdoshi emas, aslida, payini qirqishni poylab yurgan dushmani ekansan-da! Yo‘q, unday emas desang, bo‘lmasa qanday? Bo‘lmasa, bir bechoraning siri-ni ochish bilan bir nimalik bo‘lib qolmoqchi bo‘psan-da? Shundog‘mi? Harom yo‘l bilan, xoinlik, sotqinlik bilan orttiriladigan narsaning qoraginasi o‘chsa bo‘lmas ekanmi! Xayr, bunaqa qit-mirlik bir bo‘lar, ikki bo‘lar, boringlar, o‘n bo‘lar, lekin umrbod bo‘lavermaydi-ku! Axir, bir kun chaqimchining siri ochilar, yaqin-uzoqlari oldida, el oldida sharmandayi sharmisor bo‘lar. Bo‘ladi, albatta, bo‘ladi. Ana undan keyin nima degan odam bo‘ladi, qanday qilib bosh ko‘tarib yuradi? Hammaning nafratiga uchrab, hamma hazar qiladigan marazga aylanmaydими? Aylanadi, albatta, aylanadi. Ko‘z oldilaringizga keltiringlar-a, ikkita odam gaplashib turgani ustiga sharmandasi chiqqan chaqimchi kelib qoldi deylik. Haligilar gaplarini to‘xtatib, yo afting qursin degandek teskari o‘girilib olsa, yo bo‘lmasa jo‘rttaga nari ketib qolishsa, bundan ko‘ra, yerga kirib ketgan afzal emasmi?! Cha-qimchiga bo‘ladigan bunaqa munosabat tushungan odam uchun kaltakdan battar. Shunaqa, qizlarim, yolg‘onchilikdan qanchalik hazar qilish lozim bo‘lsa, chaqimchilikdan ham shunchalik hazar qilish, uzoq bo‘lish lozim.

Saodat buvi so‘zini to‘xtatib, oldidagi choynakka qo‘l cho‘z-gan edi, Tursunoy o‘rnidan dast turib ketdi.

– Voy, kechiring-e, buvijon. Gapingizga hushim ketib qopti. O‘zim quyib beraman, – dedi u qizarib.

Tursunoy choy quyayotganda Hilola asta o‘rnidan turdi. U Saodat buviga yuraksizgina qarab:

– Opoqi, – dedi, – o‘shanaqa betamizlarni yolg‘on gapishtiga, chaqimchilik qilishga nima majbur etar ekan? Axir, yolg‘onchilikmi, chaqimchilikmi, g‘iybatchilikmi, ig‘vomi, tuhmatmi, ish-qilib, mana shunaqa yaramas illatlar oqibatida tuppa-tuzuk odamlar jafo chekishini ko‘ra-bila turib, nimaga shu g‘alamisliklarini tashlashmas ekan, a? Yo o‘zlari ham yaxshi odamlar qatoridan joy ololmaganlari uchun alam qilib boshqalardan o‘ch olishadimi, a?

Saodat buvi Hiloladan ko‘z uzmay o‘tirgan edi, bir jilmayib bosh chayqadi-yu:

– Savollaringni shunday qalashtirib tashladingki, hammasini birdan ilg‘ab qololmadim, – dedi. Keyin uzoqdan bo‘lsa ham, Hilonaning yelkasini qoqayotgandek qo‘l silkitib, yana so‘zini davom ettirdi: – Mayli, hechqisi yo‘q. Esimda borlariga javob qilay, qolib ketganlari bo‘lsa aytarsan. Ha, g‘iybat, ig‘vo, tuhmat bandalaridan nafratlanishing savollaringdan sezilib turibdi. Barakalla, qizim. Bilasizlar, har qanday kaltakning ikkita uchi bo‘ladi. Shu kaltak bilan birovni ursang, ikkinchi uchidan ma‘lum darajada o‘zingga ham zarba yetadi. Mushugingni pisht demagan, senga zarar berishni o‘ylamay, o‘z yo‘lida tinch o‘tib borayotgan bir begunohni «bu – unaqa, bu – munaqa», deb g‘iybat qilish – yaxshi bilan yomonni farq etishdan ojiz, ruhan qashshoq g‘alamislarninggina ishi. Odam bolasida bu yaramas illat qayerdan paydo bo‘ladi? Buni tugatish yo‘li bormi? Bor. Avval birinchi savolingga javob qilay. Bu, eng avvalo, ko‘rolmaslikdan, boshqalarning baxtiga hasad qilishdan tug‘iladigan yomon baxillik. Bundan hazar qilish, bundan ochish kerak. Kelinglar, shu to‘g‘rida bitta hikoyatim bor, ayтиб beray. Qaysi kuni bir zarur ish bilan ko‘chaga chiqib edim. Ellikkardan oshgan bir xotin menga hamroh bo‘lib qoldi. Albatta, u meni poylab turib yonimga kelib olgani yo‘q. Yo‘limiz tushgandir-u, yonna-yon bo‘lib qolgandirmiz. Gap bunda emas. Lekin tanimagan, bilmagan bir odam oldida darrov g‘iybat daftarin vaqaqlay boshlash – uning o‘zi past, yaramas odam ekanidan dalolat bersa kerak. Birdan u ko‘zimga juda xunuk ko‘rinib ketdi. Yonida yurgim ham, qo‘lansa gaplarini eshitgim ham kelmay qoldi. Bir ko‘nglim: «Kechirasiz, shoshib turibman», deb tez-tez yurib ketib qolmoqchi ham bo‘ldim-u, lekin ep ko‘rmadim. Noiloj yonida bordim. U goh yuzimga tikilib olib, goh qo‘limdan ushlab olib gapirar edi:

– Hovlimizning ro‘parasida, ko‘chaning u betida boyligidan jir bog‘lab, mol-dunyo tagida qolib ketgan bir oila yashaydi. Imoratlarini ko‘rsangiz – hushingizdan ketasiz: qasr, qasr. Tagida ikki mashina. Bittasi «Volga», yana bittasi «Jiguli!» Iloyo, mashinang avariya bo‘lib, tagida qolgurlar-ey!

– E, yomon xotin ekansiz-u! – deb yubordim o‘zimni tutolmay. – Birovga o‘lim tilaguncha, o‘zingizga insof tilang! E hayf-e!

Bunaqa hayf-sayflarni eshitaverib, tanasi karaxt bo‘lib qolgan ekanmi, parvo qilmay, hiringlab kului-ju, yana ig‘vosini davom ettirdi:

– Uyida nimalar bo‘layotgani, kimlar borligi shundoqqina de razamizdan ko‘rinib turadi. Ko‘p qarayman-da. Bitta xonasida bir kattakon import gilam – kuyaga yem bo‘lgur – butun bir devorni qoplab tursa-ya! Yana bittasida alomat falak. Zardavor, yana nima balolar. Ataylab uylariga kirib, hamma narsasini ko‘rib chiqqaman. Ipidan ignasigacha bilaman. Pollarida ham gilam, yo‘laklarida gilam-poyandoz. Mebellarini aytmaysizmi! Voy, uni ko‘rmabsiz – dunyoga kelmabsiz! Biri-biridan chiroyli, biri-biridan tomosha – hushingiz ketadi. Uch xil mebeli bor. Bu sabillarning uchovi ham chetniki.

Men ensam qotib so‘radim:

– To‘ppa-to‘g‘ri o‘sha yoqdan olib kelishibdimi?

– Yo‘g‘-a, shu yerdan, magazindan sotib olishibdi. Qarang, aylanay, shu hovlida besh jon yashaydi-ju, har jonga alohida-alohida xona-ya! Tag‘in butun bir mahalla odami sig‘adigan kattakon zali ham bor. Voy, ularning ichidagi dov-dastgohlarni ko‘rsangiz! Xo‘jayiniga kattakon bir xonani yasatib berishgan, polida kattakon serjun gilam – qanday to‘qilgan, qayerda to‘qilgan – aqlim yetmaydi. Bunaqasini ko‘rmaganman-da. Devorlarida qadab o‘rnatalgan kitob javonlari, chet eldan keltirilgan yozuv stoli, yumshoq kursilar, gazeta o‘qiladigan pastak stol, yana nima balolar. O, sanab ado qilolmaysiz! Yotoqxonalariga kitsangiz-chi, aylanay, nimani tomosha qilishni bilmay gangib qolasiz. Bu yerda ham odam ko‘zini qamashtiradigan alomat mebellar: yonma-yon qo‘yiladigan juft karavot, kiyim javoni, yasan-tusan stoli, toshoya, yumaloq kursi – buni arablar qilgan deyishadi. Qarang, aylanay, yerda gilam, polda gilam, devorda gilam... Yana allaqanday qimmatbaho narsalar... E-e, siz so‘ramang, men aytmay!

– Kuyasizmi?

– Kuyaman! Nimaga kuymas ekanman? Nimaga unikida mol-u dunyo to‘lib yotadi-yu, menikida hech vaqo yo‘q? Men to‘g‘riman-da, qo‘lim qing‘ir emas.

Men o‘zimni bosolmay so‘radim:

– Nima, ularning qo‘llari qing‘irmi?

– Voy, to‘g‘ri bo‘lsa shuncha narsani qayerdan olishadi?

– Bundan chiqdi – o‘ziga tuzuk odamlarning hammasi ham qo‘llari qing‘ir odamlar ekan-da? Shundoqmi? Yo‘q, unaqa emas. Bu gapingiz tuhmat. Ha, aytmoqchi, o‘sha qo‘shnilaringiz nima ish qilishadi?

– Eri doktor emish. Bilmadim, qanaqa doktor. Xotini bola texnika degan institutda muallima ekan.

– Bola texnika emas, politexnika, – deb xatosini tuzatib edim, jahli chiqib ketdi.

– O-o, shu vaqtning odamlari biram betgachoparki! Kattasi ham, kichigi ham mundog‘ miriqib gapirtirmay, og‘zingga uradi! Qo‘ying, hadeb aql o‘rgatavermang! Men ham uch sinfni bitirganman. Savodim o‘zimga yetarli.

Men indamay qo‘ya qoldim. U bir necha odim jim bordi. Keyin yana ig‘vosini davom ettirdi:

– Ikkita qizi bor edi, ancha bo‘ldi chiqarishganiga. Katta o‘g‘li allaqaysi zavodda injener, ikkinchi o‘g‘li arab tilini o‘rganib, Arabistoniga ketgan, o‘sha yerda ishlarmish. Ko‘rdingizmi, bu yoqdan ham yog‘li joylarni egallab olishgan.

Meni, negadir, birdan kulgi bosdi. U so‘zini to‘xtatib, menga angrayib qoldi.

– «O‘sha jir bog‘lab ketganlar» qo‘shnilaringiz ekan, siz ham o‘sha yog‘li joylardan birontasini so‘ramabsiz-da? Qo‘shnichilik, berishar edi, – dedim kulgimni zo‘rg‘a bosib.

U hang-mang bo‘lib menga tikildi.

– Voy, so‘radim, berishmadi!

– Nimaga berishmadi? Savodingiz past ekan, deyishdimi?

· Bu safar u sho‘rlik butunlay shoshib qoldi.

– Voy, siz qayerdan bilasiz? Ha, savodingiz past ekan, deyishdi, bizga to‘g‘ri kelmaysiz, deyishdi.

– Ana ko‘rdingizmi, ovsin, mana shunaqa birovlarning g‘iybatini qilib yurgandan ko‘ra, aziz umringizni bir nimani o‘rganishga, ilm olishga sarf qilganingizda, kim bilsin, siz ham o‘zingiz g‘iybatini qilib yurgan o‘sha qo‘shningiz singari «jir bog‘lab» ketarmidingiz.

*Birovning baxtiga bo ‘l magil baxil,
Baxtiga baxt qo ‘sh-u, bo ‘l doim ahil.
Baxillik bir zangki, bag ‘ringni yeydi,
Ranging ham sarg ‘ayib, qiladi zahil! –*

degan donolar. Siz bo‘lsangiz, qo‘shningizning uyidagi bisotini ko‘rib hasad o‘tida yonasiz. Lekin u kishi zamonamizga, xalqimizga, jamiyatiga, jumladan, sizga ham, sizning bola-changizga ham keltirayotgan ma’naviy foydasini ko‘rmaysiz! Bugungi yutuqlarimizning ko‘pginasida olimlarning ham hissalari bordir? Bor. Siz buni anglamaysiz-da! Keling, bu gaplarni bir yoqqa qo‘yaylik. Sizga aytadigan ikki og‘iz gapim bor, aytay-u, xayrlashaylik. Xalqimizda: «Ig‘vogarning o‘zi yomon, o‘zidan ham so‘zi yomon», degan maqol bor. Eshitgandirsiz? Yo‘q? E, afsus! Bo‘lmasa qozoq maqolini eshititing: «Sassiq so‘z sassiq og‘izdan chiqadi». Qarang, yalang‘och badanga vizillatib urilgan qamchi zahriday achchiq. Ha, ovsin, ishonavering, o‘shanaqa og‘izdan so‘z chiqadi!

Men aytar so‘zimni aytib, qayrilib ketdim. U orqamdan mulzam bo‘lib qarab qoldi. Hayron qolasan odam, jamiyatimizda o‘sha g‘iybatchi xotin vaysab qoralayotgan odamga o‘xshash o‘ziga to‘q, madaniyatli kishilarimiz kammi? Yo‘q, istagan shahringizda, hatto qishloqlarimizda bunaqa ma‘mur oilalar xohlaganingiz qadar bor.

Saodat buvi terlab ketdimi, dastro‘molchasi bilan peshanasini artib, biroz sukut etdi. Endi u choydan ho‘plab o‘tirib so‘zini davom ettirdi:

– Qadimgilarning: «Illoho, bevaqt o‘limdan, quruq tuhmatdan saqla!» degan iltijolari bor. Agar tuhmat o‘lim yonida tilga olin-gan bo‘lsa, demak, bu ham o‘lim bilan baravar ekan-da! Xuddi

shu mazmunda qoraqalpoq xalq maqoli ham bor. «Tog‘-u toshni shamol vayron qilsa, odam bolasini tuhmat vayron qiladi», deydi. Albatta, haq gap. Tuhmat balosi nimaligini, tuxmatdan keladigan jabr-u jafoni shu qurib ketgur tuhmatga uchragan jabrdiydalardan so‘rash kerak. Buning jafosi dog‘-u hasrat bo‘lsa, oqibati umr xazoni! O‘nglanib olishing qiyin. Tuhmatchi qilar noma’qulchiligini qilib ketaveradi. Azobini, dardini nohaq tuhmatga uchragan begunoh tortadi. Keyin har qancha oqlan – foydasi yo bo‘ladi, yo bo‘lmaydi. Lekin yuzingga tuhmat bosib ketgan qora tamg‘a uzoq vaqt, balki, butun umr sharaf yo‘lingda g‘ov bo‘lib yotadi. Sen undan o‘tishga harakat qilarsan, qilishing kerak ham, lekin o‘tish hamisha ham nasib bo‘lavermaydi. Shunday hollar ham bo‘ladiki, ishlab turgan joyingdagи rahbar odil bo‘lishi kerakligini esidan chiqarib qo‘ysa, jamoangga qilinadigan davlat va jaimoat iltifotidan seni chetga surib qo‘yishi mumkin. Bu oshkor ilg‘ash boshqalarni hayratga solsa, seni ruhan ezadi. Ha, tuhmatdan, fitnadan, fisq-u fujurdan, shunaqa yomon illatlarni tug‘diradigan hasaddan, ichiqoraliqdan nari bo‘linglar, jon qizlarim! Ha-ha, nari bo‘linglar! Xonadoningizdagи odamlarni ham bu balo kasridan saqlanglar. Ayniqsa, bo‘lg‘usi bolalaringizni bu falokat changalidan omon asranglar, o‘zgalar ko‘z yoshini daryo qiladurg‘on bu marazdan hazar qildiringlar. Shu pok ruhda, shu insoniy ruhda, toza dil kishisi ruhida tarbiyalanglar bolalaringizni! G‘iybatdan o‘zini tiygan odam eng avval o‘zini, keyin g‘iybat qurbanini ballo-qazodan asrab qoladi. O‘tmish olimlaridan Farididdin Attor ham xuddi shuni ta’kidlaydi:

*Kim tilin g‘iybat qilishdin saqladi,
Ul o‘zin ofat – balodin saqladi!*

Saodat buvi oldida yozig‘liq qog‘ozlarni taxlab papkaga soldi. Keyin ko‘k muqovali bir kitobni ochib, nimalarnidir o‘qidi.

– Suhbatimizning davomini xalqimizning «Qo‘l yugurikligi – oshga, til yugurikligi – boshga» degan dono maqolidan boshlaymiz. Haqiqatan ham, tili uzun, tili achchiq, tili zahar – qumortqi odam hech qachon obro‘ topgan emas. Tilim bor deb har xil

bo‘lar-bo‘lmas narsalarni og‘izga olish, boshqalarga ozor berish, shang‘ish, qarg‘ash, shallaqilik qilish – ayol qadrini qora yer qiladigan ko‘p xunuk qiliq. Shoirlar aytganidek, ko‘ngil mahzanning qulfi til bo‘ladigan bo‘lsa, uni ochguvchi kalit – so‘zdir. Modomiki, yaxshi so‘z ham, yomon so‘z ham bitta og‘izdan chiqar ekan, nima uchun hech kimga ozor bermaydigan yaxshisini ayta qolmaymiz?

Axir, bundan eng avvalo o‘zimiz foyda ko‘ramiz-ku! Odamning tili, ayniqsa, ayol kishining tili qanaqa bo‘lsa, undan topadigan foyda-zarari ham tiliga yarasha bo‘ladi. Shuning uchun, jon qizlarim, og‘izlaringizga qarab so‘zlanglar, keyin lab tishlab qolmaysizlar. Til durini yaxshi joylar, yaxshi paytlar uchun saqlanglar, bo‘lar-bo‘lmas joylarda behuda to‘kmanglar. Ya’ni kam gapiring, jonga malham gapiring. Tilingizdan zahar emas, bol tomsin – buning hikmati katta, jon bolalarim! Shu boisdan bo‘lsa kerak:

Tiling zahar bo‘lsa – yeganing zahar,

Tiling shakar bo‘lsa – yeganing shakar, –

deydilar. Axir, odamni sevdiradigan ham, bezdiradigan ham til bo‘lgandan keyin, qani endi undan faqat bol tomsa, bulbul go‘yoki yog‘sa! Biz yuqorida yolg‘onchilik, chaqimchilik, aldoqchilik, g‘iybatchilik, tuhmatchilik, fisq-fujur, fitna, hasad kabi yaramas illatlarni qoralab gapirdik. Xo‘s, bu yaramas illatlarining begunohlarga otadigan o‘qi, chopadigan qilichi qanaqa? Til emasmi? Ming-ming afsuski, til! Ammo Laylolar, Zuhrolar, Shirinlar, Zaynablar, Kumushlar sevgisi izhor etilgan pok til – bu til emas! Bu sehrgarlar, jodugarlar, bag‘ritoshlar, yalmog‘izlar, yosumanlar, sotqinlar, imonsizlar, vijdonsizlar tili! Bu qabih tilning inson tiliga sira-sira aloqasi yo‘q! Navoiy hazratlari ham odamlarni shirin til bilan gapirishga da‘vat etib, deydilar:

Har kim chuchuk so‘z elga izhor aylar,

Har nechaki ag‘yor durur – yor aylar.

O'N BIRINCHI OQSHOM HIKOYATI

*Boshingda vataning bor – baxtiyorsan
Bu baxtni jonda saqla, toki borsan!*

Bu oqshom suhbatiga tayyorgarlik boshqacha bo‘ldi. Bundan Saodat buvining o‘zi bexabar qoldi. Oqshomdan ancha ilgari, soat beshlarda bir to‘da qiz Tursunoylarnikiga kirib keldi. Ba’zilarining qo‘lida tugunchak, ba’zilarinikida esa, ertapishar gilos yo qulupnay solingan tog‘ora. Qizlar keltirgan narsalarini ayvonga qo‘yar-qo‘ymas, Otikaxonning jarangdor ovozi yangradi:

– Hormanglar, qayrilma qoshlar! Mana, biz ham topshiriqni qoyil qilib, besh quchoq desam lof bo‘lar, rappa-raso bir quchoq gul keltirdik!

Qizlar chug‘urlashib uni o‘rtaga olishdi. Otikaning qo‘ng‘iroq ovozini eshitibmi, Saodat buvi ham uyidan xursand bo‘lib chiqdi. Qizlar Otika keltirgan gullarni suvli chelakka avaylab joylashayotgan edi.

Saodat buvi hayron bo‘ldi.

– Voy, kelinglar, qizlar! Tinchlikmi?

– Tinchlik bo‘lganda qanday, opoqijon! – dedi Otika chaq-chaq urib.

Saodat buvi hang-mang bo‘lib qoldi.

– Voy, opoqijon-ey, axir, bugun so‘nggi oqshom, hikoyatimiz shu bilan tamom. Kecha o‘zingiz aytdingiz-ku, ertaga so‘nggi suhbatimiz, deb. Shundog‘ bo‘lgandan keyin buni o‘yin-kulgi, vaqtichog‘lik bilan nishonlamay bo‘ladimi-ya, opoqijon!

Soat yettilarda hamma yoq taxt bo‘ldi. «P» shaklida qo‘yil-gan stollarga dasturxonlar solindi, qulupnaylar, chillaki giloslar, yoqutday tovlanib turgan shisha vazalarda xilma-xil gullar qo‘yildi. Davrada «oqshom» qizlari, ularning onalari, buvilari xuddi

oydin kecha yulduzlariday charaqlab o‘tirishar edi. Saodat buvi suhbatga lozim bo‘ladigan qog‘ozlarini olib chiqqan ekan, ularni titkilab, qidirganini topdi-da, unga biroz ko‘z yogurtirgandan keyin davraga mammun qaradi.

– Davramizga xush ko‘rdik, aziz onalar. Shunchalik iltifot bilan bizni sarafroz qilganlaringiz uchun ko‘p rahmat. Suhbatimiz o‘z yo‘lida. Lekin shu bahona diydor ko‘rishib o‘tiribmiz – bu katta davlat. Dasturxonimiz qizlarniki, demak, hammamizniki. Shuning uchun hech tortinmay yeb-ichib o‘tirsalaringiz, men aytar gapimni aytib, qizlar oldidagi qarzimdan qutulib olsam. Xo‘pmi, aylanaylar?

Yoshi qirqlardan oshib qolgan bir ayol o‘rnidan asta qo‘zg‘aldi.

– Qizlarimizga ko‘p yaxshi nasihatlar qilibsiz, rahmat sizga, opoqi. Qani endi, bu dono o‘gitingizni bir bizgina emas, butun shahrimiz ayollari eshitsa! Gapiring, opoqi, gapiring, bizam baramand bo‘laylik qizlarimiz bahonasida.

Saodat buvining yuziga xiyol qizil yugurdi. U, o‘ng‘aysizlikdan o‘zini suhbatga sozlash uchunmi yo hayajonini bosish uchunmi, bir necha zum qizlarga tikilib turgandan so‘ng bosig‘i bilan gapira ketdi:

– Biz suhbatimiz davomida ayol kishining taqdiridagi onalik sharafini ko‘p marta tilga oldik. Bu bejiz emas, albatta. Nimaga desangiz, ona – aziz va mo‘tabar zot. Shuning uchun ona haqida har qancha gapirsak, uni har qancha boshga ko‘tarsak ham oz. Ona shunday ulug‘ zotki, qizlarim, uning ulug‘ligi faqat bola tug‘dirishdangina emas, hatto uni o‘stirib, voyaga yetkazishida ham emas, yo‘q, aylanaylar, uning ulug‘ligi – bolalarni haqiqiy insonlar qilib tarbiyalashida; uning ulug‘ligi – Vataniga, xalqiga sidqidildan xizmat qiladigan, kerak bo‘lsa, aziz jonini ham aymay, Vatanini himoya qiladigan dovyurak alplar qilib yetkazib berishda. Ha, xuddi mana shunda: Ona bor – Vatan bor! Ona bor – xalq bor! Ona bor – avlod bor! Ona bor – kelajak bor, baxt bor, oydin kun bor! Dunyodagi eng yaxshi sifat, eng yaxshi fazilat – onadan! Onadan, qizlarim, onadan! Ona beradi farzandlariga ana shu go‘zal fazilatlarni! Shuning uchun ona – aziz, shuning uchun

ona – mo‘tabar! Lekin boshqa bir ona ham bor. U ham onamizdek aziz, onamizdek mo‘tabar. Uning oti – Vatan! Vatan – inson uchun qanchalik zarurligini, qanchalik qimmat va azizligini Vatanidan judo bo‘lganlardan so‘rang. Uning hasratiga, dog‘-u alamiga qiyos yo‘q. Shuning uchun, bolalarim, hech kimni Vatanidan ayirgulik qilmasin, hech kim Vataniga tashna bo‘lib o‘tmasin! Ana bu – onaning vazifasi. Ona farzandining tan-joniga Vatan muhabbatini, Vatanga sadoqat – his-tuyg‘usini payvand qilishi, rivojlantirishi, bolalarini eng mudhish bo‘ronlarda ham qaddi bukilmaydigan mustahkam iroda kishisiga, tebranmas metinga aylantirishi kerak. Bilasizlar, hech bir ona bolam katta bo‘lsa urushga boradi, uning joyi jang maydoni, deb niyat qilmaydi. Aksincha, urush bo‘lmaydi, mening bolam tinch-osoyishta mehnat va ijod maydonida odamlarga, Vataniga nafi tegadigan yaxshi inson bo‘ladi, deb orzu qiladi.

– Umringizdan baraka toping, bonu! Xuddi ko‘nglimizdagи gapni aytdingiz-a! – dedi Muqaddasning oyisi hayajonini bosolmay.

Saodat buvi kichik bir sukunatdan so‘ng yana so‘zini davom ettirdi:

– Har bir ona orzum ushalsin deb bolasiga ulg‘ayish, ulug‘lanish yo‘llarini o‘rgatadi. Lekin ogoh bo‘ling, qizlarim, ulug‘lik – boshqalar ustiga chiqib olib gerdayish, kibr-u havoga, takabburlikka berilish degan so‘z emas, yo‘q-yo‘q, zinhor unday emas, jon bolalarim! Halollik, poklik, to‘g‘rilik,adolatpeshalik ibrati bo‘lish – ulug‘lik! Mana shu ulug‘lik fazilatlarini yon-atrofda-gilar bilan baham ko‘rish, ularni ham shu mangulik yo‘liga solish – ulug‘lik! Xuddi mana shu oliy tuyg‘ularni, mana shunday mustahkam irodani jo qiladi ona farzandlari qalbiga!

– Rahmat, ming rahmat, bonu!

Saodat buvi ovoz kelgan tomonga boshini bir egib qo‘yib, yana so‘zini davom ettirdi:

– Qizlarim, bolalaringizni ulug‘lik tomon boshlab borayotgan yo‘lingizdan o‘t bo‘lsa o‘chirib, suv bo‘lsa kechirib o‘tkazing, ularni shunday dovyuraklikka o‘rgating, o‘tdan, suvdan qo‘rqib,

o‘zini panaga uradigan g‘alamislarga aylanib qolishmasin! Ular qalbini faqat suv-u o‘tdangina emas, boshqa har xil qo‘rquv il-latidan ham asrang. Ajina, alvasti, olabo‘ji, yalmog‘iz kabi yo‘q maxluqlar vahimasidan saqlang. Shu narsa eslaringizda bo‘lsinki, ayniqsa, murg‘akligida qo‘rqib qolgan bola katta bo‘lganda ham qo‘rroqligini tashlamaydi. Har narsadan vahimaga tushadigan, hayiqadigan, to‘g‘ri so‘zni aytishga ham yuragi dov bermaydigan allaqanday yuraksiz, irodasiz bir narsaga aylanib qoladi. Qo‘rroq odam o‘zi to‘g‘ri deb bilgan va to‘g‘riligiga imoni komil bo‘lgan narsalarning tantanasi uchun kurashish zarur bo‘lgan paytda bir chekkaga chiqib oladi. Nima uchun, a? Jonini qiyngisi kelmagani, ya‘ni joni shirinlik qilgani uchun emasmikan? Ha, xuddi shuning uchun! Joni shirin odam har narsani – vijdonini, nomusini, iffatini, hatto xalqini, Vatanini ham sotishdan, eng nozik paytda ularga xiyonat qilishdan toymaydi! Qo‘rroqning yo‘li – sotqinlik, xoinlik, vijdonsizlik, tubanlik, zo‘r oldida tiz cho‘kish, darranda singari yerlarda sudralish, nihoyat, oyoq ostida o‘lib ketish! Qo‘rroqning yo‘li, kasr-u kasofati ana shunday nafratli! Eslaringizda bo‘lsin, qizlarim, farzandlari qo‘rroq xalqning boshi qullikdan chiqmaydi! Ha, chiqmaydi!

Bo‘sashgan, ivirsigan, tinchingin g‘amini yeb, jonini urintirishdan qochgan ba’zi tempsa-tebranmas yoshlarni ko‘rsam, ichimda g‘ayrat qaynab ketadi. Sizlarning yuraklaringizdagи o‘t ham bizlarnikidan ortiq bo‘lsa ortiqki, kam emas, qizlarim. G‘ayrat, shijoat, kuch-quvvat qalblaringizda o‘t bo‘lib yonayotgan ekan, fursatni boy bermay, xalqingizga xizmatingizni, Vataningizga sadoqatingizni ko‘rsating. Lekin ba’zi notavonlarga o‘xshab o‘zlaringizni go‘llikka solmanglar, hozir urush bo‘lmasa, qanday qilib qahramonlik ko‘rsatamiz, deb. Yo‘q, niyat qiling – qahramonlik ko‘rsatiladigan joy topiladi. Qahramonlik na zamon tanlaydi va na makon. Shu dorilomon kunlarda ham qahramonlik ko‘rsatsa bo‘ladi. Ko‘rsatayotganlar sonmingta! Sanoatda, zirotda, qurilishda, ilm-fan va san‘at-adabiyotda istaganingiz qadar. Innaykeyin, hamma ham qahramon bo‘lavermaydi. Siz ichki dunyongiz, ichki ehtiyoj va talabingiz qonadigan ish qि

ling – ana shuning o‘zi qahramonlik. Qilgan ishingizdan vijdoningiz qonsa, qiy namasa – shuning o‘zi katta baxt-ku! Eslar ringizda bo‘lsin, jon qizlarim, har kim ekkanini o‘radi. Poklik ekkan – soflik oladi. Siz shunday narsalarni ekingki, hosilni o‘zingizda, bolalaringizda ko‘rib, umringiz shodlikda, vijdoningiz quvonchda o‘tsin.

Saodat buvi gapirib turib yuzadan, keyin zimdan o‘tirganlarga razm soldi. Qizlardan tortib keksa xotinlargacha – hech biri og‘ziga bir narsa solmay qulq solib o‘tirar edi. Atrof jim – pashsha uchsa eshitiladi. Saodat buvi miyig‘ida kulib:

– Bunaqada dasturxonimiz xafa bo‘lib qoladi-ku, mundog‘ olib o‘tiringlar-da, – dedi.

Shundan keyin bir necha daqiqa chaqchaqlashib, nozune’ matlardan yeb o‘tirishdi. Gilos bilan qulupnay hidi stoldagi gullar hidiga aralashib, dimog‘larni yayratar edi. Mehmonlar ora-chora dasturxonga qarab o‘tirishsa ham, ko‘zlarini Saodat buning og‘zida – gap kutishardi.

– Endi bir maslahat-da, – dedi Saodat buvi, uzr so‘rayotgan odam o‘ng‘aysizligi bilan mehmonlarga qarab. – Men aytadigan gapimni aytib bo‘ldim, shekilli. Bu yog‘ini endi sizlardan eshit-sak. Sizlarda ham hali tesha tegmagan gaplar topiladi. Odam bo‘lsin-u, ko‘nglida aytgulik gap bo‘lmasinmi?! Bo‘ladi. Sizlarning ham ichingizda tashqariga talpinib turgan gaplar bordir! Bor, albatta. Endi gap navbatini sizlarga bersam-u, o‘zim somelar qatorida turib tursam. Xo‘pmi, aziz mehmonlar?

Birov: «Yo‘g‘-e, biz sizga o‘xshatib gapira olarmidik! O‘zingiz gapiravering, opoqijon!» – desa, yana birov: «Bizga yo‘l bo‘lsin bunaqa qoyil qilib gapirish!» – deb ko‘nmadi. Saodat buvi, har nima qilib bo‘lsa ham ularni gapga tortish uchun yana bir marta urinib ko‘rgan edi, yaxshi kiyinib, yaxshi tarangan, lo‘ppiyuz, qo‘yko‘z bir juvon xiyol to‘lishgan gavdasini og‘ir ko‘tarib o‘rnidan turdi. Uning yoshi qirqlar chamasida edi.

– Hurmatli opoqi, aybga buyurmasangiz, menda bir-ikkita fikr bor edi, aytsam, birlashtirish hal qilsak, – deb qoldi.

– Voy, aybi nimasi, Zulayhojon! Aytavering, aylanay.

Saodat buvi musobaqa boshlanayotganidan quvonib ketdi. Keyin qo'shib qo'ydi: – O'tiring, aylanay Zulayhojon, o'tirib gapiravering. Bilasiz, biz bu yerga mahalla xotin-qizlarining yo biron tashkilotning rasmiy majlisini o'tkazgani yig'ilganimiz yo'q. Shu, oila doirasida so'zlashgani, suhbatlashgani, yechilmay qolgan masalamiz bo'lsa, ko'plashib yechgani yig'ilganmiz. Agar meni leksiyalar o'qitadigan biron rasmiy tashkilotning vakili deb emas, hammahallamiz, hamsuxanimiz deb bilsalaringiz, iltimos, har qancha gapingiz bo'lsa o'tirib gaplashaveraylik. Ha, shunday bo'lzin, Zulayhojon.

Zulayhoning o'ng'aysiz ahvolda ekani oshkor ko'rinish turardi. U qovushmaganroq bir ovozda gapira boshladi:

– Bolalarimizni Vatanga sadoqat, hayotda jasorat ko'rsatish ruhidha tarbiyalashga da'vat etganingiz, opoqi, meniyam ko'nglim-dagi gap bo'ldi. Albatta, har bir ona bolasini jamiyatda sudralib yashashini emas, yaraqlab, charaqlab yashashini orzu qiladi. Bir mahallar yosh ekanmanmi yo sodda ekanmanmi, qaydam, bolalaringizni unday tarbiya qilinglar, bunday tarbiya qilinglar, deyilgan gaplarni eshitsam, ensam qotardi. «Tavba, birovning bolasini ham o'z bilgicha tarbiyalashga qo'yishmaydi-ya!» derdim. Endi bilsam, bu talablarda hikmat katta ekan. Agar bolalarimizni o'z holiga, o'z mayliga tashlab qo'ysak, bola – bola-da, bilgan ko'chasiga, hatto bilmagan ko'chasiga ham kirib ketaverar ekan. Bizda, mening nazarimda, bir yomon odat bor: bolalarimizni, ayniqsa, o'g'illarimizni kurakda turmaydigan sho'xliklar qilishsa ham tartibga chaqirib, tanoblarini tortib qo'yaymiz. Nimaga bunday qilamiz? Bola hali yosh, katta bo'lsa aqli kirib, yo'lini topib ketar emish! Yo tavba, bu axir, bolaning ~~b~~boshligini qorralash o'rniga rag'batlantirish bo'ladi-ku! Har qanday yaramas odat, yaramas xulq bola yo'rgakligidayoq daf etilmasa, katta bo'lganida tan-joniga singib ketgan yomon xulq-atvordan bolani qayirib bo'larmikan? Menimcha, qiyin bo'lar, balki, mumkin bo'lmas ham. Shundog'mi, opoqijon?

– Shundog', aylanay, shundog'.

Zulayho ajib bir harorat bilan so'zini davom ettirdi:

– Shundog‘ bo‘lgandan keyin bu yaramas illat zamirida qandog‘ balolar bor, buni ham o‘ylab ko‘rishimiz kerakmi-yo‘qmi? Kerak. O‘ylab ko‘rishgina emas, oldini olish ham kerak. Mana shu yerda bir savol tug‘iladi: shunaqa bebosh bola bitta oilada bormi yo boshqa oilalarda ham bormikan? Menimcha, anchagina topilsa kerak. Ha, ancha topiladi. Shu «anchagina» to‘g‘ri yo‘ldan toysa, buning nuqsi axir borib jamiyatga ham urmasmikan? Uradi! Oqibatda yomonlar, tartibbuzarlar, beboshlar, g‘alamislar, tekinxo‘rlar, birovlar haqiga ko‘z olaytiradiganlar, yulg‘ichlar ko‘payadi, hatto qotillar ham. Xo‘s, bundan kim yo kimlar jabr ko‘radi? Bolalarining aqlini yoshliklaridayoq kiritib, ko‘zlarini ochib qo‘ymagan borki, beg‘am ota-onalarginami? Jamiyat-chi? Jamiyat jabr ko‘rmaydimi? Ko‘radi. Ha, ko‘radi! Hamma balo shunda! Yomon ko‘payadi. Yomonning ko‘payishi esa, jamiyatning izdan chiqishiga, buzilishiga olib keladi! Mana bu – hammasidan yomoni! Aql-hushi joyida odam bunga yo‘l qo‘ymaydi. Jamiyat sofligi va sog‘ligi uchun, bolalarimizni to‘g‘ri tarbiyalash oqibatida qo‘lga kiritiladigan ijtimoiy ne‘mat uchun hech narsadan qo‘rqmay, hech qanday xavfdan hayiqmay kurashadi. Biz xuddi shunaqa kurashchilar tarafidamiz.

Zulayho bir zumgina sukut etib, chiroyli chehrasiga yoqimli bir jilmayish yogurtirdi. Keyin yuz-ko‘zlar bilan kulib dedi:

– Bu yerda o‘tirgan hurmatli opa-singillarimizga, ayniqsa, tabarruk onaxonlarimga aql o‘rgatay deb aytayotganim yo‘q bu gaplarni. Bir mahallar nodonlik qilib, to‘g‘ri gapni og‘ir olganim uchun shunchalar pushaymonim zo‘rki, shularni aytib bir yozilib olgim keldi-da. Biroz vaqtlareringizni oldim-u, lekin foydasi ko‘pligini bilganim uchun gapimni aytib oldim. Foydasini uqtiring, deyapsizmi? Xo‘p, uqtiraman. Mana, shu tabarruk dasturxon atrofida anchagina aqli raso qizlarimiz o‘tiribdi. Qisqasi, men yo‘l qo‘yan xatoga bular yo‘l qo‘ymasin, demoqchiman-da, aylanaylar...

Zulayhodan keyin yana bir necha ayol gapirdi. Birovi: «Nima eksang – shuni olasan», desa, yana birovi: «Yo‘q, aylanay, ekish bilan ish bitmaydi. Eksang-u, beparvo bo‘lib ketsang,

xohlaganiningni ololmaysan!» – dedi. Shu tariqa uzoq gaplashib, chaqchaqlashib o'tirishdi. Vaqt ham allamahal bo'lib qolgan edi. Xayr-ma'zurdan oldin Saodat buvi «O'n bir oqshom hikoyati»ga mana shunday xotima berdi:

– Qizlarim, xalq aql-u idroki – butun bir ummon. Biz undan ba'zi durlarnigina terdik, xolos. Hali u yerda aql javohiri – bir jahon. Endi bu javohirdan sizlar qancha olasizlar, qanday olasizlar – bu yog'i o'zlarizingizga, o'zlarizingizni qanday tutishlarizingizga bog'liq. Lekin sizlardan iltimos, qizlarim, qalblaringizga vafo urug'ini soching, undan poklik, halollik, sadoqat nihollari unib chiqsin va uning rang-barang gullar yashnab turgan shox-u shabbalariga qo'ngusi bulbullar sizlarni vafo koshonasiga, faqat vafo, sadoqat koshonasiga chorlasin.

*Insonsan, ko'tar qadding g'oz, insoncha ish tut,
Seni ko'rgan havas qilsin, bag'ri bo'lsin but!*

QIZLAR DAFTARIGA

**BUNISI SIZLARGA,
YIGITLAR**



BUNISI SIZLARGA, YIGITLAR

(«QIZLAR DAFTARIGA»ning ikkinchi kitobidan)

SAODAT BUVI LARZADA

*Loqaydlik, emish, balolar boshi,
Shundan to 'kilur ko 'p ko 'zning yoshi.*

* * *

*Odam bo 'lsang-u, yelkangda bosh bo 'lsa,
Turolasanmi jim, ko 'ngling g 'ash bo 'lsa!*

Vaqt allamahal. Azim shahar uyqu halovatida. Ko'chada mashina tugul, zog' ko'rinnmaydi. Hamma yoq jimjit. Faqat daraxt yaproqlarining mayin shitiri eshitiladi. Bular ham uyqudagilar halovatini buzgilari kelmayotgandek, juda sekin, juda mayin shitirlashadi – xuddi ikki yoshning visol onidagi shiviridek. Nazaringizda, shahargina emas, kechaning o'zi ham orom zavqi bilan mast-alast go'yo. Shu qadar osoyishta, shu qadar jim, sokin kecha.

Ana shu jim, osoyishta damlarning birida banogoh mashina chirog'i ko'cha ola-qorong'isi ustidan bir etak nur sochib yubordi. Hamma yoq nurga cho'mdi. Zum o'tmay ana shu nurga cho'mgan ko'cha to'risidan bir «Moskvich» g'izillab kelib, derazalariga harir pardalar tortilgan xushbichim үй oldida to'xtadi. Undan bo'yłari uzun, qadlari raso bir keksa ayol tushdi-da, to'g'ri darcha tomon yurdi. U chaqqon, dadil odim tashlashidan, nozik qaddini g'oz tutishidan bizga tanishdek ko'rinar edi. Ha, rosti ham u ayol qizlarga o'n bir oqshom hikoyatini aytib bergen o'sha dono onaxon Saodat buvi edi. Lekin har doim o'zini og'ir, vazmin tutadigan bu sabr-toqatli ayolda hozir qandaydir shoshqinlik, bezovtalik bor ko'rinarbi. Ajabo, nega bunday? Nima

uchun lablari qimirlaydi-yu, ovozi chiqmaydi? Xuddi birov bilan gap talashayotgan yo aytishayotgan singari. Ha, ana, kimgadir jahl qilayotgandek gurs-gurs yurib borib, ko‘cha darchasini shiddat bilan ochdi, shitob bilan ichkari kirdi, eshikni nari-beri yopib, do‘qqilaganicha bino tomon yurdi. Ro‘paradagi baland peshtoqli xona derazasidan hovliga kuchli chiroq nuri yog‘ilib turardi. Saodat buvi, butun mushkuli shu charog‘on xonada hal bo‘ladigandek, nurga tikilib borardi. Lekin u xonaga yetmay, ichkaridan Tursunoy yugurib chiqdi.

– Keldingizmi, buvijon? – dedi u, butun hayajonini shu ikki og‘iz so‘zga joylab.

Buvijoni javob qilmadi.

– Voy, tinchlikmi o‘zi?! – dedi endi, yuragi potirlab Tursunoy.

Saodat buvi bu savolga ham javob qilmadi. Tursunoydan ko‘ngli ozor topgandek, indamasdan o‘z xonasiga kirib ketdi. Tursunoy bo‘lsa, buvisining orqasidan kirishni ham, kirmaslikni ham bilmay, turgan yerida turib qoldi. Voy tavba, buvijoni hech qachon bunaqa qilmas edi-ku! Yo Tursunoy o‘zi bilmay biron yomon ish qilib qo‘ydimikan-a? Unday desa, Tursunoy hech qachon odob chizig‘idan, ota-onha ta’limidan chetga chiqqan qiz emas. Yo to‘ydan xafa bo‘lib keldilmikan-a? Bunaqa odatlari yo‘q edi-ku! Xo‘p, xafa bo‘lib ketdilar ham deb faraz qilaylik. Xo‘sh, nimadan xafa bo‘ladilar? Menga u qo‘yishmadi, menga bu qo‘yishmadi, debmi? Yo‘-o‘-q? Saodat buvi tamagir xotin emas. Qaytanga, u kishi birov bir narsa qo‘ysa, o‘laman oblo, olmaydilar. «Qo‘ying, aylanay, sizning shu narsangizni shilib ketay deb kelganim yo‘q to‘yingizga. Shodligingizga sherik bo‘lay, yaxshi odamlar shodlanganini ko‘rib, men ham bir shodlanay, deb kelganman. Odam qadri lattada emas, o‘rgilay» deb hech narsa tama qilmaydigan to‘g‘riso‘z, to‘g‘riyo‘l ayol birovlardan xafa bo‘larmidi? Yo‘q, bu yerda boshqa gap bor. Ha, shoshma-shoshma, adasi bilan ayasi O‘shga, kichik tog‘asi Fayzulloning nikoh to‘yiga ketishgan edi... Tinchlikmikan?..

Bu yomon o‘y Tursunoyning yuragini potirlatib yubordi. U ortiq sabr-toqatni, hatto hamisha muqaddas bilgani andishani bir

yoqqa yig‘ishtirib qo‘yib, dadil eshikni ochdi. Xonaga o‘zidan oldin ko‘zları kirdi. Saodat buvi divanda hamon yerga qarab, o‘y surib o‘tirardi. Tursunoyning vahmi ortdi. Yugurib borib o‘zini buvijoniga tashlashga chog‘langan edi, buvijoni cho‘rt o‘girilib, qo‘li bilan «To‘xta!» ishorasini qildi. Tursunoy to‘xtadi-yu, yurak dukuri to‘xtamadi. Ana shu dukur Tursunoyni ikki qo‘lini baralla ko‘tarib buvijoniga murojaat etishga majbur qildi.

– Buvijon!..

Saodat buvi uni yana qo‘l ishorasi bilan to‘xtatmoqchi bo‘ldi-yu, lekin Tursunoy bu safar to‘xtamadi.

– Aylanay buvijon, o‘rgila qolay buvijonginam, nima bo‘ldi sizga? Ayting, bo‘lmasa hozir yorilib ketaman! – dedi u, o‘zini buvisining karaxt bag‘riga otib. – Tinchlikmi?

Saodat buvi hozir Tursunoya shafqatsizdek tuyulgan qotma qo‘li bilan uni asta o‘zidan uzoqlashtirmoqchi bo‘ldi. Bag‘riga yopishib olgan sevikli nevarasi vujudini bir xokandoz cho‘g‘dek qizitib tursa ham, badaniga mehr harorati tarqalmadi. Uning vujudini boshqa o‘t yondirardi. Bu o‘t tafti baland edi. Saodat buvi hozir shu o‘tda kuyib-yonar, uylgan qovoqlarini yoyay desa yoyalmay qiyinalar edi. Shuning uchun quruq, rasmiy, hatto begona bir tovush bilan:

Tinchlik, – deb qo‘ydi.

Lekin bu loqaydgina aytilgan jonsiz so‘z Tursunoya tasallli bo‘la olmas edi. U o‘zini aldanayotgan bilib, beshbattar tutaqdi. Yonib-kuyib, buvijonining g‘amgin ko‘zları ichiga kirib olib, yana so‘radi:

– Yo‘q, rostini ayting, buvijon, tinchlikmi? Siz meni yo kalaka qilyapsiz, yo bo‘lmasa aldayapsiz. Chinakam tinchlik bo‘lganda, siz bu ahvolga tushmas edingiz, buvijon! Rostini ayting, aylanay buvijon, sizni nima iztirobga solyapti – shuni ayting, aylanay buvijon. Nima bo‘ldi? Nimaga kuyib-yonyapsiz? Kim sizni xafa qildi, jon buvi, ayting...

Saodat buvi Tursunoyning besaranjom ko‘zlariga quruqqina tikilib, shu quruq alfovza, yana rasmiy tovushda buyurdi:

– Bor, yot. Ertaga gaplashamiz. Hozir uyingga chiqib yot. «Aylanay qizim», «O'rgilay qizim», «oppoq qizim», «ona qizim» deb har so'z, har muomalada bol tomizib kelgan mehr olihasining og'zidan «bor, yot!» buyrug'ining chiqishi Tursunoya nihoyatda yot, nihoyatda erish eshitildi. U hang-mang bo'lib qoldi. U bir narsa deyishga ulgurmay, Saodat buvi boyagi xanjar mazmun buyrug'ini takrorladi:

– Bor, yot!

– Oh, qanday oson, qanday jo'n-a bunday deyish! Yo tavba, yuragingni, yo'q, yo'q, butun vujudingni gumon iblisi ayovsiz changalida mijqlab tursa, qanday qilib indamay kirib yotib bo'ladi? Xayr, yotishga yotarsan ham, lekin uyqungni topa olasanmi? Bu yonboshdan u yonboshga ag'darilish, biri-biridan dudmal, biri-biridan vahimali o'ylar iskanjasida azob chekish uchun yotasani? Etingni yeish, qoningni ichish uchunmi, a?

Tursunoy xuddi kaltak olib quvilgandek bo'lib chiqib ketdi buvijonining bo'lmasidan. U buvisidan hech qachon bunaqa muomala ko'rmagan edi. Boyoqish chiqishga chiqdi-yu, lekin nima qilarini bilmay, turgan yerida turib qoldi. Haqiqatan ham, Saodat buvining hozirgi ahvoli bir jumboq edi. Qanday yechsa bo'ladi bu og'ir jumboqni? Umuman, yechiladigan jumboqmi, yechilsa qachon yechiladi, qanday yechiladi? Tursunoy ana shu xil o'ylarni ko'tarib kirdi o'z bo'lmasiga. Yotish qayda deysiz, bu xayolida ham yo'q. Bo'lmasa nima qilsin? O'ylarga yem bo'lib o'tirsinmi? Yo'q, kitob o'qiydi. Ha, boyta o'qiyotgan kitobining davomini o'qiydi. Tursunoy shunday qildi, haligi kitobni qo'liga oldi. Bir-ikki satr o'qigan bo'ldi-yu, bu ham ko'ngliga sig'madi. Uni asta joyiga qo'yib, buvijonining hovli tomondag'i derazasiga qaradi. Ichkarida hamon chiroq yonib, hovliga nur sochib turar edi. Tursunoy uzoq qarab o'tirdi. U chiroqning o'chishini poylardi. Lekin chiroq o'chavermadi. Demak, buvisi hamon uyg'oq, hamon o'ylar iskanjasida. Ni-maga yotmaydilar-a? E-voh, mehribon buvijonining tinchini, uyqusini o'g'irlagan u bag'ritosh narsa – nima? Nimaykin? Qanday bilsa bo'ladi bu qorang o'chgurni?!

Saodat buvi qon sepchib turgan yomon yara og‘rig‘iga chidash bera olmayotgan majruh singari yuzlarini burushtirib, o‘zini goh u yoqqa, goh bu yoqqa tashlar, lekin og‘rig‘i bosilmay qiy-nalar edi. Nima qilsin? Hozir qo‘lidan faqat o‘ylash, o‘ylash, yana o‘ylashgina keladi. Qani endi, biri-biridan og‘ir, biri-biridan beshafqat bu o‘ylarning birontasi uning ichida bosh ko‘targan tug‘yonni bosishga yo‘l topib bera olsa! Yo‘q, o‘y bilan, beintiqo o‘ylash bilan ish bitmaydi. Harakat qilish kerak, harakat! Xo‘p, lekin bir o‘zi harakat qiladimi? Yo‘q, bu ham bo‘lmaydi. Bu, bir kishining ishi emas, ko‘p kishiniki, hammaniki! Demak, qarab turib bo‘lmaydi. Ha, qarab turib bo‘lmaydi! Axir, bu olma emaski, tezroq pish, og‘zimga tush deb anqayib o‘tirsak. Yo‘q, bunaqasi bo‘lmaydi. Shoshish kerak, tezda ishga kirishish kerak. Qanday qilib, qanday qilib?!

Saodat buvi shu avzoyida boshi berk ko‘chaga kirib qolib, chiqish yo‘lini topolmay qiynalayotgan kishiga o‘xshardi. Bunday kishi chiqish yo‘lini topish uchun o‘zini goh u ko‘chaga, goh bu ko‘chaga uradi. Saodat buvi ham og‘ir ahvoldidan qutulish yo‘lini topish uchun o‘zini o‘ydan o‘yga urib, nihoyat, najot yo‘lini topdi. Bu munavvar yo‘lda yaqin kishilar, do‘satlari saf tortib, kamar-basta bo‘lib turishardi. Demak, bu katta ishda, ko‘pchilik ishida u yolg‘iz emas, yonida yondoshlari, og‘irini yengil qilishuvchi safdoshlari bor. Shu on Saodat buvining chehrasi bordan yorishib, lablari burjiga tabassum qo‘ndi. U charaqlab tashqariga qaradi: harir parda orqasidagi qoramtil osmonda had-hisobsiz yulduz charaqlab turardi. Demak, hali tongga vaqt bor...

Saodat buvi yelkasidan og‘ir yukini ag‘darib tashlagan baxtiyor kishiday erkin nafas oldi. Endi divanga cho‘zilsa bo‘ladi...

Tursunoy kechasi uzoq dars tayyorlaptimi yo buvisining g‘alati ahvoli tashvishga solibdimi, negadir, qattiq uxlab qolibdi. Bir mahal uyg‘onib soatga qarasa – 8! «Voy o‘lmasam!» dedi-yu, apil-tapil yuz-qo‘lini yuvib, buvijonining bo‘lmasiga kir-di. Kirsa – hech kim yo‘q. Faqat divanda bir nimalar yozilgan kichkina oq qog‘oz yotibdi. Tursunoy ola solib ko‘zlariga tutdi. Unda shu so‘zlar yozilgan edi:

«Aylanay qizim, mendan xavotir olma. Bir zarur ish bilan To‘qsonboy otanikiga ketdim. Biror soatlarda kelib qolarman».

Tursunoy yuragidagi g‘ashlikni aritgan shu dilovar so‘zlarni o‘qib turganda, Saodat buvi To‘qsonboy otaning hovlisiga kirib borayotgan edi.

U To‘qsonboy otaning o‘ziga o‘xshash bag‘rikeng, bahavo hovlisiga kirdi-yu, vujudi yayrab ketdi. Mevalar g‘arq pishgan, bir yoqda murg‘ak bola betiga o‘xshash qirmizi olma, bir yoqda zarg‘aldoq shaftoli, yana bir yoqda hidi dimog‘ga urayotgan nashvati, anvoyi rangda tovlanib turgan atirgullar, qashqargullar, bo‘ylari dimoqni qitiqlayotgan rayhon, jambil... hamma yoq chirroyli, sarishta, yog‘ tushsa yalagudek toza, shivalab suv urilgan.

To‘qsonboy ota mehmonini so‘risi baland ko‘tarilgan tok tagidagi chorpojaga taklif qildi.

– Qani, shu yoqqa chiqsinlar, bonu, – dedi u, kamoli ehtirom bilan.

Ikkalasi chorpojaning ikki chetiga chiqib o‘tirishgandan keyin To‘qsonboy ota, qisqagina fotihadan so‘ng, keksa yuzini charaqlatib yuborgan shodon bir kulgi bilan qo‘llarini ko‘ksiga tutib:

– Xush kelibdilar, – dedi.

– Xushvaqt bo‘lsinlar.

Saodat buvi chehrasini ochib, xiyol bo‘lsa ham jilmayib o‘tirishga qancha tirishmasin, baribir, qovog‘ini ocholmas, tumtayib ketgan yuziga bir nuqra ham nur yogurtira olmas edi. Buni To‘qsonboy ota sezdimi, xontaxta ustidagi yangi uzuqliq shakar angurni yaqinroq surib, o‘ziga yarashib tushgan keksacha bir ovoz bilan gulduradi:

– E-e, unaqamas-da, bonu. Mundoq dasturxonga qarab, yeb, ochilib o‘tiring. Manavi uzumdan yeng-a, odamning taftini oladi. Hozirgina uzib keluvdim. Shuni yeng, og‘zingizda qoladi, bonu.

To‘qsonboy ota o‘z nomi bilan shakar tomizib turgan xushbo‘y uzumdan kichik bir shingilni uzib Saodat buviga tutdi. Saodat buvining ko‘ngliga hozir hech narsa sig‘mas edi. Shuning uchun uzumni olaymi-yo‘qmi deyatgandek, haqiq donalarga ancha tikilib turdi. To‘qsonboy ota ajablanib, endi uzumdagi ko‘zla-

rini Saodat buviga ko‘chirdi. Ko‘chirdi-yu, uning yuzida sezilar-sezilmas bir jilmayish barqi borligini ko‘rib, ko‘ngli joyiga tushdi.

Saodat buvi hamon ko‘zlarini haqiq donalardan uzolmay jilmaydar edi.

— Qarang, shunchalar ham tiniq bo‘ladimi-ya! Haqiq-a, haqiq! — dedi u, To‘qsonboy otaning yuziga baralla tikilib.

Chol ham Saodat buviga tikilib qoldi. Uzoq tikildi. U Saodat buvini yaxshi bilardi. Hamma vaqt chaqchaq uring, joyida kulib, joyida og‘ir turib gaplashadigan bu dono xotin chehrasida hozir bilinar-bilinmas bir tabassum yorishib tursa ham, aslida bu tabassum emas, hatto tabassum soyasi ham emasligini To‘qsonboy ota payqamay qolmadi. Qarang, ko‘zlarida nimaningdir g‘ami, nimaningdir hasrati bor.

To‘qsonboy ota bu ahvol boisini so‘rashga yo shu haqda gap ochishga ulgurmadi, gapni Saodat buvining o‘zi ochib qoldi.

— To‘qsonboy ota, — dedi Saodat buvi, gapirish malol kelayotgandek bir ohangda. — Mening ahvolimni ko‘rib hayron bo‘layotganizingizni sezib turibman. Ilojim qancha, o‘zimni bosishga, og‘irroq bo‘lishga ne chog‘lik harakat qilmayin — bo‘lmayapti. Menda hech mahal bunaqa ahvol bo‘lmagan edi. Yo‘q-yo‘q, ishonavering, To‘qsonboy ota.

— Ishonaman, bonu, ishonaman, — dedi To‘qsonboy ota. — Sizga ishonmasak, toza bo‘lgan ekan-u...

U kulib, Saodat buviga choy uzatdi. Choyni berib ham yuzini undan o‘girib olmadi, aksincha, tagidan mung sitib turgan o‘ychan yuziga yana ham qattiqroq tikilib:

— O‘zi nima gap, bonu? Mundoq ochiqroq ayting, men bilolmayapman, — dedi.

Saodat buvi boshini og‘ir ko‘tarib, To‘qsonboy otaga shifo tilayotgan bir bemor iltijosi bilan qaradi.

— Men aytmay-u, siz kuymang, To‘qsonboy ota...

To‘qsonboy otaning taajjubi hayajonga aylandi. Endi u vahima dahshatini bosolmagan odam ovozi bilan murojaat qildi:

— Yo‘q, yo‘q, ayting, aytavering, bonu.

Saodat buvi kecha kechasi bag‘riga xanjar bo‘lib sanchilgan alamli voqeа hikoyasini asta boshladi.

Bu to'y ham, hamma nikoh to'ylari singari, o'yin-kulgi, shod-u xurramlik bilan boshlandi. Keng hovliga, qalin daraxtlar tagiga «P» shaklida stollar qo'yilib, bir ajoyib dasturxon tuzalib-diki, ta'rifiga so'z yo'q. Tabiat ham go'yo xursand, u ham to'yga go'yo to'yona keltirgandek, mayin shabadasi bilan daraxtlarning yaproqlarini shitirlatyapti. Quloq solsangiz, ular ham o'z yo'llarida to'y alyorini aytishyapti, deysiz. Rosti ham shunday. G'ir-g'ir esib turgan shabada ham bu ajoyib dasturxon tevaragidan ketgisi kelmayotgandek, mayin slashini qo'ymaydi. Ana, dasturxonga qarang, unda hamma narsa bor. Qazi-qarta deysizmi, go'sht yaxnasi deysizmi, tovuq go'shti deysizmi, O'sh, Andijon, Marg'ilon, Farg'ona, Qo'qon tomonlarda ta'rifi ketgan parmuda deysizmi, konfetlarning eng tansiq xillari deysizmi, xullasi kalom, odamning jonidan boshqa hamma narsa bor, hammasi nozik did, katta mehr, buyuk ehtirom bilan, ezgu tilak bilan el oldiga tuzalgan eng a'lo narsalar.

Saodat buvi to'yga barvaqt keldi. Hamma to'y qiluvchilar hamma vaqt u kishini shunaqa barvaqt olib ketishadi. Bu gal ham shunday bo'ldi. U kishi yaxshi maslahatlari bilan to'ylarning yaxshi o'tishiga katta hissa qo'shib keladi. Mana bu safar ham to'y dasturxonini aylanib ko'rdi, ortiqchasi bo'lsa oldirib tashladi, yetmaganini keltirtirdi. Ayniqsa, kelin bilan kuyovto'ra o'tiradigan joy orqasidagi gilamga: «Xush kelibsiz, kelinposhsha! Siz bilan birga xonadonimizga baxt kelgan bo'lsin!» deb paxta piligidan yozdirib qo'ygani – to'y mazmuniga jon kirgizib yubordi.

Gilam chamaniga oq paxta bilan oq ko'ngildan yozilgan bu bir necha og'iz so'z zamirida o'ziga xos bir qudsiyat bor edi. Saodat buvi o'zi yozdirgan bu otashin so'zlarga o'zi oshiqdek, ularga qayta-qayta qarar, qaragan sari vujudi baxt shalolasiga aylanib borar edi. U shunday quvonib, tanasiga sig'may yayrab turganda, birdan hushyor tortib dasturxonga qaradi. Maxzarlar devalab tashlangan uzundan uzun dasturxon ustida ko'zları olazarak yugurib chiqdi. Keyin, ko'ngli bir narsadan to'q bo'ldi shekilli, mamnun

jilmayib: «E, xayriyat-ey!» deb yubordi. Uni quvontirgan narsa – dasturxonga ichkilik qo'yilmagan edi. «Qarang, shu qorang o'chgursiz ham to'ylarimizni neppa-nozin o'tkazsak bo'ladi-ku! Bular ham juda a'lo ish qilishibdi ichkilik qo'ymay!» Saodat buvi buyuk bir minnatdorchilik bilan dasturxonga yana bir qur ko'z yogurtirib chiqdi. Rostdan ham, dasturxonda na araq, na konyak va na vino bor edi. Umuman, shisha zoti ko'rinmas edi. Demak, to'y bexarxasha, bexatar o'tadi. Ha, uzun dasturxonning har yerhar yeriga billur vazalarda qo'yilgan anavi rang-barang gullar tevaragiga xuddi shu gullar kabi toza, xushro'y, jonli gullar kelib o'tirganda, to'y qudsiyati, uning fazilati ming bor ortadi. Saodat buvi quvonchdan yongan mamnun ko'zlarini ana shu toza gullardan uzolmay ancha suqlanib turdi. Agar ko'chadan, ko'chaning ancha narisidan yer-u ko'kni to'ldirgan kuyovnavkarlar, jo'ralar qiyqirig'i hammani oyoqqa turg'izib yubormaganda, kim biladi, Saodat buvi yana qancha vaqt turar ediykin zavq og'ushida.

Hamma ko'chaga intildi. Bolalar esa bir-birlarini turtishib, siqilishib, yugurishib ketishdi. Hamma qiznikidagi to'y ziyoftidan yashnab kelayotgan kuyovnavkarlar o'yinini ko'rishni, ularning sho'x kuylarini eshitishni, ayniqsa, jo'ralari orasiga «biqinib» olgan «uyatchan» kuyovo'trani tomosha qilishni istar edi. Saodat buvi ko'chaga chiqmadi. O'zi tengi bir necha keksa ayol davrasida turib, kuyovnavkarlarning o'yin-kulgi bilan qiyqirishib kirib kelishlarini kutdi. Ammo ular darrov ichkariga kira qolishmadidi. Oldin ko'chada, to'yxona ostonasi yaqinida o'n minutcha o'ynashdi, turli hazil qo'shiqlar, laparlar, yallalar aytishdi. Ana shundan keyingina bir olam bo'lib ichkariga yopirilib kirishdi. Ular o'ynaydigan, yayraydigan, zavq-shavq bolini so'radigan sho'x yoshlar edi. Shu uchun bir-birlariga navbat bermay o'ynashar, balog'at bo'rsillab turgan chiroyli, quvvatli qomatlarini har ko'yga solib maqomlar qilishar, yuraklarni o'ynatib sho'x ashulalar aytishar, quvonishar, suyunishar edi.

Kuyovbolaning buvisi, ayasi, amma-xolalari, opalari bir yerda g'uj bo'lib uni kutishardi. Kuyov ichkariga kirishi bilan bu ayollar uni o'rab olib tabriklashdi. Yuz-ko'zlaridan, pesha-

nasidan o‘pib «Qalliq muborak» qilishdi. Keyin uni boyaga keltirib qo‘yilgan stulga o‘tqazishdi, qo‘liga bitta chaqaloqni tutqazishdi. Kuyovbola chaqaloqni harorat bilan o‘pib, bag‘riga bosdi. Hamma ayol unga ham shunaqa shirin-shakar farzandlar tilab duo qildi. Ayollar xalq udumi bilan band bo‘lib turganda, hali kuyovnavkarlar orasida qilpanglab o‘yinga tushib kirgan uzunsoch, xipchabel yigitcha ko‘zлari olazarak bo‘lib dasturxon atrofida aylanib yurar edi. U oshkor bir hayajon bilan dasturxonni sinchiklab kuzatib chiqqandan keyin sovuq, chinqiroq tovush bilan qichqirdi:

– Yo‘q! O‘rtoqlar, yo‘q!

Hamma hang-mang bo‘lib unga qaradi. Hamma nima yo‘qligini bilgisi kelar edi. Erdan chiqqan shallaqi juvonga o‘xshagan yigit yana qichqirdi:

– Ana – qaranglar, yo‘q!

Saodat buvi zulflari iyagiga tushgan ana shu xotinchalish yigitchaga yaqinroq joyda turgan edi, xavotirlanib so‘radi:

– Nima yo‘q ekan, bolam?

Yigit qaltirab ketdi. Jahli yuziga urdi-yu, jerkib tashladi.

– E-e, siz aralashmang, kampirsho! Nima yo‘qligini o‘zimiz bilamiz. Sizga daxli yo‘q buning!

Yer yorilmadi-yu, Saodat buvi yerga kirib ketmadi. Og‘zidan ona suti ketmagan nevarasi tengi bir nodondan shunchalik dakki eshitganini tevarakdagilar ko‘rib turishgan edi, qattiq o‘sal bo‘lib yerga qarab oldi. Yuragida bir narsa portlab ketgandek bo‘ldi. Nazarida, o‘pkasi joyidan ko‘chib, bo‘g‘ziga tiqilib qoldi. Lenkin bu ko‘ngil vayronaligida tabiatidagi vazminlik ustun keldi. U o‘zini bosdi, bu andishasiz bola bilan adi-badi aytishib o‘tirishni o‘ziga ayb bildi. Indamay naryoqqa ketib qoldi. O‘zini naryoqqa olishining boshqa sababi ham bor edi. Haligi chikaldak polvon chinqirganda, og‘zidan gup etib araq hidi urdi. Saodat buvi hid sassig‘iga chidash berolmay yuzini teskari o‘girib oldi. Odam ko‘ngli nozik bo‘ladi, deganlari shu bo‘lsa kerak. Shu topdagina bahor chechaklaridek ochilib, yashnab turgan ko‘ngil niholi bir sovuq so‘z bilan ayoz urgan guldek so‘ndi-qoldi. Saodat buvi

o‘zini nari olishga ulgurmay, boyagi ro‘dapo qo‘lini bigiz qilib kimgadir o‘dag‘aylana boshladi:

Biz kuyovbolaning jo‘ralari – kuyovnavkarlar bo‘lamiz-a! Kuyov bilan kelindan keyin bu xonadonda eng aziz kishilar – jo‘ralar bo‘ladi. Ha, bilib qo‘ying! Dasturxonning to‘risi – bizniki, eng tansiq maxzar – bizniki, Ha! Qani u... haligi... qani deyapman sizga?!

– E, ochiqroq ayting, nima u sabil «haligi»ngiz?

– Araq, konyak, vino!..

– E, dardim bu yodda, deng? Yo‘q, silliq bola, biz bu sabilarni to‘ylarimizdan darxon qilganmiz. Ha, shunaqa, xomtama bo‘lmang!

– Vot zdrovo! To‘y qilarmish-u, araq qo‘ymasmish! Yo‘q, oqsoqol, bunaqasi ketmaydi! Mehmonlar xursand bo‘lib ketishsin, desangiz, pojaluysta, arag‘iniyam, konyaginiyam, vinosiniyam dasturxonga terib qo‘ying. Ana unda to‘y – to‘y bo‘ladi.

Naryoqdan kimdir: «Valaqlama ko‘p, turqi sovuq!» deb qich-qirdi, lekin bu haqiqat ovozi uning qulog‘iga yetib kelmadni yo yetib kelsa ham o‘zini eshitmaganga oldi. Yana boyagi hovurida o‘dag‘aylanar edi:

– Ikki shisha araq kimning uyiga o‘t qo‘yibdi? Kuchim yet-madi deng? E, qoyilman-ey! Ikki shisha araqqa kuchingiz yet-madimi? Voy-vo‘y, yana to‘y qilib o‘tiribman deng shu ah-volingizda! Xo‘p, bu yog‘ini biz ko‘tardik. Olib kelaymi? Ayting, aytavering tortinmay!

To‘y egasining qattiq jahli chiqdi. Bir ko‘ngli, bu bedavoni orqasiga tepib, urib chiqarib tashlamoqchi ham bo‘ldi. Lekin to‘yni buzgisi kelmadni. Tishini tishiga qo‘yib, vazmin muomala qildi.

– Avvalambor, yigitcha, o‘zingizdan katta bilan, ayniqsa, keksa odam bilan gaplashganingizda, o‘pkangizni bosib oling. Ayb bo‘ladi. Qolaversa, gap kuchimiz yetmaganida emas, yo‘q, yetadi, bu yog‘i sizni tashvishga solmay qo‘ya qolsin. Ha, shunday bo‘lsin. Asl gap shundaki, ba’zi betayinlar xurma-chasiga siqqanidan ortiqroq olib qo‘yib, to‘yni azaga aylantirib

yuborishyapti. Yaxshi yigit, o'zingiz o'ylab ko'ring, kim ne-ne mashaqqatlar bilan qilayotgan to'yini azaga aylantirgisi keladi? Shuning uchun...

Yigitcha gapning oxirini eshitmay bir qo'l siltab chiqib ketdi...

Hademay qiz ham havorang lentalar, qo'g'irchoq bilan bezal-gan qora «Chayka»da yetib keldi. Uni hamma kutgani yugurishdi. Bir yoqda karnay-surnay yuraklarga to'y o'tini yoqib chalib turibdi, bir yoqda yoshlar, bolalar chapak chalib qiyqirishyapti. Ku-yovto'ra jo'rалари davrasida bir dasta gul ko'tarib kelib, qallig'ini buyuk bir ehtirom, mute bir salom bilan mashinadan tushirdi. To'y karvoni katta dabdaba, qizg'in tantana bilan to'yxona to-mon yo'l oldi. Ular hayqiriqlar, qiyqiriqlar, chapaklar bilan eshikka yetishganda, ichkaridan mashhur sozanda va navozandalar «To'ylar muborak!» ashulasini butun bir jarangdorligi bilan ko'klarga o'rlatib aytib yubordilar. Shodlik shalolasni to'yxonani to'ldirib, atrofga – uzoq-uzoqlarga, baland-balandlarga – osmoni falakka yoyilib ketdi. Hamma kelinposhshani ko'rishga intilar, kelin esa, oq tuqli, oq ko'ylak, oq ro'mol ichida, havoda suzib borayotgan farishta singari, juda mayin, juda asta yurib borardi. Ni-hoyat, kelin bilan kuyov qizg'in olqishlar va samimiy qarsaklar ostida joylariga yetib kelishdi. Lekin o'tirishmadi. Mehmonlar joy-joylariga o'tirishib, davra guvuri tinchimaguncha, ular buyuk bir ehtirom bilan kutib turishdi. Keyin, hamma o'tirib, atrof bir muncha jim bo'lgach, kelin bilan kuyov ikki bukilib mehmonlar-ga ta'zim qilishdi. Bu ta'zimda: «Bizga baxt tilab, totuvlik tilab, uvali-juvali bo'lishimizni tilab kelganlaringiz uchun ming-ming rahmat. Tirik ekanmiz, odam ekanmiz – ishonchlaringizni oqlaymiz, totuv yashab ketishga ont ichamiz!» deguvchi nido bordek edi. Yana gulduros olqishlar ko'tarildi. Keyin to'yboshining nasi-hatomuz gapi, tabriklar, ashulalar, raqslar boshlandi. Ayniqsa, o'rtaga pildirab chiqqan bir farishta yanglig' raqqosaning o'yin-lari, g'amza va jilvalari hammaning hushini olib qo'ydi. Saodat buvi ham davraga yaqin bir joyda, tengqurlari orasida yoshlar o'yin-kulgisidan yashnab o'tirar edi. Shu mahal ko'cha eshigi tomonidan bir xunuk chinqiriq eshitilib qoldi. Hamma bir ses-

kanib, o'sha xunuk tovushga qulqoq solgandek bo'ldi. Tovush hamon xunugi chiqib, pardasini yo'qotib borardi. Saodat buvi u xunuk ovozni tanidi. Tanidi-yu, u ovoz odam ovozi emas, balo ovozidek qaltirab ketdi. Ha, u ovoz boyaga to'yxonadan janjal qilib chiqib ketgan o'sha betamizning ovozi edi. Hademay to'yxonaga u betamizning o'zi ham yetib keldi. Ikki qo'lida bittadan ikkita shisha, ikki yonida o'ziga o'xshash ikkita bedavo. U to'g'ri kelib dasturxon oldida to'xtadi.

– Mana, to'y egalari topolmagan matohni biz topib keldik, – deb birdan ayyuhannos tortib yubordi.

Odamlar uni hayhaylab bosishmoqchi bo'lishdi. Lekin u ba-qirishini qo'ymas edi:

– Bu qiztaloq magazinlarda to'lib yotibdi-ku! Mayli, biz quyib beramiz. Qani, kimga quyay?!

U shunday deb stoldan bitta piyola oldi-yu, qulqullatib quya boshladи. U oyog'ida turolmasdi. Gandiraklaganidan araq piyolaga quyilmay, yerga to'kilardi. Hamma hang-mang bo'lib qoldi. To'y egalari, xizmatdagilar yugur-yugur bo'lib qolishdi. Ikkita barvasta yigit yetib kelib, «Hotamtoy» araqxo'rni qo'lidan ushladi.

– Bas qil ahmoqlikni! – dedi yigitlardan biri, oshkor tahdid bilan. «Hotamtoy» qo'lini bo'shatishga tirishib chinqirdi:

– Qo'yor qo'limni! Qo'yvormasang hozir shu shishani boshingga uraman! Qo'yor deyapman senga! Qoch!

Lekin yigitlar qo'yib yuborishmadi ham, qochishmadi ham. Aksincha, qo'lidagi araqni tortib olishga urinishdi. U bo'lsa bermaslikka tirishib, qo'lini u yoq-bu yoqqa olib qochar, tirkishlik qilar edi. Axiyri, bir qo'lidagi araqni tortib olishdi. Endi ikkinchisini ham olishga hamla boshlashgan edi, u qo'lidagi araqni yigit boshiga paqillatib urmoqchi bo'lib otdi. Lekin yigit chap berib, zarbadan qutulib qoldi. Og'ir shisha uchib borib, shu yaqinda o'tirgan bir xushro'y qizning boshiga urildi. Shunday zarb bilan urildiki, shisha chil-chil bo'lib, boshidan sassiq araq quyilib ketdi. Qiz birdan dodlab yubordi. Avvaliga o'z tusida oqib turgan araq bora-bora qizarib, qon rangini oldi. Ha, qiz boshi yorilgan, tinmay qon oqa boshlagan edi.

Odamlar tapir-tupur o‘rinlaridan turib ketishdi. Hozirgina... to‘yxonani to‘ldirib yangrayotgan navo torida uzildi. Gulday yashnab turgan to‘y qora kiygan azaga aylandi...

* * *

Saodat buvi mungli hikoyasini davom ettira olmadı. O‘pkasi to‘lib ko‘zlariga yosh yugurdi. To‘qsonboy ota esa, ho boyatushib ketgan boshini ko‘tarishga qurbi yetmayotganmidi yo bu alamli fojiada o‘zini ham aybdor bilarmidi, yerga qarab o‘tirardi. Ikki keksa bir nima deyishga so‘z topolmay, yuraklarini to‘ldirgan alam zardobini yutib o‘tirdi. U ham jim, bu ham jim edi. Nihoyat, og‘ir xijolatpazlikdan yerga kirib ketgan boshini zo‘rg‘a ko‘targan odam singari, To‘qsonboy ota kallasini saraklab xiyol ko‘tardi. U shu holatida Saodat buviga yer ostidan bir ko‘z tashladi-yu, yana darrov yerga qarab oldi. Saodat buvining hayajondan qizarib ketgan ko‘zlaridan duvullab yosh to‘kilar edi.

– Qo‘ying, bonu, xafa bo‘lmang, – dedi To‘qsonboy ota, o‘ziga ham allaqanday eshitilgan bir ko‘ngilxonlik bilan. U shundaydeyishga dedi-yu, o‘zini loqayd, beparvo tutayotganidan xijolat bo‘ldi. Shuning uchun gapini yamlab yutib davom ettirdi: – Nafsilamrga-ku, bunaqalarga beparvo bo‘lmay, yo‘lini taqa-taq to‘sib qo‘yish kerak edi-ya! Lekigin,, e, qo‘ying, bonu, arzigulik odam bo‘lsa boshqa gap edi. Ko‘ribsiz-u, bosar-tusarini bilmagan bir ro‘dapo ekan. Shunga ham xafa bo‘lib o‘tirasizmi! E, qo‘ying, bundaqalarning qo‘lidan keladigani shu-da.

Saodat buvi asta ko‘zlarini ko‘tarib To‘qsonboy otaga qaradi. Bu qizarib ketgan ko‘zlarda norozilik bor edi.

– Shunaqa deysiz-u, To‘qsonboy ota, bu yaramaslar dastidan dod deyishga keldik. O‘zingiz o‘ylab ko‘ring-a, axir, bir bechora ota-oná ne hasratda, ne mashhaqqatda el oldiga dasturxon yozib, ezgu orzu-havaslar bilan to‘y qilsa-yu, bir bedavo shunday to‘yni azaga aylantirib o‘tirsaya! Yo‘q, bunga chidab bo‘lmaydi! Ortiq chidab bo‘lmaydi! To‘qsonboy ota, Xudo xayringizni bersin, bir nima qilaylik. Mundoq yer chizib o‘tirishdan foyda yo‘q..

To‘qsonboy ota yerga tushib ketgan boshini dast ko‘tardi.

– Xo‘p, qilaylik. Nima qilamiz? O‘shanaqa bedavolarga qarshi bayroq ko‘tarib chiqamizmi?

Saodat buvi beshbattar qizarib ketdi.

– Odamni mayna qilasiz-da, To‘qsonboy ota. Bayroq ko‘tarib chiqmasligimizni bila turib yana shunaqa deysiz-a!

– Yo‘q, bonu, men sizni mayna qilayotganim yo‘q, Xudo asrasin. Nima qilishimiz kerakligini bilmaganimni aptyapman.

Saodat buvi hovuridan tushdi.

-- Keling, shu to‘g‘rida bir maslahatlashib olaylik.

– Xo‘p, nima qilaylik?

Saodat buvi nima qilish kerakligini o‘ylayotgandek, ancha jim o‘tirdi. Keyin To‘qsonboy otaga tikilib:

– Hov, esingizdami, «Qizlar daftariga: O‘n bir oqshom hikoyati» kitobi bosilib chiqqanda nima deganidingiz? – dedi.

To‘qsonboy ota o‘ylanib qoldi.

– Nima degan ekanman? Esimda yo‘q!

Saodat buvi birinchi marta qiqirlab kulib yubordi.

– Ana xolos. «Yigitlar to‘g‘risida ham bitta shunaqa kitob yozish kerak edi-da», demabmidingiz?

To‘qsonboy otaning qattiq o‘ylaganda qoshlari jiyirilib ketardi. Hozir ham shunday bo‘ldi. O‘ylab-o‘ylab, birdan:

– Ha, devdim chog‘i, – dedi xiyol kulimsirab. – Ha, devdim. Esimdan chiqibdi-ya, qarang.

Saodat buvi gapni cho‘rt kesdi:

– Endi yozasiz!

– Nimani yozaman?

– O‘sha aytgan kitobingizni!

– Yo‘g‘-e!

– Ha!

– Men-a?

– Ha, siz!

– Men axir, maktab ko‘rmagan odamlardan ozginagina farq qiladigan g‘aribsavod bir odam bo‘lsam! E, qo‘ying-e, bonu. Har kim hazm qiladigan ovqatini yegani ma’qul. Axir, men nima-yu, avom nima. Yo‘q, bo‘lmaydi.

– Unaqamas, To‘qsonboy ota. O‘zingizni bunchalik yerga urmang. Men gapingizga qo‘silmayman. To‘gri, hayotda maktab ko‘rmagan oddiy odamlarni ko‘pincha nazarga ilishmaydi. Holbuki, bizdaqalar ichida yoshlarga nasihatgo‘y, murabbiy bo‘layotganlari, kattalarga g‘amxo‘r, maslahatgo‘y bo‘lib kelayotganlari sonningta. Xalq bamisolli tagida hayot qaynab turgan dengiz. U yerda million-million jon bor: hammasi ham o‘z hayoti bilan tirik. Xalq ichida ham maktab ko‘rmagan shunday aql darg‘alari borki, ular kazo-kazolarga dars bersa arziydi.

– Qo‘ying, bonu, odamni munchalik qizartirmang. Qiziqsiz-a, mening qo‘limdan kitob yozish keladimi? Yo‘q, xijolat qilmang meni, baraka topgur.

Saodat buvi To‘qsonboy otaning qarilik ajinlari katalak qilib yuborgan tirish yuzidan bir narsa qidirayotgandek, uzoq tikilib qoldi. Chol avval ko‘zini, keyin yuzini olib qochib, sekin yerga qarab oldi.

Saodat buvi gapida qattiq turdi.

– Xayr, yozish qo‘lingizdan kelmaydi ham deylik. Lekin ana shunday zarur, juda-juda zarur bir kitobning dunyoga kelishiga qo‘lingizdan kelgan hissangizni qo‘sishingiz mumkinmi?

To‘qsonboy ota birdan charaqlab ketdi.

– Mumkin! Mumkin bo‘lganda qandoq, bonujon!.. Lekigin...

So‘nggi so‘zni eshitib, Saodat buvining xunobi oshib ketdi.

– Yana «Lekigin» deysiz-a, To‘qsonboy ota. Qo‘ying, hadeb o‘zingizni bozorga solaver mang, o‘lay agar, sizga yarashmas ekan!

To‘qsonboy ota, yo‘g‘-e, unaqamas, degandek qilib qiqirlab kuldi. Keyin keksa yuzini shodlik nuri bilan charaqlatib:

– Xo‘p, nima qilay bo‘lmasam, bonu? – dedi.

Saodat buvi gapini uqtirolmay qiyngalgan kishi singari bo‘-g‘ildi.

– Voy, yana so‘raysiz-a, nima qilay, deb! Hozir aytdim-ku!

To‘qsonboy otaning yuzidagi jilmayish yo‘qoldi.

– Aytishga aytdingiz, to‘g‘ri, lekin qo‘limdan kelmasa nima qilay, shuni so‘rayapman sizdan?

– Bo‘lmasa, qo‘limdan kelmayapti, deb bir chetga chiqib o‘ti-raveraylik. Qo‘lni ishga urib qiyngandan, bir chekkada tomosha qilib o‘tirish maza-ku! – dedi Saodat buvi, kesatib.

– Yo‘q, gapni bunaqasiga burmang, bonu. Tekin kelgan yog‘liq patirdan qiynalib topgan ko‘mach shirin. Siz boyaga haligi ro‘dapo-dan zorlanib gapiryapsiz-u, men boshqa narsani o‘ylab, o‘shaning tagiga yetolmay o‘tiribman. Bunday bezorilik, beboshlik, yaramas xulq hozirgi yoshlarimizning tug‘ma illatimi yo shunchaki bir in-jiqqliklarimi – shuni bilgim keladi.

Saodat buvi charaqlab ketdi.

– Yashang, To‘qsonboy ota! Ko‘nglimdagagi chigalni topib aytdingiz! Gapingiz yuz foiz to‘g‘ri. Bu illat ularning, ya’ni yoshlarning o‘zlarigagina xos illat emas, unda bizning ham, ya’ni kattalarning ham ma’lum darajada ulushimiz bor. Fojia shundaki, To‘qsonboy ota, hamma o‘zini oqlab, boshqani qoralaydi. Shunga o‘rganib qolganmiz. Ya’ni boshqaning ko‘zidagi kichkina xasni ko‘ramiz-u, o‘zimizning ko‘zimizdagi xodani ko‘rmaymiz! Ha, kulmang, shunaqa, To‘qsonboy ota!

– To‘g‘ri aytasiz, bonu.

– O‘zingiz bilasiz, To‘qsonboy ota, ichkilikka, chekkilikka mukkasidan ketgan ba’zi notavonlarni ko‘rsak, hamma vaqt ular-dan nafratlanamiz-u, ularga ana shu tushkunlik yo‘lini ko‘rsatgan o‘zimiz ekanimizni tan olmaymiz. Tan olish u yodqa tursin, buni o‘ylab ham ko‘rmaymiz. Holbuki, bu masalada kattalar, ya’ni ota-onalar, yor-u birodarlar, o‘zlarini begona deb chetga tortib, ha, chetga tortib, chetda, osoyishta joyda tomoshabin bo‘lib o‘tirgan boqibeg‘amlar tamoman demaganimda ham, anchagina aybdor. Aybdor, To‘qsonboy ota, ha, aybdor!

– O-o, kam bo‘lmang, bonu! – deb yubordi To‘qsonboy ota, ko‘nglidagi gapni topib aytganidan quvonchi ichiga sig‘may. – Nafsilamrga shunaqamiz. Og‘rimagan boshimni og‘ritib o‘tiramanni, deymiz. Sabil jonning huzurini o‘ylaymiz-da!

Saodat buvi birdan jimb, qoshlari jiyirilib qoldi. Ichida bir kechinma bordek, anchagina churq etmay o‘tirdi. Keyin gunohkor kishi ovozida shunday dedi:

– Men to‘yda bezorilik qilgan o‘sha muttahamning ta’zini yaxshilab berib qo‘yishim kerak edi. Kim biladi, shunday qilsam, o‘sha to‘s-to‘polon, o‘sha bezorilik, o‘sha ur-yiqit, bir begunohga yetkazilgan og‘ir jarohat bo‘lmasmidi? Men, axir, uning buvisi tengida keksa xotin bo‘lsam-u, u meni oyog‘ining uchida ko‘rsatib, yosh bolani jerkigandek jerkib tashlasa-yu, yana men indamay o‘girilib ketaversam-a! Yo‘q, bu aybi uchun betiga shapati tortib yubormaganimda ham, hech bo‘lmasa, ikki og‘iz achchiq so‘z bilan esini joyiga tushirib qo‘yishim kerak edi. Men bo‘lsam, bekorga qonimni buzib o‘tiramanmi, deb tin-chimni o‘ylabman-u, bunaqa yaramasliklarning oqibatini o‘ylamabman. Holbuki, bular jamiyat tanasiga tushgan sassiq qurtlar ekanini, bu qurtlarni yo‘q qilib tashlash bizning muqaddas burchimiz ekanini dangal isbot qilishim kerak edi. Lekin men unday qilmadim. Yo erindim, yo o‘zimga ep ko‘rmadim. Mana endi, bo‘lar ish bo‘lib, to‘y azaga aylangandan keyin, bo‘shangligim, beparvoligim uchun etimni yeb, attang, deb o‘tiribman. Ana ko‘rdingizmi, To‘qsonboy ota, qilinishi kerak bo‘lgan ishni qilmay, keyin attang deb yuradigan boqibeg‘amlardan bit-tasi men bo‘lmasam kerak? A?

– Yo‘g‘-e, siz jo‘rttaga qilibsizmi, bonu?

– Baribir emasmi, otaxon? Jo‘rttaga qilganimda ham oqibat shu, bilmay qilib qo‘yganimda ham oqibat shu. Bundan chiqdi, hamma yerda, hamma vaqt hushyor bo‘lishimiz kerak ekan, shundoqmi?

– Shundoq, shundoq, bonu. E-e, hushyorlikning savobiga kim yetsin, bonujon-a!

– Menga qarang, To‘qsonboy ota, o‘nta samoviy mahovatdan, bitta zaminiy haqiqat yaxshi degan gap bor. Eshitgansiz-a? Yo‘q? Xo‘p bo‘pti, mana endi eshitdingiz. Biz ham shu gapga amal qilib, yigit burchi, yigit sha’ni to‘g‘risida musohabalar, mu-zokaralar, muhokamalar uyushtirsak, qalay bo‘larkan?

To‘qsonboy ota ho‘-ho‘lab kuldii.

– Ikkovimizning fikrimiz bir yerdan chiqib qolganini qarang-a! Tilimning uchida turgan gapni aytdingiz, bonu. Qor-

ningiz menikidan to‘qroq ekan. Bunisiga biz tayyor. Xo‘p, uyuşhtiraylik. Siz-ku qizlarni uyingizga to‘plab gaplashgan edingiz. Biz unday qilolmaymiz. Mahallamizda dang‘illama klubimiz bor. U yerda hamma narsa muhayyo. Men o‘zim, bilasiz, mahalla oqsoqoliman, nimaiki kerak bo‘lsa, hammasini yest qilamiz-da, bonujon.

– Ha, kam bo‘lmang, otaxon! Ko‘plashib puflashsa, tog‘ ag‘darilar emish. Mahallangizda tuzuk-tuzuk odamlar bor. Savob ishingizni ko‘rishgandan keyin tomoshabin bo‘lib o‘tirishmas, deyman?

– Yo‘g‘-e! Mahallamizda aqli odamlar ko‘p: professor deysizmi, doktor deysizmi, shoir deysizmi, ministr deysizmi, ishqilib, hammasidan bor-da. Bu yog‘idan kamchiligidiz yo‘q, bonu, ha!

Saodat buvi suyunib ketdi.

– Bo‘pti, boshlang bo‘lmasa!

To‘qsonboy otaning chehrasida yana qandaydir tixirlik alovati ko‘rindi. Ikkilanayotgansimon gap qildi:

– Boshlash-ku qochmaydi-ya, lekigin...

– Voy, yana nimaga «lekigin» deysiz, To‘qsonboy ota?! – deb yubordi kuyikib Saodat buvi. – Tevaragingizda shuncha dono-donishmand-da! Tavba! Qo‘ying, hadeb tisarilavermang, xunuk bo‘lar ekan.

– Yo‘q, bonu, tisarilayotganim yo‘q. Gap boshqa yoqda...

– Qayoqda?

– Meni bir narsa jichcha hayiqtirib turibdi. Saodat buvi istehzo aralash qilib kuldii.

– Nima ekan o‘sha... sizni hayiqtirgan olabo‘ji? Bilsak bo‘ladimi?

To‘qsonboy ota bir xo‘rsinib oldi. Keyin og‘ir-vazmin gap boshladi. Juda uzoqdan boshladi.

– Bonu deyman, yoshroq kezlarimizda yo biz gapimizni topib gapirardik yo bo‘lmasa u vaqtning odamlari hozirgilardaqa qilni qirq yorishni bilmas edi. Xullas, gapimiz o‘tar edi-da. Hozir-chi? Hay-hay-hay, birovni gapingizga mahliyo qilish uchun otning kallasidek kalla, ana o‘sha kalla to‘la aql kerak. Mana, kichik ne-

varam Omonilloni oling. Shu ham gohi mahallar og‘ziga qaratib qo‘yadi-da. Bunaqlar mahallamizda to‘lib yotibdi. Men bularga qanaqa gap topaman-u, qanaqa aql o‘rgataman? Mana shu yog‘ini o‘ylab, kavush qaytarib turibman, bonu.

Saodat buvi bu andishaga darhol o‘zining munosabatini ayta qolmadi. Bir necha daqiqo o‘ylanib o‘tirgandan keyin shunday dedi:

– To‘qsonboy ota, siz bilan biz hozirgi avlodni ehtimol, aqlimiz bilan qoyil qoldirolmasmiz. To‘g‘ri, ular maktab ko‘rishdi, ilm orttirishdi, lekin bu yerda tajriba degan narsa ham bor-ku. Turmush tajribasi. Bu kichkina ne’mat emas, To‘qsonboy ota! Hayot ikir-chikirlari chig‘irig‘idan o‘tish, meningcha, bitta universitetni bitirishdan kam bo‘lmasa kerak?

– O‘nta deyavering, bonu. O‘nta, – dedi Tursunboy ota, jonzanib.

– Ha, yashang, To‘qsonboy ota! Menga qolsa-ku, o‘nta desam ham oz-a! Shundoq bo‘lsin, otaxon, o‘zingizni bunchalik yerga urvormang, Ha! Qunt qilsangiz demayman-u, ahd qilsangiz, hali ham qo‘lingizdan ko‘p narsa keladi.

To‘qsonboy ota xursand kuldii.

– Rahmat, bonu. Ammo juda maqtab yubordingiz, havolanib ketmay tag‘in.

– Havolanmaysiz, otaxon. Siz bilan biz havolanish yoshidan o‘tganmiz. Xo‘s, shunday qilib, nima qarorga keldik, To‘qsonboy ota?

– Oqsoqol yana o‘ylanib ketdi. Bu gal chehrasida ish mashaqqatidan qochayotgan odam ijirg‘anishi yo‘q edi. U o‘ylab-o‘ylab shunday dedi:

– Mahallamizda an'anaga aylanib qolgan bir odat bor, bonu. Nazarimda, yaxshi odat. Ha, juda yaxshi odat. Shu deng, biron muhim masala chiqib qolsa, mahalla qo‘mitasining a’zolari, mahalla faollari jamuljam bo‘lib yig‘ilamiz-u, baqamti bo‘lib bir qarorga kelamiz. Yo qilamiz, yo qilmaymiz. Qilganda ham qanday qilamiz deng? Puxta qilamiz. Mendan o‘tguncha, egasiga yetguncha qabilida, o‘lda-jo‘lda qilmaymiz, ha! Mana shu odatimizning

mevasini ko‘p tatidik. Yaxshi, judayam yaxshi! Boya sizga ayt-dim: mahallamizda kazo-kazolar ko‘p, deb. Ana shu kazo-kazolarni yig‘ib, bir maslahatlashaylik-chi, ular nima deyishar ekan? A, nima deysiz, bonu? Shunday qilsak to‘g‘ri bo‘ladimi?

Saodat buvi charaqlab ketdi.

– Nima deyardik, to‘g‘ri bo‘ladi, deymiz-da! Axir, xalqimiz ham: «Kengashli ish – bag‘ri keng bo‘lur, bahosi ham tilloga teng bo‘lur», deydi-ku...

Nashriyotdan:

Ardoqli yozuvchimiz arxivida saqlanayotgan qo‘lyozma shu o‘rinda uzilgan. Og‘ir xastalik tufayli adib xayrli niyatlarini amalga oshirolmay qolganlar. Bu mavzuni yozuvchining jiyani va shogirdi Tohir Malik davom ettirib, avval «Kelinlar daftariqa» so‘ngroq esa «Kuyovbola, sizga aytar so‘zim bor» ma’rifiy risolalarini yozib, nashr ettirdi.

MUNDARIJA

Birinchi oqshom hikoyati	5
Ikkinchi oqshom hikoyati	14
Uchinchi oqshom hikoyati.....	26
To‘rtinchi oqshom hikoyati	43
Beshinchi oqshom hikoyati	60
Oltinchi oqshom hikoyati	74
Yettinchi oqshom hikoyati	89
Sakkizinchi oqshom hikoyati	104
To‘qqizinchi oqshom hikoyati	118
O’ninchı oqshom hikoyati	131
O’n birinchi oqshom hikoyati	143
Bunisi sizlarga, yigitlar.....	152

Adabiy-badiiy

MIRZAKALON ISMOILIY

«QIZLAR DAFTARIGA»

(O'n bir oqshom hikoyati)

«Ziyo nashr»
Mas'uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent – 2019

Muharrir	<i>M. Mirsolikhov</i>
Badiiy muharrir	<i>B. Ibrohimov</i>
Sahifalovchi	<i>M. Odilov</i>

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
22.04.2019 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$.
Offset qog'oz. «Times» garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 9,24. Nashriyot-hisob tabog'i 9,53.
Adadi 7000. Sharhnomha № 15–19.
Buyurtma raqami 395.

«Ziyo nashr» MChJ, Toshkent sh., Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print Group» MChJ
Kitob fabrikasida chop etildi
Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.
www.credoprint.uz

I 81 Ismoily, Mirzakalon.


Qizlar daftariga. [Matn]: o‘n bir oqshom hikoyati / M. Ismoily – T.: «Ziyo nashr» Mas’uliyati cheklangan jamiyat, 2019. – 176 b.

ISBN 978-9943-5705-2-8

**UO‘K: 821.512.133-3
KBK 84(SO‘)6**

«ZIYO NASHR»

ISBN 978-9943-57-052-8



9 789943 570528

